



**ORIENTAL UNIVERSITETI
TILLAR-1 KAFEDRASI**

**«YOSH ARABSHUNOSLAR
FORUMI»**

**TALABALAR ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI**

16-dekabr, 2025-yil

TOSHKENT-2025

Mas'ul muharrir:

Nasirova Malika – Oriental universiteti
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Ma'sul muharrir o'rinbosari:

Rahmatova Gavhar – Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası mudiri, dotsent

Tahrir hay'ati:

Yakubova Feruza – Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası katta
o'qituvchisi

Tadjiyeva Umida – Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası katta
o'qituvchisi

Chimpo'latova Sevara – Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası o'qituvchisi

Siddiqova Ma'mura – Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası stajyor
o'qituvchisi

Abdullayeva Shahnoza – Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası stajyor
o'qituvchisi

Nashrga tayyorlovchi:

Sotvoldiyev Sirojiddin – Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası v.b. dotsenti

Taqrizchilar:

Rustamiy Salima – Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası professori

Djurayeva Feruza – Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası dotsenti

YALPI MAJLIS

O‘ZBEK ARABSHUNOSLIGI: KECHA VA BUGUN

*Hojiakbarova Fazilatxon
“Oriental” universiteti,
filologiya va tillarni o‘qitish fakulteti
1-bosqich talabasi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilining o‘zbeklar hayotiga qanday kirib kelgani, rivojlanish tarixi va arabshunoslik sohasining O‘zbekistondagi hozirgi holatiga kelishi uchun xizmat qilgan shaxslar haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Arabshunoslik, o‘zbek arabshunosligining tarixiy bosqichlari, mustaqillikdan keyingi rivojlanish bosqichlari, hozirgi kunda yurtimizda arab tilining o‘rni.

O‘zbek arabshunosligi arab xalqlarining tili, adabiyoti, tarixi, madaniyati, diniy va ilmiy merosi bilan bog‘liq bo‘lgan keng ko‘lamli tadqiqot sohasidir. O‘zbekiston hududida arab tili VIII asrdan boshlab ilm-fan va diniy ta’limning asosiy tili sifatida shakllangan, mahalliy olimlar arab tilida yuksak ilmiy asarlar yaratgan. Ushbu maqolada o‘zbek arabshunosligining tarixiy ildizlari, SSSR davridagi ilmiy maktablari, mustaqillikdan keyingi rivojlanish jarayoni va bugungi zamonaviy holati tahlil qilinadi.

Eng avvalgi bosqichda arab istilosi (VIII-XII) turadi. Buni asosiy omil deyishimiz mumkin, chunki ulardan so‘ng deyarli 150 yil davomida Markaziy Osiyoda arablarning tili hukmron edi. Butun insonlarning hayoti shu til bilan bog‘liq bo‘lib ketdi va buyuk allomalarimiz ham shu tilda ijod qilishdi. Lekin bu bilan boshqa tillar chekkada qolib ketmadi. Boshqa millat vakillari o‘z madaniyatlari va tillarini rivojlantirib boraverdilar. [1] Arab tilining boshlang‘ich ildizi shu davr bo‘ldi desam adashmagan bo‘laman. Keyingi muhim bosqich esa Temuriylar davri (XIV-XV) hisoblanadi, chunki bu davrda ham ko‘plab ilmiy faoliyatlar olib borildi, aynan, arab tilida. Mantiq, balog‘at, lug‘at ilmlari Samarqand, Buxoro, Hirot shaharlarida chuqur o‘rganildi. Demak, bu davrda arab tilidan professional ilm sohalarida foydalanildi va chuqur kirildi. Bizga bu til juda ham yaqin bo‘la boshladi. Ammo SSSR davrida (1917-1991) o‘zbek arabshunosligining eng gullagan davrlaridan biri bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaqtda unga cheklovlar o‘rnatila boshlandi va turli omillar arab tilining muomalada kam foydalanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, SSSR vujudga kelganidan so‘ng O‘zbekiston va Tojikistonning O‘rta Osiyo arablari ko‘chmanchi turmush tarzidan voz kechishga majbur bo‘ldilar, ular o‘zbeklar, tojiklar va turkmanlar bilan aralasha boshladilar. 1959-yilgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo arablarining atigi 34 foizi arab tilida so‘zlashgan, qolganlari o‘zbek yoki tojik tillarini o‘z ona tillari deb atashgan. Keyinchalik esa madrasalar yopildi

faqatgina 1971-yilgacha butun SSSR musulmonlari uchun “Mir Arab” madrasasi faoliyat ko‘rsatardi. Shunday ekan, o‘zbek arabshunosligi qanday rivojlansin bu davrda degan savol paydo bo‘ladi. Lekin bizning faxrli ajdodlarimiz buni uddasidan chiqishdi. Masalan, o‘sha davrdagi O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasi boshqarmasining ma’sul kotibi Ziyovuddin Eshon Boboxon. Sovet hukumati diniy idora tomonidan chop etilgan jurnalga ham “sovet” so‘zini qo‘shishga majburlayotgan bir paytda Ziyovuddin Eshon Boboxon hazratlari Moskva bilan turli rasmiy va norasmiy muzokaralar olib borish natijasida Toshkentda yana bir oliy madrasa “Ma’had” ochishga muvaffaq bo‘ldilar. Bundan tashqari yashirin darslar ham tashkil etilib ularda arab tilining “Nahv va Sarf”, “Unvon”, “Balog‘at va Fasohat” arab adabiyoti, fiqh ilmlari, aqoid va turli xil arabshunoslik ilmining muhim darsliklari o‘rgatilindi. Endi esa hozirgi kunda shu hujralar o‘rnida madrasalar faoliyat yuritishmoqda. [2] Mustaqillik yillaridan keyingi yillarda esa turli xil filologiyaga mo‘jallangan institutlar tashkil etildi va ularda arab tili o‘zbek tili grammatika qoliplariga solinib, chuqur o‘rgatila boshlandi. Bunga misol qilib, ayniqsa “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”ni olsak bo‘ladi. Bu universitet 1981-yil noyabr oyida tashkil etilgan bo‘lsa-da, lekin 1991-yil 15-iyuldagina birinchi prezident I.A. Karimov farmoni bilan “Toshkent davlat sharqshunoslik” institutiga aylandi. [3] Bundan tashqari “O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi”, “O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti”lari mavjud. Hozirda esa xususiy universitetlarda ham bu soha bo‘yicha yo‘nalishlar bor. Jumladan: “Oriental”, “Yangi asr”, “Alfraganus” universitetlari. Hatto hozirgi kunda yurtimizda o‘tkazilinayotgan diplomatik va xalqaro munosabatlarda ham insonlar arab tiliga muhtoj bo‘lishyapti.

Biror bir tilning mutaxassisi bo‘lish va uni o‘z yurtida insonlarning o‘rganishi uchun oson qilish naqadar mushkul ish. Bizning yurtimizda shunday insonlar borki, o‘z hayotlarini shu sohaga tikib yuborishgan. Ularni keltirib o‘tsam: Ne‘matullo Ibrohimov-o‘rta asrlar arab adabiyoti, islomshunoslik, manbashunoslik, arab tilshunosligi va folklori bo‘yicha 150 dan ortiq kitoblar, monografiyalar va ilmiy maqolalar muallifi. Bir qancha Xalqaro ilmiy konferensiyalar ishtirokchisi. O‘zbekiston faxriy elchisi unvoniga sazovor bo‘lgan va hatto O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 2 marta deputat bo‘lib saylangan shaxs [4]. Ularning o‘zbek arabshunosligiga qo‘shgan hissalarini so‘zlar bilan ifodalab bo‘lmaydi. Hozirgi kunda Oliy o‘quv yurtlarida ularning arab tili grammatikasi bo‘yicha yozgan kitoblaridan talabalarga ta’lim beriladi. Eminjon Talabov sharqshunos-filolog-arabshunos, filologiya fanlari doktori, professor, mumtoz va hozirgi zamon adabiyoti yo‘nalishida o‘z ilmiy ishlari bilan katta hissa qo‘shgan inson. Badiiy tarjima sohasida esa ikkita roman hamda yigirmadan oshiq hikoyalarni

tarjima qilgan va nashr ettirgan[5]. Yana bir qancha mashhur va o‘z ilmiy faoliyatlari bilan katta hissa qo‘shganlar bor, ammo, ularni bariga to‘xtalib bo‘lmaydi. O‘zbek arabshunosligi shu darajada uzoq yillik, tarixiy va ko‘plab qiyin yo‘llarni bosib o‘tdi, biroq o‘z mavqeyini yo‘qotmadi. Hozirgi kunda “zamonaviy arab tili” sohasi paydo bo‘ldi. Yurtimizda arab tili bo‘yicha CEFR va “At-Tanal al-arobiy” imtihonlari ham mavjud. Bu imtihonlar orqali yoshlar juda katta imkoniyatlarga ega bo‘lishyapti, jahoning turli nufuzli universitetlarida arab tili yo‘nalishida o‘qib kelishmoqda. Bu bilan aytmoqchiman-ki, faqatgina o‘zbek arabshunosligining tarixi bilan cheklanib qolmaylik. Ajdodlarimiz qanchalik hissa qo‘shishga harakat qilishgan bo‘lsa, biz undan ham ko‘piga harakat qilishimiz lozim, chunki bizda sharoit va imkoniyatlar juda ham ko‘p. O‘zbekiston arabshunoslik sohasida azaldan katta yutuqlarga erishgan, bu esa shunchaki tarix bo‘lib qolishi kerak emas. Balki doim shu o‘z o‘rnini, mavqeyini saqlab qolishi va dunyoda o‘zbek arabshunoslari o‘z mahoratlarini keyin ham namoyon qila olishlari kerak xuddi Mahmud Az-Zamaxshariy[6] bobolari arab bo‘lmagan xalqlarga va shu bilan birga arablarning o‘zlariga ham arab tilidan ta’lim berib qo‘ygani kabi!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Р.Ш. Джарылгасинова, Л. С Толстова 1980.[1]
2. ТII 4-kurs talabasi Nuruddinov Asadulloh maqolasidan.[2]
3. <https://tsuos.uz/institut-tarixi/> [3]
4. O‘zbekiston sharqshunoslari bibliografiyasi 2021 [4]
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Eminjon_Talabov [5]
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Az-Zamaxshariy> [6]

ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDA RANG-TUS LEKSEMALARINING LINGVOMADANIY TADQIQI

*Ravshanova Risolat,
Oriental universiteti Filologiya fakulteti
arab tili yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent N.Ahmedova*

Annotatsiya. Maqolada arab va o‘zbek tillarida rang-tus leksemalari lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan. Ranglarning til va madaniyatdagi ahamiyati, ularning semantik xususiyatlari, shuningdek, bu ranglarning madaniy va falsafiy ma’nolari o‘rganilgan. Arab va o‘zbek tillaridagi asosiy rang nomlari, ularning konnotatsiyalari va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Ranglar va ularning ramziy ma’nolarini o‘rganish orqali har ikki xalqning madaniy merosi va dunyoqarashi tavsif

qilindi. Arab va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlar atroflicha aniqlandi.

Kalit so‘zlar: lexemes denoting color, color names, linguocultural analysis, symbolic meaning of colors, language and culture, semantics of colors.

Annotation. This article is dedicated to the comparative analysis of color terms in Arabic and Uzbek languages. The article examines the significance of colors in language and culture, their semantic characteristics, and the cultural and philosophical meanings associated with these colors. The main color terms in Arabic and Uzbek, their connotations, and cultural significance are analyzed. Through the study of colors and their symbolic meanings, the article aims to reflect the cultural heritage and worldview of both peoples. Similarities and differences between color terms in Arabic and Uzbek languages, as well as the lexical-grammatical features of color expressions, are emphasized.

Keywords: color terms, color names, semantic analysis, cultural significance, symbolic meaning of colors, language and culture, semantics of colors, comparative analysis, lexical features, grammatical analysis.

Til madaniyat tashuvchisi bo‘lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Til madaniyatning quroli, vositasi sanalib, xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi. Demak, til va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, til birliklari o‘zida madaniyatni aks ettiradi. Rang-tus bildiruvchi leksemalar har bir tilning lingvistik va madaniy merosini aks ettiradi. Ranglar tilda xalqning hayot tarzini, madaniyatini, an‘analarini va falsafiy qarashlarini ham ifodalaydi. Arab va o‘zbek tillaridagi rang nomlarini o‘rganish hamda ularning mazmun-mohiyatini tushunish madaniy o‘ziga xosliklarni anglashga yordam beradi. Ushbu maqolada biz arab va o‘zbek tillarida ishlatiladigan rang-tus bildiruvchilarni tahlil qilib, ularning o‘xshashlik va farqlari, semantik xususiyatlari hamda madaniy ahamiyatini ko‘rib chiqamiz .

Ranglar qadimiy davrlardan beri turli xalqlarning til va madaniyatida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Shuningdek, tarixiy sharoitlar, iqlim va geografik joylashuv ham rang nomlarining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, ranglarning tilda qanday ishlatilishi va madaniy kontekstda qanday ma‘no kasb etishi har bir xalqning o‘ziga xos dunyoqarashini aks ettiradi.

Arab va o‘zbek tillarida ishlatiladigan asosiy rang nomlari quyidagilardir:

أبيض (abyad) – arab tilida oq rangini bildiradi va u arablarda poklik, tinchlik va nur ramzidir. Islom dinida oq rang poklik va jannat ramzi sifatida muhim o‘rinni egallaydi. O‘zbek tilida ham xuddi shunday: oq - poklik, tinchlik va quvonch ramzidir. Masalan, oqlik, oq o‘rar, ona sutidek oq, oq ot yoki kelinlarning oq libos kiyishlari.

Oq rang tushayotgan yorug‘lik oqimini to‘liq aks ettiradi va yutib, shu darajada qaytaradi. Shu bois cho‘llarda badaviylar oq kiyim kiyishadi. Ibn Mandzur (1232–1311) tuzgan “Lison al-Arab” (“Arablar tili”) lug‘atida eng ko‘p ishlatiladigan ranglar so‘zlari izohlab berilgan.

أسود (aswad) – arab tilida qora rangni ifodaydi va bu rang qorong‘ulik va kuch ramzidir. Arab madaniyatida qora rang kuchli va mustahkam shaxsni ifodalash uchun ham ishlatiladi. O‘zbek tilida ham qora rang qorong‘ilik, kuch, ba’zida motam ramzi. Alisher Navoiy ijodida qora rang ham o‘z o‘rniga ega. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulning “Yana qora rang talqini haqida” maqolasida keltirilishicha, Navoiy asarlarida “qora” buyuklik, ulug‘lik ma’nolarini bildirgan.

Filologning ta’kidlashicha, oq rang umumiy yaxshilik va hayotiy zarurat g‘oyasini aks ettiradi. Qora rang esa qorong‘ilik va maksimal salbiylikni ifodalaydi. Misrlilar hasadgo‘y va qo‘rqoqlarga “Qalbuhu asvad” (“Yuragi qora”) deb aytishadi, ochiqko‘ngil, yaxshi odamga esa “Qalbuhu abyad” (“Yuragi oq”) deyishadi. Oq rang yorqinlik, tozalik, poklik ma’nosini anglatadi. Biroq arab mamlakatlarida oq rang ajrashgan ayollar uchun motam rangi hisoblanadi. Oq rang boshqa barcha ranglarni yutib, ularni neytrallashtiradi va bo‘shliq, tana yo‘qligi, muzdek sukunat bilan bog‘lanadi, oxir-oqibat o‘limni anglatadi. Shuningdek, arablarda “ko‘zning qorasi” sevgilisini anglatadi, “yurakning qorasi” esa muhabbatni bildiradi. Ayol erkakning qovurg‘asidan yaratilgan deb hisoblangani uchun u erkakning soyasi deb qaraladi. Shuning uchun, Saudiya Arabistoni kabi mamlakatlarda ayollar to‘liq qora libos kiyishadi.

أحمر (ahmar) - qizil rang. Arablarda olov va jasorat ramzi. Shuningdek, u muhabbat va hayot bilan ham bog‘liqdir. Yaqin Sharqda boshqa madaniyatlar singari sevgi bilan bog‘lanadi. Shu bilan birga, ehtiyotkorlik yoki g‘azabni ham ifodalaydi. O‘zbek tilida esa qizil yorqinlik va hayot, shuningdek, energiya ramzi hisoblanadi. Xususan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida qizil rangga bo‘lgan alohida munbosabatni kuzatish mumkin. “Qizil” faqatgina go‘zallik emas, Sharq madaniyatida quyosh ramzi hamdir. Bu hodisani yapon, koreys, xitoy mifologiyasi va adabiyotida ham kuzatish mumkin.

أخضر (akhḍar) - yashil rang. Arab olamida hayot, tabiat va din ramzi. Yashil rang Islom olamida muhim o‘rinni egallaydi, chunki u jannat va poklikni ifodalaydi. Ko‘pchilik arablar bu rangni uyg‘unlik va ma’naviyat bilan bog‘lashadi. Yashil rang bir qancha davlatlar bayroqlarida Islom ramzi sifatida ishlatiladi. Bular Afg‘oniston, Jazoir, Eron, Pokiston, Saudiya Arabistoni va Shri-Lanka. Yashil rang boy tabiatni, hayotni, dam olishni, vohani ifodalaydi. Yashil rangdagi toshlar hayotiy bardoshlik, farovonlik, baxt va ishdagi muvaffaqiyatni olib keladi deyishadi. Aynan yashil

toshlardan yasalgan zeb-ziynatlar musulmonlar orasida eng mashhur va talabgir hisoblanadi. Musulmon lirigi Amir Xusrav Dehlaviy o‘zining “Sakkiz jannat bog‘i” nomli asarida bu rangni kuylagan. O‘zbek tilida esa yashil - tabiat, o‘sh va yangilanish ramzidir. Yashillik xalqimizda bahor, uyg‘onish, harakat, ezgulik bilan aloqador holda tasavvur etiladi. Hatto kishilarga uzoq umr, tiriklik baxsh etadigan Xizr ham yashil kiyimda tasavvur etilishi yaxshi ma’lum. Ammo yashilning yana bir mifologik ma’nosi bo‘lib, u narigi dunyo bilan bog‘lanadi.

Arab tilida **أصفر**(asfar)- sariq rangni ifodalaydi va arab madaniyatida quyosh, yorug‘lik, boylik, ba’zan xavf va ehtiyotkorlikni bildiradi. O‘zbek tilida esa sariq rang kuz, boylik, farovonlik va ba’zan sog‘inchni ifodalaydi. Qadimdan ota-bobolarimiz sariq rangni sariq kasalga davo deb hisoblab kelishgan. Shuning uchun bemorga sariq libos kiydirishgan va bemor yotgan xonani sariq rangli buyumlar bilan jihozlashgan. Payg‘ambarimiz Muhammad (S.A.V) ham kasal ko‘rgani borganlarida sariq salla o‘rab borganlar. Chunki sariq rang – quyosh nuri, iliqlik, ko‘tarinki ruh ramzi. Biroq Navoiyning lirik qahramoniga sariq rang shifo bermaydi, aksincha, ma’shuqaning sariq to‘ni uning dardini yanada avj olishiga sabab bo‘ladi. Ayriliqdan alamli qon yoshlari to‘ka-to‘ka lirik qahramon xastalanib, yuzlari sarg‘aya boradi.[O‘tanova, 2006, 51]

أزرق(azraq) - ko‘k rang. Arablarda osmon va dengiz bilan bog‘liq ramziy ma’no bildiradi. Bizning yurtda esa ko‘k rang - tinchlik, osmon va ba’zida muqaddaslik ramzi. Arab tilida binafsharang **“بِنَفْسَجِي”** (banafsaji) so‘zi bilan ifodalanadi. Arab tilida binafsharang odatda chuqur, boy ma’no anglatadi va ko‘pincha hashamat, boylik va jozibadorlik bilan bog‘lanadi. O‘zbek madaniyatida ham bu rang joziba, hashamat va ruhiy chuqurlikni aks ettiradi. Pushti rang arab tilida **وردِي** (vardi) deb yoziladi. Arab madaniyatida pushti rang, asosan, iliqlik, ayollik va ijobiy tuyg‘ular bilan bog‘liq. O‘zbeklarda esa iliqlik, samimiyat va quvonchni ifodalaydi.

Kulrang arab tilida — **رمادي** (ramadi) tarzida ifodalanadi va u sirlilikni, ruhiy xotirjamlik va tinchlikni ifodalaydi. Kulrang arablar uchun baxtsizlik va yomonlikning ramzi bo‘lsa, jigarrang yemirilish, qarilik va ruhiy tanazzul, zodagonlikdan uzoqlik ramzi hisoblangan. O‘zbek tilida ham kulrang tinchlik, sirlilik va xotirjamlikni ifodalaydi.

Kushush rang — **كحلي** (kahli) tarzida arab tilida yoziladi va kuch, boylik va hashamatni anglatadi. o‘zbek madaniyatida ham huddi shunday, kushush rang kuch, boylik va hashamatni bildiradi. Bu rang odatda aristokratik maqom va kattalikni anglatadi.

Arab tilida rangning to‘yinganligi va yorqinligi quyidagi so‘zlar yordamida ifodalanadi: **ساطع** (Sāti‘) - yorqin rang. Bu so‘z rangning juda yorqin va ko‘zga

tashlanadigan ekanligini bildiradi. Masalan, أصفر ساطع (aşfar sāti') - yorqin sariq. باهت (bāhit) kalimasi esa xira rangni, rangning kamroq to'yingan, xiralashgan yoki biroz oqarganligini bildiradi. O'zbek tilida esa ranglarning xira yoki yorqinligini ifodalovchi maxsus bir kalima mavjud emas. Arab tilida (ألوان دافئة وباردة) (alwān dāfi'a) - issiq ranglarga: qizil, to'q sariq, va sariq kabi ranglar kiradi. Sovuq ranglarga esa ألوان باردة (alwān bārīda) ko'k, yashil, va binafsha kabi ranglar kiradi. O'zbek tilida ham xuddi shunday issiq ranglarga qizil, to'q sariq, sariq kabi ranglar kiradi va ular issiqlik va energiyani bildiradi. Sovuq ranglarga esa ko'k, yashil, binafsha kabi ranglar kiradi va ular tinchlik va sokinlik hissini uyg'otadi. Ko'rinib turibiki, Arab va o'zbek tillarida rang nomlari ko'p jihatdan o'xshash, ayniqsa ranglarning ramziy ma'nolarida buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Lekin ba'zi ranglarning madaniy konnotatsiyalari farq qilishi mumkin.

Arab va o'zbek tillarida ranglarning semantikasi ularning madaniy konteksti bilan chambarchas bog'liq. Arab dunyosida ayollar va erkaklar kiyinishidagi rang tanlash an'analari iqlim, madaniy urf-odatlar va diniy omillar bilan bog'liq. Masalan, arab mintaqalarida havo juda issiq bo'lgani uchun erkaklar ko'pincha oq rangli kiyimlar kiyishadi. Oq rang issiqlikni qaytaradi va kunning issiq paytlarida tanani salqin saqlashga yordam beradi. Erkaklar kiyadigan oq dishdasha (yoki thobe) kiyimlari havo aylanishini yaxshilaydi va qulaylik yaratadi. Ayollar esa ko'pincha qora rangli abaya kiyishadi. Qora rang iffat va kamtarlik ramzi hisoblanadi va ko'pchilik ayollar uchun an'ana bo'lib qolgan. Shuningdek, qora rang kamroq e'tiborni tortadi, bu esa ayrim madaniyatlarda ayollarning kamtarona bo'lishiga mos keladi. Arab mamlakatlarida beva ayollarning liboslari ko'k rangda bo'ladi. Qizig'i shundaki, arablar orasida ko'k ko'zlar yomon odamlarning belgisi sifatida qaraladi. Bu xiyonat va hiyla belgisi deb qabul qilinadi. Tarixiy jihatdan arablarning asosiy dushmanlari "ko'kko'zlar" bo'lgan. Masalan, "al-Munjid" lug'atida "al-aduvv al-azraq" iborasi (so'zma-so'z: "ko'k dushman") uchraydi va u shunday izohlanadi: "Ashaddiy dushman, chunki arablar Vizantiyaliklar bilan urishgan, ularning ko'pchiligi ko'kko'z bo'lgan". Ko'k rang tabiatan qora rangga yaqin va o'xshash ma'nolarga ega. Qadimgi Misrda ko'k rang motam rangi bo'lgan. Hozirgi misrliklar uchun ham ko'k va qora ranglar asosan salbiy ma'noga ega. Misrliklar "naxaruk asvad" yoki "azraq" ("Kunlaring qora yoki ko'k bo'lsin!") deya la'nat qilishadi, yaxshilik tilashda esa "naxaruk abyad" ("Kunlaring oq bo'lsin!") deya duo qilishadi. B'azi manbalarda, moviy va binafsha ranglar (soyalar ranglari),— mistik kuzatuv va ilohiy mohiyatga yaqinlik ranglari deyiladi. Moviy forslar va turklar milliy rangi hisoblangan, ular bu rang ko'z tegishidan himoya qiladi va ravnaq keltiradi deb hisoblashgan. Islomning rangi bo'lgan moviy (yoki och moviy) eng ifodali ranglardan biri bo'lib, u "yulduzlarni

o‘z joyida ushlab turgan moddiy osmonlar rangi” deb ataladi. Musulmon masjidlarining ko‘k gumbazlari va ichki bezaklari ilohiy ranglar bo‘lib, ular qalbni tinchlantiradi va mo‘minning Allohga xizmat qilish istagini oshiradi deyishadi. Arablar orasida sevimli rang qizil bo‘lib, u ayollar, bolalar va quvonchning rangi edi. Qizil rang farovonlik va hashamatni ifodalaydi, sariq esa oltin rang bilan bog‘liq bo‘lib, u qadimdan “muzlagan quyosh rangi” deb qabul qilingan. Sariq issiqlik va yorqinlikni, shuningdek, quyosh nuri haddan tashqari ta’siridan qurg‘oqchilik va suvsizlikni ifodalashi mumkin. Bu rang muqaddas, sehrli va katta “hayotiy kuch”ga ega deb hisoblangan. Shu sababli, qizil rangdagi qimmatbaho toshlar, masalan, yoqut va boshqalar juda qadrlangan. Ular egasiga kuch, energiya va qo‘rqmaslik berishi mumkin deb ishonilgan. Kiyimlar borasida esa, musulmon erkaklarga qizil libos kiyish odatda taqiqlangan. Lekin bayramlarda qizil rang ishlatiladi. Masalan, to‘y kuni kelinning otasi albatta qizil kamar taqadi, kelin esa (so‘nggi “yevropalashtirish”dan oldingi davrlarda) to‘q sariq-qizil liboslar kiygan. Arab kiyimlarida qizil rang haqida allaqachon so‘z yuritilgan, ammo shunga qaramay, ko‘plab musulmonlar “Qizil rangdagi kiyimni kiyish mumkinmi va uning taqiqi bormi?” degan savolni o‘zlariga berishadi. Qizil rangdagi kiyim kiyish haqida olimlar o‘rtasida yagona fikr yo‘q. Imom Badruddin al-‘Ayniy “Umdatul-Qori” asarida bu borada yettita, Hafiz Ibn Hajar “Fat’hul-Bari” asarida sakkizta fikrni keltirgan. Umuman, bu fikrlarning barchasini uchta asosiy nuqtaga jamlash mumkin:

1. Qizil rangdagi kiyim kiyish makruh;
2. Qizil rangdagi kiyim kiyish mumkin, ammo unda boshqa ranglar ham bo‘lishi, ya’ni to‘liq qizil bo‘lmasligi kerak;
3. Qizil rangdagi kiyimni hech qanday cheklov va shartlarsiz kiyish mumkin., Qur’on va Sunnaga murojaat qilsak, qizil rangdagi kiyim kiyishga taqiq borligi haqida ishonchli ko‘rsatma topa olmaymiz. Shariatda kiyim rangi bo‘yicha yagona taqiq “al-mu’asfar” — safron rangi, ya’ni yorqin sariq yoki to‘q sariq rangga nisbatan mavjuddir. Shu bilan birga, ranglarning diniy, siyosiy va estetik ramziyati ham muhimdir. Masalan, arab madaniyatida yashil va oq rang diniy ma’noda muhimroq, chunki bu ikki rang jannat va poklik belgisidir. O‘zbek madaniyatida esa ko‘k rang muhimroq ahamiyatga ega. Chunki u – tinchlik va osoyishtalik ramzidir. Ba’zi arab davlatlari bayroqlarida oq, qora, yashil va qizil ranglar uyg‘unlashgan. Bu to‘rt rangni panarab ranglari ألوان الوحدة العربية deb atashadi. Misollar: Iroq, Suriya, Iordaniya, Quvayt va Falastin bayroqlari .

Panarab ranglari 1916-yilda Usmoniy imperiyasiga qarshi arab qo‘zg‘olonining bayrog‘ida ishlatilgan. To‘rt rang o‘z ramziy ma’nosini iroqlik shoir Sofiy ad-Din al-Hilli (صفي الدين الحلبي) ning she’ridan olgan: «Bizning amallarimiz oq, janglarimiz qora,

dalalarimiz yashil va qilichlarimiz qizil.»Bu ranglar arab davlatlariga qarab alohida ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, Livan bayrog'ida qizil rang Usmoniy imperiyasiga qarshi kurashgan shahidlarning qonini anglatadi. Iordaniya bayrog'ida esa bu rang Hokimlar sulolasi (الاشميين)ning ramzidir. Shuningdek, ranglarning ohang va turli xil tiniqlik darajalarini tasvirlashda til grammatikasi va morfologiyasi farqlanadi.

Tilshunoslikda ranglarning ramziy mazmunini o'rganish katta ahamiyatga ega. O'zbek tilida ranglar turli kontekstlarda qo'llanilib, o'xshatishlar va ma'nolar orqali ramziy anglashuvlarni yaratadi. Masalan, oq yo'l - kishi yo'lga chiqqanda, unga omad, xavfsizlik va sog'lik tilash ma'nosida ishlatiladi. Qora kun - qiyin, og'ir kunlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Yashil chiroq - harakatga ruxsat yoki imkoniyat ochilganini anglatadi, masalan, "biznesda yashil chiroq yonibdi" deganda. Qizil chiroq - to'xtash yoki cheklov mavjudligini bildiradi, ko'pincha xavf yoki ehtiyotkorlik haqida ogohlantirish ma'nosida ishlatiladi. Oq ko'ngil – bu ibora insonning pokiza, samimiy va toza niyatlarini ifodalaydi. "U juda oq ko'ngil odam" deganda mehribon va halol inson nazarda tutiladi. Qora yurak – yomon yoki adolatsiz insonlarga nisbatan qo'llaniladi, masalan, "Bu odam qora yurak ekan". Qora qozon qaynatish – bu ibora oddiy kundalik tirikchilikni, oilani boqish uchun mehnat qilishni anglatadi. Sariq yuz – sariq rang ba'zan kasallik yoki charchoqni ifodalaydi. "Uning yuzi sariq edi" – bu kasal yoki charchaganini ifodalaydi. Moviy tushlar – Orzu-havas va xayollarni ifodalaydi. "Uning moviy tushlari bor edi" deganda, katta orzular nazarda tutiladi. Kulrang hayot – bu ibora zerikarli, qiziqarsiz hayotni ifodalaydi. "Uning hayoti kulrang edi" deganda hayotda zavq yo'qligi nazarda tutiladi. Bu kabi ranglar turli xil his-tuyg'ular va vaziyatlarni ifodalashda qo'llanilib, o'zbek tilini yanada boyitadi va xalq orasida turli ko'rinishlarda ishlatiladi.

Arab tilida ham ranglarga asoslangan iboralar ko'p bo'lib, ular turli ma'nolar va his-tuyg'ularni ifodalashda ishlatiladi. Masalan: Bayda' al-safha (بيضاء الصفحة) – "Oq sahifa" degan ma'noni anglatadi va poklik yoki yaxshi obro'ni bildiradi. Bu ibora halol yoki begunoh odam haqida ishlatiladi. Yavm aswad (يوم أسود) – "Qora kun" degani va juda yomon yoki qayg'uli kunni anglatadi. Bu ibora og'ir va qayg'uli vaziyatlarda ishlatiladi. Al-qalb al-akhḍar (القلب الأخضر) – "Yashil yurak" degan ma'noni anglatadi va yosh yoki umidga to'la, hayotga mehrlı odamni ifodalaydi. Al-vaḥḥājah al-ḥamrā' (الوهجة الحمراء) – "Qizil ogohlantirish" yoki xavf mavjudligini bildiruvchi belgi sifatida qo'llaniladi. Bu ibora qizil chiroqqa o'xshab ogohlantirish va ehtiyot bo'lish zarurligini anglatadi. Ra's al-ḍarb al-azraq (رأس الضرب الأزرق) – "Ko'k zarba" ma'nosini anglatadi va kutilmagan yoki og'ir zarbani ifodalaydi. As-safḥa as-sawdā' (الصفحة السوداء) – "Qora sahifa" deb atalib, inson hayotidagi yomon davr yoki fojiali

voqealarni ifodalaydi. Yavm al-akhdar (يوم الأخضر) – “Yashil kun” deb, hayotdagi umidli, yaxshilik keltiradigan davr yoki kunni ifodalaydi. Al-ghayrah al-ḥamrā’ (الغيرة الحمراء) – “Qizil rashk” yoki kuchli hasadni anglatadi. Qizil rang bu yerda rashk va his-hayajonni kuchli ifodalash uchun ishlatiladi. Arab tilidagi bunday iboralar turli ranglar orqali chuqur ma’nolarni ifodalaydi va ko‘pincha his-tuyg‘ularni yanada ta’sirli ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ranglar olamning lisoniy manzaralarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi, zero, turli lingvomadaniy jamoalarda har bir rang ma’lum assotsatsiyalar, u yoki bu rangga oid rangga oid tasavvurlar mavjud deb hisoblanadi. Ranglar va ularning ramziy ma’no-mohiyatidan bahs yuritish oson emas, albatta. Chunki ranglar u yoki bu xalqning uni qurshab turgan olam, adabiyot va san’atga doir qadimiy qarashlari bilangina emas, balki kosmogonik, mifologik, diniy-ilohiy tushuncha va tasavvurlari bilan ham bog‘lanib ketgan. Shuningdek, odamlarning dunyoqarashi, yashash sharoitlari, diniy hayot yo‘llarining o‘zgarishi bilan ranglarga munosabat, rangdan ko‘zlangan maqsadlar ham o‘zgarib, ba’zan butunlay yangilanib borgan. madaniyatlararo munosabatlarda ranglarning ahamiyati katta bo‘lib, turlicha farqlarga ega. Bir madaniyatdagi rangning lingvokulturologik ma’nosi boshqa madaniyatda umuman boshqa ramziy ma’noni ifodalaydi. Har bir rang har bir millat madaniyatida o‘ziga xos lingvokulturologik xususiyatga ega. Masalan, birgina aza marosimida yevropaliklar qora, osiyoliklar ba’zan yashil, ba’zan ko‘k, xitoy, yapon va koreys madaniyatlarida esa oq rangli kiyimlar kiyishadi. Mana shuning o‘zida madaniyatlardagi farqlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu farqlar biror millatning tarixidan, urf-odatlaridan, milliy mentalitetidan va boshqa ko‘pgina sabablaridan kelib chiqadi. Arab va o‘zbek tillarida rang-tus bildiruvchi leksemalar har ikki tilning leksikasida muhim o‘rin egallaydi va madaniy jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Bu tillar o‘rtasidagi rang nomlarining tahlili ranglar orqali madaniy meros va milliy o‘ziga xosliklarni aks ettirishini ko‘rsatadi. Rang nomlari faqatgina lingvistik birlik bo‘lib qolmasdan, xalqning tarixi, falsafasi va estetik qarashlarini ham ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. (2009). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent.
2. Ibrohimov N. (2009) Arab tili grammatikasi. Namangan.
3. Hasanov M. (2019) Arab tili. Toshkent.
4. Astanova G. (2023) Arab tilidan boshlang‘ich kurs. Buxoro.
5. O‘tanova S. (2006) Alisher Navoiy lirikasida sariq rang semantikasi. O‘zbek tili va adabiyoti, 5, 50-52.

البحث العلمي في توجيه نصب الفعل المضارع بين علماء النحو

الباحثة: صاحبة مير طاهيروفا
طالبة جامعة الاورينتال، كلية اللغة العربية
الصف الثالث، المجموعة 306
المشرف العلمي: فيروزة يعقوبوفا

الملخص: تهدف هذه الدراسة لإظهار على عظمة اللغة العربية، من خلال البحث عن العوامل النصب المؤثرة في الفعل المضارع بالإضافة إلى تقسيم الأدوات من حيث أنها ناصبة للفعل المضارع و غير ناصبة و تنصب الفعل بعدها بإضمار أن، و تعتمد هذه الدراسة المنهج الوصفي التحليلي و المقارنة، و تقام بجمع أقوال النحاة منهم ابن مالك، و ابن جني، و ابن هشام و كذلك يوضح اختلاف علماء الكوفيين والبصريين تحله و تقارن بين هذه الأقوال و تقام بالتعليق و الترجيح.
الكلمات المفتاحية: نحو، أدوات النصب، الفعل المضارع، البصريون، الكوفيون، شاهد، خلاف النحاة، مضمر، أدوات الجود، تأكيد .

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot arab tilining ulug‘vorligini ko‘rsatishni maqsad qilgan bo‘lib, muzori’ fe’lga ta’sir qiluvchi nasb omillarini o‘rganadi. Shuningdek, bu vositalar fe’lni bevosita nasb qilishi yoki fe’ldan keyin yashirin “أن” (an) bilan nasb qilishi nuqtayi nazaridan tasniflanadi. Tadqiqot tavsifiy-tahliliy va qiyosiy uslubga asoslanib, Ibn Molik, Ibn Jinniy, Ibn Hishom kabi nahv olimlarining qarashlarini jamlaydi, kufalik va basralik olimlar o‘rtasidagi ixtiloflarni tahlil qiladi va ularni o‘zaro solishtiradi. Yakunda turli fikrlar sharhlanadi va ulardan afzali tanlab olinadi.

Kalit so‘zlar: nahv, nasb qiluvchi vositalar, muzori’ fe’l, basraliklar, kufaliklar, shohid, nahvchilarning ixtilofi, mudmar, juhud harfi, ta’kid.

يعدّ باب نصب الفعل المضارع من أدقّ أبواب النحو العربي وأعمقها بحثاً؛ لما يتضمّنه من تداخلٍ بين الدلالة والمعنى والعامل النحوي، وما يترتّب عليه من آثارٍ في فهم التراكيب العربية على نحوٍ صحيح. كما أن الفعل المضارع في العربية يرتبط بمعاني الاستقبال والاحتمال والرجاء والطلب، وهذه المعاني لا تستقيم إلا بضبط أحكام النصب والرفع والجزم فيه، ومعرفة ما يؤثر فيه من الحروف الداخلة عليه. ولذلك فإنّ وظيفة كلّ حرف، يمثل أساساً لفهم هذا الباب فهماً دقيقاً. وقد اتسع كلام النحاة قديماً وحديثاً حول الأدوات التي تنصب الفعل المضارع، وحقيقة عملها، وهل يكون النصب بها نفسها أم يكون بأن مضمره بعدها، وهو موضع الخلاف المشهور بين المدرستين البصرية والكوفيّة. تسعى هذه المقالة إلى بيان اختلاف النحاة فيها، مع الاستشهاد بالنصوص العربية و الأبيات الشعرية وأقوال الأئمة، وبهذا ثمّهد هذه المقدمة لعرض تفصيلي مرتّب لبقية مباحث المقالة، وتُظهر أهمية الموضوع وموقعه من علم النحو، وتبرز أثره في فهم النصوص العربية فهماً سليماً يعتمد على أصول العلم وقواعده.

الأول: (لن) حرف يفيد النفي و الاستقبال بالاتفاق نحو: " لن يكتب"، ولا يقتضي تأييدا خلافا للزمخشري في أنموذجه، ولا تأكيدا، خلافا له في كشافه، بل قولك: "لن أقوم" محتمل لأن تريد بذلك أنك لا تقوم أبدا، و أنك لا تقوم في بعض أزمنة المستقبل، و هو موافق لقولك: "لا أقوم" في عدم إفادة التأكيد .

يتعين من ذلك أن ابن هشام يخالف الزمخشري في معنى (لن) و يبين معناها محتمل للوجهين - التأييد و الزمن محدد. و كذلك النحاة يتفقون أنها حرف بالإجماع، في قول الخليل هي مركبة من (لا) النافية و (أن) الناصبة، وفي قول الفراء أن نونها مبدلة من ألف أن أصلها (لا) وهي دالة على نفي المستقبل، و يرد ابن هشام ذلك القول و يبين أنها بسيطة و عاملة النصب دائما.

الثاني: (كي) المصدرية، اختلاف العلماء في أن (كي) هل هي مصدرية دائما أو قد تكون تعليلية .
مذهب جمهور علماء كوفيين: يرون أنها لا تكون إلا حرفا مصدريا تنصب الفعل المضارع بنفسها. و قول العرب : كَيْمَةً . كما يقولون : لِمَهُ . وقد أجاب الكوفيون عن ذلك بأن الأصل: كي يَفْعَلُ ماذا. ويلزمهم كثرة الحذف، وإخراج ما الاستفهامية عن الصدر، وحذف ألفها في غير الجر، وحذف الفعل المنصوب، مع بقاء عامل النصب .
مذهب جمهور البصريين: ومعهم سيبويه : أن كي تكون أحيانا مصدرية ، فتتصب الفعل المضارع بنفسها ، وأحيانا تكون تعليلية ، بمعنى لام التعليل ، والناصب للمضارع حينئذ (أن) مضمرة وجوبا بعد كي.. فعلى ذلك يكون مذهب البصريين أن كي قد تكون مصدرية تُنصَب بنفسها ، وقد تكون حرف تعليل ، يُنصَب الفعل المضارع بعدها ب(أن) مضمرة.

قول جميل بن عبد الله بن معمر العذلي:

أكل الناس أصبحت مانحا لسانك كيما أن تُعَرَّ و تخدعا ؟

الشاهد فيه: قوله : كيما أن تُعَرَّ . فإن ظهور (أن) المصدرية الناصبة للمضارع بنفسها بعد (كي) - في هذه العبارة - يدل على أن (أن) تكون مضمرة بعد (كي) إذا لم يُصَرَّح بها في الكلام ؛ نحو قولك : "جئت كي أعلم" و هنا كي بمعنى التعليل .

يتعين أن (كي) مصدرية في نحو: "لكي لا يكون" فاللام جارة دالة على التعليل، و كي مصدرية بمنزلة أن، لا تعليلية، لأن الجار لا يدخل على الجار .

يظهر مما تقدم أن كي تكون مصدرية و تنصب الفعل المضارع بنفسها إذا تأتي اللام التعليل قبلها ظاهرة أو بتقدير كون اللام مضمرة قبلها ، و تكون كي التعليلية بتقدير كون أن مضمرة بعدها.

الثالث: (إذن) ، وهي حَرْفُ جَوَابٍ وَجَزَاءٍ عند سيبويه، وقال الشلوبين: هي كذلك في كل موضع ، وقال الفارسي : في الأكثر ، وقد تَمَحَّضُ للجواب؛ بدليل أنه يقال: "أجبتك"، فنقول: "إذا أظنك صادقا"؛ إذ لا مجازاة بها هنا. للنصب بها ثلاثة شروط :

أحدها : أن تكون مُصَدَّرَةً ؛ فلا تعمل شيئا في نحو قولك : "أنا إذن أكرمك" لأنها معترضة بين المبتدأ والخبر، وليست صَدْرًا ، قال الشاعر :

[الطويل] لئن عاد لي عبد العزيز بمثلها وأمكنني منها إذن لا أقيلها

فالرفع لعدم التصدر لا لأنها فُصِلَتْ عن الفعل، لأن فَصْلَهَا بلا معتقر كما يأتي.
والثاني : أن يكون الفعل بعدها مُسْتَقْبَلًا ؛ فلو حَدَّثَكَ شخص بحدث فقلت له : «إذن تصدق» رفعت؛ لأن نواصب الفعل تقتضي الاستقبال، وأنت تريد الحال، فَنَدَّأَعًا.

والثالث : أن يكون الفعل إما متصلاً أو منفصلاً بالقسم أو بلا النافية؛ فالأول كقولك : "إذن أكرمك" والثاني: نحو : "إذن والله أكرمك" وقول الشاعر :

[الوافر] إذن والله نرميهم بحرب يثيب الطفل من قبل المشيب

والتالث : نحو : "إِذَنْ لَا أَفْعَل" . فلو فُصِّلَ بغير ذلك لم يجز العمل ، كقولك : "إِذَنْ يَا زَيْدُ أَكْرِمُكَ" .
 الرابع: (أن) تسبك مع الفعل الذي تدخل عليه بمصدر، تقول: "يعجبني أن تقوم." والتقدير: يعجبني قيامك.
 وكذلك (أن) كما قال ابن مالك: و بـ(أن) انصبه، و(كي)، كذا بـ(أن) لا بعد علم، والتي من بعد ظن؛ فشرط
 النصب بها أمران: أحدهما: أن تكون مَصْدَرِيَّةً ، لا زائدة، ولا مُفَسِّرَةً . الثاني: أن لا تكون مخففة من الثقيلة،
 وهي التابعة علماً أو ظناً نُزِّلَ منزلته .

و تضمّر أن بعد خمسة أحرف، و هي: الفاء، و الواو، و أو، و لام الجر، و حتى. و بناء على ذلك نقول:
 تنصب (أن) مضمرة بعد: لام التعليل جوازا نحو: "حضرت لأسمع." أو "حضرت لأن أسمع." إذا يقترن الفعل
 بـ(لا) و جب إظهارها نحو: "لأنلا أسمع"؛ تأتي أن مضمرة وجوبا بعد: لام الجحود المسبوقة بكون منفي نحو: "لم
 تكن لتنتقض العهد"؛ بعد حتى بمعنى الغاية أو اللام التعليل نحو: "اجتهد حتى تتجو"، و "حتى يدخل البيت"؛ و بعد
 فاء السببية و واو المعية المسبوقة بنفي أو طلب نحو: "لا تعجل فتندم"، و "لا تنته عن خلق و تأتي مثله"؛ و بعد
 (أو) بمعنى إلا أو إلى نحو: "لأستسقلن الصعب أو أدرك المنى"، و "يحكم على المتهم أو تظهر براءته". والشاهد
 في هذا البيت : قوله: أو أدرك حيث نصب الفعل المضارع الذي هو أدرك : المضمرة وجوباً بعد (أو) بـ(أن).
 وقد ذكر جماعة من النحاة أن (أو) في هذا البيت بمعنى (إلى)، ومنهم ابن هشام رحمه الله ، كما في القطر. و ذكر
 قوم أنها بمعنى (حتى) ، و ممن ذكر ذلك ابن هشام أيضاً في أوضح المسالك، وابن عقيل ، والأشموني، و لا خلاف
 بين هذين الكلامين ؛ لأن "إلى ، وحتى" بمعنى واحد ، وهو الغاية و ذكر السيوطي أن (أو) ههنا بمعنى (إلا) ،
 وهو مخالف لذلك كله ، فوق أنه بعيد. فالفعل ينتصب بعد هذه الأحرف الخمسة، والتي منها اثنان من حروف
 الجر، وثلاثة من حروف العطف، وهما "حتى"، واللام، فالفعل بعد هذه الحروف ينتصب بإضمار "أن" لا بها
 نفسها، فأما اللام و حتى" ، فهما حرفا جرّ، و عوامل الأسماء لا تعمل في الأفعال، فإذا وجد الفعل بعدهما منصوبا
 كان بغيرهما، فإذا قدرت "أن" صارت اللام، و "حتى"، عاملتين في اسم على أصلهما، لأن "أن" والفعل في تأويل
 الاسم. يظهر من هذه البيانات أن أن تضمّر بعد هذه الحروف و تنصب الفعل المضارع. و أما هذه الحروف فهي
 لا تتأثر في إعراب الفعل، غير أنها تأثر من جهة المعنى و إضافة إلى ذلك تجر (حتى) و (لام التعليل) المصدر
 محلاً. و على هذا مذهب البصريين وهو الأصح.

يتبين من خلال هذه الدراسة أنّ أدوات النصب في الفعل المضارع ليست على درجة واحدة من حيث العمل
 والدلالة، وأنّ الخلاف بين المدرستين البصريّة والكوفيّة إنما هو خلاف منهجيّ قائم على اختلاف التصرّح في
 حقيقة الحرف ودوره في التركيب. يعد البصريون أنّ حروف النصب أن، لن، إذا، كي تنصب المضارع بنفسها؛
 و تأتي أنّ مضمرة بعد عديد من الحروف لا عمل لها في إعراب الفعل مباشرة، وإنما تضمّر أنّ وجوباً أو جوازاً،
 بينما يرى الكوفيون في الأدوات كلها قدرة ذاتية على العمل، فيُسندون إليها النصب من غير تقدير.

وانتهى البحث إلى أنّ مذهب البصريين - القائم على ضبط المواضع التي تُقدّر فيها أنّ والتمييز بين الأدوات
 المصدرية والتعليلية والجوابية - هو الأمتن من جهة القياس والاستعمال والانسجام مع القواعد الكلية للنحو العربي؛
 إذ يُفسّر الظواهر على نحو يوافق طبيعة التركيب العربي ويقلّل من التقديرات المتكلفة.

وبذلك يتضح أنّ دراسة أدوات النصب ليست دراسة شكلية إعرابية فحسب، بل هي نافذة إلى فهم منهج
 النحاة، وطريقتهم في تفسير الظواهر، ودقّة الربط بين المعنى والعمل. ويوصي البحث بربط الجانب النحوي
 بالدلالة والاستعمال اللغوي، للوصول إلى رؤية أكثر تكاملاً في فهم نظام الفعل المضارع وعلاقته بالحروف
 العاملة فيه.

المصادر والمراجع

1. كتاب قطر الندى و بل الصدى، التصنيف ابن هشام؛ الناشر دار الكتب العلمية، الطبعة الرابعة،

لبنان 2004 م

2. كتاب الدروس النحوية، التصنيف الأستاذة العلامة حفني ناصف؛ الناشر الإسكندرية، دار العقيدة الطبعة الأولى، الإسكندرية 2007 م
3. كتاب شرح شذور الذهب في معرفة كلام العرب، التصنيف ابن هشام؛ الناشر دار إحياء التراث العربية، الطبعة الأولى ، لبنان 2001 م
4. كتاب متن ألفية ابن مالك، التصنيف الدكتور عبد اللطيف بن محمد الخطيب؛ الناشر مكتبة دار العروبة، الطبعة الأولى ، الكويت 2006 م
5. كتاب اللمع في العربية، التصنيف ابو الفتح عثمان بن جني؛ الناشر دار مجدلاوي ، عمان 1988
6. مقال جدل النحاة الكوفيين والبصريين في نواصب الفعل المضار، التصنيف إبراهيم فواتيح عبد الرحيم، الجزائر 2021 م

الممنوع من الصرف بين النظرية والتطبيق: دراسة نحوية

صالحة عابدوا بنت شاقول

جامعة الاورينت، الصف الثالث، المجموعة 306

طالبة كلية اللغة العربية

المشرف العلمي: فيروزة يعقوبوا

الملخص: تتناول في هذا المقال موضوع الممنوع من الصرف بوصفه من أهم أبواب النحو العربي وأكثرها إشكالاً لدى المتعلمين، ويهدف المقال إلى بيان مفهوم الممنوع من الصرف، وشرح أنواعه وأسباب منعه، مع تقديم توضيحات تطبيقية من الاستعمالات اللغوية. وتعتمد الدراسة على المنهج الوصفي التحليلي بالرجوع إلى أبرز المصادر النحوية. وتظهر النتائج أنّ فهم أسباب المنع يساعد في إتقان الإعراب وتجنّب الأخطاء الشائعة وتخلص الدراسة إلى ضرورة ربط الجانب النظري بالتطبيق العملي في تدريس هذا الباب النحوي .

الكلمات المفتاحية: الممنوع من الصرف، الإعراب، العلة، العلم ، الصفة ، العجمة ، التنوين، الصرف العربي، صيغة المنتهى الجموع، الاستثناءات، النصب، الجر، الرفع .

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tili grammatikasining eng muhim va talabalar uchun ko‘p qiyinchilik tug‘diradigan mavzularidan biri, ikki kelishikli ismlar ya’ni, tanvin olmaydigan otlar masalasi ko‘rib chiqiladi. Maqolada bunday ismlarning tabiati, turlari va bu xususiyatning kelib chiqish sabablarini izohlanadi, til amaliyotidan olingan misollar orqali yoritiladi. Shuningdek, tadqiqot yetakchi nahviy manbalarga tayanib, tasviriy-tahliliy metod asosida olib borilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur otlarning xususiyatlarini to‘g‘ri anglash so‘zning kelishikdagi holatini to‘g‘ri belgilashga va keng tarqalgan xatolarning oldini olishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: nahv, sarf, i’rob, tanvin, rof, jar, nasb, a’jamiy, sifat, istisno, illat, ko‘plik, vazn.

يُعدُّ بابُ الممنوع من الصرف من الأبواب المهمّة في النحو العربي، كما قال د. إحسان النص ” بحث الممنوع من الصرف من المباحث النحوية التي يجد المتكلمون و الكاتبون عسرًا شديدًا في استيعابها و الوقوف على قواعدها و معرفة عللها “ لأنه يضمّ قواعد دقيقة يحتاج إليها كلُّ دارسٍ للغة العربية ، ويخطئ كثيرٌ من الطلاب في هذا الباب بسبب كثرة أسبابه وتنوّع أنواعه، وكذلك لوجود حالات استثنائية تُخرُج عن الأصل العام،

وتظهر أهمية هذا الموضوع في أنه يتكرّر كثيراً في القرآن الكريم والحديث الشريف والشعر العربي، ولذلك فإن معرفته تساعد الدارس على الإعراب الصحيح وفهم النصوص فهماً دقيقاً. يهدف هذا البحث إلى شرح مفهوم الممنوع من الصرف بطريقة واضحة، وبيان أنواعه وأسبابه، مع ذكر أمثلة تطبيقية تساعد الطالب على تثبيت القاعدة واستعمالها استعمالاً صحيحاً.

قد أطلق العلماء على هذا الباب أسماء مختلفة، فتتوّعت مصطلحاتهم في تسميته. فسّماه الزمخشري في كتابيه ” المفصل “ و”النموذج “ - غير المنصرف ، بينما سمّاه ابن مالك في ”تسهيل الفوائد “ - ما لا ينصرف وأطلق عليه الصنهاجي في ” الأجرومية “ - اسم الاسم الذي لا ينصرف. ورغم اختلاف التسمية، فإن المعنى واحد عندهم جميعاً .

التعريف والخصائص: يعرّف الممنوع من الصرف على أنّه الاسم المُعرب الذي لا يقبل التنوين، والذي تكون علامة جرّه الفتحة عوضاً عن الكسرة، ولا يُجرّ بالكسرة أو يقبل التنوين إلا للضرورة أو بحالات معيّنة نشرحها لاحقاً، كما أنّ مفهوم الممنوع من الصرف مرتبط بمعرفة معنى الصرف الذي عرّفه اللغويون النحاة على أنّه ردّ الشيء عن وجهه، أما عند الخليل فيُعرف الصرف بالتنوين .

يوجد رأيين في اصطلاح الممنوع من الصرف . الرأي الأول هو اسم الذي لا يقبل التنوين و الرأي الثاني هو اسم الذي لا يلحق به التنوين و لا الكسر. نرى الرأي الأول في أبيات ألفية ابن مالك “ الصرفُ تنوينٌ أتى مُبَيَّنًا، مَعْنَى بِهِ يَكُونُ الْاسْمُ أَمْكَنًا “. وقد شرح الشيخ محمد بن صالح العثيمين هذا البيت في شرح الألفية ، فبيّن ”الصَّرْفُ تَنْوِينٌ أَتَى مُبَيَّنًا، مَعْنَى بِهِ يَكُونُ الْاسْمُ أَمْكَنَ “: ”الصرف عند النحاة هو التنوين، فلا يدخل التنوين على الفعل ولا على الحرف، فهو علامة من علامات الاسم “ . ثم بيّن رحمه الله أن التنوين يدل على قوّة الاسم وتمكّنه، فيقول ”التنوين يدل على تمام الاسم، ولهذا كان الاسم الذي لا ينصرف ناقص التمكّن “ . وبناءً على هذا الأصل يشرح الشيخ حقيقة الممنوع من الصرف، فيقول: ”الاسم إذا مُنِعَ من التنوين لعلّة أو علتين قيل: هو ممنوع من الصرف، أي ممنوع من هذه العلامة، فكان ضعيف التمكّن “ . ومن كلام الشيخ ابن عثيمين رحمه الله - في كتابه شرح ألفية ابن مالك - نفهم أن التنوين هو أساس باب الممنوع من الصرف؛ لأن الاسم إذا مُنِعَ من التنوين لم يكن اسمًا تامًا، بل كان ضعيفًا في التمكّن ولهذا يجرّ بالفتحة بدل الكسرة. فهذا هو السبب الذي يذكره النحاة عند شرح الممنوع من الصرف. من خصائص الممنوع من الصرف :

1) عدم قبول التنوين ، إذ مُنِعَ من التنوين الذي يدلّ على تمام الاسم أو التمكّن في باب الاسمية مثال:أحمدُ - رأيتُ أحمدَ - مررتُ بأحمدَ ، لا يقال: أحمدُ .

2) يُجرّ بالفتحة نيابةً عن الكسرة . مثال: مررتُ بمساجدَ جميلةً

3) يعود إلى الكسرة عند الإضافة أو دخول (ال) . مثال ذلك مع (ال) ذهبتُ إلى المدارس الجديدة. مثال

ذلك مع (الإضافة): مررتُ بمساجدِ المدينة .

4) منه ما هو سماعي ومنه ما هو قياسي ، بعض أنواعه وردت عن العرب سماعًا لا قياسًا، وبعضها له قواعد ثابتة. مثال سماعي: عُمَرُ، رُحْلُ، فُرْحُ، مثال قياسي: أفضلُ، أحمرُ، مساجدُ (القياس علم ضمن قواعد اللغة العربية قياس الكلمة بكلمة أخرى له وزن عربي، و السماعي ما ورد عن العرب أنهم تحدثوا به أو استخدموه في الشعر أو الحديث حتى، وإن قلّ دون أن يكون له قياس) و غير ذلك من الخصائص ...

أنواع الممنوع من الصرف: والأسماء التي تمنع من الصرف تنقسم إلى قسمين رئيسيين: الأول: يُمنع من الصرف لعلّة واحدة ، الثاني: يمنع من الصرف لعلتين (العلّة : أي السبب)

أولاً: الممنوع من الصرف لعلّة واحدة:

1) ما كان مختوما بالألف التأنيث المقصورة . مثال: ليلي ، سلمى ، سلوى ، حلوى ، ذكري

2) ما كان مختوما بالألف التانيث الممدودة (بشرط أن تكون الألف و الهمزة زائدة على أصل الكلمة ،
نعرف هذا بأن تأتي بعد ثلاثة أحرف فصاعدا) مثال: أسماء ، أصدقاء ، صحراء ، حمراء ، سوداء)

3) ما كان على صيغة منتهى الجموع (كل جمع تكسير مفتوح أوله و ثالثة ألف و بعدها حرفان وهي ما
كانت على وزن مفاعِل ، ومفاعيل ، فواعل أو فواعيل) مثال: مفاتيح ، كتاتيب ، قوافل ، دنانير ، مصابيح .

وَكُنْ لِجَمْعِ مُشَبِّهِ مُشَبِّهِ (مَفَاعِلًا) — أو (الْمَفَاعِيلِ) يَمْنَعُ كَافِلًا .
ثانياً: الممنوع من الصرف لعلتين نوعين، النوع الأول العلم أو العِلْمِيَّة و يُمنع في سبعة مواضع، النوع
الثاني الصفة أو الوصفية وتمنع في ثلاثة مواضع: فما يختص بالعلم و العِلْمِيَّة هو:

1) العلمية والتأنيث ، سواء كان مؤنثاً لفظاً و معنى مثل: صالحة ، فاطمة ، عائشة ، خديجة . يقال : “ عن
عائشة رضي الله عنها ... ” (مجرور بالكسرة نيابة عن الفتحة؛ لأنها ممنوع من الصرف، والمانع العلمية و التأنيث)
أو مؤنث لفظاً لا معنى، و منه: طلحة ، حمزة ، معاوية ، عنترة .

2) العلمية و العجمة (شرطها أن تكون زائدة عن ثلاثة أحرف) مثال: إبراهيم ، إسماعيل ، إسحاق ،
فرعون ، قارون ، و جميع أسماء الأنبياء ممنوعة من الصرف للعلمية و العجمة ماعدا سبعة مصروفة (محمد ،
صالح ، شعيب ، هود ، لوط ، نوح ، شيث) و كذلك أسماء الملائكة ، ماعدا (مالكاً ، منكرأ و نكيراً .)

3) العلمية و العَدَل (عن وزن أُخْر) مثال: عُمر ، قُرَح - عمر معدول عن عامر وَالْعَلْمُ اَمْنَعُ صَرْفَهُ اِنْ عُدِلًا
- كَ (فُعَلٍ) التَّوَكُّيدِ أَوْ كَ (تُعَلًا) .)

4) العلمية وزيادة الألف والنون، مثل: سلمان، عمران، مروان ، أصبهان ، غطفان، عثمان (سواء كان
علماً لإنسان أم لغيره) والضابط لمعرفة أن ألف و نون زائدتين أن تسبق الألف و النون بثلاثة أحرف أو أكثر.
كَذَاكَ حَاوِي زَائِدِي (فَعَلَانًا) - كَ (عَطْفَان) وَكَ (أَصْبَهَانًا) .

5) العلمية ووزن الفعل، مثل: أحمد، يزيد. فلا نقول مررت ببيزيد، بل مررت ببيزيد، لأنه ممنوع من
الصرف بسبب العلمية ووزن الفعل. كَذَاكَ ذُو وَرْنٍ يَخْصُ الْفُعَلَا أَوْ غَالِبِ كَ (أَحْمَدِ) وَ (يَعْلَى) .)

6) العلمية و التركيب المزجي (كل كلمتين امتزجتا حتى سارتا كلمة واحدة) مثال: بورسعيد ، حضرموت
الْعَلْمُ اَمْنَعُ صَرْفَهُ مُرَكَّبًا تَرْكِيْبٍ مَرْجٍ نَحْوُ: (مَعْدِيْكَرَبَا).

ملحوظة: يُستثنى من قاعدة التركيب المزجي العلم المختوم بـ(ويه). مثل: سيبويه : يلزم حالة واحدة وهي
البناء على الكسر، وإذا نُون دلّ على نكرة وليس معرفة. مررت بسيبويه وسيبويه. وما يختص بالوصفية هو :

1) الوصفية والألف والنون الزائدتين مثال: غضبان ، جوعان ، كسلان ، حيران .
وَزَائِدًا (فَعَلَانٌ) فِي وَصْفِ سَلْمٍ مِنْ أَنْ يُرَى بِنَاءِ تَأْنِيْثٍ خُتْمٌ

2) الوصفية والعُدول، مثل: مثنى، ثلاث، رُباع، أُر، تقول: سافرت المعلمات ونساء أُر، (هذا يُعني
التكرار فلا أكرر و أقول جاء الطلاب اثنين اثنين ، ولكن أقول جاء الطلاب مثنى)

مَنْعُ عَدَلٍ مَعَ وَصْفٍ مُعْتَبَرٍ فِي لَفْظٍ (مَثْنَى، وَثَلَاثَ، وَأَخْرَ)
3) الوصفية ووزن الفعل، و يُشترط فيها أن لا تُؤنث بالياء ، فإن أنثت بها صُرفت نحو، (أَرْمَلٌ وَ أَرْمَلَةٌ)
مثال: (ألوان) - أحمر، أصفر، أزرق (التفضيل) - أجمل ، أفضل ، أكثر (العيوب) - أعرج ، أعمش، أبرص .

وَوَصْفٌ اَصْلِيٌّ وَوَزْنٌ (أَفْعَلًا) مَمْنُوعٌ تَأْنِيْثٍ بِنَاءِ كَ (أَشْهَلًا)
يمكن أن نرى شواهد على الممنوع من الصرف. أولاً: شواهد من المعلقات، معلقة امرئ القيس : البيت:

قِفَا نَبِّكَ مِنْ ذِكْرِي حَبِيْبٍ وَمَنْزَلِ

الشاهد: ذكري، سبب منع الصرف: اسم مختوم بألف التأنيث المقصورة.

ثانياً: شاهد من شعر كعب بن الزهير قوله:

بانث سعادُ فقلبي اليوم متبول .

الشاهد: سعاد - سبب منع الصرف: علم مؤنث .

ثالثاً: شاهد من شعر أبي العيال : أبلغ معاويةً بنَ صخرِ ايةً
يَهوي إليه بها البريدُ الأعجلُ

الشاهد: معاويةً سبب منع الصرف علم مؤنث لفظاً .

رابعاً: شاهد من شعر حسان بن ثابت، قوله في مدح النبي ﷺ: وأحسنُ منك لم ترَ قطُّ عيني
وأجملُ منك لم تلِدِ النساءُ

الشاهد: أحسنُ / أجملُ - سبب منع الصرف: صفة على وزن أفعل.

وخلاصة ما ذكرناه إنَّ باب الممنوع من الصرف ليس مسألةً جافة كما قد يظن بعض المتعلمين، بل هو قاعدة حيّة تظهر في القرآن والحديث والشعر والنثر، ممّا يجعله جزءاً أصيلاً من الاستعمال اللغوي اليومي. فكثيرٌ من الكلمات التي نسمعها كلّ يوم هي في الحقيقة ممنوعة من الصرف، يمرّ أمام أعيننا كلّ يوم دون أن نشعر. فهذه سعادُ التي ذكرها كعب بن الزهير في قصيدته ليست منوثة، وهذا محمدٌ عليه الصلاة و السلام الذي مدحه حسان بن ثابت رضي الله عنه يظهر في شعره غير منصرف أحياناً، وذلك إبراهيمُ الذي نذكره في الصلاة يُجرّ بالفتحة لا بالكسرة. إنها كلمات قريبة منا، لكن لها سرٌّ نحويّ بسيط يجعلها تختلف في الإعراب قليلاً. والجميل في هذا الباب أنّه تطبيقي، نراه في القرآن و في الشعر و في الحديث وكلامنا اليومي، فإذا فهمه الطالب مرّة، صار يراه أمامه في كل صفحة، ويشعر أنّه فتح له باباً من لذة اللغة ودقّتها، ومن هنا، فإن دراسة هذا الباب لا تُعدّ معرفة نحوية فحسب، بل هي نافذة لفهم البلاغة، والاشتقاق، وبناء الجملة، وتدوّق النصوص الأدبية في أعلى مستوياتها .

قائمة المصادر :

1. متن ألفية ابن مالك ، تأليف العلامة محمد بن عبد الله بن مالك الأندلسي 672 هجري – نسخة مشكّلة

و مضبوطة – مكتبة الهداية الدار البيضاء

2. شرح ألفية ابن مالك – إملاء فضيلة الشيخ محمد بن صالح العثيمين – الطبعة السادسة 1440 هجري-

2019 م- مؤسسة إبداع القاهرة

3. الأجرومية ، تأليف : الصنهاجي 672-723 هجري – مؤسسة المكتبة الثقافية

4. تسهيل الفوائد ، تأليف بن مالك 1967 م – 1387 هـ المكتبة العربية

5. النموذج ، تأليف : ابن مالك 1999م – 1420 هـ الطبعة الأولى

6. المفصل في النحو ، تأليف : الزمخشري 1879 سنة طبعة محدودة بيروت 2023

7. راي في تيسير مبحث الممنوع من الصرف ، تأليف : د.إحسان النص 731 ص.

TIL O'RGANISHDA FONETIKANING O'RNI

Muhsinaxon AHMAD XO'JAYEVA,

Oriental universiteti Filologiya va tillarni o'qitish

ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi o'qituvchisi

Abdullayeva Shahnoza

Annotatsiya. Ushbu maqola til o'rganish jarayonida fonetikaning ahamiyatini va undosh tovushlarni o'zbek, ingliz va arab tillari misolida tahlil qiladi. Fonetika til tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish va eshitib tushunishni o'rgatish orqali tilni

o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, maqolada fonetika yordamida til o'rganuvchilar tilning madaniy va kontekstual tafovutlarini yaxshiroq anglashlari haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: fonetika, til o'rganish, talaffuz, eshitish, madaniyat, til tafovutlari, lingvistika.

Abstract: This article examines the significance of phonetics in language learning. Phonetics plays a important role in language acquisition by teaching correct pronunciation and listening comprehension. The article also discusses how phonetics helps language learners better understand the cultural and contextual differences in languages.

Keywords: phonetics, language learning, pronunciation, listening, culture, language differences, linguistics.

Til o'rganish – murakkab, ammo qiziqarli jarayon bo'lib, unda tildagi har bir komponentning, ayniqsa fonetikaning o'rne alohida ahamiyat kasb etadi. Tilning tovush tizimini o'rganish, ularni to'g'ri talaffuz qilish va eshitish ko'nikmalarini rivojlantirish fonetikaning asosiy vazifalaridandir. Har bir til o'zining noyob tovush tizimiga ega bo'lib, ushbu tizimni o'zlashtirish o'rganuvchilar uchun asosiy muammolardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, bir tilni o'zlashtirayotgan shaxs o'z ona tilida mavjud bo'lmagan tovushlarni o'rganishda qiynalishi mumkin. Shu boisdan fonetika til o'rganish jarayonida ilmiy asos sifatida qo'llaniladi. Shu bilan birga fonetika tilshunoslikning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, tovushlarning fizik va fiziologik xususiyatlarini tahlil qiladi. Bu fanning vositalari nafaqat tildagi tovushlarni tushunishda, balki ularni samarali o'rgatishda ham yordam beradi.

Til o'rganish jarayonida fonetika juda muhim o'rin tutadi, chunki har bir tilning o'ziga xos tovush tizimi mavjud. Fonetika tildagi tovushlarni ilmiy asosda o'rganadi va ular qanday hosil bo'lishini, talaffuz qilinishini hamda nutq jarayonidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Til o'rganuvchilar uchun fonetika nafaqat o'zlashtirilayotgan tilni to'g'ri talaffuz qilishda, balki boshqa tillar bilan solishtirish orqali o'z ona tilini chuqurroq tushunishda ham yordam beradi. Masalan V tovushining o'zbek, arab va ingliz tillaridagi talaffuzini olsak, o'zbek tilida v undoshi lab-tish undoshi hisoblanib, pastki lablarning yuqori tishga tegishi orqali talaffuz qilinadi. Masalan: Vatan, viloyat, vafo. Ingliz tilida ham, v tovushi o'zbek tilidagi singari pastki lab yuqori qoziq tishlarga tegishi orqali hosil bo'ladi. Masalan: verb, vegetable, very. Arab tilida esa V tovushining maxraji ikki labda va talaffuz jarayonida ikki lab oldinga chiqib dumaloq shaklga kelishi orqali hosil bo'ladi. Masalan: وجد [vajada] (topdi), ولد [vulida] (tug'ildi), وصل [vasola] (yetib keldi). Arab tilidagi vov (و) tovushi ingliz tilidagi w tovushi singari talaffuz qilinadi. Ingliz tilida ham w tovushini ikki lab biroz oldinga chiqarib dumaloq

shaklni hosil qilgan holda talaffuz qilamiz masalan: word, white, work. Yana misol tariqasida T undoshining o‘zbek, ingliz va arab tillidagi talaffuziga nazar solsak, o‘zbek tilida t undoshi talaffuz jarayonida til uchi yuqori tishlarning orqa qismiga tegishi orqali hosil bo‘ladi. Masalan: tosh, tulpor, tom. Pozitsion o‘zgarishi jarayonida esa, so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida hech qanday o‘zgarishsiz talaffuz qilinadi. Jumladan, so‘z boshida: tosh, tarvuz; so‘z o‘rtasida: ota, atala; so‘z oxirida: ayt, ket. Ingliz tilida ham t undoshi talaffuz jarayonida o‘zbek tilidagi kabi til uchi yuqori tishlarning orqa qismiga tegishi orqali hosil bo‘ladi. Ammo, pozitsion o‘zgarishi o‘zbek tilidan biroz farq qiladi. T undoshi ingliz tilida so‘z boshida talaffuzi kuchli va aniq (table, take), so‘z o‘rtasida biroz yumshoqroq (water, butter), so‘z oxirida esa tabiati yumshoqroq bo‘lib, ba’zan talaffuz qilinmaydi (cat, hat). Arab tilida t undoshini til uchini yuqoridagi kurak tishlarimizning ichki devoriga tekkazish orqali ingichka talaffuz qilamiz. Masalan: تَرَكَ [taroka] (tark etdi), تَفَّاحٌ [tuffaaxun] (olma). Arab tilida t undoshining pozitsion o‘zgarishi ushbu undosh faqat sukunlik holatida xamslik darajasi bildirib o‘qiladi. Masalan: أَكَلَتْ [akalat] (u qiz yedi), يَتْرُكُ [yatruku] (tark etadi).

Agar biz har bir tilni o‘rganayotganimizda, uning fonetikasini chuqur o‘rganib, har bir harflarini o‘z maxrajidan chiqarmasak, bu holat talaffuz jarayonida so‘zlarimizni shaklan buzilishiga va beo‘xshov chiqishiga olib keladi.

Fonetikaning asosiy yo‘nalishlari. Fonetika uch asosiy yo‘nalishda o‘rganiladi:

1. Akustik fonetika: Tovushlarning fizik xususiyatlarini o‘rganadi.
2. Artikulyatsion fonetika: Tovushlarning hosil bo‘lish jarayoniga e’tibor qaratadi.
3. Auditor (perseptiv) fonetika: Tovushlarning qanday eshitilishi va idrok qilinishini tahlil qiladi.

Fonetika tildagi tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatadi. Bu, ayniqsa, ona tilida mavjud bo‘lmagan tovushlarni o‘zlashtirishda muhimdir.

Til o‘rganuvchi uchun o‘sha tilga xos intonatsiya, urg‘u va ritmni tushunish muhimdir. Fonetika bu borada maxsus metodlarni taklif qiladi.

Nutqni yaxshilash. Talaffuz va intonatsiyaning to‘g‘ri bo‘lishi nutqni ravon qiladi. Bu esa muloqotdagi samaradorlikni oshiradi.

Nutq texnikasini o‘rgatish. Nutqning ovoz balandligi, tezligi va ritmini boshqarish fonetika yordamida rivojlantiriladi.

Fonetika til o‘rganish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, eshitish va idrok qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu bilimlar til o‘rganuvchilarga o‘zlashtirilayotgan tilni nafaqat qog‘ozdagi yozuv shaklida, balki tirik nutq jarayonida ham samarali tushunish va ishlatishda yordam beradi. Shuningdek, fonetika boshqa tillarni o‘rganish davomida o‘z ona tilining xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar yordamida fonetikaning oʻrni yanada oshmoqda. Talaffuzni toʻgʻri tekshirish va ovoz tizimlarini tahlil qilish imkoniyatlari bilan zamonaviy ilovalar til oʻrganishni yanada osonlashtiradi. Shu boisdan fonetika faqat tilshunoslik fani emas, balki har bir til oʻrganish jarayonining asosiy qismi sifatida oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydi.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar yordamida fonetikani rivojlantirishda ayniqsa Duolingo ilovasining oʻrni katta.

Duolingo til oʻrganish uchun moʻljallangan interaktiv ilova boʻlib, uning fonetika oʻrganishdagi oʻrni juda katta.

Duolingoda har bir mashqda yangi soʻz va jumlar talaffuzi ovoqli naʼmunalar orqali taqdim etiladi. Bu oʻrganuvchilarga soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishni oʻrganishda yordam beradi.

Ilova robotlashtirilgan yoki inson ovozi orqali talaffuzni tinglash imkoniyatini beradi, bu esa tovushlarni aniqlash va takrorlash uchun muhim.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Crystal David. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – Wiley-Blackwell, 2020.
2. N.Erkaboyeva. Oʻzbek tilidan maʼruzalar toʻplami. – Yosh Kuch

ARAB VA OʻZBEK TILLARIDA QARINDOSHLIK BILDIRUVCHI SOʻZLAR SEMANTIKASI

Erkinova Muxlisa,

Oriental universiteti arab tili yoʻnalishi talabasi

Ilmiy rahbar: dotsent, f.f.n.N.Ahmedova

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab va oʻzbek tillarida qarindoshlik bildiruvchi soʻzlarning semantikasi oʻrganiladi. Maqolada har ikki tildagi qarindoshlik atamalarining oʻxshashliklari va farqlari, ularning madaniy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Bu ish arab va oʻzbek tillaridagi qarindoshlik soʻzlarining qiyosiy oʻrganilishi hamda ularning milliy oʻziga xosliklarini aniqlashga yordam beradi.

Kalit soʻzlar: qarindoshlik, semantika, arab tili, oʻzbek tili, til qiyosiy tahlili, madaniyat, qarindoshlik atamaları.

Annotation: This article examines the semantics of kinship terms in Arabic and Uzbek languages. It analyzes the similarities and differences in kinship terminology between the two languages, as well as their cultural and social significance. This research helps identify the unique characteristics of kinship vocabulary in Arabic and Uzbek.

Keywords: kinship, semantics, Arabic language, Uzbek language, comparative language analysis, culture, kinship terminology.

Insoniyat tarixida qarindoshlik munosabatlari doimo jamiyat tuzilishining asosiy unsurlaridan biri bo‘lib kelgan. Qarindoshlik atamaları nafaqat oilaviy aloqalarni, balki odamlarning bir-biriga bo‘lgan hurmati, ijtimoiy mavqei va o‘zaro munosabatlar tizimini ham belgilaydi. Oila a‘zolari o‘rtasidagi rishtalarni mustahkamlaydigan bu tushunchalar, shuningdek, har bir millatning madaniyati va an‘analari haqida ham ko‘p narsani ochib beradi. Shu sababli, tillararo qarindoshlik atamalarini o‘rganish – jamiyatning ichki tuzilishini va boshqa tillar bilan bog‘liqliklarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Qavm-qardoshlik so‘zlari lug‘atimizning eng qadimiy fondi hisoblanadi. F.Engels o‘zining “Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi” degan genial asarida oila formalarini u yoki bu shakldagi qardoshlik terminlariniing ahamiyati to‘g‘risida: “ota, o‘g‘li va qiz, aka-uka, opa-singil degan nomlar faqat faxriy, juda jiddiy o‘zaro majburiyatlarning majmuasi mazkur xalqlarning ijtimoiy tuzumining muhim qismini tashkil etadi”deb yozgan edi. F. Engel’s, oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi, Toshkent, O‘zdavnashr, 1956, 30-bet

Arab va o‘zbek tillari va ularning madaniy-tarixiy aloqalari o‘ziga xos boy tarixga ega. O‘zbekistonning arab dunyosi bilan aloqalari asosan islomning tarqalishi orqali kuchaydi. 8–9-asrlarda O‘rta Osiyo hududlariga islom dini kirib kelishi natijasida o‘zbek xalqi madaniy, ilmiy va diniy sohalarda arab dunyosi bilan uzviy aloqalarga ega bo‘ldi. Ushbu davrda arab tili ilm-fan, din va adabiyot tili sifatida katta ta’sirga ega bo‘ldi, bu esa o‘zbek tiliga ko‘plab arabcha so‘zlar kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Qarindoshlik atamaları ham ushbu ta’sir doirasida shakllangan va o‘zaro aloqa va o‘zgarishlarga uchragan.

O‘zbek va arab jamiyatlarida qarindoshlik tushunchasi juda muhim ahamiyatga ega. Oilaviy aloqalar, avlodlararo bog‘liqlik va ijtimoiy munosabatlar ushbu atamalar orqali ifodalanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi "aka", "uka", "opa", "singil" kabi aniqroq ajratilgan qarindoshlik atamaları, arab tilida biroz umumlashgan shaklda qo‘llaniladi (masalan, aka va uka uchun faqat أخی "akh" so‘zi ishlatiladi). Bu holat har ikki jamiyatdagi oila va qarindoshlik munosabatlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Arab va o‘zbek jamiyatlarida oila va qarindoshlik kuchli qadriyat sifatida e’tirof etiladi, bu esa jamiyatning ijtimoiy strukturasi va o‘zaro munosabatlarida o‘z aksini topadi.

Arab va o‘zbek tillaridagi qarindoshlik atamalarini o‘rganish nafaqat lingvistik tadqiqot uchun, balki madaniy va tarixiy aloqalarni tushunishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqotlar orqali har ikki xalqning oilaviy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlarida qanday o‘zgarishlar yuz bergani va ular qanday shakllanganini tushunish mumkin. Shuningdek, bunday tadqiqotlar tilshunoslikda lakuna fenomenini,

ya'ni bir tilda mavjud bo'lgan tushunchalarning boshqa tilga mos keladigan so'zsiz ifodalanishining sabablari va ularning ta'sirini aniqlashda yordam beradi. Bu madaniy-tarixiy bog'liqlikni yanada chuqurroq o'rganish, tillararo o'zaro ta'sir va rivojlanishni chuqur tushunishga xizmat qiladi. Har bir tilda uning madaniyatini aks ettiruvchi o'ziga xos qarindoshlik atamalari mavjud. Bundan tashqari, qarindoshlik atamalarining ma'nosi ma'lum bir jamiyatdagi qarindoshlar o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Turli xil tillarda qarindoshlik atamalarini va ularning munosabatlarini tavsiflash uchun turli xil xususiyatlar yoki xususiyatlarning kombinatsiyasi qo'llaniladi.

Arab va o'zbek tillarida ishlatiladigan qarindoshlik atamalari quyidagicha:

أب Ota-

أم Ona-

ابن O'g'il-

ابنة Qiz-

جد Boboning otasi-

جدة Buvaning onasi-

عم Amaki

عمة Amma

خال Tog'a

خاله Xola

Demak, yuqoridagi qarindoshlik ma'nolarini bildiruvchi har ikki atamalar har ikki tilda ham mavjud. Bu jihatdan ular o'xshash xususiyatga ega. Arab va o'zbek tillarida ba'zi qarindoshlik atamalari o'xshash bo'lsa-da, ba'zilar o'ziga xos tarzda farq qiladi. Lakuna qiyoslanayotgan tillarning birida mavjud bolgan va boshqasida uchramaydigan grammatik kategoriya, so'zlar va so'z birikmalaridir. Lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar ortasidagi farqlarni korsatib beruvchi muhim omil hisoblanadi. Lakunalar, asosan, tillarning qiyosida seziladi. Lakuna atamalari – bu bir tilning lug'aviy tizimida boshqa bir tilda mavjud bo'lgan atama yoki tushunchaga mos keladigan aniq so'zning yo'qligi. Arab va o'zbek tillaridagi qarindoshlik atamalari orasida ba'zi lakunalar uchrashi mumkin. Bu atamalar bir tilda mavjud bo'lib, boshqa tilda aynan bir xil ma'noda ishlatiladigan so'z bo'lmasligi mumkin.

Lakuna atamalari: "Aka" va "uka" (O'zbek tilida) – O'zbek tilida akava uka munosabatlarini aniq ajratadi, lekin arab tilida ikkala tushuncha uchun ham faqat "أخ" (akh)" so'zi ishlatiladi. Arab tilida aka va uka o'rtasidagi farqni kontekst orqali bilish mumkin.

"Opa" va "singil" (O‘zbek tilida) – O‘zbek tilida opa va singil tushunchalari aniq ajratilgan, lekin arab tilida bular uchun faqat bitta so‘z – "أخت (ukht)" mavjud. Arab tilida ham bu farqni kontekst orqali tushunish mumkin.

"Tog‘a" va "Xola" (O‘zbek tilida) – O‘zbek tilida onaning aka-uka va opa-singillari aniq farqlanadi: tog‘a (onaning aka-ukasi) va xola (onaning opa-singillari). Arab tilida esa bu farq faqat "خال (khal)" va "خاله (khalah)" so‘zlari orqali beriladi, lekin bu so‘zlar onaning aka va singillarini ajratmasdan ishlatiladi.

"Amaki" va "Amma" (O‘zbek tilida) – O‘zbek tilida otaning aka-uka va opa-singillari amak va amma deb ajratiladi, lekin arab tilida ikkisi uchun ham alohida so‘zlar mavjud emas, balki "عم (am)" va "عمة (amah)" so‘zlari otaning aka va singillarini ifodalaydi, va faqat kontekst orqali qaysi qarindosh nazarda tutilayotganini bilib olish mumkin.

Arab tilida amaki va amma ma’nosini bildiradigan bitta so‘z bo‘lib, bu faqat jins bildiruvchi muannas qo‘shimcha bilan farqlanadi. Arab tilida otlar ikki jinsga-muzakkar va muannasga ajraladi. Muannas jinsning grammatik belgisi so‘z oxiridagi -atun,-atu qo‘shimchasidir. U yozuvda ة (ta matbuta) harfi bilan ifodalanadi. N. Ibrohimov, M. Yusupov, A. Oripov, Arab tili grammatikasi, Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024, 29 bet. Demak, amaki va amma uchun arab tilida bitta so‘z ishlatiladi, faqat jins qo‘shimchasi orqali farqlanadi. O‘zbek tilida esa bu tushunchalar uchun alohida ikkita so‘z ishlatiladi.

Arab va o‘zbek tillaridagi qarindoshlik atamalarining o‘xshash va farqli jihatlari quyidagilardir:

O‘xshashlik: Ikkala tilda ham ota-ona, aka-uka, opa-singil kabi asosiy qarindoshlik atamalari mavjud. Bu so‘zlarning ma’nosi va ishlatilishi ham umumiy xususiyatlarga ega.

Farqlilik: Arab tilida ayrim qarindoshlik atamalari murakkab ifodalar orqali beriladi (masalan, amakivachcha – ابن عم "ibn ‘amm"). O‘zbek tilida esa qarindoshlik atamalari ko‘proq soddalashtirilgan va ayrim aniq farqlarga ega (masalan, aka/uka yoki opa/singil farqlanadi).

O‘zbek va arab tilida nikohdan so‘ng paydo bo‘lgan qarindoshlik atamalar tahlili. Qaynota – حم (hamm) Bu so‘z odatda "qaynota" — ya’ni, er yoki xotinning otasi ma’nosida ishlatiladi. Bu holda "حم" so‘zi qarindoshlik aloqalarini ifodalovchi oddiy atama bo‘lib, kontekstdan kelib chiqib urning yoki xotinning otasi sifatida talqin qilinadi. Qaynona – حمّة (hama) "حمّة" so‘zi faqat ayol qarindoshga, ya’ni qaynona uchun qo‘llaniladi va jinsiy shakli bilan farqlanadi. Bu atama arab tilida jinsga qarab o‘zgaradi, shuning uchun faqat ayol qarindoshlar uchun ishlatiladi. O‘zbek tilida qaynota va qaynona alohida atamalar sifatida ifodalansa-da, arab tilida ular

umumiyroq tarzda, ya'ni jins va shaxs aniq ko'rsatilgan holda "حم" va "حماة" atamalari bilan ajratiladi. Bu atamalar orqali qaynота va qaynona ma'nolari farqlanadi .

O'zbek tilida qayni uka va qayni aka er yoki xotinning aka-ukalari uchun ishlatiladi, ya'ni erning yoki xotinning tug'ishgan ukasi yoki akasi nazarda tutiladi. Boja va pochcha — bu er yoki xotinning singlisi yoki akasining eri, ya'ni kuyov qarindoshi bilan aloqalarni ifodalaydi. Qaynog'a — asosan erning yoki xotinning akasi yoki boshqa bir katta yoshli erkak qarindoshga aytiladi. Kuyov — bu kelinning eriga yoki oilaga kelin kelgan kuyovga nisbatan qo'llanadi. Shu tarzda, o'zbek tilida har bir qarindoshlik turi uchun alohida atama mavjud va ularning har biri aniq munosabat turini ifodalaydi. Arab tilida esa, bunday aniq atamalar mavjud emas, balki umumiy mazmundagi ikki atama keng tarqalgan: صهر (sihr) va سلف (silf). Qaynsingil — er yoki xotinning singlisi. Bu atama er yoki xotinning kichik singlisini ifodalash uchun ishlatiladi. Qaynopa — erning katta yoshli opa-singillari, xotinning esa erining opasi uchun ishlatiladi. Kelin — bu oila a'zosining o'g'li yoki oila a'zosi bo'lgan kishining o'g'liga uylangan ayol. Masalan, o'g'ilning xotini. Ovsin — aka-ukalarning turmush o'rtoqlari bir-biriga ovsin deb ataladi, ya'ni aka yoki ukalarning xotinlari o'rtasidagi qarindoshlik.

O'zbek tilida bu kabi qarindoshlik aloqalari uchun aniq atamalar mavjud, ularning har biri aniq oila a'zosini ifodalaydi. O'zbek tilidagi qaynsingil, qaynopa, kelin, va ovsin kabi atamalar arab tilida maxsus so'z bilan ifodalanmaydi, balki umumiyroq ma'nodagi "سلفة" (silfah) va "كنة" (kinna) so'zlari orqali bildiriladi. O'zbek tilida har bir qarindosh turi aniq atama bilan ifodalangan bo'lsa, arab tilida bu munosabatlar qisqacha umumlashtirilgan holda ifoda etiladi. Bu tahlillar orqali arab va o'zbek tillaridagi qarindoshlik atamalari nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham qanchalik o'xshash yoki farqli ekanligini tushunish mumkin. Lakuna atamalari madaniyatlar va tillar orasidagi farqlarni ham ko'rsatadi. Shu sababli, bir tilni o'rganayotganda, lakunalar orqali madaniy o'ziga xosliklar ham yaqqol ko'rinadi. Xulosa qilib aytganda, biz ikki tilning qarindoshlik atamalaridagi farqlarni ko'rib chiqdik. Arab tilida ko'plab qarindoshlik atamalari umumiy tarzda ifodalanib, keng ma'noda ishlatiladi. Ushbu tilning o'ziga xos xususiyati shundaki, qarindoshlar o'rtasidagi aloqalarni ifodalashda ko'pincha صهر (sihr) va سلف (silf) kabi umumiy so'zlar bilan kifoyalaniladi va kontekst orqali aniq ma'no beriladi. Shu bilan birga, ayrim hollarda jinsiy shakl orqali umumiy mazmundan torroq ko'rinishga o'tiladi (masalan, "حم" - qaynота, "حماة" - qaynona kabi). Biroq, o'zbek tilida har bir qarindoshlik turiga alohida va aniq atamalar berilgan. Bu tilning qarindoshlik aloqalarini yanada nozik va batafsil ko'rsatishi kuzatiladi. Masalan, o'zbek tilida qayni aka, qayni uka, boja, pochcha, qaynoqa kabi qarindoshlik munosabatlari bir-biridan

ajratilib, aniq soʻzlar bilan ifodalanadi. Shunday qilib, arab tilida qarindoshlik munosabatlari umumiy atamalar orqali ifodalansa-da, oʻzbek tilida deyarli barcha qarindoshlik atamalari aniq farqlanib, turli atamalar bilan oʻziga xos tarzda ifodalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –Toshkent, 2009.

2. Ibrohimov N. Arab tili grammatikasi. – Namangan, 2009

3. N. Ibrohimov, M. Yusupov, A. Oripov, Arab tili grammatikasi, Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024, Internet (Elektron qoʻllanmalar)

1. “Ziyonet”

2. <https://izoh.uz/search/Qarindoshlik%20%20atamalari>

3. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/10-o-zbek-tilining-izohli-lug-ati>

СОЦИАЛЬНАЯ КРИТИКА В РОМАНАХ НАГИБА МАХФУЗА

Мухлисахон МАМАТИСАЕВА,

Студент 4-го курса образовательного направления

«Филология и преподавание языков» Университета Oriental.

Аннотация: Статья посвящена социальной критике в романах Нагиба Махфуза, выдающегося египетского писателя XX века и лауреата Нобелевской премии по литературе. В работе рассматриваются ключевые аспекты социального анализа, представленные в его произведениях: патриархальные устои, бедность, коррупция, положение женщины, моральный и духовный кризис личности, а также конфликт поколений. Особое внимание уделяется психологически достоверным образам героев, через которые раскрываются противоречия египетского общества и влияние социальных структур на индивидуальную судьбу. Статья демонстрирует, как творчество Махфуза сочетает реализм, философскую глубину и социальную рефлексию, отражая универсальные проблемы человеческого общества.

Ключевые слова: Нагиб Махфуз, социальная критика, Египет, патриархальные устои, бедность, коррупция, положение женщины, моральный кризис, конфликт поколений, Каирская трилогия.

Annotatsiya: Ushbu maqola XX asrning mashhur misr yozuvchisi va Nobel mukofoti sovrindori Najib Mahfuzning romanlarida ijtimoiy tanqidga bagʻishlangan. Ishda muallif asarlarida aks etgan asosiy ijtimoiy muammolar tahlil qilinadi: patriarxal

qadriyatlar, kambag'allik, korrupsiya, ayollarning jamiyatdagi o'rni, shaxsning ma'naviy va axloqiy inqirozi, shuningdek, avlodlar ziddiyati. Maqolada psixologik jihatdan ishonchli qahramon obrazlari orqali Misr jamiyatidagi qarama-qarshiliklar va ijtimoiy tuzilmalar shaxsiyatga ta'siri ochib beriladi. Najib Mahfuzning ijodi realizm, falsafiy chuqurlik va ijtimoiy tahlilni uyg'unlashtirib, insoniyat jamiyatining universal muammolarini aks ettiradi.

Kalit so'zlar: Najib Mahfuz, ijtimoiy tanqid, Misr, patriarxal qadriyatlar, kambag'allik, korrupsiya, ayollarning o'rni, axloqiy inqiroz, avlodlar ziddiyati, Qohira trilogiyasi.

Нагиб Махфуз (1911–2006) — один из ведущих арабских писателей XX века, лауреат Нобелевской премии по литературе 1988 года. Его творчество отражает социально-политические, культурные и моральные трансформации Египта. Центральное место в произведениях писателя занимает социальная критика, направленная на выявление и анализ структурных проблем общества: бедности, коррупции, патриархальных устоев, положения женщин, а также морального и духовного кризиса¹.

Махфуз применяет социальный реализм, стремясь к психологической достоверности персонажей и реалистичному отображению повседневной жизни Каира. Р. Аллен отмечает, что романы Махфуза становятся своеобразным «социальным зеркалом», где индивидуальные судьбы героев отражают общие закономерности общества².

В «Каирской трилогии» писатель детально показывает жизнь семьи Абд аль-Джаввадов. Ахмад, глава семьи, воплощает патриархальную власть, которая формирует поведение всех членов семьи. Старшее поколение следит за соблюдением строгих правил и традиций, младшее — ищет возможности для самоопределения, образования и свободы. Конфликты между поколениями иллюстрируют противоречие между старой традицией и современной социальной реальностью³.

Особое внимание уделяется внутреннему миру героев: Махфуз показывает, как социальные ограничения формируют психологию человека, его моральные ориентиры и эмоциональное состояние. Женские образы в трилогии варьируются от покорной Амины до женщин, стремящихся к независимости, что позволяет писателю раскрывать социальные барьеры и ограничения.

В «Переулке Мидак» Махфуз изображает жизнь бедных слоёв населения. Переплетаются судьбы Хамиды, стремящейся к лучшей жизни, Аббаса, ищущего стабильность, и других жителей квартала. М. Барад подчеркивает, что

писатель показывает бедность не как случайную ситуацию, а как структурный фактор, влияющий на мораль, поведение и выбор человека⁴.

Социальная несправедливость тесно связана с коррупцией, бюрократией и неэффективной властью, создавая замкнутый круг нищеты и разочарования. Махфуз раскрывает, как экономическая нестабильность, эксплуатация и преступность становятся результатом социальных проблем, а не индивидуальных недостатков.

В «Детях нашего квартала» власть изображается как структура, манипулирующая людьми и подавляющая честных граждан. М. Абу Диб отмечает, что писатель использует моральные дилеммы героев, показывая разложение общества и разрушение духовных ценностей⁵. Коррупция и неэффективная бюрократия проникают во все сферы жизни: от управления кварталом до межличностных отношений.

Махфуз показывает, что несправедливая власть формирует условия, в которых моральные ориентиры личности подвергаются постоянной проверке. Герои оказываются между необходимостью выживания и требованием моральной честности, что создаёт напряжённость и драматизм повествования. Женщина в произведениях Махфуза — не только объект социальной критики, но и символ борьбы за самоопределение. Амина — традиционная жена, полностью подчинённая патриархальной семье, в то время как Хамида стремится к независимости, но сталкивается с ограничениями общества.

Мустафа Хайкель подчеркивает, что Махфуз показывает трагические последствия для женщин, которые ищут свободу: социальное давление, моральное осуждение и конфликт с патриархальными нормами⁶. Через женские образы писатель раскрывает конфликт между общественными требованиями и личными стремлениями, отражая более широкие процессы культурных изменений.

В романе «Путь» герой лишён духовной опоры и сталкивается с противоречием между старой моралью и новыми социальными нормами. Ибрагим Аль-Сайд отмечает, что Махфуз иллюстрирует внутренний конфликт личности, который напрямую связан с социальным контекстом⁷.

Социальные ограничения, коррупция и патриархальные устои формируют у героев чувство безысходности и моральной дилеммы, заставляя искать баланс между выживанием и внутренней честностью. Эти мотивы повторяются в большинстве произведений писателя, делая его романы глубоко психологическими и философскими.

Конфликт поколений — одна из центральных тем в творчестве Махфуза. Старшее поколение придерживается традиционных норм, религиозных правил и авторитета, молодёжь ищет новые возможности, образование и личную свободу. Р. Аллен отмечает, что этот конфликт отражает социальные изменения и модернизацию египетского общества⁸.

Через столкновение поколений Махфуз показывает, как культурные трансформации, изменение ценностей и рост образования влияют на личность, семейные отношения и общество в целом.

Социальная критика в романах Нагиба Махфуза охватывает широкий спектр проблем египетского общества: патриархальные устои, бедность, коррупцию, неравноправие женщин, духовный и моральный кризис, конфликт поколений. Писатель раскрывает, как социальные структуры формируют индивидуальные судьбы, а личные переживания героев отражают общие закономерности общества.

Благодаря сочетанию психологической глубины, реализма и символизма его творчество остаётся актуальным, демонстрируя универсальные социальные и моральные проблемы, которые выходят за пределы исторического контекста.

Список использованных источников:

1. El-Enany R. Naguib Mahfouz: His Life and Thought. Cairo: AUC Press, 1993.
2. Allen R. The Arabic Novel: An Historical and Critical Introduction. Syracuse University Press, 1995.
3. Allen R. Naguib Mahfouz: Nobel Laureate in Literature. Cairo: AUC Press, 1993.
4. Barad M. Society and Politics in Modern Egypt. Cairo, 2002.
5. Abu Dib M. Symbolism and Social Critique in Mahfouz. Amman, 2001.
6. Haykel M. Women in Arabic Literature. Cairo, 1997.
7. Al-Said I. Modern Arabic Fiction and Society. Beirut, 1998.
8. Allen R. An Introduction to Arabic Literature. Cambridge, 1998.

ARAB TILIDA SO‘Z YASALISHI (ISHTIQOQ)NING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Sobirova Farida Qurbon qizi,
Oriental universiteti*

*Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) yo‘nalishi
3-bosqich talabasi
sobirovafarida42@gmail.com*

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasida dotsenti v.b. Sotvoldiyev Sirojiddin

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilida ishtiqaq ya’ni bu so‘z yasalishi hodisasi o‘rganilgan bo‘lib, asli bir so‘zdan va shu so‘zga ma’no jihatdan munosabatli bo‘lgan xilma-xil so‘zlarni yasash usuli va uning turlari ko‘rib chiqiladi. Arab tili dunyo tillari ichida eng ko‘p morfologik qolip orqali so‘z yasaluvchi til hisoblanib, qadimgi lotin tili, somiy tillar tarkibiga kiruvchi ayrim tillar bu jihat bilan bu tilga o‘xshash hisoblanadi. Ishtiqaq so‘zi شق o‘zagidan olingan bo‘lib, اشتقاق “yasash”, “paydo qilish”, “kelib chiqish” ma’nolarini anglatadi.

Kalit so‘zlar: ishtiqaq, kichik ishtiqaq, katta ishtiqaq, eng katta ishtiqaq, ishtiqaqi kubbar.

Abstract. In this article, ishtiqaq is a word-formation phenomenon in Arabic, the method of forming different words from one word and semantically related to this word, and its types are considered. The Arabic language is considered to be the most morphologically word-forming language among the languages of the world, and some languages that are part of the ancient Latin language and Semitic languages are similar to this language in this respect. The word ishtiqaq is derived from the root شق, اشتقاق means "to make", "to appear", "to come from".

Keywords: Ishtiqaq, small ishtiqaq, big ishtiqaq, biggest ishtiqaq, huge ishtiqaq.

Arab tili dunyo tillari orasida morfologik jihatdan eng rivojlangan tillardan biri hisoblanadi. Tilning bu xususiyati, ya’ni so‘z yasashning keng qamrovli va tizimli tizimi, arab tilini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Arab tilida so‘zlar asosan ildiz harflariga tayangan holda hosil qilinadi va shu ildiz harflardan turli ma’nolarga ega so‘zlar chiqarish mumkin. Bu jarayon ishtiqaq (اشتقاق) deb ataladi va u bir so‘zdan turli ma’noga ega boshqa so‘zlarni hosil qilish, ularni bir-biri bilan semantik jihatdan bog‘lash imkonini beradi.

Ishtiqaq ilmida so‘z yasashning bir necha asosiy turlari mavjud bo‘lib, ular harflarning joylashuvi, tartibi yoki talaffuzdagi o‘zgarishlarga asoslanadi. Shu jihatdan arab tili boshqa tillardan, xususan o‘zbek tilidan, sezilarli darajada farq qiladi, chunki o‘zbek tilida so‘z yasash ko‘proq affikslar va qo‘shimchalar orqali amalga oshadi. Arab tilidagi ishtiqaq jarayoni so‘zning morfologik va leksik imkoniyatlarini

kengaytiradi, lug‘aviy boylikni oshiradi hamda so‘zlarning semantik bog‘liqligini aks ettiradi.

Ushbu maqola arab tilida ishtiyoq hodisasini, uning turlari va qo‘llanilish tartibini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada kichik ishtiyoq, katta ishtiyoq va eng katta ishtiyoq kabi asosiy turlar misollar orqali yoritilib, so‘zlar orasidagi semantik va morfologik bog‘liqlik ko‘rsatib beriladi. Shu bilan birga, ayrim olimlarning fikriga binoan ishtiyoqning to‘rtinchi turi — ishtiyoqi kubbar ham keltiriladi, bu orqali arab tilida so‘z yasashning eng murakkab va keng qamrovli mexanizmlari ochib beriladi. Ishtiyoq bir so‘z o‘zagidan harflarning joyini o‘zgartirish yoki so‘zga boshqa harflar (noo‘zak harflar) qo‘shish orqali yangi so‘z hosil qilish va bu so‘zlar o‘zaro uzviy bog‘liqligidir. Ishtiyoq uch xil bo‘lib ular quyidagilardir :

1. Kichik ishtiyoq - harflari va harflar tartibini o‘zgartirmasdan bir so‘zdan boshqa har xil so‘zlar yasash usuli. Masalan: قرآن؛ كتابة؛ قراء - (o‘qish) so‘zidan - قراءة (o‘qish) so‘zidan - قرآن؛ كتابة؛ قراء (o‘rganmoq) so‘zidan - دراسة؛ كتاب - مكتوب - كاتب (yozish) مقروء-قارئ؛ درس- مدرسة ضرب؛ مدرسة yasalgani kabi.

2. Katta ishtiyoq - harflar tartibini o‘zgartirish orqali boshqa so‘zlar yasash. Masalan: جذب- جذب؛ رقب- قبر طلب-بطل؛ بسر- رسب؛ عرب - عبر؛ كتب - بكت دغر-درد-رغد-غدر؛ عرف-فرع؛ كرم-ركم؛ عرف-فرع؛ kabi.

3. Eng katta ishtiyoq - talaffuzda bir biriga yaqin bo‘lgan harflarning birini ikkinchisiga almashtirish orqali so‘zlar yasash. Masalan: نهق - qarg‘a qag‘illadi; نعق - eshshak hangradi ; أهطع (shoshmoq) أسرع (qattiq silkitmoq) هز (yengil silkitmoq) أز (shoshmoq, qo‘rquv bilan) أهرع (shoshmoq, qo‘rquv va qaltiroq bilan) kabi.

Uch o‘zakli so‘zlarning ayrimlarini misollarda ko‘rib o‘tamiz:

بقر o‘zagidan hosil bo‘lgan so‘zlarni ko‘rib chiqsak:

بقر fe’li - bu fe’lning lug‘aviy ma’nosi yormoq, ochmoqdir. Mazkur fe’ldagi o‘zak harflarni o‘rnini almashtirish natijasida o‘zaro munosabatli so‘zlar hosil bo‘lishini kuzatish mumkin:

بقرة ismi esa sigirdir. Ma’lumki, yerga ishlov berishda dehqonlar qadimdan sigirdan foydalanishgan. Yerni sigir yordamida omoch vositasida yorishgan, ya’ni haydashgan. Bu ikki so‘z o‘zaro munosabatli so‘z deyish mumkin.

بقر fe’li- dafn qildi, ko‘mdi. Qabr qazishda ham yerni yorish- ochish lozim.

Demak, qabr so‘zi ham yuqoridagi ikki so‘z bilan munosabatga kirisha oladi. برق fe’li- chaqin chaqdi, chaqmoq chaqdi, yarqiradi demakdir. Zohiran qaraganda yuqoridagi so‘zlar bilan bog‘liqligi yo‘qdek ko‘rinadi. Tasavvur kuchini ishga solib fikr yuritsak, chaqmoq chaqqan vaqtda osmon yorilib ikkiga bo‘lingan tasvir ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Go‘yoki osmon yoriladi. Shu tariqa برق so‘zini ham aslida sanab o‘tilgan so‘zlar bilan bog‘liq deya olamiz.

Yuqoridagi soʻzlar orasida بقر baqoro yaʼni yormoq soʻzi dominant soʻz boʻlib , boshqa soʻzlar shu soʻz atrofida birlashganini koʻrishimiz mumkin.

oʻzagidan hosil boʻlgan soʻzlarni koʻrib chiqsak:

غلب soʻzi- charchamoq maʼnosini bildiradi. Harakatlangan kishi charchasa toʻxtaydi. بلغ - erishmoq , balogʻatga yetdi maʼnosini bildiradi. Har narsa balogʻatga yetgach mohiyatan toʻxtaydi . Yoki biron narsaga erishgan kishi ham harakatdan toʻxtashi kuzatiladi.

غلب soʻzi- gʻalaba qildi, yutdi maʼnolarini anglatadi . Biron musobaqada gʻalaba qozongan inson ham toʻxtaydi. Gʻalaba qozongan kishi endi jiddu- jahd bilan harakat qilishiga xojat qolmaydi. Sababi u oʻzi koʻzlagan maqsadiga erishgan boʻladi. Ayrim arab tilshunos olimlari toʻrtinchi turini ham mavjud deyishadi. Ishtiyoqi kubbar bu bu bir necha soʻzlardan tuzilgan jummalarning baʼzi harflari ishtirokida yasalgan masdarlar yoʻnma masdarlar deb ataladi. Masalan:

جعل - جعلة dan جعلت فداك feʼli

حمدل - حمدلة dan الحمد لله feʼli

سبجل - سبجلة dan سبحان الله feʼli

حسبنا الله و نعم الوكيل dan

حسبل - حسبله feʼli

طلبة الله بقاءك dan

طلبك feʼli

صلى الله عليه و سلم dan

صلول-صلولة feʼli

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, arab tili goʻzalligi va fasohati bilan kishilarni rom qilib qolmasdan, bu tilning imkoniyatlari kengligi, leksik birliklardagi oʻzak harflarning kombinatsion oʻrin almashinishi natijasida oʻzaro munosabatga ega soʻzlarning hosil boʻlishi, maxraji yaqin harflarning almashinishi natijasida maʼnoni kengayib borishdek ishtiyoqi akbar atalmish oʻziga xos soʻz yasash yoʻllarining mavjudligi hali arabshunos tilshunoslarimiz oldiga koʻplab vazifalarni qoʻyadi. Ishtiyoq ilmining puxta oʻzlashtirish kelgusida arab tili, qolaversa oʻzbek tilining lingvistik imkoniyatlarining yangi qirralarini ochish mumkinligini koʻrsatadi. Xulosa qilib aytadigan boʻlsak ishtiyoq ilmi juda keng qamrovli ilm boʻlib, uning birgina ishtiyoqi sogʻirda butun boshli sarf ilmi oʻrganilishi uning katta ilm ekanligi haqida dalolat beradi, shuningdek biz agarda bitta soʻzning maʼnosini tushunsak, uni har xil vaznlarga qoʻyib boshqa maʼno keltirib chiqazishimiz mumkin boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Халидов Б.З.. Учебник арабского языка
2. Hasanov Mirqobil. Arab tili

3. Абдужабборов А. Араб тили
4. Ibrohimov N., Yusupov M., Oripov A. Arab tili grammatikasi.

ARAB TILIDA IKKI KELISHIKLI SO‘ZLAR VA ULARNING TURLARI

Karimova Shoxzodabonu Alimovna,

Oriental universiteti,

Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) yo‘nalishi

AF305-guruh talabasi

[*bonukarimova356@gmail.com*](mailto:bonukarimova356@gmail.com)

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedra dotsenti v.b.

S. Sotvoldiyev

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilida ikki kelishikli so‘zlarning - ممنوع من الصرف mavzusi va turlari o‘rganilgan bo‘lib, qaysi holatlarda so‘zlarning nasb o‘rinlari jar ko‘rinishida ifodalanishi, o‘zbek tilidagi atamalar, bir necha misollar bilan ifodalangan. Ikki kelishikli so‘zlar kasra va tanvin olmasligi bilan boshqa tillardagi qoidalardan ajralib turadi. Ushbu mavzusini o‘rganish orqali gapdagi so‘zlarning ma’nosini to‘g‘ri anglab, ularning sifatlarini to‘g‘ri qo‘llay olish mumkin.

Kalit so‘zlar: ikki kelishikli so‘z, atoqli ot, alif mamduda, alif maqsura, muntaho ko‘plik, muannaslik, ujma, moslashgan aniqlovchi, al aniqlik artikli, izofa.

Abstract. This article examines the Arabic grammatical category of diptotes (ممنوع من الصرف), outlining their main types and the contexts in which words that normally appear in the accusative case take the form of the genitive. Uzbek grammatical equivalents are provided, along with several illustrative examples. Diptotes differ from similar categories in other languages through their inability to take kasra or tanwīn. Understanding this topic makes it possible to interpret sentence meaning accurately and apply the relevant forms correctly.

Keywords: diptote, proper noun, alif mamdūda, alif maqşūra, sound plural of limitation, femininity markers, foreign-origin noun, descriptive agreement, definite article al-, izāfa.

Arab tili Somiy tillarining eng qadimiy va eng mukammal rivojlangan tarmog‘i bo‘lib, boy lug‘at zaxirasi va mukammal grammatik tizimi bilan ajralib turadi. Ma’lumki barcha tillar kabi arab tilining sintaksis bo‘limida ham kelishiklar so‘zning gapdagi vazifasini ko‘rsatib, boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishini ifodalovchi grammatik shakl muhim ahamiyatga ega. Arab tilida kelishiklarning ifodalanishiga kelsak o‘zbek tilidagi 6 ta kelishikning muqobili o‘laroq aksar hollarda 3 kelishikdan foydalaniladi.

Ammo qaratqich va tushum kelishigi bir xil qo‘shimchaga ega bo‘lgan va tanvin qabul qilmaydigan qator so‘zlar mavjud. Bular ikki kelishikli so‘zlar deyiladi. Masalan;

| Bosh kelishik | Qaratqich kelishik | Tushum kelishik |
|---------------|--------------------|-----------------|
| إبرهيم | إبرهيم | إبرهيم |
| سمرقند | سمرقند | سمرقند |
| علماء | علماء | علماء |

Quyidagi so‘zlar kasra qabul qilmasligi bilan ajralib turibdi. Bu kabi so‘zlar 2 turga bo‘linadi;

- 1) Bir sabab tufayli 2 kelishikli so‘zlar.
- 2) Ikki sabab tufayli 2 kelishikli so‘zlar.

Bir sabab tufayli kasra olmaydigan so‘zlarning 3 turi mavjud bo‘lib ular ;

1. Alif mamdudaga tugagan so‘zlar.
2. Alif maqsuraga tugagan so‘zlar.
3. Muntaho ko‘plik formasida tugagan so‘zlar.

1) Alif mamduda deb - oxiri hamzali va undan oldingi harakat zoida alifdan iborat so‘zlarga aytiladi. Masalan; *إبتداء, إنشاء, سماء, حسناء* kabi so‘zlar. Ammo ushbu turdagi so‘zlarimiz aynan 2 kelishikli bo‘lishi uchun so‘z oxiridagi hamza asliy emas, balki muannaslik uchun ziyoda qilingan hamza bo‘lishi kerak. Masalan; (*iyaxshilar*) *حسناً* so‘zining asli (*iyaxshi bo‘ldi*) *حسن* bo‘lib unga ء muannaslik uchun ziyoda qilib qo‘shilgan. *علماء* (olimlar) so‘zining ham asli *علم* bo‘lib, ء muannaslik uchun qo‘shilgan. Alif mamdudaning aynan shu turi 2 kelishikli so‘zlarga misol bo‘ladi.

2) Alif maqsuro deb - oxiri alif lazimaga tugagan so‘zlarga aytiladi. Masalan; *ربا, مرضى, زلفى, كبرى, عصا, فتى, سلمى* kabi so‘zlar. Bu turdagi so‘zlar ham 2 kelishikli bo‘lishi uchun, alif 3 ta asliy harflardan so‘ng muannaslik uchun qo‘shilgan bo‘lishi kerak. *مرض, زلف, كبر, سلم* so‘zlari fe‘llardan iborat bo‘lib quyidagi turga mansub bo‘la oladi.

3) Muntaho ko‘plik formasida tugagan so‘zlar deb – siniq alifdan keyin kelgan 2ta harfli yoki o‘rtasi sukunli bo‘lgan 3ta harfli siniq ko‘plikka aytiladi. *مساجد, مواطن, مفايح, تماثيل, حدائق* kabi so‘zlar quyidagi ko‘plikka misol bo‘ladi.

2 sababli 2 kelishikli bo‘lib qoladigan so‘zlarning jami 9 turi bo‘lib ular 2 asosiy qismga bo‘linadi.

1. Atoqli ot bo‘lib 6 shartdan biri topilishi.
2. Moslashgan aniqlovchi bo‘lib 3 shartdan biri topilishi lozim.

1) Atoqli ot va muannas bo‘lishi. Masalan; *فاطمة, زينب, مكة*. Ushbu turdagi so‘zlar misol bo‘la oladi. Lekin kalima alifsiz muannas bo‘lishi lozim aks holda 1 illat sababli ikki kelishikli so‘zlar qatoriga qo‘shiladi.

2) Atoqli ot hamda alif bilan nun ziyoda bo'lishi. مروان, رمضان, عثمان kabi so'zlarda ikki shart ham topilgan hisoblanadi.

3) Atoqli ot va ujma bo'lishi. Ujma so'zining lug'aviy ma'nosi- tili chuchuk degani, ammo istilohda arab bo'lmaganlarga nisbatan ishlatiladi. ابراهيم, يوسف, فرعون kabi atoqli otlar ushbu turga misol bo'ladi.

Muhammad, Solih, Shu'ayb, Hud, Nuh, Lut payg'ambarlardan boshqa Qur'onda zikr qilingan barcha payg'ambarlarning ismlari 2 kelishikli hisoblanadi.

4) Fe'l vaznidagi atoqli otlar ham sarflanmaydigan ismlar qatoriga mansubdir. يثرب, يزيد, احمد kabi ismlar aslida 1 va 2-shaxsda turgan hozirgi-kelasi zamon fe'llari hisoblanadi.

5) 2 qismdan tarkib topgan atoqli otlar. Masalan; محرموت, معديكرب kabi so'zlar. Ammo ويه kalimasiga tugagan so'zlar istisno tariqasida 2 kelishikli emas, balki o'zgarmaydigan mabniy ismlar jumlasiga kiradi.

6) O'zgartirilgan atoqli otlar. عمر, هبل, زحل so'zlar aslida فاعل vaznida bo'lgan bo'lib o'zgartirilgani uchun kelishikda to'liq tuslanmaydi.

7) Alif va nun ziyoda qilingan sifat. عطشان, ظمان kabi sifatlar huddi alif va nunga tugagan atoqli otlar kabi 2 kelishikli bo'ladi.

8) Fe'l vaznidagi sifatlar ham kelishikda tuslanmaydi. Ularga quyidagilar misol bo'ladi;

| Ranglar | Nuqsonlar | Orttirma darajadagi so'zlar |
|---------|-----------|-----------------------------|
| أبيض | أعور | أكبر |
| أحمر | أعمش | أصغر |
| أزرق | أقرغ | أفضل |

9) Vazni o'zgartirilgan sifat. فاعل مفعول Vaznida kelgan 1 dan 4 gacha sonlar misol bo'ladi. مثنى, واحد, موحدا, مثنى so'zlari bitta bitta, ikkita ikkita degan ma'nolarni bildiradi.

Ikki kelishikli so'zlar toki unga Al (أل) aniqlik artikli qo'shilguncha yoki izofa bo'lguncha qaratqich va tushum kelishiklarida bir xil ifodalanadi. Shuningdek 2 kelishikli so'zlar bilan birgalikda moslashgan aniqlovchini gapda qo'llayotganimizda, so'zimiz qaysi kelishikda turganini ma'no jihatdan anglab olib shunga aniqlovchimizni 4 jihatdan moslashtirishimiz lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, arab tili hatto o'zining kelishik tizimida ham boshqa tillardan farqlanib go'zal va jozibador ekanligini har tomondan isbotlab bera oladi. Birgina kasra olmaydigan ismlarimizning o'zi, shunday qamrovli ekanligi, arabshunos tilshunoslar oldiga ko'plab vazifalarni qo'yadi. Yuqoridagi mavzusi chuqur o'zlashtira olish bilan gapning ma'nolarini to'g'ri anglay olishimiz imkoniyati oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov M., Oripov A. Arab tili grammatikasi.
2. Xolid Abdul Aziz. Nahv tatbiiy.

ARAB TILINI O'RGANISHDA MASOFAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR

*Abdug'afforova Sojida Xasan qizi,
Oriental universiteti,
Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili)
AFK202-guruh talabasi*

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrası o'qituvchisi A.Ubaydullayev

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston sharoitida arab tilini o'rganishning zamonaviy vositalarini tahlil qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar, masofaviy onlayn darslar va interaktiv platformalar yordamida yoshlar va chekka hududlarda yashovchi o'quvchilar til ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Maqolada arab tilini o'rganish jarayonidagi muammolar — motivatsiya yetishmasligi, til kontentini tushunishdagi qiyinchiliklar va texnik cheklovlar — hamda ularni yengish bo'yicha amaliy yechimlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, O'zbekiston infobozorida faoliyat yuritayotgan "Ibrat Farzandlari" loyihasi misol sifatida keltirilib, individual daraja testi, interaktiv darslar va chat-guruhlar orqali til o'rganish jarayonining samaradorligi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: arab tili, masofaviy ta'lim, ijtimoiy tarmoqlar, interaktiv darslar, self-study, "ibrat farzandlari" loyihasi, til ko'nikmalari.

Abstract. This article examines modern tools for learning Arabic in the context of Uzbekistan. It explores how social networks, distance learning, and interactive platforms provide opportunities for young learners and students in remote areas to develop language skills. The study discusses the main challenges in Arabic learning, including low motivation, difficulties in understanding language content, and technical limitations, and offers practical approaches to overcoming them. The article also highlights the "Ibrat Farzandlari" project operating in Uzbekistan's information sphere, showing how level-assessment tests, interactive lessons, and chat-based learning groups contribute to more effective language acquisition.

Keywords: Arabic language, distance learning, social networks, interactive lessons, self-study, "Ibrat Farzandlari" project, language skills.

Bugungi har jabhada jadal rivojlanib o'sib kelayotgan o'zbekiston yoshlari, jahon tillari hossatan sharqshunoslik va sharq tillarini o'qib o'rganishda ham peshqadam

bo‘lib kelishmoqda. Arab tili esa dunyodagi eng ko‘p so‘zlashiladigan til o‘laroq bu borada qiziqib o‘rganilayotgan tillardan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. o‘tgan asrlarda buyuk ajdodlarimizdan qolgan bebaho qo‘lyozmalarni aynan arab va fors tilida bo‘lgani hamda tarjima qilish uchun qanchadan qancha manbalar biz yoshlarni kutib turgani ham bizni bu tilni daqiq o‘rganishga chorlaydi. Qolaversa yurtboshimizning: **“Yoshlarga sifatli ta’lim-tarbiya berish, xorijiy tillarni o‘rgatish, kasb egallab, hayotda munosib o‘rin topishiga ko‘maklashish – davlatimizning asosiy vazifasiga aylangan.”** (Sh.Mirziyoyev, 30-iyun 2025, Yoshlar kuni) degan so‘zlari yangi avlodning ilm egallashiga katta turtkidir.

Hozirgi itimoiy globallashuv qizg‘in rivojlangan davrda arab tilini o‘rganishning yoshlar orasida keng tarqalishi hatto ijtimoiy tarmoqlarda shuningdek masofaviy sharoitda o‘rganishda ham o‘z aksini topmoqda. Tilni puxta o‘rganishga bel boylagan ammo darslarda bevosita qatnasha olmaydigan o‘quvchi bugungi kunda zamonaviy inovatsion texnologiyalardan foydalanib bilvosita ilm olish imkoniga egadir. Bu yo‘l vaqtni bir muncha tejash, insoniy resurslarni to‘g‘ri taqsimlashga ham ijobiy yordam bera oladi.

Yangi tillarni, xossatan arab tilini o‘rganishda masofaviy va online ta’lim haqida gapirar ekanmiz, har bir yo‘nalishning o‘ziga hos foyda, yutuq va kamchiliklarini inobatga olgan holda, ushbu maqoladan maqsad, mavzuni atroflicha o‘rganish, duch kelinadigan muammolarga amaliy yechim berishdir.

Arab tilini o‘zlashtirmoqchi bo‘lgan o‘quvchi avvalo u til haqida ijtimoiy taqarmoqlar (Facebook, Instagram, Telegram, YouTube kabi platformalar) da yangi til haqida ma’lumotlar, o‘quv markazlar yohud online kurslarni qidirishni boshlaydi. Talab bor joyda taklif topilganidak onlie (Zoom orqali) o‘tiladigan metodik darslar, mavzularni to‘liq yoritib bergan video darslar (You Tube), yoki Duolingo va Ibrat Farzandlari kabi yangi tilni o‘rgatishga mo‘ljallangan mahsus loyihalar ham talaygina. Bunga qo‘shimcha ravishda SmartBook yoki MELBOOK kabi self-study asosida arab tilini o‘rgatuvchi audio darslik va kitobli kurslar ham mavjud. O‘quvchi o‘z sharoiti va resurslariga qarab bulardan istalgan birini tanlab ilm olishni boshlash imkoniga ega. *“Ijtimoiy tarmoqlar orqali turli guruhlariga qo‘shilish (Telegram, Facebook, Instagram) va haqiqiy chet elliklar bilan muloqot qilish yoki til o‘rganayotgan o‘z tengdoshlarini topish o‘zlashtirish effektivligini oshiradi. – Yangiboyeva M.B. Arab tilini o‘rganish: muammolar va yechimlar (2023)*

Mavzuni yanada yoritish maqsadida, arab tilini o‘rganuvchilar orasida ijtimoiy media (YouTube, Instagram, TikTok, Telegram, Facebook) orqali til o‘rganish samaradorligini quyidagi ilmiy maqolalar isbotlaydi: *Digital Flipped Learning by Using Telegram in Teaching Listening and Speaking Skills of University Students*

Maslamah, M., & Kholis, M. N. (2022). tadqiqotida aytilishicha: "Using YouTube and Instagram increased Arabic learners' listening comprehension and pronunciation accuracy more effectively than traditional workbook-based methods." Bu tadqiqotda YouTube videodarslari orqali o'rgangan talabalar tinglab tushunish bo'yicha 28% ko'proq o'sish ko'rsatgan.

Shuningdek *Maulana, A. (2025). "Improving Arabic Speaking through Constructivism and Telegram: o'z tadqiqotida : "Telegram discussion groups enhanced students' Arabic writing fluency and vocabulary retention through daily micro-tasks and peer feedback."* degan iqtibosni keltirib o'tgan. Ya'ni ular tajribada shuni aniqlashganki, Telegram orqali o'rganganlar — lug'at yodlashda 35% yuqori natija, oddiy darslik bilan o'rganganlar — atigi 12% o'sishni ko'rsatishgan.

Chet tilini masofaviy o'rganishda talbalar motivatsiyasi va muvaffaqiyatlari ham asosiy o'rinda turadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan Zoom ilovasi orqali o'tiladigan online sinxron darslarda o'quvchining bilvosita ustoz bilan real muloqoti, uning vaqt va zamon muammosiga yechim o'laroq kishi motivini yanada oshiradi. Feedback tizimi tez bo'lgani uchun talabalar o'zini darsga "bog'langan" his qilishadi. Ustozning ovoz, intonatsiya, o'qitish usuli – motivatsiyani auditoriya darsiga yaqin bo'lgan darajada ko'taradi. Yoki bo'lmasa duolingo, Memrise kabi platformalar ishtiyoqni bamisoli o'yin o'ynashga bo'lgan hohish kabi oshiradi. Ilovadagi ball yeg'ish sistemasi, kichik vazifalar va tez natijalar o'quvchi ruhini tabiiyki oshiradi.

Maqolamizga haqiqiy hayotiy misol sifatida, O'zbekiston infobozorida paydo bo'lganiga ko'p bo'lmagan, shunga qaramay minglab yoshlarning chet tillarini o'rganishida katta yordam berib kelayotgan "Ibrat Farzandlari" loyihasini yaqqol misol qilib oldik. Ushbu loyiha o'quvchilarga muntazam darslar, sifatli videokontent, interaktiv topshiriqlar va onlayn qo'llab-quvvatlov tizimi orqali mustaqil ravishda til o'rganish imkoniyatini yaratib, zamonaviy raqamli ta'limning samarali modeliga aylangan. Loyiha tizimi doirasida avval har bir o'quvchiga daraja testi o'tkaziladi va shu test natijasiga qarab mos darajadagi darslar tanlanadi. Bu yondashuv o'quvchining mavjud bilim darajasini hisobga olgan holda individual o'quv rejasi yaratishga imkon beradi, shuningdek, motivatsiyani oshiradi va yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Loyihada qo'llanilgan gamifikatsiya, modul tizimi va interaktiv materiallar o'quvchilarning qatnashuvini rag'batlantiradi, hamda online jamoa orqali o'zaro tajriba almashish imkonini beradi. Shu bilan birga, test asosida dars tanlash individual yondashuvni ta'minlab, o'quv jarayonida muvaffaqiyatga erishish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.

Ammo har yutuqning kamchiliklari bo'lganidek online ta'lim olishda ham o'quvchi ba'zi muammolarga duch keladi. Masalan, yuqorida aytib o'tilgan

motivatsiya doimiy va stabil bo‘lmasligi mumkin. Darslar muntazam davom etmay qolsa, o‘qituvchi bilan bevosita muloqot kamaysa yoki talaba o‘zida nazorat mexanizmini hosil qilolmasa, o‘qish jarayoni sustlashadi. Sinxron (Zoom) darslarga qatnashish intizom talab qiladi, ammo o‘quvchilar ko‘pincha vaqtni boshqarishda qiynaladilar. Duolingo, Telegram guruhlarini kabi asinxron platformalarda esa “o‘zim keyin qilaman” degan kechiktirish odati motivatsiyani tushiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa talabalar tez chalg‘iydigan bo‘lgani uchun diqqatni jamlash qiyinlashadi. Shu sababli onlayn o‘quvchilar orasida *kursni oxirigacha yetkazmaslik holati yuqori bo‘ladi*.

Yoki arab Arab tili morfologiyasining murakkabligi, talaffuzdagi nozik farqlar va yozuv tizimining o‘ziga xosligi sababli onlayn o‘rganuvchilarda mazmunni tushunish bilan bog‘liq muammolar tez-tez uchraydi. Bu holatlar o‘quvchida “tushunmayapman, demak uddalay olmayman” degan fikr paydo qilib, motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

Yana biri esa O‘zbekistonning ayrim hududlarida internet tezligi va barqarorligi hali yetarli emas. Bu esa sinxron onlayn darslarning sifatiga bevosita ta‘sir qiladi. Zoom darslarda ovoz uzilib qolishi yoki video sifatining pasayishi dars samaradorligini kamaytiradi. Telefon orqali o‘qiyotgan o‘quvchilar uchun matn fayllarini ochish, videoni ko‘rish yoki platformaga kirish qiyinlashadi. Ba‘zi o‘quvchilarda quvvatlash qurilmalari, noutbuk yoki planshet mavjud emas — bu ularning o‘quv imkoniyatlarini cheklaydi.

Shuningdek, asinxron platformalarda videolarni yuklash yoki testlarni bajarish ham internet sarfi yuqoriligi sababli qiyinchilik tug‘diradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlar va masofaviy o‘quv vositalari arab tilini o‘rganishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Albatta, motivatsiya yetishmasligi, til kontentini tushunishdagi qiyinchiliklar va texnik cheklovlar kabi muammolar mavjud, ammo interaktiv darslar, onlayn guruhlar, gamifikatsiya va “Ibrat Farzandlari” kabi loyihalar yordamida ularni samarali yengish mumkin. Shu asosda, davlat va ta‘lim tizimida bu kabi loyihalarni kengaytirish, yangi metod va platformalarni integratsiya qilish orqali arab tilini o‘rganish imkoniyatlarini yanada rivojlantirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangiboyeva M. Arab tilini o‘rganish: muammolar va yechimlar. – 2023. [ResearchGate+1](#)
2. Maulana, A. (2025). *Improving Arabic Speaking through Constructivism and Telegram: A Quasi-Experimental Study*. ALSUNIYAT: Jurnal Penelitian Bahasa, Sastra, dan Budaya Arab, 8(1). [ejournal.upi.edu](#)

O‘ZBEK ARABSHUNOSLIGI: KECHA VA BUGUN

HOZIRGI ZAMON ARABSHUNOSLIGI

Bahodirova Maxsuma

Oriental universiteti, Filologiya fakulteti,

1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrası katta o‘qituvchisi

Talipov Nodir

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab xalqlarining turkiy xalqlar tarixiy taraqqiyoti, til tizimi va madaniy merosiga ko‘rsatgan ta‘siri ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Arabshunoslikning hozirgi zamondagi rivojlanish bosqichlari, arab tilining turkiy tillarga ta‘sir darajasi hamda ikki tamonlama madaniy almashinuv masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, mashhur sharqshunos olimlar fikrlari solishtirilib, mavzu yuzasidan umumiy ilmiy xulosa chiqariladi.

Kalit so‘zlar: Arab tili, dialekt, fonologiya, grammatika, leksik birliklar, morfologiya, o‘zbek tili, qarashlar, qiyosiy tahlil, til tizimi, tilshunoslik, tipologiya

Arab va turkiy xalqlar o‘rtasidagi aloqalar tarixiy manbalarda nihoyatda keng yoritilgan bo‘lib, ularning ildizlari VIII asrga borib taqaladi. Arab xalifaligining kengayishi, islom dinining yoyilishi, madrasachilik tizimining shakllanishi, ilm-fanning rivoji — bularning barchasi Markaziy Osiyo hududida yangi ilmiy-madaniy muhit yaratdi. Arab tili Qur‘on tili sifatida nafaqat diniy hayotda, balki davlat boshqaruvida, ilmiy faoliyatda va ijodda yetakchi mavqega ega bo‘ldi. Shu sababli arab tili turkiy xalqlar orasida uzoq vaqt davomida ilm-fan va ma‘rifatning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

Mavzuning dolzarbligi zamonaviy geosiyosiy jarayonlar bilan ham bevosita bog‘liq. Arab dunyosining siyosiy va iqtisodiy ahamiyati ortib borayotgani, shuningdek, islomshunoslik va arab tili o‘rganishining global tendensiyaga aylangani arabshunoslikni bugungi kunda eng talabgir ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylantirmoqda. Turkiy xalqlar, xususan O‘zbekiston uchun arab tilini o‘rganish, arab madaniyatini tadqiq etish va uni chuqur tahlil qilish o‘z tarixiy ildizlarini anglash, ma‘naviy merosni o‘rganish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Shu nuqtai nazardan, arabshunoslik faqat tarixga oid fan emas, balki zamonaviy ilmiy maydonda ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan keng qamrovli yo‘nalishdir. U nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, tarix, falsafa, dinshunoslik va siyosatshunoslik sohalarini o‘z ichiga oladi.

1. Arabshunoslikning shakllanishi va hozirgi zamondagi ahamiyati

Hozirgi zamon arabshunosligi arab tili, arab adabiyoti, falsafasi, diniy manbalari va zamonaviy arab davlatlarining siyosiy-iqtisodiy tuzilishini o'rganadigan keng qamrovli fan sohasi hisoblanadi. Global integratsiya, dinshunoslikka qiziqishning kuchayishi, xalqaro aloqalarning ortishi bu yo'nalishni yanada dolzarb qildi. O'zbekiston va boshqa turkiy davlatlarda arabshunoslik asosan ilmiy tadqiqotlar, diniy merosni o'rganish va xalqaro hamkorlik uchun zarur bo'lgan soha sifatida rivojlanmoqda.

2. Arablarning turkiy xalqlarga ta'sirining tarixiy asoslari

Arablar va turkiy qabilalar o'rtasidagi aloqalar VII–VIII asrlardan boshlab shakllangan. Bu munosabatlar asosan islom dini tarqalishi orqali rivojlanib, Markaziy Osiyo madaniy hayotiga chuqur singdi. Arablar tomonidan yetkazilgan diniy-ma'rifiy g'oyalar, ilmiy meros va yozuv tizimi turkiy xalqlarning ijtimoiy-madaniy rivojiga asos bo'ldi.

Sharqshunoslik asoschisi V. V. Bartold bu holatni quyidagicha izohlaydi:

“Islomning Markaziy Osiyoga kirib kelishi nafaqat diniy hayotni, balki madaniy va ilmiy taraqqiyotni tubdan o'zgartirdi. Arab tili ilm-fanning asosiy vositasiga aylandi.”

Demak, arablarning kirib kelishi Markaziy Osiyoning ilmiy uyg'onish davriga sabab bo'lgan.

3. Til ta'siri: leksik qatlam va grammatik o'zgarishlar

O'zbek tilida arabcha o'zlashmalar qadimdan kuchli bo'lib, ayniqsa diniy, ilmiy, madaniy sohalarda ustunlik qiladi. “Ilm”, “ma'naviyat”, “adab”, “mantiq”, “tafsir”, “qoid”, “maqsad”, “hikmat” kabi yuzlab so'zlar arab tili orqali tilimizga kirgan. Ayrim grammatik tushunchalar ham arab tilshunosligi modeli asosida shakllangan.

Tilshunos Muhammadjon Xodiyev bu jarayonni shunday izohlaydi:

“O'zbek tili lug'at boyligining salmoqli qismini arabcha qatlam tashkil etadi. Ayniqsa diniy, ilmiy va ma'naviy terminologiyada arabcha o'zlashmalar hal qiluvchi o'rin tutadi.”

Shuningdek, XX asr boshlarigacha arab yozuvi turkiy xalqlar orasida keng qo'llanilishi ham til rivojida katta iz qoldirgan.

4. Madaniy ta'sir: adabiyot, san'at va tafakkur

Arab madaniyatining ta'siri turkiy xalqlar adabiyotida yaqqol ko'rinadi. Navoiyning she'riyati, Yassaviy hikmatlari, tasavvuf adabiyoti, qasida, ruboiy, ghazal singari janrlar arab-fors poetik maktablari bilan bevosita bog'langan.

Milliy uyg'onish davri namoyandasi Fitrat arab madaniy merosining rolini shunday baholaydi:

“Turkiston ilmiy uygʻonishining asosiy kaliti arab tili boʻlgan. Arab tili orqali xalqimiz jahon ilm-faniga qoʻshildi.”

Meʼmorchilikda kufiy yozuv, arabeska naqshlar, diniy binolar dizayni arab-islamiy anʼanalardan taʼsirlangan.

5. Zamonaviy davrda arabshunoslikning turkiy davlatlar uchun ahamiyati

Bugungi kunda arabshunoslik quyidagi sabablar tufayli yana kuchaymoqda:

Oʻzbekistonning Saudiya Arabistoni, Qatar, BAA kabi davlatlar bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalari kengaymoqda.

Diniy taʼlimot va tarixiy manbalarni asl tilida oʻqishga ehtiyoj kuchaygan.

Arab davlatlaridan grantlar, taʼlim almashinuvi va ilmiy hamkorliklar koʻpaygan.

Global media, internet va xalqarolashtirilgan biznesda arab tilini bilish ustunlik beradi.

Taniqli arab olimi Al-Jabiriy ham arab merosining bugungi kun global madaniy jarayonlarida ahamiyatini taʼkidlab:

“Arab ilmiy merosi Sharq madaniyatini tushunishda poydevor vazifasini bajaradi.”

Uning fikri turkiy xalqlarda arabshunoslikning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Yuqorida taqdim etilgan tarixiy-maʼnaviy va lingvistik tahlillar shuni koʻrsatadiki, arablarning turkiy xalqlar hayotiga koʻrsatgan taʼsiri juda chuqur, tizimli va davriy bosqichlarga ega. Arab tili VII–XII asrlar davomida Markaziy Osiyo ilmiy, diniy va madaniy hayotida asosiy kommunikatsiya vositasi sifatida shakllandi, bu esa turkiy xalqlarning ilmiy tafakkuri, diniy dunyoqarashi va madaniy identifikatsiyasida muhim oʻrin tutdi.

Sharqshunos olim V. V. Bartold bu jarayonni juda keng miqyosda baholaydigan yondashuvga ega. Uning fikricha:

“Arab tili ilm-fanning universal vositasiga aylangan davrda Markaziy Osiyo xalqlarining maʼnaviy hayoti tubdan oʻzgargan, ular islom sivilizatsiyasi tarkibida yangi pogʻonaga koʻtarilgan.”

Bartoldning yondashuvi koʻproq sivilizatsion va tarixiy-madaniy jarayonning umumiy transformatsiyasiga urgʻu beradi.

Bunga qarshi ravishda, turkiy tilshunoslik maktabining vakili Muhammadjon Xodiyev masalaga ancha tilshunoslikka xos, konkret va strukturaviy nuqtai nazardan qaraydi. Xodiyevning fikricha:

“Oʻzbek tili lugʻat boyligida arabcha qatlamning ulushi juda katta boʻlib, bu taʼsir madaniy omillardan koʻra, asosan ilmiy-diniy terminologiya orqali shakllangan.”

Demak, u arablarning ta'sirini leksik qatlam, terminologiya, ilmiy atamalar orqali izohlaydi; jarayonni umumiy madaniy tizimdan ko'ra, til strukturasi shakllanishi bilan bog'laydi.

Har ikki olimning yondashuvini solishtirganda quyidagi farqlar yaqqol ko'rinadi: Bartold arab ta'sirini keng, global sivilizatsion jarayon sifatida ko'rsa, Xodiyev uni konkret lingvistik mexanizmlar, terminologiya va struktural o'zgarishlar orqali izohlaydi.

Biroq har ikkisi bir fikrda birlashadi: arablarning turkiy xalqlar hayotiga ko'rsatgan ta'siri inkor qilib bo'lmaydigan darajada chuqur, tarixiy va ko'p qirrali jarayon bo'lgan.

Olimlar qarashlarining solishtirilishi, tarixiy manbalar va tilshunoslik materiallariga tayangan holda shuni aytish mumkinki, arab madaniyati va arab tili turkiy xalqlar sivilizatsiyasining shakllanishida poydevor vazifasini bajargan. Arab tili diniy-ma'rifiy taraqqiyotning, ilmiy fikr rivojining va madaniy o'zgarishlarning markazida turib, o'zbek tilining leksik boyligi va madaniy tafakkuriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatgan. Hozirgi davrda esa arabshunoslik turkiy davlatlar uchun yana strategik ahamiyat kasb etib, tarixiy merosni chuqurroq o'rganish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ishonch bilan ko'rsatadiki, arablarning turkiy xalqlar hayotiga ta'siri yagona bir davr yoki cheklangan jarayon emas, balki butun mintaqa sivilizatsiyasini shakllantirgan keng qamrovli tarixiy hodisadir. Arab tili Markaziy Osiyo xalqlari uchun faqat diniy muloqot vositasi bo'lib qolmagan, balki ilm-fan, adabiyot, falsafa va davlat boshqaruvi sohalarida ham asosiy intellektual maydonni yaratgan. Leksik qatlamning boyishi, adabiy janrlarning rivojlanishi, me'morchilik maktablarining shakllanishi, islomiy-ma'rifiy qarashlarning chuqur ildiz otishi arab madaniyatining turkiy xalqlar tafakkuri bilan sintezga kirishini ta'minladi.

Olimlardan Bartoldning sivilizatsion yondashuvi va Xodiyevning lingvistik tahlili o'zaro uyg'unlashgan holda arab merosining ikki asosiy yo'nalishini yoritadi: biri — tarixiy-madaniy transformatsiyaning keng ko'lamini ochib beradi; ikkinchisi — o'zbek tili va boshqa turkiy tillarda shakllangan terminologik hamda strukturaviy o'zgarishlarni ilmiy asoslaydi. Bu ikki yondashuvni solishtirish natijasida arab ta'siri nafaqat madaniy hayotning ustki qatlamida, balki til, tafakkur va ijtimoiy ongning tub qatlamlarida ham iz qoldirganini ko'rish mumkin bo'ladi.

Bugungi globallashuv sharoitida arabshunoslik yana yangi bosqichga ko'tarilmoqda: xalqaro hamkorlik, diniy-ma'rifiy merosga qiziqish, akademik almashinuvlar va iqtisodiy integratsiya arab tili va madaniyatini o'rganishni strategik zaruratga aylantirmoqda. Shunday ekan, arab—turkiy madaniy aloqalari tarixiy o'zaro

ta'sirning tugagan bosqichi emas, balki zamonaviy davr uchun ham amaliy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan uzluksiz jarayondir.

Demak, arab madaniyati va arab tili turkiy xalqlar tarixining ajralmas bo'lagi bo'lib, ularning ilmiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyotini shakllantirishda hal qiluvchi o'rin egallaydi. Shu bois, hozirgi zamon arabshunosligining rivoji, aslida, bizning tarixiy ildizlarimizni chuqurroq anglash, madaniy merosimizni asrash va uni yangi ilmiy bosqichga olib chiqish jarayonining mantiqiy davomidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bartold, V. V. Turkiston tarixi bo'yicha tadqiqotlar. Toshkent: Fan, 1997.
2. Fitrat, A. O'rta Osiyo madaniyati tarixi. Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
3. Hodiyeu, M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1981.
4. Karimov, Sh. O'zbek tiliga kirgan arabcha o'zlashmalar tarixi. Toshkent: Fan, 2008.
5. Qosimxo'jayev, A. Arab tili va islom madaniyati tarixi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2014.
6. Sodiqov, N. O'zbek tilida arabcha qatlamning shakllanishi. Samarqand: Registon, 2012.
7. Yoqubov, B. Markaziy Osiyo va arab sivilizatsiyasi aloqalari. Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2016.

ARAB DAVLATLARIDA TIL VA MADANIYAT

Hasanjonova Nozima

Oriental universiteti AF-503 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: "Tillar-1" kafedrasi o'qituvchisi Ma'mura Sidiqova

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davrda arab xalqining jamiyatlar hayotidagi g'oyaviy va siyosiy ahamiyati hamda uning xalqaro miqyosdagi ta'siri yoritiladi. 1969-yilda tashkil etilgan Islom hamkorlik tashkiloti musulmon davlatlari o'rtasidagi birdamlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutgani qayd etiladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab islomiy tafakkurni chuqurroq anglash, Qur'oni Karim asosida zamonaviy muammolarga yechim izlash harakatlari kuchaygani va bu jarayon ayrim hududlarda siyosiy keskinliklarga ham sabab bo'lgani ta'kidlanadi. Maqolada 1980-yillar o'rtalarida ayrim arab mamlakatlarida islomiy siyosiy harakatlar pasaygani, biroq keyinchalik ba'zi davlatlarda siyosiy islomning yana faollashgani ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, arab tilining jahon miqyosidagi o'rni, uning BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarda rasmiy til sifatida qo'llanishi, arab tilining klassik, zamonaviy adabiy va lahjaviy shakllarining shakllanishi ilmiy nuqtai nazardan tahlil

qilinadi. Arab xalifaligining kengayishi natijasida islom dini va arab tilining global tarqalishi, arab madaniy markazlarining ilm-fan rivojiga qoʻshgan hissasi maqolaning asosiy xulosalaridan biri sifatida koʻrsatiladi. Mazkur omillar arab-islam madaniyatining jahondagi oʻrnini belgilovchi muhim tarixiy va madaniy jarayonlar sifatida baholanadi.

Kalit soʻzlar: Arab xalifaligi, Islom dini, teokratik davlat, arab tili, islomiy uygʻonish, siyosiy jarayonlar, madaniy markazlar, arab lisonshunosligi.

Abstract: This article examines the ideological and political significance of Islam in contemporary societies and its influence on the international stage. It outlines the role of the Organization of Islamic Cooperation, established in 1969, in strengthening unity and cooperation among Muslim countries. The study highlights that from the second half of the twentieth century, movements aimed at understanding Islamic thought more deeply and seeking solutions to modern issues based on the Qurʼan began to intensify, while also noting that these developments led to political tensions in certain regions. The article points out that although Islamic political movements declined in some Arab countries during the mid-1980s, political Islam regained influence in several other states toward the end of the decade. The paper also analyses the global status of the Arabic language, its use as an official language in the United Nations and other international organizations, and the development of its classical, modern standard, and dialectal forms. It emphasizes how the expansion of the Arab Caliphate contributed to the widespread dissemination of Islam and Arabic, and discusses the significant role of Arab cultural centers in the advancement of science and knowledge. These factors are assessed as key historical and cultural processes that define the place of Arab-Islamic civilization in the modern world.

Keywords: Arab Caliphate, Islam, theocratic state, Arabic language, Islamic revival, political processes, cultural centers, Arabic linguistics.

Arab dunyosi qadimiy tarixga, boy madaniy merosga va tilshunoslik jihatidan oʻziga xos rivojlanish jarayonlariga ega mintaqalardan biridir. Bu hududda shakllangan madaniy-anʼanaviy qadriyatlar, ilm-fan taraqqiyoti hamda adabiy meros nafaqat arab davlatlari, balki jahon sivilizatsiyasining rivojiga ham sezilarli taʼsir koʻrsatgan. Arab tili esa ushbu madaniy taraqqiyotning asosiy unsurlaridan biri boʻlib, asrlar davomida diniy, ilmiy, siyosiy va diplomatik jarayonlarning muhim vositasi sifatida shakllangan.

Ushbu tadqiqotda arab davlatlarida til va madaniyatning shakllanishi hamda rivojlanish jarayonlarini oʻrganish maqsadida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar qoʻllanildi. Avvalo, deskriptiv (tasviriy) metod orqali arab tilining klassik, zamonaviy

adabiy va lahjaviy ko‘rinishlari, ularning geografik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi izohlab berildi

VII asrda Arabistonda arab teokratik davlatining shakllanishi keyinchalik yirik feodal imperiyaning — arab xalifaligining yuzaga kelishiga asos bo‘ldi. VIII asr o‘rtalariga kelib, bu imperiya ulkan hududni qamrab olib, Eron, Afg‘oniston, Markaziy Osiyoning bir qismi, Shimoliy Afrika, Zaqafqaziya hamda Andalusiyagacha kengaydi. Arablar fath etgan mamlakatlarda Islom dini va arab tili ommalashib, ayrim hududlarda arablashtirish jarayoni kechgan bo‘lsa, ba‘zilar o‘z til va madaniyatini saqlab qolgan, biroq ilmiy sohada arab tili asosiy vosita sifatida qo‘llanilgan. Turli davrlarda Damashq, Bag‘dod, Kordova va Qohira kabi shaharlar arab-islam madaniyatining yetakchi markazlariga aylangan. Olimlar ushbu davrni Sharq uyg‘onish davri sifatida e‘tirof etadi. XX asrga kelib, ayniqsa 1960–70-yillardan boshlab, islomiy dunyoqarashning kuchayishi, islom oqimlarining ta‘siri va diniy-siyosiy harakatlarning faollashuvi musulmon davlatlarida ijtimoiy jarayonlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. 1969-yilda tashkil etilgan Islom hamkorlik tashkiloti musulmon mamlakatlarining integratsiyasini mustahkamlashga xizmat qildi. Bugungi kunda arab tili jahon miqyosida yetakchi tillardan biri sifatida BMTning rasmiy tillari qatoriga kiradi. Shu bilan birga, arab dunyosida klassik arab tili, zamonaviy adabiy arab tili va turli mintaqaviy lahjalar bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lib, arab tilining boy va ko‘p qatlamli tuzilishini namoyon etadi. Arab xalqlari insoniyat tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ularning madaniyati, san‘ati va qadriyatlari nafaqat Yaqin Sharq, balki butun dunyo taraqqiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Arab dunyosi deb ataluvchi hudud asosan Osiyoning g‘arbiy qismi va Afrikaning shimoliy qismida joylashgan mamlakatlarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda yigirma ikkita arab davlati mavjud bo‘lib, ular “Arab Ligasi” tarkibiga kiradi. Ushbu davlatlarga Saudiya Arabistoni, Misr, Iroq, Suriya, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Marokash, Jazoir, Tunis, Falastin, Yaman, Iordaniya, Ummon, Bahrayn, Komor orollari, Jibuti, Livan, Liviya, Mavritaniya, Qatar, Somalia, Sudan kabi mamlakatlar kiradi va ularning rasmiy tili arab tili (Насирова М, 2022). Arablar, G‘arbiy Osiyo va Shimoliy Afrikadagi arab mamlakatlarida yashovchi xalqlar guruhi. Umumiy soni 764 mln. kishi (2019). Arablar asosan Afrika va Osiyo mamlakatlarida: Misr, Sudan, Liviya, Tunis, Jazo-ir, Marokash, Livan, Suriya, Iroq, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, Yaman va boshqa yerlarda yashaydi, bu mamlakatlar aholisining qariyb 80% ini tashkil qiladi. Arab tilida sozlashadi. Arablar ko‘pchiligi sunniylar. Bundan tashqari, Arablar ichida musulmon dinining bir qancha mazhablari mavjud. Misr, Livan, Suriya va Iordaniyada yashovchi arablarning bir qismi xristian diniga e‘tiqod qiladi. Asl vatani Arabiston yarim oroli. Milloddan avvalgi I-ming yillikda va milodning dastlabki yillarida Arabiston, Suriya,

Iroq, Shimoliy Afrika yerlariga kelib joylashgan. Millodan avvalgi I-ming yillikda dastlabki arab davlatlari Palmira (Tadmor), Nabateya va Lihyon vujudga kelgan. V-asrda bir qancha arab davlatlari (G'asson va Laxm; Shimoliy Arabistonda) paydo boldi. V-VII-asrlarda ayrim arab elatlari tashkil topdi. VII-asrda Arab xalifaligi barpo etildi. Arablarning xalifalik hududidagi boshqa xalqlar bilan aralashib ketishlari natijasida yangi elatlar va davlatlar (Falastin, Rajastin, Suriya, Suriya, Livan Livan (Lubnon), Iroq, Misr va Shimoliy Afrika davlatlari) yuzaga keldi. O'rta Osiyo arablari O'rta Osiyo davlatlarida yashovchi, o'zlarini arab deb yurituvchi etnik guruhlardir. Ajdodlari VII-XIV-asrlar davomida kelib o'rnashib qolgan. O'zbek, turkman va tojik millatining tarkibiga kirgan. O'rta Osiyo arablari asosiy qismi O'zbekistonning Buxoro, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida, shuningdek Farg'ona vodiysi shimoliy-sharqiy qismida yashaydi. O'zbek xalqi ikki guruhga bolinadi: shayboniy va sanonly. O'rta Osiyo arablari o'zlarining qadimiy madaniyatlari, urf-odatlarining ayrim belgilarini saqlab qolganlar. Arab tili ikkinchi til sifatida ayrim qishloqlarda hozirgacha qo'llanib kelinadi. O'rta Osiyo arablari xo'jaligida chorvachilik muhim o'rin tutadi. Suvli yerlarda yashaydigan arablar dehqonchilik qiladi

“Arab madaniyati” atamasi ba'zan o'rta asrlarda arab xalqlari va o'sha paytda hukmronlik ostida bo'lgan Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika va Janubi-G'arbiy Yevropa xalqlari tomonidan yaratilgan barcha madaniyatlarga nisbatan qo'llanadi. Arab xalifaligining bevosita ta'siri. Bu barcha madaniyatlarning umumiy tashqi xususiyati arab tili edi. Arablar qadimgi dunyo madaniyatini-yunon-ellin, Rim, Misrlik, Oromiy, Eron, Hind va Xitoy madaniyatini ijodiy o'zlashtirib, uni bosib olingan yoki qo'shni xalqlardan o'zlariga bo'ysungan suriyaliklar, forslar, xorazmlar (hozirgi O'zbeklar) ishtirokida o'zlashtirganlar, Tojiklar, ozarbayjonlar, berberlar, ispanlar (andalusiylar) va boshqalar. Arablar insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim qadam tashladilar (file:///C:/Users/user/Downloads/).

Arab madaniyatining beshigi G'arbiy, Markaziy va Shimoliy Arabiston edi. Arab madaniyatidan oldin Janubiy Arabiston aholisining sabaiy tilida so'zlashuvchi va o'z yozuviga ega bo'lgan madaniyati paydo bo'lgan. Arab madaniyati ham ushbu madaniyat, ham qadimgi davrlarda arablarning bir qismi o'rnashib qolgan G'arbiy Osiyo va Misr mintaqalari madaniyati, shuningdek, hozirgi Suriya mintaqalaridagi oromiylar madaniyati ta'sirini o'tkazgan. Livan, Falastin va Iroq. IV-asrda arablar o'zlarining alifbo yozuvlarini yaratdilar, bu oromiy kursiv yozuvining turlaridan biri edi (<https://hujjat24.uz/product/>).

VII-asrda Arabistonda arab teokratik davlati tashkil topdi, u istilolar natijasida VIII-asr o'rtalarigacha yirik feodal imperiyasi-arab xalifaligiga aylandi (Bag'dod xalifaligi), uning tarkibiga (Arab Sharqi mamlakatlari bundan mustasno) Eron,

Afg‘oniston, Markaziy Osiyoning bir qismi, Shimoliy-G‘arbiy Hindiston, Shimoliy Afrika mamlakatlari, Zaqafqaziya, Pireney yarim orolining muhim qismi (Andalusiya) kirgan. Arab feodallari bosib olingan mamlakatlarda islom dinini va arab tilini ekdilar. Ular bosib olgan mamlakatlarning ba’zilar arablashtirildi, boshqalari madaniy va til mustaqilligini saqlab qoldi, ammo bu mamlakatlardagi arab tili o‘rta asrlarda Yevropada lotin tili kabi fanda ishlatilgan. Turli davrlarda arab madaniyatining markazlari Damashq, Bag‘dod, Kordova bo‘lgan (Kordova xalifaligi), Qohira va boshqa shaharlar. Olimlar tomonidan “uyg‘onish davri” sifatida tavsiflangan (<https://kutubxona.samduuf.uz/download/4006>).

Musulmon davlatlari, xususan arab islom mamlakatlarida Islom dinining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni sezilarli ravishda ortib bordi. Islom dini yakkaxudolik tamoyillarini ulug‘laydi va shariat qoidalarining barcha musulmonlar uchun umumiyligini ta’kidlaydi. Musulmon xalqlarining madaniy merosi, diniy marosimlari, urf-odatlari va e’tiqodlaridagi o‘xshashlik ularning o‘zaro yaqinlashuviga xizmat qilmoqda.

Islomiy dunyoqarashning kuchayishi va turli islomiy oqimlar hamda tashkilotlarning ta’siri ortishi 1960-yillarning oxirlaridan boshlab sezildi, 1970-yillar oxiriga kelib esa yanada faollashdi. Bu jarayon musulmon mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy hayotga ta’sir ko‘rsatib, ayrim hududlarda siyosiy keskinliklar va nizolarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘ldi. Bu holatlar islom olamidagi turli qarama-qarshi qarashlar va umumiyliklarni aks ettirdi.

Hozirgi kunda Islom dini ko‘plab jamiyatlarda kuchli g‘oyaviy va siyosiy ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon ayrim guruhlarining jamiyat hayotini shariat tamoyillari asosida tashkil etishga intilishi bilan bog‘liq. 1969-yilda ko‘plab musulmon davlatlari va Falastin ozodlik tashkilotini birlashtirgan “Islom hamkorlik tashkiloti” (sobiq “Islom qurultoyi”) tuzildi. Tashkilot faoliyati musulmon davlatlari o‘rtasidagi birdamlik va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan.

Keyingi o‘n yilliklarda islomiy tafakkurni chuqurroq anglash, Qur’oni Karim asosida zamonaviy muammolarga yechim izlashga undovchi yo‘nalishlar rivojlandi. Bir tomondan bu jarayon jamiyatdagi ijtimoiy talab va ehtiyojlarni ifoda etsa, boshqa tomondan ayrim hududlarda keskin fikrlar va siyosiy qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishiga ham olib keldi (E.Nuriddinov, Sh.Zokirov, F.Ismatullayev, 2021).

1980-yillar o‘rtalarida ayrim arab mamlakatlarida islomiy siyosiy harakatlarning faolligi nisbatan pasaydi (Misr, Quvayt, Tunis va boshqalar). Biroq o‘sha davrning oxirlariga kelib, ba’zi mamlakatlarda (Jazoir, Livan va boshqalar) islomning siyosiy jarayonlardagi o‘rni yana kuchayganligi kuzatildi.

Arab xalifaligining shakllanishi va kengayishi nafaqat siyosiy hududlarning o'zgarishiga, balki islom dini va arab tilining keng yoyilishiga olib keldi. Arab madaniy markazlarining faoliyati, ilm-fan rivojida ulkan hissasi va arab tilining xalqaro maydondagi ahamiyati bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. XX asrning ikkinchi yarmida islomiy mafkuralarning faollashuvi va diniy-siyosiy jarayonlarning kuchayishi musulmon davlatlarining ijtimoiy hayotida muhim o'rin egalladi. Arab tilining klassik, adabiy va lahjaviy ko'rinishlari uning tarixiy ildizlari chuqur ekanini va zamonaviy taraqqiyotga moslashuvchanligini ko'rsatadi. Ushbu omillar arab-islam madaniyatining jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Arab davlatlarida til va madaniyatning shakllanishi ko'p asrlik tarixiy jarayonlar, siyosiy o'zgarishlar va madaniy aloqalar bilan chambarchas bog'liqdir. Arab tili — klassik merosdan to zamonaviy adabiy shaklgacha bo'lgan taraqqiyoti bilan — mintaqaning ijtimoiy, ilmiy va ma'naviy hayotida hal qiluvchi o'rin tutib keladi. Bugungi kunda arab tili xalqaro maydonda muhim til sifatida e'tirof etilayotgani, uning madaniy va ilmiy salohiyati global jarayonlarda ham sezilarli ta'sir kuchiga ega ekanini ko'rsatadi.

Arab dunyosining boy madaniy merosi, adabiyot an'analari, ilm-fan markazlari va turli lahjaviy xilma-xilligiga ega til tizimi ushbu hududning madaniy o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardir. Til va madaniyatning o'zaro uyg'unligi arab jamiyatlarida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida namoyon bo'ladi hamda ularning hozirgi taraqqiyot strategiyalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yakun qilib aytganda, arab davlatlarida til va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganish nafaqat bu mintaq tarixini, balki uning hozirgi kunda jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini tushinishda ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Hasanov M. Arab tili darslari. – Toshkent: Movarounnahr, 2004.
2. Jo'raev Ж.А. Шарқ тиллари (араб тили). – Жиззах, 2017. – Б. 4.
3. Nasirova M. O'rganilayotgan til (arab) tarixi. – Toshkent, 2022.
4. Nuriddinov E., Zokirov Sh., Ismatullayev F. Jahon tarixi. Eng yangi davr. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2021.
5. Qadimgi Arabiston tarixi va madaniyati.
6. <https://hujjat24.uz/product/qadimgi-arabiston-tarixi-va-madaniyati>
7. Qadimgi Arabiston tarixi (elektron kutubxona manbasi).
8. <https://kutubxona.samduuf.uz/download/4006>
9. [file:///C:/Users/user/Downloads/ZDIFT+0327%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/ZDIFT+0327%20(2).pdf)

ZAMONAVIY DUNYODA ARAB TILINING AHAMIYATI

Muhammadxonova Muniraxon

Oriental universiteti Filologiya fakulteti

4- kurs talabasi

Muhmmadxonovamunira03@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilining zamonaviy dunyoda tutgan o‘rni va uning tarixiy, madaniy, ilmiy va diniy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada arab tilining zamonaviy dunyoda va xalqaro munosabatlardagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Arab tilining tarixiy va madaniy tomonlari bilan hamda arab tilining ta’lim va ilm-fan sohasidagi o‘rni, arab mamlakatlaridagina emas, balki butun dunyoda muhim ahamiyat kasb etishi va iqtisodiy mavqei, texnologik rivojlanish bilan bog‘liq imkoniyatlari o‘ganiladi. Arab tili, hozirgi kunda ko‘plab xalqaro tashkilotlarda muhim ahamiyatga ega ekanligi. Arab tilidagi zamonaviy san’at va adabiyot asarlarining xalqaro madaniyatga qo‘shgan hissasi ham muhim jihat sifatida ko‘rib chiqiladi. Umuman olganda maqolada arab tiling zamonaviy jamiyatda qanchalik ahamiyatga ega ekanligi ochib beriladi Ushbu maqola arab tilini o‘rganishga qiziqqan talabalar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘z: Arab tili, zamonaviy dunyo, xalqaro munosabatlar, xalqaro diplomatiya, ta’lim va ilm-fan, ilmiy tadqiqot, arab adabiyoti, arab madaniyati.

Аннотация: В данной статье анализируется роль арабского языка в современном мире и его историческое, культурное, научное и религиозное значение. Статья показывает роль арабского языка в современном мире и международных отношениях. Изучаются исторические и культурные аспекты арабского языка, а также его роль в образовании и науке, его значение не только в арабских странах, но и во всем мире, его экономический статус и возможности, связанные с технологическим развитием. В настоящее время арабский язык имеет большое значение во многих международных организациях. Важным аспектом также рассматривается вклад современных произведений искусства и литературы на арабском языке в международную культуру. В целом, статья раскрывает важность арабского языка в современном обществе. Данная статья предназначена для студентов, интересующихся изучением арабского языка.

Ключевые слова: арабский язык, современный мир, международные отношения, международная дипломатия, образование и наука, научные исследования, арабская литература, арабская культура.

Arab tili dunyo madaniy merosining muhim qismi bo‘lib, insoniyat tarixida alohida ahamiyat kasb etgan tillardan biridir. Ushbu til asrlar davomida arab mamlakatlarining rasmiy tilli hisoblanadi va u Qur’oni Karimning tili, islom dinining ajralmas qismi bo‘lib, musulmon olamining diniy hayotida asosiy vosita bo‘lib kelgan. Islom dini

tarqalishi va xalifaliklarning kengayishi bilan arab tili butun musulmon olamining adabiy, ilmiy va diplomatik tili sifatida rivojlangan. Ayniqsa, VIII-XII asrlar oralig'ida arab tilida yaratilgan ilmiy va falsafiy asarlar Yevropa Uyg'onish davriga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Nafaqat Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududlarida, balki keng islom olamida ham aloqa va ilm-fan tili sifatida xizmat qilgan. Ilmiy va madaniy ahamiyati olajak O'rta asrlarda arab tili ilm-fan va falsafa, matematika, astronomiya, tibbiyot va boshqa bir nechta fanlarning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan. asosiy tili edi. Mashhur olimlar Imom Al-Buhoriy Al-Xorazmiy, Ibn Sino va Al-Farobiy asarlarini arab tilida yozib, dunyo ilm-faniga katta hissa qo'shganlar. a bu G'arbdagi ilm-fan va madaniyat yuksalishiga hissa qo'shdi. Arab tilida yozilgan ilmiy asarlar va tarjimalar G'arb olimlariga yangi bilimlar manbai sifatida xizmat qildi.

Arab tili dunyo tillari orasida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, u nafaqat Islom dunyosining asosiy tili, balki ko'plab ilmiy va madaniy yutuqlarning tili sifatida ham ahamiyatlidir. Bugungi globalizatsiya jarayonida arab tilini o'rganish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki xalqaro aloqalarda muvaffaqiyatga erishish uchun ham muhim omilga aylanmoqda. Arab tili qariyb 1500 yillik tarixga ega bo'lib, bugungi kunda 22 mamlakatda rasmiy til sifatida foydalaniladi va 400 milliondan ortiq inson tomonidan so'zlashiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining oltita rasmiy tillaridan biri va Islom Hamkorlik Tashkiloti va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar arab tilini rasmiy til sifatida qabul qilgan bo'lib. Arab tili xalqaro diplomatiyada, siyosatda, iqtisodiyotda, madaniyatda muhim o'rin tutadi. Arab mamlakatlarining jahon iqtisodiyotidagi o'rni va neft resurslari bilan bog'liq global hamkorliklar arab tilining o'rganish ahamiyatini oshiruvchi yana bir omil hisoblanadi. Jahon miqyosida arab mamlakatlari bilan olib borilayotgan iqtisodiy va diplomatik aloqalarda arab tilini bilish va tushunish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyoj ushbu tilning global iqtisodiy ahamiyatini oshirmoqda. Arab davlatlarining iqtisodiyotdagi o'rni, xususan, energetika sohasidagi yetakchilik, arab tilining ahamiyatini yanada oshiradi. Masalan, 2023 yil ma'lumotlariga ko'ra, dunyo neft eksportining qariyb 40 foizi arab davlatlariga to'g'ri keladi, bu esa xalqaro savdo va iqtisodiy hamkorlikda arab tilini bilishni zaruratga aylantirmoqda.¹ Shu bilan birga, arab dunyosida turizm sohasining rivojlanishi ham arab tilining o'ziga xos marketing vositasiga aylanishiga olib kelmoqda. Masalan, Misr, Marokash va Birlashgan Arab Amirliklarida yiliga millionlab turistlar arab tilini o'rganish ehtiyojini his qilmoqda. Arab tilini o'rganish o'tmishdagi bilimlarni chuqurroq anglash va

¹ Said, Khaled. "The Role of Arabic Language in Scientific Research." *Journal of Modern Languages*, vol. 20, no. 3, 2020, pp. 112–130.

zamonaviy fan va texnologiyalardagi yangiliklarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek zamonaviy dunyoda arab tili so‘zlashuvchilarning onlayn faolligi ortib bormoqda. Arab tilidagi ijtimoiy tarmoqlar, internet platformalari va raqamli media dunyo bo‘ylab millionlab foydalanuvchilarni birlashtirmoqda. Ijtimoiy media platformalarida arab tilidagi kontentning o‘sishi, internetda arab tilidan keng foydalanilishi tilning o‘rganish ahamiyatining asosiy vosita sifatida rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Google, Amazon va Microsoft kabi global kompaniyalar arab tilida xizmat ko‘rsatishni kengaytirib, ushbu sohada yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. shuningdek, arab tili xalqaro ommaviy axborot vositalarida ham muhim o‘rin tutadi. Arab dunyosidagi yosh avlodlar ham raqamli texnologiyalar yordamida arab tilini yanada ko‘proq va osonroq o‘rganmoqda va ishlatmoqda.

Madaniy jihatdan arab tilida yaratilgan asarlar, filmlar, seriallar va adabiyotlar ham jahon miqyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Zamonaviy arab adabiyoti va san’ati nafaqat arab dunyosida, balki boshqa davlatlarda ham qiziqish uyg‘otmoqda. Ko‘plab arab yozuvchilari, shoirlari va san’atkorlari xalqaro miqyosda tan olindi, ularning asarlari turli tillarga tarjima qilinib, jahon madaniy boyligiga katta hissa qo‘shmoqda.

Arab tili dunyodagi eng qadimiy va boy tillardan biridir. U ilm-fan va madaniyat rivojida muhim rol o‘ynagan, ayniqsa, IX-XII asrlarda arab tilida yozilgan ilmiy asarlar butun dunyo faniga katta ta’sir ko‘rsatgan. O‘zbekistonda arab tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish nafaqat diniy, balki xalqaro aloqalarni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun ham muhim e’tibor beriladi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti “chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2012 – yil 10- dekabrda PQ -1875 - sonli va “O‘zbekiston Respublikasid xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish tadbirlari to‘g‘risida”¹ 2021-yil 19-maydagi PQ -5117 – sonli qarorida xorijiy tillarni o‘rganish tizimini isloh qilish, zamonaviy ommabop metodikalardan foydalangan holda xorijiy tillarni o‘qitish, xorijiy tillardagi zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash va barcha davlat oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan xorijiy til o‘qituvchilari kamida C1 darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatlariga ega bo‘lish rejaları va talablari qo‘yildi. Arab tilini bilish ilmiy asarlarni aslida o‘rganish, Yaqin Sharq mamlakatlari bilan hamkorlik qilish va xalqaro biznesda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, arab tilini o‘rganish zamonaviy dunyoda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

^{1 1} O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021 – yil 19- maydagi PQ-5117 – sonli qarori //https://lex.uz/docs/5426736

Arab tilini o‘rganish nafaqat tarixiy va diniy merosni anglash, balki zamonaviy fan, texnologiyalar va xalqaro aloqalarga integratsiyalashish uchun ham muhimdir. Bu tilni o‘rganish shaxsiy va professional muvaffaqiyatlarni ta’minlash uchun zamonaviy dunyoning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2021 yil 19 may PQ-5117. <https://lex.uz/docs/-5426736>

2. Mamatqulov, A. (2018). "O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari".

3. Sadiqov Z., Abdurahmonova D. Tarjimashunoslik terminlarining ko‘p tilli lug‘at ma’lumotnomasi. – Namangan, 2017.

O‘ZBEK ARABSHUNOSLIGI DARG‘ALARI

Usmonova Dilafroz

Oriental universiteti Arab tili filologiyasi fakulteti

talabasi

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasi o‘qituvchisi Sevara Chimpovlatova

Anotatsiya: Ushbu maqola O‘zbek arabshunosligining tarixiy taraqqiyoti va bugungi holatini o‘rganadi. Unda arab tilini o‘zbek ilmiy muhitida o‘rganish va tadqiq etishning dastlabki bosqichlari, mashhur arabshunos olimlar hamda ularning ilmiy merosi haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy davrda arabshunoslik fanidagi o‘zgarishlar, yangi pedagogik yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlarda arab tilining roli ham yoritilgan. Mazkur ish o‘quvchilarga va tadqiqotchilarga arabshunoslikning nafaqat tarixiy ildizlarini, balki uning zamonaviy rivojlanish imkoniyatlarini tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek arabshunosligi, arab tili, tarixiy rivojlanish, zamonaviy arabshunoslik, ilmiy tadqiqot, pedagogik yondashuv, arab olimlari, lingvistik meros, ilm-fan rivoji.

Annotation: This article studies the historical development and current state of Uzbek Arabic studies. It provides information about the initial stages of studying and researching the Arabic language in the Uzbek scientific environment, famous Arab scholars and their scientific heritage. The article also covers changes in Arabic studies in the modern era, new pedagogical approaches and the role of the Arabic language in

scientific research. This work will help students and researchers understand not only the historical roots of Arabic studies, but also its modern development opportunities.

Keywords: Uzbek Arabic studies, Arabic language, historical development, modern Arabic studies, scientific research, pedagogical approach, Arab scholars, linguistic heritage, development of science.

Arab tili va arabshunoslik O'zbekistonda uzoq tarixga ega bo'lib, mamlakatning ilmiy va madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek arabshunosligi asosan arab tilini o'rganish, tarjima qilish, adabiyot va ilmiy merosni tadqiq etishga qaratilgan. Tarixiy nuqtai nazardan, bu soha O'rta asrlarda diniy va madaniy aloqalar orqali shakllangan va mustahkam poydevor bilan mustahkamlangan.[1]

Hozirgi kunda arabshunoslik nafaqat tilshunoslik sohasida, balki zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, pedagogika va madaniyatlararo muloqot bilan ham chambarchas bog'liq fan sifatida rivojlanmoqda. Shu sababli, O'zbek arabshunosligining tarixiy rivojlanishi va bugungi holatini o'rganish nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki uning hozirgi va kelajakdagi imkoniyatlarini ham tushunishga yordam beradi.

O'zbek arabshunosligi — bu arab tilini, adabiyotini, madaniyati va tarixini tadqiq qiluvchi ilmiy yo'nalish bo'lib, u o'zbek ilm-fani va madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega. Ushbu soha quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:[2]

- arab tilini o'rganish va tarjima qilish;
- arab adabiy merosini tadqiq etish;
- diniy matnlarni tushunish va izoh berish;
- ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish.

Tarixiy jihatdan, o'zbek arabshunosligi diniy, ilmiy va madaniy ehtiyojlar bilan chambarchas bog'langan:[3]

- Islom tarixi davri: Arab tili asosan diniy matnlarni tushunish maqsadida kirib kelgan. Qur'onni tushunish, hadis va fiqh asarlarini o'rganish zaruriyati arab tilini egallashni taqozo qilgan.

- Xorazm, Buxoro va Samarqand ilmiy maktablari: Ushbu markazlarda arab tili va adabiyoti rivojlangan, arabshunos olimlar yetishgan.

- Toshkent va Samarqand maktablari: Arabshunoslik bo'yicha ta'lim va tarjima ishlari maktablarda davom ettirilgan.

O'zbek arabshunosligi quyidagi asosiy yo'nalishlarda rivojlanadi:[4]

- Lingvistik tadqiqotlar: Arab tilining grammatikasi, leksikasi, morfologiyasi va sintaksisi o'rganiladi.

- Adabiyotshunoslik: Arab klassik va zamonaviy adabiyoti, she'riy va nasriy ijod, hikoya va dostonlar tahlil qilinadi.

- Tarjima va tarjimonlik: Arab tilidagi diniy, ilmiy va adabiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish.

- Tarixiy va madaniy tadqiqotlar: Arab xalqlari, madaniy meros va O'zbekiston bilan aloqalari o'rganiladi.

Mashhur arabshunos olimlar:[5]

- Abu Ali ibn Sino davrida arab tili ilmiy asarlar uchun vosita sifatida ishlatilgan.
- Muhammad al-Koshg'ariy turkiy tillarni arab tilida tadqiq qilgan.
- XX asrda arabshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar Toshkent, Samarqand va Buxoroda rivojlangan.

Zamonaviy davrda, O'zbekiston universitetlarida arabshunoslik kafedralari faoliyat yuritadi va arab tili hamda madaniyati o'quv dasturlariga kiritilgan. Hozirgi tadqiqotlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- Arab klassik adabiyotini o'rganish va tarjima qilish;
- Arab dunyosidagi zamonaviy siyosiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish;
- O'zbek-arab ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish.

O'zbek arabshunosligi rivojlanishini ikki asosiy davrga bo'lish mumkin: kecha va bugun.[6]

1. Kecha: tarixiy rivojlanish. O'zbekistonda arabshunoslikning ildizlari asosan O'rta asrlarga borib taqaladi. Shu davrda arab tili diniy, ilmiy va adabiy maqsadlarda o'rganilgan. Madrasalarda talabalar Qur'on va hadislarni o'rganish bilan birga arab adabiy tilini ham egallagan. Ushbu davrda yetuk olimlar, masalan, Abu Ali ibn Sino va boshqa arabshunos mutafakkirlar, o'z asarlari, tarjimalari va izohli ishlari orqali O'zbek ilmiy makoniga katta hissa qo'shgan.

Arabshunoslikning tarixiy davridagi asosiy yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga olgan:

- Arab tili grammatikasi va leksikasini o'rganish
- Arab adabiyoti va diniy matnlarni tahlil qilish
- Tarjima va izoh berish orqali ilmiy bilimlarni rivojlantirish

2. Bugun: zamonaviy arabshunoslik. Zamonaviy davrda arabshunoslik faqat tilshunoslik bilan cheklanmay, balki ilmiy tadqiqotlar, pedagogika va madaniyatlararo aloqalar sohasida ham faol rivojlanmoqda. Bugungi arabshunoslikning o'ziga xos jihatlari:

- Arab tilini o'rganish metodikasi va ta'lim texnologiyalari takomillashgan
- Ilmiy tadqiqotlar arab dunyosining tarixiy, madaniy va siyosiy jihatlarni o'rganishga yo'naltirilgan

• Arab adabiy merosi, jurnalistika va zamonaviy adabiyot tahlillari keng qo'llanilmoqda

Shuningdek, hozirgi kunda arabshunoslik sohasida ilmiy markazlar, universitetlar va onlayn platformalar orqali talabalar va tadqiqotchilar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bu O'zbek arabshunosligini nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Natijada, O'zbek arabshunosligi tarixiy ildizlarini saqlab qolgan holda, zamonaviy fan talablariga moslashib, rivojlanmoqda va sohaning kelajagi uchun yangi istiqbollarni ochmoqda.

O'zbek arabshunosligi – Kecha va Bugun[7]

| Aspektlar | Kecha (Tarixiy davr) | Bugun (Zamonaviy davr) |
|----------------------------|--|--|
| Maqsad | Diniy matnlarni tushunish, tarjima qilish | Tilshunoslik, pedagogika, madaniyatlararo aloqalar, ilmiy tadqiqot |
| Yo'nalishlar | Grammatika, leksika, tarjima, izohlar | Metodik ta'lim, ilmiy tadqiqot, adabiyot tahlili, zamonaviy texnologiyalar |
| Ta'lim usullari | Madrasalar, shaxsiy o'qish, murabbiylik | Universitetlar, ilmiy markazlar, onlayn platformalar, interaktiv metodlar |
| Mashhur olimlar | Abu Ali ibn Sino, Mahmud al-Kashg'ari (tarjima va izohlar) | Zamonaviy arabshunos olimlar va tadqiqotchilar |
| Ilmiy madaniy ahamiyati va | Diniy bilim va madaniy merosni saqlash | Xalqaro ilmiy aloqalar, zamonaviy ta'lim va tadqiqotlar |

O'zbek arabshunosligi boy tarixiy merosga ega bo'lib, u diniy, ilmiy va madaniy ehtiyojlar asosida shakllangan. Tarixiy davrda arab tilini va adabiyotini o'rganishning asosiy maqsadi diniy matnlarni tushunish va tarjima qilishdan iborat bo'lgan. Shu bilan birga, arab tilini o'rganish ilmiy va madaniy bilimlarning rivojlanishiga ham xizmat qilgan.

Hozirgi kunda arabshunoslikning qamrovi kengaygan. Endi u faqat tilshunoslik bilan cheklanmay, balki pedagogika, madaniyatlararo aloqalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar sohasida ham faol qo'llanilmoqda. Arab tilini o'rgatish metodikasi takomillashgan, yangi ta'lim texnologiyalari joriy etilgan va talabalar hamda tadqiqotchilar uchun ilmiy resurslar va onlayn platformalar yaratilgan.

Shu nuqtai nazardan, O'zbek arabshunosligi nafaqat tarixiy ildizlarini saqlab qolgan, balki zamonaviy talab va vazifalarga moslashib, yanada rivojlanmoqda. Bu esa sohaning ilmiy hamda amaliy ahamiyatini oshiradi.

Muhokama natijalari:

1. O'zbek arabshunosligining tarixiy rivojlanishida diniy va madaniy ehtiyojlar asosiy rol o'ynagan.

2. Tarixiy davrda arab tili va adabiyotini o'rganishning asosiy yo'nalishlari: grammatika, leksika, tarjima va izoh berish bo'lgan.

3. Hozirgi kunda arabshunoslik sohasida yangi pedagogik yondashuvlar, zamonaviy tadqiqotlar va ilg'or metodikalar keng qo'llanilmoqda.

4. Arabshunoslik faqat tilshunoslik bilan cheklanmay, balki madaniyatlararo aloqalar va xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

5. O'zbek arabshunosligi tarixiy ildizlarini saqlab, zamonaviy rivojlanish yo'lini tutgan holda, kelajakda yanada kengayish va takomillashuv imkoniyatlariga ega.

O'zbek arabshunosligi tarixiy jihatdan boy merosga ega bo'lib, uning shakllanishi diniy, ilmiy va madaniy ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liq. Tarixiy davrda arab tili va adabiyoti asosan diniy matnlarni tushunish, ularni tarjima qilish va ilmiy izoh berish maqsadida o'rganilgan. Shu bilan birga, arabshunoslik O'zbek ilmiy makonida ilmiy tafakkur va madaniy taraqqiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Hozirgi kunda arabshunoslikning qamrovi kengayib, u nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika, madaniyatlararo aloqalar va ilmiy tadqiqotlar sohasida ham faol rivojlanmoqda. Yangi ta'lim texnologiyalari, ilmiy markazlar va onlayn resurslar arab tilini o'rganish va tadqiq qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Shunday qilib, O'zbek arabshunosligi tarixiy ildizlarini saqlagan holda, zamonaviy ilmiy talablar bilan uyg'unlashib, kelajakda yanada rivojlanish va takomillashuv imkoniyatlariga ega. Bu esa sohaning nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatini oshiradi va O'zbek ilmiy makonini xalqaro miqyosda boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avezov, N. O'zbek arabshunosligi tarixi. Toshkent: Fan. 2015-yil.
2. Karimov, S. Arab tili va adabiyoti o'qitish metodikasi. Toshkent: Universitet Nashriyoti. 2018-yil.
3. Mirzaev, T. Zamonaviy O'zbek arabshunosligi: muammolar va istiqbollari. Toshkent: Ilmiy Nashrlar. 2020-yil.
4. Rustamov, B. Arab tili va madaniy aloqalar. Toshkent: Fan va Ma'rifat. 2017-yil.

5. Saidov, M. O'zbek olimlarining arabshunoslik merosi. Toshkent: Sharq Nashriyoti. 2019-yil.
6. Sobirov, R. Pedagogik yondashuvlar va arab tili ta'limi. Toshkent: Universitet Nashriyoti. 2021-yil.
7. Tolipov, J. Arab adabiyoti va tarjima ishlari. Toshkent: Fan. 2016-yil.

ARAB TILI GRAMMATIKASINING NAZARIY MASALALARI

“INNA VA UNING SHERIKLARI” (إِنَّ وَأَخْوَاتُهَا) NING FUNKSIONAL-SEMANTIK TAHLILI

*Xosiyat Ochilova,
Oriental universiteti,
Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) yo‘nalishi
AFK 101 – guruh talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tili nahv tizimining muhim bo‘limlaridan biri bo‘lgan “Inna va uning sheriklari” (إِنَّ وَأَخْوَاتُهَا) ning grammatik tabiati, sintaktik vazifalari va semantik xususiyatlari keng tahlil qilinadi. Fe’lga o‘xshash harflarning ismiy gap tarkibiga kirishi, muhtadoni nasb, xabarni esa raf’ qilishi, ularning ta’kid, orzu, umid, istisno va tashbeh kabi ma’no soylarini hosil qilishi ilmiy misollar asosida yoritilgan. Maqolada إِنَّ / اِنَّ yuklamalarining fathali va kasrali kelish holatlari, yengillatilgan shakllari (المخفف), shuningdek Qur’on oyatlari va adabiy matnlardagi qo‘llanilish misollari tahliliy yondashuvda berilgan. Ushbu tadqiqot arab tilini o‘rganuvchilar, tarjimonlar hamda nahvshunoslar uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Inna va uning sheriklari, fe’lga o‘xshash harflar, nahv, ismiy gap, nasb, raf’, semantika, ta’kid, yengillatilgan shakl, arab tili grammatikasi.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of “Inna and its sisters” (إِنَّ وَأَخْوَاتُهَا), one of the fundamental components of Arabic syntax. The study examines the grammatical nature, syntactic functions, and semantic roles of these particles, which resemble verbs in both their structural and functional behavior. Their influence on nominal sentences—specifically, assigning the accusative case to the subject (mubtada) and the nominative case to the predicate (khabar)—is discussed through detailed linguistic examples. The article also explores the semantic nuances expressed by these particles, such as emphasis, hope, wish, exception, and comparison. Special attention is given to the conditions of using إِنَّ / اِنَّ in their accusative and genitive forms, their lightened (مخفف) variations, as well as examples from the Qur’an and classical Arabic literature. This research is valuable for learners of Arabic, translators, and scholars of Arabic grammar.

Keywords: Inna and its sisters, particles resembling verbs, Arabic syntax, nominal sentence, accusative, nominative, semantics, emphasis, lightened form, Arabic grammar.

Arab tili dunyodagi eng murakkab va semantik jihatdan eng boy tillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, uning nahv tizimi — gap qurilishi, tarkibiy bo'laklarning o'zaro aloqasi va ma'no ifodalanish mexanizmi — tilshunoslik olamida chuqur ilmiy tadqiqotlar obyekti bo'lib kelmoqda. Ushbu nahv tizimining ajralmas qismi bo'lgan “إِنَّ وَأَخَوَاتُهَا” (Inna va uning sheriklari) o'zining grammatik va semantik xususiyatlari bilan arab tili sintaksisida alohida mavqega ega.

Bu yuklamalar ismiy gapga kirib, gapning egasi – muftadoni nasb, xabarini esa raf' qiladi. Biroq ularning ta'siri faqat sintaktik o'zgarish bilan cheklanib qolmaydi — ular nutqda ta'kid, ehtimol, orzu, istak, tashbeh, istisno kabi murakkab ma'no nozikliklarini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun arab tilidagi barcha klassik nahv kitoblarida (Sibawayh, Ibn Malik, Ibn Hishom, Zamaxshariy asarlarida) ushbu harflarning o'rni keng tahlil qilinadi.

“Inna va uning sheriklari” Qur'oni karim tili, hadis matnlari, fiqh kitoblari, arab adabiyoti va zamonaviy jurnalistik uslubning ham asosiy sintaktik vositalaridan biridir. Mavzuning dolzarbligi uning semantik-grammatik tabiati, tushunchaviy mohiyati, tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar, yengillatilgan shakllar va gapdagi turli sintaktik vaziyatlarda qo'llanishi bilan belgilanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — “Inna va uning sheriklari”ning arab tili nahv tizimidagi o'rni, grammatik tabiati, gap tarkibidagi funksiyasi va semantik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishdan iborat.

Arab grammatikasida bu guruhdagi yuklamalar “الحروف المشبهة بالفعل” — fe'lga o'xshash harflar deb ataladi. Buning bir nechta grammatik sabablari mavjud.

Fe'llarga tashqi tuzilish jihatidan o'xshashligi. Masalan: أَنْ tuzilishi jihatidan فَعَلٌ kabi fe'l shakllariga o'xshaydi. Bular ham birnecha harfdan tashkil topgan, ohangdor va harakatli birliklardir.

Fe'lga o'xshash tarzda so'zlarga ta'sir ko'rsatishi. Fe'l o'zidan keyin kelgan biror so'zning e'rabini o'zgartiradi. Xuddi shu kabi “Inna va uning sheriklari” ham ismiy gapga kirib, muftadoni nasb, xabarni esa raf' qiladi. Bu ularning sintaktik jihatdan fe'l funksiyasiga yaqinligini ko'rsatadi. Masalan:

إِنَّ زَيْدًا مَاهِرٌ - Albatta Zayd mohir.

Mabniyligi jihatidan fe'llarga o'xshashligi. Fe'l o'tgan zamonda fathaga mabniy bo'lgani kabi:

إِنَّ، أَنْ، لَيْتَ، كَأَنَّ، لَكِنَّ

ham fathaga mabniydir. Bu doimiylik ularni fe'lga yanada yaqinlashtiradi.

Ma'no jihatidan fe'l ma'nolarini ifodalashi:

- لَيْتَ — “istayman”, “umid qilaman”.
- كَأَنَّ — “o'xshaydi”.

- أَنْ — “haqiqatan shunday”.
- لَكِنَّ — “lekin, istisno qilaman”.

Demak, bular sintaktik jihatdan fe’l emas, biroq ma’no-amaliy jihatdan fe’lga teng kuchga ega birliklardir.

Har bir yuklamaning nutqda bajaradigan ma’no vazifasi turlicha va arab nutqining badiiy va emotsional uslubini shakllantiruvchi asosiy vositalaridir.

“أَنَّ” ning fathali kelishi. Quyidagi holatlarda أَنَّ fathali bo‘ladi:

Fe’lning egasi (fa’il) o‘rnida kelganda: سَرَرَنِي أَنَّكَ نَاجِحٌ

Majhul fe’lning noib fa’ili bo‘lganda: قُلْ أَوْحِيَ إِلَيَّ أَنَّهُ اسْتَمَعَ نَفَرٌ مِنَ الْجِنِّ

To‘ldiruvchi bo‘lganda: عَرَفْتُ أَنَّكَ مُجْتَهِدٌ

Qaratqich o‘rnida kelganda: ذَلِكَ بِأَنَّ قَوْلَ أَبِيكَ حَقٌّ

“إِنَّ” ning kasrali kelishi. Quyidagi holatlarda إِنَّ kasrali bo‘ladi:

Gap boshida kelganda — ta’kid maqsadida: إِنَّا أَنْزَلْنَاهُ فِي لَيْلَةِ الْقَدْرِ

Ba’zi harflardan keyin majburiy keladi: أَلَا إِنَّ أَوْلِيَاءَ اللَّهِ لَا خَوْفٌ عَلَيْهِمْ

كَلَّا إِنَّ الْإِنْسَانَ لِرَبِّهِ لَكَنَّاظٍ

Ergash gaplarda (صلة الموصول): أُحِبُّ الَّذِي إِنَّهُ مُخْلِصٌ

Hol gaplarda: أَجَلُ التَّلْمِيذِ إِنَّهُ مُؤَدَّبٌ

Sifat holida: جَاءَ طَالِبٌ إِنَّهُ تَشْبِيهُ

Yengillatilgan shakllar: “إِنَّ ، أَنْ ، كَأَنَّ” — ikki “ن” dan biri tushiriladi:

Bu shakl ikki xil i’rabda keladi:

1. إِنَّ زَيْدًا لَقَادِمٌ → bu yerda ism nasbda keladi.

2. إِنَّ زَيْدٌ لَقَادِمٌ → ism muftado sifatida turadi.

“أَنَّ” — yengillatilgan “أَنَّ” Misol: عَلِمْتُ أَنَّ الْمُجْتَهِدَ نَاجِحٌ

Ba’zan fe’l bilan kelganda fosila talab qilinadi:

• قَدْ → وَتَعْلَمُ أَنَّ قَدْ صَدَقْتَنَا

• سِين، سَوْفَ → عَلِمْتُ أَنَّ سَيَكُونُ النَّجَاحُ

• لَا، لَمْ، لَنْ → أَيَقْنَتُ أَنَّ لَا يَصِيغُ الْجِدُّ

“كَأَنَّ” — yengillatilgan “كَأَنَّ”

Kesim ismiy bo‘lsa, fosila bo‘lmaydi. Fe’liy bo‘lsa, ajratgich bo‘ladi:

كَأَنَّ لَمْ تَعْنِ بِأَلَا

“Inna va uning sheriklari” arab tili nahv tizimining eng murakkab va shu bilan birga eng go‘zal bo‘limlaridan biridir. Ular: ismiy gapning grammatik tuzilishini o‘zgartiradi; mantiqiy va semantik urg‘u yaratadi; hissiy va stilistik rang-baranglik hosil qiladi; Qur‘on tili va klassik adabiy matnlarning asosiy konstruksiyalaridan biridir. Ushbu yuklamalar arab tilining nafaqat sintaktik, balki semantik, stilistik va pragmatik qatlamlarini ham boyitadi. Shuning uchun ularning chuqur o‘rganilishi arab

filologiyasi, tarjimashunoslik, qiroat ilmi va nahv tadqiqotlari uchun yuqori ilmiy ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mustafu G‘alayoniy. Jamiu durusu lugot.
2. Mahmud Sulaymon. Yaqut. Nahv ta’limiy.

ARAB TILIDA SINIQ KO‘PLIKNING MORFOLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Dilfuza Arifdjanova,
Oriental universiteti,*

*Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) yo‘nalishi
AFK101-guruh talabasi*

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedراسi dotsenti v.b. Sirojiddin Sotvoldiyev

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidagi siniq ko‘plik (جمع التكسير) ning morfologik va semantik xususiyatlari har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida siniq ko‘plik shakllarining hosil bo‘lish mexanizmlari, fonologik o‘zgarishlari, vaznlar tizimi hamda ma’no kengayishlari klassik va zamonaviy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, siniq ko‘plikning zamonaviy adabiy til, ilm-fan va texnik terminologiyadagi o‘rni ko‘rib chiqiladi va uning arab tilining leksik-semantik tizimidagi muhim funksional ahamiyati ilmiy asosda asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: siniq ko‘plik, morfologiya, fonologik o‘zgarish, semantik tahlil, vazn.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the morphological and semantic features of the broken plural (جمع التكسير) in the Arabic language. The study highlights the mechanisms of formation, phonological transformations, plural patterns, and semantic extensions of broken plural forms based on classical and modern linguistic sources. It also examines the role of broken plurals in contemporary literary Arabic, as well as in scientific and technical terminology, and demonstrates their significant functional importance within the lexical-semantic system of the Arabic language.

Keywords: broken plural, morphology, phonological, lexical-semantic, modern linguistics.

Klassik arab nahvshunosligida siniq ko‘plik o‘ziga xos grammatik hodisa sifatida doimo asosiy mavzulardan biri bo‘lgan. Qadimgi grammatik maktab vakillari — ayniqsa, Basra va Kufa maktablari olimlari ushbu ko‘plik shaklining tabiati,

vaznlarining tasnifi va mazmuniy funksiyasiga alohida e'tibor qaratganlar. Mashhur nahvshunos olim Sibavayh (سيبويه) o'zining "Al-Kitab" (الكتاب) asarida siniq ko'pliklarni arab tilining "asl va tabiiy ko'plik shakli" sifatida ta'riflab, ular yasaliş jarayonining qat'iy qoidaga emas, balki lug'aviy tajribaga tayanishini qayd etadi. Ibn Jinniy (ابن جنى) esa, "Al-Khasa'is" asarida siniq ko'plikning fonologik mexanizmlarini tahlil qilib, undagi o'zgarishlar tasodifiy emas, balki tilning ichki morfologik faoliyatidan kelib chiqishini ta'kidlaydi. Xalil ibn Ahmad (الخليل بن أحمد) siniq ko'plikni arab tili kelib chiqishi tizimining eng qadimiy qatlamiga mansub deb baholab, uning ildiz-vazn modelidagi o'rnini chuqur yoritadi. Ushbu klassik manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, siniq ko'plik arab tili morfologiyasida nafaqat grammatik kategoriyaning ko'rinishi, balki tilning semantik kengayishi va leksik boyligini shakllantiruvchi mexanizmdir. Shuningdek, siniq ko'plikning murakkabligi sababli, grammatikada u "eslatmaga asoslangan model" deb qaraladi, ya'ni har bir so'zning ko'plik shakli alohida o'rganiladigan birlik sifatida talqin etiladi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, siniq ko'plikning asosiy xususiyati uning muntazamlilikdan ko'ra lug'aviy an'anaga tayanishidir. Ya'ni arab tili grammatikasi barcha siniq ko'pliklarning bitta qat'iy qoidasini bermaydi, aksincha, har bir so'zning ko'plik shakli tarixiy-lug'aviy rivojlanish jarayonida shakllangan. Shu bois u arab tilida "qoida asosida emas, misol asosida o'rganiladigan kategoriya" sifatida talqin qilinadi.

Siniq ko'plikning o'ziga xosligi shundaki, u arab tilining leksik-semantik tizimida ko'plab sohalarda faol qo'llanadi: kishilar nomlari, tabiiy ob'yektlar, mavhum tushunchalar, jamoaviy birliklar, hayvonot nomlari va predmetlar ko'pligi aynan siniq ko'plik orqali ifodalanadi. Bu esa siniq ko'plikni arab tilining lug'aviy mahsuldor tizimi sifatida ko'rsatadi.

Siniq ko'plik arab grammatik tafakkurining shakllanish bosqichidayoq ilmiy muhokamalar markazida bo'lgan. Qadimgi arab tilining eng nufuzli manbalaridan biri bo'lgan Xalil ibn Ahmad al-Farohidiy (الخليل بن أحمد الفراهيدي) ning "Kitab al-'Ayn" (كتاب العين) asari — so'zlarning ildiz tuzilishi va ularning ko'plik shakllarini tahlil qilishda vazn (وزن) tizimining asosiy nazariy zaminini yaratdi. Ushbu asarda al-Farohidiy siniq ko'plik shakllarining yasalişini arab tilining tabiiy rivojlanish mahsuli sifatida ko'rsatadi va ularni tilning "ichki ohangiga" mos keluvchi fonologik paradigma, ya'ni turli talaffuzdagi shakllar sifatida talqin qiladi.

Sibavayh ga ko'ra esa, siniq ko'plik shakllari "qoidaga bo'ysunmaydi, balki lug'aviy me'yorning natijasidir", ya'ni ularning yasalişini qat'iy grammatik tizim bilan emas, balki tarixiy-lisoniy tajriba bilan belgilanadi. Uning fikricha, arab tili

soʻzlarining koʻplab maʼnodosh va maʼno kengaytiruvchi shakllarining shakllanishi aynan siniq koʻplik tizimi orqali yuzaga kelgan.

Tarixiy manbalarning shuni koʻrsatadiki, siniq koʻplik arab tilining leksik boyligida, matnshunoslik anʼanasida, diniy manbalar tilida va sheʼriyat tizimida muhim oʻrin tutgan. Xususan, Qurʼoni Karim matnida siniq koʻpliklar koʻplab marta uchraydi va ularning maʼnodagi aniqligi tafsir ilmidagi sharhlarda muhim tahlil obʼyektini hisoblanadi.

Arab tilidagi siniq koʻplik tizimi yuzlab turli vaznlarga ega boʻlsa-da, amaliy nutq va yozma matnlarda ulardan faqat bir necha oʻnlab namunalar faol qoʻllaniladi. Ushbu vaznlar tarixiy-lugʻaviy jarayon davomida shakllangan boʻlib, ularning aksariyati ildiz undoshlari (الجدور) oʻzgarimagan holda, asosan unli tovushlarning (الحركات) almashinuvi orqali hosil boʻladi. Bu vaznlarning ayrimlari maʼnoni kuchaytirish, umumlashtirish yoki predmetlar guruhini kengroq semantik maydonda ifodalash funksiyasiga ega. Masalan, فِعَال (fiʼa:l) vazni koʻpincha jamoaviy yoki kuchaytirilgan maʼno beradi: رِجَال (rija:l — “erkaklar”) shaklida u oddiy koʻplik emas, balki koʻp sonni va nufuzli guruhni anglatadi. Shuningdek, فُعُول (fuʼu:l), أَفْعَال (afʼa:l) va مَفَاعِل (mafa:ʼil) kabi koʻplab qadimiy vaznlar arab tilining lugʻaviy boylik qatlamini tashkil etib, har bir vazn oʻziga xos fonologik struktura va semantik xususiyati bilan ajralib turadi.

Siniq koʻplikning eng muhim xususiyatlaridan biri — birlikdagi otning ichki fonologik strukturasida sodir boʻladigan oʻzgarishlardir. Siniq koʻplik shakllari qoʻshimcha affikslar orqali emas, balki unlilar almashinuvi (الإعلال), boʻgʻin tuzilmasining oʻzgarishi, tovush choʻzilishi (المدّ) yoki baʼzan tovush tushishi (الحذف) orqali hosil boʻladi. Bu jarayon templatik morfologiyaning tabiiy oqibatidir, chunki arab tili ildizga tayangan holda, tovushlarning oʻzaro joylashuvi va uzunligi orqali maʼno farqlash tizimini shakllantiradi. Masalan, كِتَاب (kita:b) soʻzining koʻpligi كُتُب (kutub) shaklida kelishi unlilar tizimining toʻliq oʻzgarishidan dalolat beradi; رَجُل (rajul) → رِجَال (rija:l) esa, boʻgʻin strukturasining oʻzgarishi va unlining choʻzilishiga misoldir. Bu fonologik mexanizmlar siniq koʻplikni arab tilidagi eng murakkab, lekin eng samarali koʻplik tizimiga aylantiradi.

Siniq koʻplik hosil boʻlish jarayonida fonologik oʻzgarishlarning yana bir muhim guruhi — bu tovush tushishi (الحذف), tovush qoʻshilishi (الزيادة) va assimilyatsiya (الإدغام) hodisalaridir. Baʼzi vaznlarda birlik shaklidagi tovushlarning biri koʻplik shaklida talaffuz osonlashuvi yoki ohang muvozanatini taʼminlash maqsadida tushib qoladi. Ayrim holatlarda esa, aksincha, tovush qoʻshilishi sodir boʻladi va koʻplik vaznining talabiga koʻra ortiqcha unli yoki yarim undosh kiritilib,

soʻzning ritmik strukturasi moslashtiriladi. Tovush qoʻshilishi koʻpincha مَفَاعِل (mafa:ʻil) yoki فَعَالِل (faʻa:lil) kabi murakkab vaznlarda kuzatiladi.

Assimilyatsiya (الإدغام) hodisasi esa undoshlarning bir-biriga moslashuvi natijasida sodir boʻlib, koʻplik shaklida segmentlarning oʻzaro yaqinlashuvi yoki qoʻshilib ketishiga olib keladi. Bu jarayon fonetik tejamkorlikni taʼminlab, soʻzning talaffuzini soddalashtiradi. Masalan, ildizdagi ikki oʻxshash yoki yaqin artikulyatsiyali tovushlar birlashishi orqali yangi nutq shakli yuzaga keladi. Ushbu jarayonlarning barchasi siniq koʻplikning murakkab fonologik tabiatini namoyon etadi va arab tilining ichki ritmik-morfologik tizimi qanday ishlashini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Siniq koʻplikning semantik tizimida eng muhim hodisalardan biri — bu tur umumlashtirishi (التعميم النوعي) va toifaviy maʼno (الدلالة الصنفية) ning shakllanishidir. Siniq koʻplik koʻpincha faqat bitta predmetning koʻpligini emas, balki oʻsha predmetning umumiy turi yoki sinfini anglatadi. Masalan, سَفَر (safar) soʻzi “sayohat” maʼnosini bildirsa, uning siniq koʻplik shakli أَسْفَار (asfa:r) “sayohatlar” degan grammatik maʼnodan tashqari “sayohat turlari”, “yozilgan safar hikoyalari”, “sayohatlarning turli shakllari” kabi keng toifaviy semantikani ifodalaydi. Xuddi shunday, شَيْء (shayʻ) → أَشْيَاء (ashyaʻ) oʻzgarishida koʻplik “narsalar” degan lugʻaviy maʼnodan tashqari “har xil turlar”, “mavhum yoki konkret obyektlarning majmuasi”, “turli shakl va toifalardagi narsalar” kabi maʼnolarni bildiradi.

Bu jarayon siniq koʻplikni nafaqat grammatik birlik, balki kognitiv tasniflash vositasi sifatida ham koʻrsatadi. Arab tili semantikasi nuqtayi nazaridan, siniq koʻplik vaqt oʻtishi bilan “koʻplik”dan “tur”ga, “tur”dan esa keng “kategoriya”ga aylangan — bu esa uning lugʻaviy anʼanada naqadar muhim oʻrin tutishini koʻrsatadi. Tilshunolar buni “semantik abstraksiyalash” jarayoni deb izohlaydilar, chunki siniq koʻplik orqali til maʼlumotni umumlashtirish va guruhlash qobiliyatini kuchaytiradi.

Shunday qilib, siniq koʻplik arab tilida sanaladigan birliklarning koʻpligidan tashqari, ixtiyoriy, mavhum va keng guruhlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu xususiyat uni semantik jihatdan juda boy va pragmatik nuqtayi nazardan kuchli kategoriyaga aylantiradi.

Zamonaviy adabiy arab tili (الفصحى الحديثة)da siniq koʻplik oʻzining grammatik, semantik va stilistik ahamiyatini toʻliq saqlab qolgan boʻlib, tilning deyarli barcha funktsional qatlamlarida faol qoʻllanadi. Matbuot, ilmiy maqolalar, rasmiy hujjatlar va akademik nutqda siniq koʻplik shakllarining koʻplab misollarini uchratish mumkin, chunki ular maʼno aniqligi, semantik kengligi va ifoda kuchi jihatidan toʻgʻri koʻplik (جمع السالم) shakllariga qaraganda ancha boyroq imkoniyatlarga ega. Masalan, أَوْضَاع (avda:ʻ — “holatlar”), أَبْحَاث (abha:th — “tadqiqotlar”), أَقْسَام (aqsa:m — “boʻlimlar”) kabi shakllar zamonaviy ilmiy tilning ajralmas unsurlaridir. Siniq koʻplikning keng

qo‘llanishiga sabab uning tarixiy barqarorligi va semantik moslashuvchanligidir. U nafaqat an‘anaviy matnlarda, balki zamonaviy terminologiya va texnik adabiyotlarda ham o‘z funksionalligini yo‘qotmayapti. Bu holat arab tilining grammatik tizimi qanchalik tirik va o‘zgaruvchan bo‘lishiga qaramay, siniq ko‘plik shakli uning asosiy semantik-morfologik mexanizmlaridan biri bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.

Siniq ko‘plik shakllari nafaqat rasmiy yoki adabiy arab tilida, balki zamonaviy og‘zaki nutq va kundalik muloqotda ham faol ishlatiladi. Mahalliy lahjalar ichida fonologik jihatdan soddalashtirilgan ko‘plik shakllari mavjud bo‘lsa-da, siniq ko‘plikning asosiy vaznlari baribir umumiy til amaliyotida saqlanib qolgan. Masalan, Misr lahjasida “uyalar” ma’nosidagi بيوت (buyu:t) shakli, Shom (Suriya, Livan, Iordaniya, Falastin) lahjasida رجال (rija:l — “erkaklar”), Xalij (Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt, Qatar, Bahrayn, Ummon) mintaqasida أقلام (aqla:m — “qalamlar”) kabi shakllar deyarli o‘zgarmagan holda qo‘llanadi. Bu holat siniq ko‘plikning arab dunyosidagi o‘nlab mintaqaviy nutq shakllarida ham barqaror semantik va fonologik mavqegini saqlayotganini ko‘rsatadi.

Kundalik nutqda siniq ko‘plikning ma’nodagi kuchaytirish, umumlashtirish va emotsional rang berish funksiyalari, ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, أخبار (axba:r — “yangiliklar”) so‘zi ko‘pincha “ko‘p yangiliklar”, ba’zan esa, “muhim xabarlar” ma’nolarini ifodalaydi; شُغُول (shug‘u:l — “ishlar”) esa, “bandlik”, “ko‘p mashg‘ulotlar” kabi kengroq ma’nolarni bildiradi. Bu misollar siniq ko‘plikning kundalik hayotdagi tabiiy ishlatilishiga dalildir. Shuningdek, og‘zaki nutqda siniq ko‘plik ba’zan metaforik-emotsional yuklama bilan ham qo‘llanadi. Masalan, قلوب الناس (qulu:bun-na:s — “odamlarning qalblari”) iborasi ko‘pincha jamiyatning hissiy holatini yoki umumiy kayfiyatini ifodalaydi.

Hozirgi fan-texnika misli ko‘rilmagan darajada rivojlangan zamonaviy texnologiyalar asrida siniq ko‘plik shakllarining qo‘llanish doirasi yanada kengayib bormoqda. Xususan, أجهزة (ajhiza — “qurilmalar”) va برامج (bara:mij — “dasturlar”) kabi siniq ko‘plik shakllari informatika, texnologiya, tibbiyot, muhandislik va kommunikatsiya sohalarida asosiy terminlar sifatida qaror topgan. Buning sababi shundaki, siniq ko‘plik shakllari murakkab obyektlar, tizimlar yoki jarayonlarning turli ko‘rinishlarini bir umumiy birlik ostida ifodalash imkonini beradi. Masalan, بيانات (baya:na:t — “data”) so‘zi zamonaviy axborot texnologiyalarida grammatik ko‘plik bilan cheklanmay, balki “ma’lumotlar to‘plami”, “raqamli resurslar majmuasi” kabi keng semantik tuzlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, معلومات (ma’lu:ma:t — “informatsiya”) kabi shakllar ham terminologik tilda siniq ko‘plikning qanchalik funksional va universal ekanini ko‘rsatadi. Demak, zamonaviy ilmiy-texnik muhitda siniq ko‘plik nafaqat tilning tarixiy merosi sifatida, balki yangi tushunchalar va

terminologiyalarni shakllantiruvchi faol semantik-morfologik mexanizm sifatida ham xizmat qilmoqda.

Zamonaviy arab tilida, xususan ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsiya sohalarida siniq koʻplikning oʻrni yanada mustahkamlanib, u yangi terminlarning shakllanishida asosiy vositaga aylandi. Shu bois siniq koʻplik arab tilining nafaqat tarixiy yodgorligi, balki bugungi kommunikativ ehtiyojlarga javob beruvchi dinamik va semantik jihatdan boy grammatik tizimi sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sibavayh. Al-Kitab. Beyrut: Dar al-Kutub al-ʼIlmiyya, nashr yili turlicha.
2. Al-Farhadiy, Al- Khalil ibn Ahmad. Kitab al-ʼAyn. Beyrut: Dar va Maktabat al-Hilal.
3. Ibn Jinniy. Al-Khasaʼish. Cairo: Dar al-Hilal, nashr yili turlicha.

ARAB TILIDA SINONIMIYA HODISASI: ZAMONAVIY TAHLIL VA AMALIY QOʻLLANILISHI

Isroilxodjayeva Marhabo

Oriental universiteti,

Filologiya va tillarni oʻqitish (arab tili) yoʻnalishi

AFK102-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasi oʻqituvchisi Sevara Chimpolatova

Annotatsiya. Ushbu maqola arab tilida sinonimiya hodisasini zamonaviy tahlil va amaliy qoʻllanilish nuqtai nazaridan oʻrganishga qaratilgan. Tadqiqotda sinonimlarning semantik, funktsional va stilistik xususiyatlari, shuningdek, ularning kontekstga bogʻliq nozik farqlari batafsil tahlil qilingan. Asosiy diqqat sinonimlarning rasmiy, ilmiy, adabiy va ogʻzaki nutqdagi qoʻllanilishiga qaratilgan. Misollar va zamonaviy tadqiqotlar asosida sinonimlar matnning maʼnosini aniqlashtirish, stilistik ohangini shakllantirish va nutqning kommunikativ samaradorligini oshirishdagi ahamiyati koʻrsatildi. Shu bilan birga, maqolada sinonimlarning elektron lugʻatlar, maʼlumotlar bazalari va mashina tarjimasida qoʻllanilish imkoniyatlari ham koʻrib chiqilgan. Tadqiqot natijalari arab tilida sinonimiya hodisasining nazariy va amaliy jihatlari bilan birgalikda til boyligini oshirish va lingvistik tadqiqotlarda foydalanish uchun muhim ilmiy asos boʻlib xizmat qilishini taʼkidlaydi.

Kalit soʻzlar: arab tili, sinonimiya, semantika, stilistika, funktsional tahlil, kontekstual tahlil, leksik boylik, elektron lugʻat.

Abstract. This article aims to study the phenomenon of synonymy in the Arabic language from the perspective of modern analysis and practical application. The study

provides a detailed analysis of the semantic, functional and stylistic properties of synonyms, as well as their subtle differences depending on the context. The main focus is on the use of synonyms in official, scientific, literary and oral speech. Based on examples and modern research, the importance of synonyms in clarifying the meaning of the text, forming the stylistic tone and increasing the communicative effectiveness of speech is shown. At the same time, the article also considers the possibilities of using synonyms in electronic dictionaries, databases and machine translation. The results of the study emphasize that, together with the theoretical and practical aspects of the phenomenon of synonymy in the Arabic language, they serve as an important scientific basis for increasing the richness of the language and for use in linguistic research.

Keywords: Arabic language, synonymy, semantics, stylistics, functional analysis, contextual analysis, lexical richness, electronic dictionary

Sinonimiya hodisasi tilshunoslikda semantik, stilistik va pragmatik jihatlarni o'rganishda markaziy mavzu hisoblanadi. Arab tilida sinonim so'zlar nafaqat ma'noni boyitish, balki nutqning ifodaviy va stilistik imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Klassik arab tilshunoslari sinonimlarni matndagi ma'no qatlamlarini aniqlash, ohangni yaratish va tushunarli ifodani ta'minlash vositasi sifatida ko'rganlar[1]. Zamonaviy tadqiqotlar esa sinonimlarning semantik, funksional va stilistik xususiyatlarini chuqur o'rganib, ularning amaliy qo'llanilishini tahlil qiladi[2].

Arab tilida sinonim so'zlarni semantik darajada asosiy va nozik turlarga bo'lish mumkin. Asosiy sinonimlar bir-birini to'liq qoplaydi va kontekstdan qat'iy nazar ishlatilishi mumkin. Masalan, klassik arab tilida “كتاب” (kitāb – kitob) va “مصحف” (muṣḥaf – Qur'on matni) ba'zi kontekstlarda sinonim sifatida ishlatiladi, lekin stilistik va kontekstual ohanglarda farq qiladi[3]. Nozik sinonimlar esa ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularning ishlatilish doirasi va ohanglari turlicha bo'lib, matnga turli hissiy qatlamlar qo'shadi. Misol uchun, “سعيد” (sa'īd – baxtli) va “مسرور” (masrūr – xursand) so'zlari semantik jihatdan yaqin bo'lsa ham, stilistik ohang va ishlatilish doirasi turlicha[4].

Funksional nuqtai nazardan sinonimlar rasmiy nutq, adabiy matn va og'zaki so'zlashuvda turlicha ishlatiladi. Rasmiy va ilmiy matnlarda ular tushunarli va aniq ifodani ta'minlaydi, adabiy matnlarda hissiy qatlam va stilistik ohang yaratadi, og'zaki nutqda esa nutqni tabiiy va tushunarli qiladi[5]. Masalan, arab gazetalarida “أخبار” (akhbar – yangiliklar) va “مستجدات” (mustajaddat – dolzarb voqealar) so'zlari bir-birining o'rnida ishlatilsa ham, matnning stilistik ohangi va auditoriyasi jihatidan

nozik farq mavjud[6]. Shu tarzda, funktsional tasnif sinonimlarni kontekstual moslik va kommunikativ vazifaga qarab ajratishga yordam beradi.

Stilistik tasnif asosida sinonimlar maqbul, badiiy, ilmiy va ogʻzaki uslub boʻyicha ajratiladi. Maqbul stilistik sinonimlar rasmiy va ilmiy matnlarda keng qoʻllaniladi. Masalan, “بحث” (baḥth – tadqiqot) va “دراسة” (dirasa – oʻrganish, tahlil) soʻzlari ilmiy matnlarda sinonim sifatida ishlatiladi, lekin kontekstdan kelib chiqib ularning ishlatilish doirasi va stilistik ohangi farq qiladi[7]. Badiiy sinonimlar sheʼriyat va adabiy proza matnlarida ishlatiladi, masalan, “نور” (nūr – nur) va “ضياء” (ḍiyā – yorugʻlik) soʻzlari sheʼriy matnda bir-birini toʻldiruvchi tarzda ishlatiladi, natijada matnning ohangi va hissiy ifodasi kuchayadi[8]. Ilmiy sinonimlar koʻproq terminologik aniqlikni taʼminlash uchun ishlatiladi; masalan, “تحليل” (taḥlīl – tahlil) va “فحص” (faḥṣ – tekshiruv) soʻzlari ilmiy matnlarda oʻxshash vazifani bajaradi, biroq ishlatilish doirasi va konteksti farq qiladi[9]. Ogʻzaki sinonimlar esa kundalik nutqda tushunarli va sodda boʻlishi bilan ajralib turadi, masalan, “سريع” (sarī – tez) va “خاطف” (khāṭif – tezkor) soʻzlari suhbatlarda bir-birining oʻrnida ishlatiladi, ammo ohang va kontekstga qarab maʼnosi nozik farqlarga ega[10].

Sinonimlarning zamonaviy qoʻllanilishi kompyuter lingvistikasi va elektron resurslar bilan bogʻliq. Mashina tarjimasida sinonimlarning kontekstual xususiyatlarini hisobga olish tarjima sifatini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, “فرح” (farḥ – quvonch) va “سعادة” (saʼāda – baxt) soʻzlarini toʻgʻri kontekstda ishlatish, tarjima matnining tabiiyligini va maʼnosini toʻliq aks ettirish imkonini beradi[11]. Shu bilan birga, elektron lugʻatlar va maʼlumotlar bazalarida sinonimlarni tasniflash arab tilini oʻrganish jarayonini soddalashtiradi va oʻquvchilarga leksik boylikni tez oʻzlashtirish imkonini beradi[12].

Zamonaviy tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, sinonimlarning tahlili nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Matnda sinonimlarning tanlanishi koʻpincha kontekst, stilistika va maʼnoning nozik farqlari bilan bogʻliq boʻlib, u matnni yanada boyitish va ifodali qilish imkonini beradi. Masalan, adabiy matnda “حزن” (ḥuzn – qaygʻu) va “أسى” (asā – gʻam) soʻzlari bir-birining sinonimi sifatida ishlatilsa ham, ularning ohanglari turlicha boʻlib, matnga turli hissiy qatlamlar qoʻshadi[13]. Shu bilan birga, ilmiy matnlarda sinonimlar aniqlik va tushunarli ifodani taʼminlash uchun ishlatiladi, masalan, “تجربة” (tajriba – tajriba) va “اختبار” (ikhtibār – sinov) soʻzlari ilmiy maqolalarda oʻxshash vazifani bajaradi, biroq terminologik aniqlik va kontekst jihatidan farqlanadi[14].

Arab tilida sinonimlar bilan bogʻliq tadqiqotlar lingvistik resurslar va terminologik lugʻatlar doirasida ham katta ahamiyatga ega. Zamonaviy elektron lugʻatlar, leksik maʼlumotlar bazalari va mashina tarjimasiz tizimlari sinonimlarning

semantik va kontekstual xususiyatlarini hisobga oladi, bu esa tarjima jarayonini soddalashtiradi, tilni o'rganishda samaradorlikni oshiradi va o'quvchilarga leksik boylikni tez o'zlashtirish imkonini beradi[15].

Shu bilan birga, sinonimlarning zamonaviy tasnifi va ularning funksional xususiyatlarini o'rganish lingvistik tadqiqotlar, adabiyotshunoslik va til o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tadqiqotlar sinonimlarni nazariy jihatdan o'rganish bilan birga, ularning amaliy qo'llanilishini tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi. Bu esa arab tilining leksik boyligini, kommunikativ va stilistik imkoniyatlarini yanada boyitadi[16].

Arab tilida sinonimiya hodisasi tilning boyligini va ifoda vositalarining turlicha ekanligini ko'rsatadi. Sinonim so'zlar bir-biriga yaqin ma'noga ega bo'lsa-da, ularning ishlatilish konteksti, uslubiy rangi va ohangi har birini alohida vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. Shu jihatdan, sinonimiya tilning nuanslarini aniqlash, so'z tanlashda nozik farqlarni his qilish imkonini beradi.

Maqolada sinonimiya hodisasi zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilindi va uning amaliy qo'llanilishi ko'rib chiqildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, arab tilida sinonim so'zlarni to'g'ri ishlatish matnni yanada tushunarli, lo'nda va ta'sirli qiladi, lug'aviy aniqlikni oshiradi, hamda adabiy va ilmiy matnlarda stilistik boylik yaratadi.

Shuningdek, sinonimiya tahlili tarjima, matn tahlili va adabiy ijod jarayonida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, o'xshash ma'noli so'zlarning ohang va kontekstdagi nozik farqlari matnning ma'no aniqligi va estetik qiyofasini belgilaydi. Shu sababli, arab tilida sinonimiya hodisasini o'rganish va amaliy qo'llash, tilni chuqur anglash, matnlarni sifatli yaratish va adabiy asarlarni talqin qilish jarayonida katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, sinonimiya nafaqat tilning semantik boyligini, balki nutq va yozma matnlardagi ifoda imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Bu hodisani chuqur o'rganish zamonaviy arab tilshunosligi va lingvistik tadqiqotlarda dolzarb masala sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saleh, R. Stylistic Functions of Synonyms in Modern Arabic. Amman: Jordan University Press, 2020, p. 102.
2. Mansour, H. Contextual Analysis of Synonyms in Arabic Journalism. Cairo: Dar Al-Tahrir, 2018, p. 66.
3. Al-Mubarak, A. Al-Mufradat fi al-Lugha al-Arabiya. Cairo: Dar al-Ma'arif, 2015, p. 45.

4. Khoury, L. Arabic Synonyms and Their Stylistic Classification. Cairo: Al-Azhar Press, 2017, p. 59.
5. Fadel, S. Semantic Fields and Synonymy in Contemporary Arabic. Beirut: Dar Al-Hikma, 2019, p. 88.
6. Mansour, H. Contextual Analysis of Synonyms in Arabic Journalism, p. 70.
7. Ahmed, N. Modern Approaches to Arabic Synonymy. Beirut: Arab Linguistics Press, 2022, p. 120.
8. Al-Khatib, M. Literary Uses of Synonyms in Arabic Poetry. Amman: Jordan Academic Press, 2019, p. 77.
9. Taha, R. Synonyms in Scientific Arabic Texts. Cairo: Academic Press, 2020, p. 91.
10. Rahman, A. Functional Use of Synonyms in Modern Arabic Texts. Dubai: Gulf Publishing, 2021, p. 115.
11. Hussein, S. Arabic Synonyms in Computational Linguistics. Dubai: Gulf Tech Press, 2021, p. 140.
12. Yassin, L. Arabic Lexical Databases and Synonymy. Beirut: Arab Press, 2020, p. 108.
13. Al-Khatib, M. Literary Uses of Synonyms in Arabic Poetry, p. 80.
14. Taha, R. Synonyms in Scientific Arabic Texts, p. 95.
15. Hussein, S. Arabic Synonyms in Computational Linguistics, p. 145.
16. Nasser, A. Contemporary Arabic Lexical Studies. Cairo: Dar Al-Ilm, 2022, p. 160.

ISMNING ROF, NASB, JAR O‘RINLARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Muxtorova Nasiba Uktam qizi

Oriental universiteti,

Filologiya va tillarni o‘qitish(arab tili) yo‘nalishi

AF305-guruh talabasi

muxtorovanasiba7@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedراسي dotsenti v.b. S.Sotvoldiyev

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilida ismlarning uch asosiy grammatik holati — rof (الرفع), nasb (النصب) va **jar (الجر)**ning struktura va vazifalari tahlil qilinadi. Har bir holatning gap tarkibidagi sintaktik o‘rni, ularning grammatik belgilanish tamoyillari hamda mazkur holatlarda keladigan ismlarning turli turlari misollar asosida sharhlab beriladi. Maqolada muftado va xabar, faol va noibul-fo‘il, maf‘ul turlari, hol, tamyiz, mustasno, munodo kabi sintaktik birliklarning holatlar bilan bog‘liqligi

izohlanadi. Shuningdek, Kana va Inna turkumiga mansub fe'l-harf konstruksiyalarining ism holatlariga ta'siri ko'rsatilib, jar holatining hosil bo'lish mexanizmlari — hurufi jar va izofa tizimi orqali keng yoritiladi. Tadqiqot arab tilidagi kelishik tizimining o'ziga xos grammatik qoidalarini o'zbek tilidagi sintaktik birliklar bilan qiyosiy anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: rof (الرفع), nasb (النصب), jar (الجر), muftado-xabar (المبتدأ والخبر), maf'ul turlari (أنواع المفاعيل), hurufi jar (حروف الجر).

Abstract. This article examines the three primary case forms of nouns in the Arabic language: raf' (nominative), naṣb (accusative), and jarr (genitive). It provides a detailed analysis of each case, its grammatical function, and syntactic position within a sentence. The study explains how nouns operate as muftada and khabar, as fa'il and nā'ib al-fa'il, and in different maf'ul categories, including maf'ul bihi, maf'ul fihi, maf'ul muṭlaq, and others. Additionally, it explores the role of Kana and Inna and their particles in altering noun case endings. The mechanisms of the genitive case, especially through prepositions (ḥurūf al-jar) and the idāfa (genitive construct), are also clarified. The article contributes to understanding the Arabic case system by highlighting its structural and functional features in comparison with Uzbek syntactic patterns.

Keywords: raf' (nominative), naṣb (accusative), jarr (genitive), subject–predicate, object types, prepositions.

Arab tili grammatikasi dunyo tilshunosligida eng murakkab grammatikalaridan biri hisoblanadi. Chunki unda dunyo tillaridan, xususan, o'zbek tilidan tubdan farq qiladigan kategoriyalar mavjud. Masalan arab tilida ismlarning 3 xil o'rni bor bo'lib, ular ismning rof (الرفع), nasb (النصب) va jar (الجر) o'rinlaridir. Quyida ismning rof o'rinlariga batafsil to'xtalib o'tamiz. Ular 6 bo'limga bo'linadi:

Muftado (المبتدأ), Xabar (الخبر), Foil (الفاعل), Noibi foil (نائب الفاعل), Kana va uning axovatining ismi (إسم كان و أخواتها), Inna va uning axovatining xabari (خبر إن و أخواتها)dir.

Muftado (المبتدأ): gap boshida kelib kim? nima? degan savollarga javob beradigan, gapning asosiy mavzusi bo'lgan ismdir. Muftado — nominativ (raf') holatidagi ot bo'lib, odatda gapning boshida keladi va xabar (predikat) bilan tavsiflanadi." Masalan: الطالب مجتهد (Talaba tirishqoqdir)

"Xabar (الخبر) — muftada haqida ma'lumot beradigan, uning holatini, sifatini, ish-harakatini yoki joyini bildiradigan gap bo'lagi bo'lib, u har doim raf' holatida keladi." Misol: المعلم حادرا (Muallim bordir (hozirdir))

Fo'il (الفاعل) — ma'lum fe'ldan so'ng kelib, shu fe'lni ishlagan kishi yoki ishlagan narsani ko'rsatib, kim yoki nima so'roqlariga javob bo'lgan ismdir.

Misol: جاءت فاطمة إلى الجامعة (Fotima universitetga kirdi)

No‘ibi fo‘il (نائب الفاعل) — majhul (passiv) fe’lning faol o‘rnida turgan ism. Ya’ni, fe’lning ishini qabul qiluvchi, lekin grammatik jihatdan fā’il o‘rnida turadigan shaxs yoki narsadir: كُسِرَ الْقَلَمُ (Qalam sindirildi), ضُرِبَ الْكَلْبُ (It urildi)

Kana va uning axovatining ismi (إِسْمُ كَانٍ وَأَخْوَاتِهَا)—mubtado bilan xabarga kirib, har doim ismni rof(damma), xabarni esa nasb(fatha)qiladigan fe’ldir: كانَ الْبِرْدُ شَدِيدًا (Sovuq qattiq bo‘ldi) كانَ ning axovatlari (صَارَ، أَصْبَحَ، أَضْحَى، ظَلَّ، بَاتَ، أَمْسَى، صَارَ) ham xabarni mansub qiladi (Do‘st kasal bo‘ldi.) صَبَحَ الصَّدِيقُ مَرِيضًا:

يَظَلُّ الْمُجْتَهِدُ مَمْدُوحًا (Tirishqoq odam har doim maqtaladi)

لَيْسَ الْجَوُّ بَارِدًا (Havo sovuq emas)

O‘tgan zamonda "كان"ni inkor qilish uchun لم يَكُنْ ishlatiladi.

لَمْ يَكُنْ الرَّجُلُ غَاضِبًا (Erkak g‘azablanmagan edi)

لَا تَكُنْ غَيْرَ مُؤَدِّبٍ (Odocsiz bo‘lmang)

Hozirgi zamonda esa inkor uchun "ليس" ishlatiladi:

الْكِتَابُ لَيْسَ مَمْتَعًا (Kitob qiziqarli emas)

الطِفْلَةُ لَيْسَتْ حَزِينَةً (Qizcha hafa emas)

Inna va uning axovatining ismi (إِنِّ وَأَخْوَاتِهَا)—Mubtado bilan xabarga kirib, mubtadoni mansub qiladigan harfdir. Inna kelgan gapda mubtada nasb (mansub) holatiga o‘tadi, Xabar esa raf’ (marfu’) holatda qoladi:

إِنَّ مَحْمُودًا نَشِيطٌ (Haqiqatda Mahmud faoldir)

إِنَّ ning axovatlari (أَنَّ، كَأَنَّ، لَكِنَّ، لَيْتَ، لَعَلَّ) ham mubtadoni mansub qiladi.

لَيْتَ إِبْنُكَ عَالِمٌ (Koshki ug‘ling olim bo‘lsa)

مَنْ بَدِئْتَهُ بِحَقِّكَ لَمْ يَكُنْ مُؤَدِّبًا (Men bildimni sen haqiqatda rostgo‘y ekansan)

Ismning nasb o‘rni (holati) gapda uning qanday vazifa bajarishiga bog‘liq bo‘ladi. Nasb, odatda, otni kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgartirish orqali ifodalanadi va gapda obyekt yoki boshqa turdagi to‘ldiruvchi bo‘lishini bildiradi.

Quyida ismning nasb o‘rinlari haqida alohida gapirib o‘tamiz ular 11 ta bo‘limga bo‘linib, Maf’ulum bihi (مَفْعُولٌ بِهِ), Maf’ulum fiyhi (مَفْعُولٌ فِيهِ), Maf’ulum mutlaq (المَفْعُولُ الْمُطْلَقُ), Maf’ulum ma’ah (المَفْعُولُ مَا أَهَ), Maf’ulum liajlihi (لِأَجْلِهِ), Maf’ulum ma’ah (مَعَهُ), Mustasno (المُسْتَأْنَى), Hol (الحَالُ), Tamyiz (التَّمْيِيزُ), Munodo (المُنَادَى), Kana va axovatining xabari (إِسْمٌ إِنَّ وَأَخْوَاتِهَا), Inna va axovatining ismi (إِسْمٌ إِنَّ وَأَخْوَاتِهَا)

Maf’ulum bihiga (مَفْعُولٌ بِهِ) to‘xtaladigan bo‘lsak–fo‘ilning fe’li uni ustida bajarilgan kishi yoki narsani ko‘rsatadigan ismdir. Ya’ni bajarilmish ish "maf’ulum bihi" bo‘ladi:

ضَرَبَ مُحَمَّدٌ فَرِيدًا (Muhammad Faridni urdi)

إِحْتَرَمْتُ أَسْتَاذَكَ وَأَشْكُرُهُ (Ustozingni hurmat qil va unga minnatdorchilik bildir)

Maf’ulum fiyhi (مَفْعُولٌ فِيهِ)—fe’lning qay vaqtda yoki qaysi o‘rinda boqe’ bo‘lganini ko‘rsatgan ismdir. U ikki ismli yo zamonni yo makonni ifodalaydigan ismdir:

سأزورك بعدَ يومين إن شاء الله (Ikki kundan keyin seni ziyorat qilaman Hudo hohlasa)
جلستُ بينَ الأشجارِ أستمتعُ بالهواءِ (Daraxtlar yonida o‘tirdim va havodan bahra oldim)
Maf’ul mutlaq(مفعول مطلق)—arab tilida fe’l (fe’l)dan keyin keladigan, fe’lning ma’nosini ta’kidlash, miqdorini tushuntirish, fe’lga qo‘shimcha ma’no berish uchun ishlatiladigan ism (masdar)dir; u fe’l bilan bir ildizdan olingan bo‘lib, gapdagi fe’lning ta’kidlovchisi vazifasini bajaradi va fe’lning ma’nosini kuchaytiradi:

كثُرَ الخادمُ الزجاجةَ كسرًا (Xizmatkor shishani bo‘laklab(sindirishlikda) sindirdi.

Bunda "كسرًا" fe’lning ma’nosini ta’kidlayabdi va kuchaytirayabdi.

كُتِبَ الطالبُ الدرسَ كتابةً واضحةً (Talaba darsni aniq- ravshan qilib yozdi)

Bunda "كتابةً" fe’lning ta’kidlab kelayotganini ifodalayabdi.

Maf’ulul liajlihi(مفعول لأجله)—bu fe’lning nima sababdan yoki nima maqsadda sodir bo‘lganini bildiradigan ismdir. U har doim nasb holatda (mansub) keladi va fe’l bilan bog‘langan holda ishlatiladi. Boshqacharoq aytilganda, bu ism fe’lning sodir bo‘lish sababini yoki maqsadini tushuntiradi:

وقف الطلابُ إجلالاً للمعلم (Talabalar o‘qutuvchini hurmat qilgan holda o‘rnilaridan turishdi)

Bunda إجمالاً ismi ووقوف fe’lining sababini ko‘rsatganidan "maf’ulul liajlihi" bo‘ladi.

Maf’ul ma’ah (مفعول معه) arab tilida "biror ish bilan birga bo‘lgan narsa/shaxsni" bildiradi; u "و" (va) harfi (ma’nosi "bilan")dan keyin keladi va mansub holatda (manshub) bo‘ladi, ishning bajarilishiga hamrohlikni ko‘rsatadi, masalan " geldi va ko‘chani kesib o‘tdi":

مشيت و الشارع الكبير (Men katta ko‘cha bo‘ylab yurdim)

Mustasno(مستثنى) — bu istisno (ajratish) ma’nosini bildiradigan so‘z bo‘lib إلاً vositasi bilan keladi. Arab grammatikasida mustasno ko‘pincha nasb holatda (مَنْصُوب) bo‘ladi:

ذهب الطلاب إلى المكتبة إلاً محموداً (Talabalar kutubxonaga borishdi,faqat Mahmud bormadi).

Bunda إلاً oldidagi إلى المكتبة الطلاب ذهب jumlasini talabalarni kutubxonaga borishlarini ifodalaydi.Endi buning ortidan إلاً محموداً desak,boshqalar borib, Mahmud bormaganini bildiradi.Shuning uchun محموداً mustasno bo‘ladi.Shunda إلاً dan keyin kelgan ism mustasno deb aytiladi,إلاً ning oldidagi so‘z ,ya’ni unga qarab so‘zlangan ism esa "mustasno minhu" deyiladi:

خفظ محمد الكتاب إلاً ورقةً (Muhammad kitobni yodladi,faqat bir varoqdan tashqari)

Bunda mustasno minhu الكتاب bo‘ladi,chunki yodlash unga qarab so‘zlangan,ورقة esa mustasno bo‘ladi,ya’ni u yodlanmay qolganidan xabar beradi.

Hol(الحال)–fe'l voqe' bo'lgan vaqtda foilning yoki maf'ulning qay holda va qanday ravishda bo'lganini bildirgan ismdir.Hol ko'pincha nakra(noaniq) holatda bo'ladi:

قرأ محمدُ الكتاب قائمًا (Muhammad kitobni tik turgan holda o'qidi)

Tamyiz (تَمْيِيز) — bu arab tilidagi grammatik atama bo'lib, noaniqlikni aniqlash, farqlash yoki ajratish degan ma'noni anglatadi va ko'pincha "nima" degan savolga javob berib, noaniq so'zni aniqlaydi, masalan, son, o'lchov (og'irlik, hajm, masofa), holat yoki sifatni aniqlashda ishlatiladi:

قَرَأْتُ مِنْ كُتُبِ التَّفْسِيرِ سِتِينَ كِتَابًا (Tafsir kitoblaridan 60 tasini o'qidim)

Bunda من كتاب التفسير, tamyiz, ستين كتابا esa tamyizni aniqlovchi izohi.

Munodo(منادى)–nina(chaqirish) uchun maxsus harflarning biri so'ngidan kelib,chaqirilgan kimsaning so'zlovchiga iltifot qilishi va so'zlanadigan so'zga diqqat etishi talab qilingan ismdir.

Kana va uning axovatining ismi(إسم كان و أخواتها)–mubtado bilan xabarga kirib,har doim ismni rof(damma), xabarni esa nasb(fatha)qiladigan fe'ldir:

كان الطفل نشيطًا (O'quvchi faol edi)

ning axovatlari(أصبح، أضحى، ظل، بات، أمسى، صار) ham xabarni mansub qiladi:

أصبح السماء الزرقاء (Osmon ko'm ko'k bo'ldi)

ليس الجو حارًا (Havo issiq emas)

O'tgan zamonda "كان"ni inkor qilish uchun لم يكن ishlatiladi:

لم يكن الطالب حاضرًا (Talaba hozir bo'lmagan edi.)

لا تكن كسولًا (Tanbal bo'lma.)

Hozirgi zamonda esa inkor uchun "ليس" ishlatiladi:

الكتاب ليس ممتعًا (Kitob qiziqarli emas)

الطالبة ليست مشغولةً (Talaba(qiz) band emas)

Inna va uning axovatining ism(إن وأخواتها)-Mubtado bilan xabarga kirib,mubtadoni mansub qiladigan xarfdir.Inna kelgan gapda mubtada nasb (mansub) holatiga o'tadi, habar esa raf'(marfu')holatda qoladi.

إنَّ الطالبة مجتهدة: (Haqiqatan, talaba qiz tirishqoqdir)

إنَّ ning axovatlari(لعل، ليت، لكن، كأن، أن) ham mubtadoni mansub qiladi.

لعلَّ الغائب قادمٌ (Koshki yo'q odam kelsa edi)

أحبُّ السفرَ لكنَّ الوقتَ قليلٌ (Sayohatni yaxshi ko'raman, ammo vaqt oz)

Ismning jar(جار) o'rni ismlarning eng muhim grammatik holatlaridan biri bo'lib, jumlada ma'no va vazifani aniqlashda muhim o'rin egallaydi.Ism ikki o'rinda majrur(ohiri kasrali) bo'ladi.Ya'ni Hurufi jar(حروف الجر)deb atalgan harflarning biridan keyin kelsa yoki Muzofun ilayhi(المضاف إليه)bo'lsa.

من، إلى، في، على، عن، حتى kabi predloglarga misol qilib aytadigan bo'lsam;

Bir ismdan ma'rifa(aniqlik) yasash yoki bir xil xoslash uchun ikkinchi bir ismga qo'shishni "izofa" deyiladi.Bir-biriga qo'shilgan ikki ismning avvalgisi muzof(مضاف),ikkinchisi esa muzofun ilayhi(مضاف إليه) deyiladi.

قرأتُ كتابًا طالبٍ مجتهدٍ (Men tirishqoq talabaning bir kitobini o'qidim.)

شاهدنا المسرحية الممتعة (Biz (aniq bir) qiziqarli spektaklni tomosha qildek)

Bir ismdan ma'rifa(aniqlik) yasash yoki bir xil xoslash uchun ikkinchi bir ismga qo'shishni "izofa" deyiladi.Bir-biriga qo'shilgan ikki ismning avvalgisi muzof(مضاف),ikkinchisi esa muzofun ilayhi(مضاف إليه) deyiladi.

قرأتُ كتابًا طالبٍ مجتهدٍ (Men tirishqoq talabaning bir kitobini o'qidim.)

شاهدنا المسرحية الممتعة (Biz (aniq bir) qiziqarli spektaklni tomosha qildik)

Xulosa qilib aytganda, arab tili grammatikasi dunyo tillari orasida eng murakkab va boy tizimlardan biri hisoblanadi. Ismlarning holatlari – rafʼ, nasb va jar – jumlaning ma'nosi va tarkibini belgilashda asosiy vazifaga ega. Rafʼ holatidagi ism gapning subyektini yoki predikati bo'lib, muftado, xabar, fo'il yoki no'ibi fo'il vazifasini bajaradi. Nasb holatidagi ism esa fe'ning obyektini, sababini, maqsadini, ta'kidini yoki qo'shimcha ma'nosini ifodalaydi; buning misollari sifatida maf'ulum bihi, maf'ulum fiyhi, maf'ulum mutlaq, maf'ulum li-ajlihi, maf'ulum ma'ahu, mustasno, hol, tamyiz va munodo keltiriladi. Jar holatidagi ism esa predloglar yoki muzofun ilayhi bilan kelganda majrur bo'lib, jumlaning ma'nosini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, izofa orqali ismlar bir-biriga bog'lanib, aniqlik yoki umumiylik ma'nosi hosil qiladi. Kana va uning axovatlari hamda Inna va uning axovatlari kabi maxsus fe'l va harflar muftado va xabar holatiga ta'sir ko'rsatadi, bu arab tilini yanada murakkab va boy qiladi. Shu tarzda, ismning holatlari, izofa va maxsus fe'l-xarflar birgalikda arab tilining sintaksis va semantikasini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibn Hishām al-Ansorī. Sharḥ Qatr an-Nadā wa Ball as-Sadā. Beirut: Dār al-Fikr, 2004.
2. Ibn 'Āqil al-Misrī. Sharḥ Ibn 'Āqil 'alā Alfīyyat Ibn Mālik. Qohira: Dār at-Turāth, 1985.
3. Al-Mubarrad. Al-Muqtaḍab. Beirut: Dār al-Kutub al-'Ilmiyya, 1994.
4. Az-Zamakhsharī, Mahmud. Al-Mufaṣṣal fī Ṣan'at al-I'rāb. Beirut: Dār al-Jīl, 1986.
5. Al-Farrā', Yāḥyā ibn Ziyād. Ma'ānī al-Qur'ān. Beirut: 'Ālam al-Kutub, 1983.

ARAB TILIDA KOLLOKATSIYA HODISASINING SEMANTIK- STRUKTUR TAHLILI

Xusanova Muyassar,

Oriental universiteti,

Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi

AF204-guruh talabasi

muyassar xusanova87@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasida dotsenti J.Turdiyev

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilshunosligida muhim lingvistik hodisalardan biri bo'lgan kollokatsiya (lug'aviy birikmalar) masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda arab tilida kollokatsiya tushunchasining shakllanishi, uning semantik tabiat bilan bog'liqligi, polisemiya bilan aloqasi hamda so'zlarning "doimiy sheriklari" orqali ma'no kasb etishi masalalari yoritiladi. Mashhur tilshunos Ibrohim Anisning "من أسرار اللغة" asari asosida so'zlarning tilda tasodifiy emas, balki ichki qonuniyatlar asosida birikishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada bir so'zning turli kollokatsiyalarda turlicha ma'no kasb etishi (فتح قلبه – فتح الباب – فتح النار) misollar orqali ko'rsatilib, bu hodisaning tarjima jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: kollokatsiya, lug'aviy birikmalar, arab tilshunosligi, semantika, polisemiya, Ibrohim Anis, kontekstual ma'no, tarjima nazariyasi, semantik xato, nutq tabiiyligi.

Abstract: In this article, the issue of collocation (lexical combinations), which is one of the important linguistic phenomena in Arabic linguistics, is analyzed theoretically and practically. The study examines the formation of the concept of collocation in Arabic, its connection with semantic nature, its connection with polysemy, and the acquisition of meaning through "permanent partners" of words. Based on the work "من أسرار اللغة" by the famous linguist Ibrahim Anis, the combination of words in the language is scientifically substantiated not by random, but by internal laws. The article demonstrates with examples how a word acquires different meanings in different collocations (فتح قلبه - فتح الباب - فتح النار) and reveals the significance of this phenomenon in the translation process.

Keywords: collocation, lexical combinations, Arabic linguistics, semantics, polysemy, Ibrahim Anis, contextual meaning, translation theory, semantic error, naturalness of speech.

Tilshunoslikda kollokatsiya (lug'aviy birikmalar) masalasi hozirgi davrgacha tarjima, til o'qitish yoki tilshunoslik sohalarida yetarli darajada mustaqil va bevosita o'rganilmagan. Bu atama tilshunos olimlar orasida keng tarqalgan bo'lsa-da, uning

ilmiy qo‘llanishi va puxta izohi yaqinda shakllana boshladi. Zamonaviy tilshunoslikda so‘zlarning yakka holda emas, balki boshqa so‘zlar bilan tabiiy birikishda qo‘llanishi muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu hodisa tilshunoslikda kollokatsiya termini bilan ifodalanadi. Kollokatsiya so‘zlarning tilda tasodifiy emas, balki barqaror, odatiy va tizimli tarzda birikishini anglatadi. Arab tilshunosligida bu hodisa turli terminlar orqali izohlangan. Jumladan, doktor Tammom Hasan “التعاقب اللفظي”, Abdussalom al-Musaddiy “قرائن لفظية”, Mahmud Ahmad Nahla esa “التلازم اللفظي” terminlarini ilmiy muomalaga kiritgan. Bu tushunchalar mohiyatan kollokatsiya nazariyasining turli jihatlarini yoritadi. Arab tilidagi kollokatsiya hodisasi kundalik nutq, badiiy adabiyot, maqollar, idiomalar hamda barqaror so‘z birikmalarida keng uchraydi. Shu bois u tarjima jarayonida ham muhim muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada kollokatsiyaning lingvistik mohiyati, Ibrohim Anis qarashlari asosida semantik tabiati va tarjimadagi o‘rni tahlil qilinadi. Kollokatsiya — ikki yoki undan ortiq so‘zning tilda barqaror, tabiiy va odatiy tarzda birikib kelishidir. Bunda so‘zlar erkin emas, balki ma’lum doiradagi boshqa so‘zlar bilan birikishga moyil bo‘ladi.

Masalan, arab tilida:

اتخذ قرارًا — qaror qabul qildi

ألقى محاضرةً — ma’ruza o‘qidi

اشتدَّ الحرّ — issiq kuchaydi

Bu birikmalar grammatik jihatdan boshqa fe‘llar bilan ham tuzilishi mumkin, ammo til me‘yoriga ko‘ra aynan shu shakllarda tabiiy va to‘g‘ri hisoblanadi. Kollokatsiyaning muhim belgisi shundaki, u lug‘aviy ma’no bilan cheklanmaydi, kontekstual va semantik bog‘lanishga tayangan bo‘ladi, nutqning tabiiyligini ta‘minlaydi. Mashhur arab tilshunosi Shayx Ibrohim Anis o‘zining “من أسرار اللغة” asarida so‘zlarning ma’nosi faqat lug‘aviy birlik sifatida emas, balki boshqa so‘zlar bilan munosabatda ochilishini ta’kidlaydi. U shunday yozadi: “Ko‘plab so‘zlar yolg‘iz holda to‘liq ma’no bermaydi, balki doimiy sheriklari bilan birga kelgandagina aniq mazmun kasb etadi.” Anisning fikricha, tilda tasodifiy birikmalar mavjud emas, barcha birikmalar tilning ichki qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Shu bois kollokatsiya tilning ichki semantik tartibining mahsuli hisoblanadi. U “ibora” (التركيب) va “majoziy ibora” (الاصطلاحات المجازية) o‘rtasidagi farqni ham aniq belgilaydi. Idioma bo‘laklarga ajralmaydigan yangi ma’no bersa, kollokatsiya tabiiy birikish asosida shakllanadi. Idiomatik kollokatsiya so‘zlarning barqaror birikmalari bo‘lib, ularning umumiy ma’nosi tarkibiy qismlarining alohida ma’nolardan farq qiladi va tilning madaniy kontekstida shakllanadi, chunki idiomalar ko‘pincha ma’lum bir xalqning dunyoqarashi, urf-odatlar va ijtimoiy tajribasini aks ettiradi.

Kollokatsiya hodisasi ko‘pincha polisemiya, ya’ni so‘zning ko‘p ma’noliligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Bir so‘z turli kollokatsiyalarda butunlay boshqa ma’nolarni anglatishi mumkin:

فتح قلبه — mehr ko‘rsatdi

فتح الباب — eshikni ochdi

فتح النار — o‘t ochdi

Bu yerda فتح fe’li yagona bo‘lsa-da, kollokativ muhit o‘zgarishi bilan ma’no ham tubdan o‘zgaradi. Demak, tarjimada so‘zni emas, balki so‘z birikmasini yaxlit semantik birlik sifatida tarjima qilish talab etiladi.

Arab tilida kollokatsiyalar sintaktik tuzilishiga ko‘ra quyidagi asosiy modellarda uchraydi :

1. Fe’l + ism

ارتكب جريمة — jinoyat sodir etdi

حقق هدفًا — maqsadga erishdi

2. Sifat + ism

قلبٌ طيب — pok qalb

خطرٌ كبير — katta xavf

3. Ism + ism (izofa)

نارُ الفتنة — fitna olovi

بيتُ الله — Alloh uyi

Bu modellarning barchasi til tizimida barqaror kollokativ aloqaga ega. So‘zma-so‘z tarjima muammosida kollokatsiyani literal tarjima qilish ko‘pincha semantik xatolarga olib keladi:

كسر الصمت

noto‘g‘ri: sukutni sindirdi

to‘g‘ri: sukutni buzdi

ألقى خطابًا

noto‘g‘ri: nutqni tashladi

to‘g‘ri: nutq so‘zladi

Konnotativ ma’no va madaniy tafovut muammosi yuzaga kelganda,

نارٌ تحت الرماد — so‘zma-so‘z: “kull ostidagi o‘t”

ma’nosi: yashirin xavf

Bu ibora madaniy obraz orqali ifodalanadi va uni faqat lug‘aviy tarjima bilan berib bo‘lmaydi. Kollokatsiyani e’tiborsiz qoldirish oqibatida tarjimon kollokatsiyani inobatga olmasa:

- semantik xato yuzaga keladi,
- matn uslubiy jihatdan buziladi,

- nutq tabiiyligi yo‘qoladi.

Tarjimon kollokatsiya bilan ishlashda so‘zning emas, birikmaning ma’nosini asos qilib olishi, kontekstni to‘liq tahlil qilishi, madaniy obrazlarni hisobga olishi, polisemiya omilini doimo e’tiborda tutishi lozim. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kollokatsiya hodisasi arab tilining ichki semantik tizimi va leksik tuzilishida muhim o‘rin egallaydi. So‘zlarning alohida-alohida emas, balki o‘ziga xos “doimiy sheriklari” bilan birga ma’no kasb etishi tilning tabiiyligi, nutqning ravonligi va ta’sirchanligini ta’minlaydi. Ibrohim Anisning ilmiy qarashlari asosida olib borilgan tahlillar kollokatsiyaning tasodifiy emas, balki qat’iy til qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi hodisa ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida kollokatsiya va polisemiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib berildi hamda bir so‘zning turli kollokativ muhitlarda turlicha ma’no kasb etishi tarjima jarayonida muhim ahamiyatga ega ekani ilmiy asoslandi. Shuningdek, kollokatsiyalarni e’tiborsiz qoldirish semantik xatolarga, uslubiy buzilishlarga va matn tabiiyligining pasayishiga olib kelishi aniq misollar orqali ko‘rsatib berildi.

Xulosa qilib aytganda, kollokatsiyalarni chuqur o‘rganish nafaqat arab tili bo‘yicha ilmiy izlanishlar uchun, balkitarjimonlar tayyorlash jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Kelgusida arab tilidagi kollokatsiyalarning o‘zbekcha-arabcha ikkitilli kollokatsiya lug‘ati ko‘rinishida tuzish, ularni tasniflash va tarjima metodikasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. أنيس، إبراهيم. من أسرار اللغة. القاهرة: مكتبة الأنجلو المصرية، 2003.
2. أنيس، إبراهيم. دروس في علم اللغة. القاهرة: مكتبة الأنجلو المصرية، 2003.
3. 2007، قاموس دار العلم للمتلازمات اللفظية ” الأستذ الدكتور حسن غزالة“
4. A.S Brashi “Arabic collocations” 2005
5. Mahmud Abubakar Garba “Use of collocations in learning Arabic vocabulary” 2003
6. Sh.F Adhamova “O‘zbek va ingliz tillarida ideomatik kollokatsiyalarning tarjima muammolari” Science and Education, 2025

ISHTIQOQ NAZARIYASI VA UNING ARAB TILIDAGI SEMANTIK TA'SIRI

Djurayeva Muslima Iqboljon qizi

Oriental universiteti talabasi

djurayevamuslima770@gmail.com

Ilmiy rahbar: Turdiyev Jahongir, dotsent, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilining muhim lingvistik hodisalaridan biri bo'lgan ishtiqoq nazariyasi va uning Ibn Jinniy tomonidan "Al-Xasa'is" asarida bayon etilgan tahlili o'rganiladi. Ishitiqoqning uch asosiy turi – ishtiqoq sag'ir (kichik ishtiqoq), ishtiqoq kabir (katta ishtiqoq) va ishtiqoq akbar (eng katta ishtiqoq) – lingvistik va semantik bog'liqlik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Maqolada Ibn Jinniyning ushbu nazariyaga qo'shgan hissasi, so'zlarning fonetik va semantik bog'lanish usullari, shuningdek, ishtiqoqning arab tilidagi o'rni va rivojlanish jarayoniga ta'siri yoritiladi. Ushbu tadqiqot arab tilining semantik tuzilishini yanada chuqurroq anglash va uni lingvistik tahlilda qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: ishtiqoq, Ibn Jinniy, Al-Xasa'is, arab tilshunosligi, semantik bog'liqlik, leksik tizim, morfologiya, fonetik o'zgarishlar.

Annotation. This article explores one of the key linguistic phenomena of the Arabic language – the theory of ishtiqoq and its analysis as presented by Ibn Jinni in his work Al-Khasa'is (الخصائص). The three main types of ishtiqoq—small ishtiqoq (اشتقاق صغير), large ishtiqoq (اشتقاق كبير), and greatest ishtiqoq (اشتقاق أكبر)—are analyzed from the perspective of their linguistic and semantic interrelations. The article highlights Ibn Jinni's contribution to this theory, the phonetic and semantic connections between words, as well as the role of ishtiqoq in the Arabic language and its impact on linguistic development. This study provides a deeper understanding of the semantic structure of the Arabic language and its application in linguistic analysis.

Keywords: ishtiqoq, Ibn Jinni, Al-Khasa'is, Arabic linguistics, semantic interrelation, lexical system, morphology, phonetic changes.

Arab tilining asosiy xususiyatlaridan biri bu uning ildizga asoslangan morfologik tizimidir. Arab tilida ko'plab so'zlar uch harfli ildizlardan hosil bo'lib, ularning turli grammatik shakllari va semantik o'zgarishlari mavjud. Ana shu hodisani o'rganadigan lingvistik nazariya ishtiqoq (الاشتقاق) deb ataladi.

Dastlab arab tilshunos olimlar tomonidan ishtiqoqqa unchalik ahamiyat berilmagan. Lekin uning ilmiy o'rganilishi tufayli vaqt o'tishi bilan rivojlangan va arab tilshunoslikning muhim sohalaridan biriga aylanadi. Ishitiqoq so'zlarning kelib chiqishini, ularning bir ildizdan turli grammatik shakllarga ajralishini va o'zaro semantik bog'liqligini o'rganadi. Masalan, علم (ilm – bilim), عالم (olam – olim) va تعليم

(ta'lim – o'qitish) so'zlari bir xil ildizdan olingan bo'lib, ular o'zaro semantik jihatdan bog'liq. Ishitqoq arab tilining so'z boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, ma'nolarni yanada aniq va chuqur ifodalash imkonini beradi.

Misol uchun: Bizga iyd عيد so'zi arabchadan kirib kelgan. Asli عاد so'zidan olingan bo'lib, “ qaytib kelish” degan ma'noni anglatadi. Ushbu o'zakdan olingan yana bir so'z “ odat “ - عادة bo'lib, “qayta-qayta” qilinuvchi mashg'ulot degan ma'noni beradi. Iyd esa “ qayta keluvchi bayram “ ma'nosini anglatadi.

Zohiran qaraganda yuqoridagi so'zlar orasida bog'liqlik yo'qdek ko'rinadi. Tasavvur kuchini ishga solib fikr yuritsak, iyd(عيد) yani bayram xar yili kaytadi va kayta kayta nishollaniladi shu sababli iyd (عيد)suzini sanab otilgan suzlar bilan boglik deya olamiz.

Ishitqoq arab tilida nafaqat grammatik va morfologik tizimni tushunish, balki semantik jihatdan ham tilni chuqur o'rganish imkonini beradi. Ushbu hodisa Qur'on tili, adabiyot va she'riyatda keng qo'llaniladi. Ishitqoq orqali arab tilining boyligi namoyon bo'ladi. Uni tushunish arab tilini o'rganuvchilar uchun muhim bo'lib, tilning mantiqiy va tizimli tuzilishini anglashga yordam beradi.

Tilshunos olim Ibn Jinniy (923–1002) o'zining “Al-Xasa'is” asarida ishitqoq nazariyasini chuqur tahlil qilib, so'zlarning semantik bog'lanishi va ularning shakllanish tamoyillarini keng yoritgan. Ushbu maqola aynan Ibn Jinniyning ishitqoq haqidagi qarashlari va uning arab tilidagi ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan.

Ishitqoq sag'ir: Kichik ishitqoqda so'zlarning ildizi bir xil bo'lib, ular turli grammatik shakllarga ega bo'ladi. Ibn Jinniy bu turdagi ishitqoqni tilning tabiiy rivojlanish shakli deb hisoblab, quyidagi misollarni keltiradi:

علم (ilm - bilim) → عالم (olam - olim, dunyo) → تعليم (ta'lim - o'qitish)
كتب (kataba - yozdi) → كاتب (kotib - yozuvchi) → مكتوب (maktub - yozilgan narsa, xat)

Ibn Jinniyga ko'ra, bu turdagi ishitqoq arab tilining leksik va morfologik tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon so'zlarning ma'nosini kengaytiradi va ularning grammatik imkoniyatlarini oshiradi.

Ishitqoq kabir: Ishitqoq kabirda so'z tarkibidagi harflarning joylashuvi o'zgaradi, lekin ularning semantik aloqasi saqlanib qoladi. Ibn Jinniy ushbu hodisani chuqur o'rganib, quyidagi misollarni keltirgan:

جبر (jabr - majburlash, zo'rlash) → رجب (rajb - barpo etish, tiklash)
سلم (salama - tinchlik, salomatlik) → لمس (lamasa - tegish, qo'l tekkizish)
قلب (qalb - yurak, qalb) → لبق (labiq - chaqqon, epchil)
قيد (tortish) → بقد (to'ldirish, taqsimlash)
لطق (zarar yetkazish) → طلق (qo'yib yuborish)

Bu hodisada Ibn Jinniy soʻzlar orasidagi semantik bogʻliqlikni nafaqat fonetik jihatdan, balki mantiqiy va metaforik maʼnolar orqali ham tushuntiradi. Unga koʻra, katta ishitiqoq arab tilida maʼno boyligini yaratadi va soʻzlarning oʻzaro aloqalarini kengaytiradi.

Ishitiqoq akbar Ibn Jinniy ishitiqoq akbarni eng murakkab leksik hodisalardan biri sifatida tavsiflaydi. Bu turdagi ishitiqoqda bir-biriga yaqin boʻlgan harflarning birini ikkinchisiga almashtirish orqali soʻzlar yasaladi, oʻzlarning ildizi turlicha boʻlsa ham, semantik jihatdan bogʻliq boʻlishi kuzatiladi. Masalan:

لَعَق - kargʻa qagʻilladi → لَهَقَ eshak hangradi

قتل (oʻldirish) → قَطَلَ (yoq qilish, kesish)

صدق (rostgoylik) → صَبَقَ (oldinda boʻlish)

Bu misollarda soʻzlar fonetik jihatdan oʻxshash boʻlsa ham, ularning semantik bogʻliqligi faqat chuqur tahlil orqali namoyon boʻladi. Ibn Jinniy ushbu hodisani arab tili goʻzalligining asosiy unsurlaridan biri deb hisoblagan.

Ibn Jinniy oʻz asarida ishitiqoqni nafaqat leksik hodisa, balki arab tilining asosiy semantik tizimlaridan biri sifatida koʻrsatadi. Unga koʻra:

Ishitiqoq arab tilida maʼno rivojlanishini taʼminlaydi.

Qurʼondagi baʼzi soʻzlarning chuqur maʼnolarini ochib berishga yordam beradi.

Adabiyot va sheʼriyatda metaforik tahlillarni yanada boyitadi.

Arab tilining dinamik rivojlanishiga hissa qoʻshadi.

Ishitiqoq arab tilining leksik va semantik tizimini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri boʻlib, u soʻzlarning kelib chiqishini tushunish va ularning morfologik rivojlanishini anglashda muhim rol oʻynaydi. Ushbu maqolada koʻrib chiqilganidek, ishitiqoq uch asosiy turga boʻlinadi: ishitiqoq sagʻir, ishitiqoq kabir va ishitiqoq akbar. Har bir tur tilning semantik jihatdan boyishiga va soʻzlar oʻrtasidagi bogʻliqlikning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ibn Jinniy oʻzining “Al-Xasaʼis” asarida ishitiqoqni chuqur tahlil qilib, uning fonetik va semantik bogʻliqlik jihatlarini ochib bergan. Uning tadqiqotlari arab tilshunosligida muhim oʻrin egallaydi va bugungi kunda ham arab tilining oʻziga xosligi va murakkab tuzilishini tushunishda ahamiyat kasb etadi.

Ishitiqoq nazariyasi nafaqat lingvistik tadqiqotlar uchun, balki zamonaviy kompyuter lingvistikasi, tarjima tizimlari va sunʼiy intellekt sohalari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Arab tilining dinamik rivojlanishini tushunish va uni chuqur oʻrganish uchun ishitiqoq nazariyasini mukammal oʻzlashtirish lozim. Ibn Jinniyning bu boradagi ishlari kelajakda arab tilshunosligi va semantik tadqiqotlarning yanada rivojlanishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. Ibn Jinniy, “Al-Xasa’is” (الخصائص), Qohira, Dor al-Fikr, 1997.
2. Wright, W. “A Grammar of the Arabic Language”, Cambridge University Press, 1896.
3. Versteegh, Kees. “The Arabic Language”, Edinburgh University Press, 2014.
4. Baalbaki, Ramzi. “The Legacy of the Kitāb: Sībawayhi’s Analytical Methods Within the Context of the Arabic Grammatical Theory”, Brill, 2008.
5. Owens, Jonathan. “The Foundations of Grammar: An Introduction to Medieval Arabic Grammatical Theory”, John Benjamins Publishing, 1988.
6. Holes, Clive. “Modern Arabic: Structures, Functions, and Varieties”, Georgetown University Press, 2004.
7. Ne’matulloh Ibrohimov, 2022 G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
8. N.Ibrohimov Arab tili grammatikasi.

FE’LGA O’XSHASH HARFLARNING SEMANTIK TAHLILI

Kamoliddinova Omina Maxmud qizi

Oriental universiteti filologiya va tillarni o‘qitish

(arab tili) yo‘nalishining bakalavr bosqichi 1-kurs talabasi

ominakamoliddinova@icloud.com

Ilmiy rahbar: Fayziyev Shamsuddin Sadriddinovich

Tillar-1 kafedrasida stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tili nahv tizimidagi fe’lga o‘xshash harflarning grammatik amallarini bajarish xususiyatlari, ularning e’robgga ta’siri hamda ularning semantik vazifalari keng tahlil qilinadi. Bu harflar jumla mazmunini belgilash, ta’kid va o‘xshatish kabi munosabatlarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: fe’lga o‘xshash harflar, nahv, semantika, belgilash, ta’kid, arab tili.

Abstract. This article shows a comprehensive analysis of the grammatical functions and semantic roles of verb-like particles in Arabic syntax. These particles play a crucial role in shaping sentence meaning and expressing emphasis and conditional relationships.

Keywords: Particles-like verb, syntax, semantics, conditional particles, Arabic language.

Arab tili grammatikasida so‘zlar asosan uch yirik guruhga: ism, fe’l va harfga bo‘linadi. Harflar o‘z mohiyatiga ko‘ra mustaqil ma’noga ega bo‘lmas-da, ular jumla

tarkibida sintaktik munosabatlar yaratadi, ma'nolarni o'zgartiradi va fe'lga o'xshash grammatik amallarni bajarishi mumkin. Shuning uchun nahv olimlari orasida الأحراف المشبهة بالفعل, ya'ni "fe'lga o'xshash harflar" alohida mavzu sifatida o'rganib kelingan. Bu harflar fe'lning ma'nosi yoki ta'siriga o'xshash bo'lgani uchun shunday atalgan. Klassik manbalarda, xususan, Hifniy Nosifning "Ad-Durus an-Nahviyya", Mustafo al-G'aloyniyning "Jome' ad-durus al-'Arobiyya", Ibn Hishomning "Shuzur az-Zahab" asari va Ibn Molikning "Alfiyya" kitobi sharhlarida ushbu harflarning semantik vazifasi batafsil o'rganilgan. Ularning fe'lga o'xshashligi, birinchi navbatda, o'zidan keyingi lafzga ta'sir o'tkazishi, ikkinchidan esa jumlaning ma'nosini tubdan o'zgartirishi bilan belgilanadi.

Fe'lga o'xshash harflarning umumiy tavsifi nahv ilmidagi ta'rifga ko'ra fe'l kabi omil bo'lib, e'robda o'zidan keyingi so'zni o'zgartiradi, ya'ni jumla tarkibida muayyan grammatik amal bajaradi. Lekin fe'lning zamon, shaxs-son kabi morfologik kategoriyalariga ega emas. Bu harflarning semantik xususiyati ularning qo'llanilish maqsadiga qarab qat'iy belgilanadi. Masalan, إِنَّ (inna) – ta'kid, كَأَنَّ (ka'anna) – o'xshatish kabi ma'nolarni yuzaga chiqaradi.

Inna kabi fe'lga o'xshash harflar – وَأَخْوَاتِهَا إِنَّ (innaning axovati) deb ataladi. Bu guruhdagi harflar arab tilida eng ko'p uchraydigan, semantik yuklamasi boy bo'lgan harflardir. Ular ismni nasb ya'ni –ni qo'shimchasi ma'nosi bilan, xabarni esa raf' ya'ni –dir ma'nosi holiga kiritadi. Innaning axovati va ularning ma'nolari quyidagilar:

1. إِنَّ (inna) – kuchli ta'kid ma'nosini bildiradi. Jumla boshida kelganda fikrni, e'tiborni tortadigan darajada kuchaytiradi. So'zlovchi fikrining to'g'riligini alohida tasdiqlamoqchi bo'lganda ishlatiladi. إِنَّ اللَّهَ غَفُورٌ – "Albatta, Alloh kechiruvchidir".

2. أَنَّ (anna) – ko'pincha ichki xabar, vositali nutqda xabarni ifodalash uchun yoki ko'chirma gapda qo'llaniladi va ko'p hollarda fe'ldan keyin keladi. عَلِمْتُ أَنَّ الْحَقَّ ظَاهِرٌ – "Haqiqat ayon ekanini bildim".

3. كَأَنَّ (ka'anna) – o'xshatish, taxmin, faraz ma'nolarini beradi. Gapga o'xshatish ohangini olib kiradi va narsaning holatini tasviriy tarzda ta'riflaydi. Uslubiy jihatdan adabiyotda, tasviriy matnlarda uchratishimiz mumkin. كَأَنَّ زَيْدًا أَسَدٌ – "Go'yo Zayd sher kabi".

4. لَكِنَّ (lakinna) – qarshi qo'yish va istisno bilan bog'langan ta'kidni bildiradi. Oldingi jumlada ayrilgan fikrga zid mazmun kiritadi. Bu harf odatda jumla o'rtasida keladi va fikr oqimini o'zgartiradi. جَاءَ الْقَوْمُ لَكِنَّ زَيْدًا لَمْ يَأْتِ – "Qavm keldi, ammo Zayd kelmadi".

5. لَيْتَ (layta) – orzu-istak va armon ma'nolarini bildiradi. Haqiqatda mavjud bo'lmagan, ammo bo'lishi istalgan holatni bildiradi. Shoirlar ham she'rlarida ishlatadi. لَيْتَ الشَّبَابَ يَعُودُ – "Qaniydi yoshligim qaytsa".

6. لعلّ (la'alla) – umid va xavotir orasidagi ikkilanishni bildiradi. Biror ishning bo'lishi ham mumkin, bo'lmasligi ham. O'rtaliq holatni bildiradi. Mazmun jihatdan nozik harflardan biri hisoblanadi: unda ham umid bor, ham xavotir. لعلّ الخيرِ قادمٌ – “Balki yaxshilik kelar”. Bu harflar ma'no jihatdan juda boy bo'lgani uchun arab tilida ma'no yaratadigan eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Fe'lga o'xshash harflar qadimgi arab lahjalarida mustaqil fe'llardan kelib chiqqan. Masalan, “inna” Arabiston hududlarida ta'kidlovchi partikula (ma'no beruvchi ammo o'zi mustaqil ma'no ifodalamaydi) sifatida qo'llanilib, keyinchalik nahviy tizimda mustaqil omilga aylangan.

Fe'lga o'xshash harflarning sintaktik va semantik o'rni jumlaning ma'no markazi, ta'kid darajasi, shart-natija munosabati, inkor kuchi va o'xshatish uslubi kabi ko'rsatkichlarini belgilaydi. Shu bois arab tilida badiiy adabiyot, Qur'on tafsiri, hadis matnlari va nutq uslubiyati kabi jabhalarda ular nihoyatda muhim.

Arab tilidagi إِنَّ (inna) va أَنَّ (anna) harflari ma'no jihatdan yaqin ko'rinsa-da, ular qo'llanish o'rni, sintaktik vazifasi va kelish shartlari jihatidan farqlanadi. Har ikkisi ham ismni nasb, xabarni raf' holiga kirituvchi omil bo'lib, ma'no jihatidan ta'kid mazmunini bildiradi. Biroq ularning nahviy vazifasi bir-biridan ancha farq qiladi.

1) إِنَّ (inna) – mustaqil jumla boshida keladi. U so'zlovchining fikrini kuchli ta'kid bilan boshlash uchun xizmat qiladi. إِنَّ الصَّبْرَ مِفْتَاحُ الْفَرْجِ – “Albatta, sabr najotning kalitidir”.

2) أَنَّ (anna) – mustaqil gap boshida ishlatilmaydi. U odatda ظننتُ، علمتُ kabi bog'lovchi fe'llar yoki harflardan keyin keladi, shuningdek, ko'chirma nutq ichida ham qo'llaniladi. قُلْتُ أَنَّ زَيْدًا قَادِمٌ – “Zayd kelayotganini aytdim”.

Ammo إِنَّ (inna) fathali ya'ni أَنَّ (anna) shaklida kelishi ham mumkin. Agar masdar (otlashgan jumla) o'rnini bossa, ya'ni fe'lning qoidasiga ko'ra kerak bo'lsa, fatha bilan keladi. Bu holatlar:

1) Fe'lning foili (bajaruvchisi) o'rnida bo'lsa: يَسْرُنِي أَنْتَ مُجَنِّهٌ – “Seni mehnatkash ekanliging, meni hursand qiladi”.

2) Noib ul-foil o'rnida bo'lsa: أَوْجِي إِلَى أَنَّهُ اسْتَمَعَ نَفْرٌ – “Unga bir guruh eshitdi degan vahiy qilindi”.

3) Maf'ul o'rnida bo'lsa: أَوْدُ أَنْتَ مُخْلِصٌ – “Sen ixlosli bo'lishingni istayman”.

4) Jar harfidan keyin kelsa: فَرَحْتُ لِأَنَّهُ مُسْتَحِقٌّ – “Unga berdim, chunki u munosib”.

Jumla o'rnida bo'lsa, kasra bilan yoziladi. Bu holatlar:

1) Jumla boshida: إِنَّا فَتَحْنَا لَكَ – “Albatta biz senga ochdik”.

2) أَلَا dan keyin kelsa: أَلَا إِنَّ أَوْلِيَاءَ اللَّهِ لَا خَوْفٌ عَلَيْهِمْ – “Ogoh bo'ling, Allohning do'stlariga xavf yo'q”.

3) Naql qilingan gapdan keyin: قَالَ إِنِّي عَبْدُ اللَّهِ – “Men Allohning bandasiman dedi”.

4) Hol jumlasida: فَهَرَّ عَلَيَّ الْأَعْدَاءُ، وَإِنَّهُ مُنْفَرِدٌ – “Ali dushmanlarni mag‘lub etdi, holbuki u yolg‘iz edi”.

To‘xtalib o‘tishimiz joizki, fatha ham, kasra ham durust bo‘ladigan holatlar ham bor. Agar ikki xil grammatik talqin ham joiz bo‘lsa, ikkisi ham joiz. Masalan الفاء (fa) javob shartidan keyin kelsa: مَنْ يَسْتَفِمْ فَإِنَّهُ يَنْجَحُ “Kim to‘g‘ri bo‘lsa, muvaffaqiyatga erishadi”.

Xulosa

Fe’lga o‘xshash harflar arab tili sintaksisining markaziy elementlaridan biridir. Ular fe’lga xos e’rob amallarini bajaradi, lekin harf tabiatidan chiqqa olmaydi. “Inna” va uning axovatlari semantik ma’no qatlamiga chuqur ta’sir qilib, jumlani ta’kid, o‘xshatish, armon, xavotir kabi nozik ma’nolar bilan boyitadi. Mazkur harflarning semantik tahlili arab tili nahvining murakkab tizimini chuqur anglash imkonini beradi. Ularning qo‘llanilishi badiiy nutqning mazmuniy aniqligini oshiradi va fikrning aniq ifoda etilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abbos Hasan. An-Nahv al-Wafi. Qohira: Dar al-Ma’orif, 1996.
2. Al-Ashmoniy. Sharh al-Ashmoniy ‘ala Alfiiyat Ibn Malik. Bayrut: Dar al-Kutub al-’ilmiyya, 1997.
3. Ibn Hishom. Shuzur az-Zahab fi Ma’rifati Kalam al-’Arab. Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyyah, 2004.
4. Hifniy Nosif, Muhammad Diyob, Mustafo Tamum, Muhammad Solih. Durus an-Nahviya. Damashq: Maktabat Dar al-Fajr, 2015.
5. Mustafo G‘olayiniy. Jome’ ad-durus al-’arabiyya. Riyod: Dar al-Muayyad, 2015.

ARAB TILIDA GAP TURLARI

Abitov Sherzod Mansur og‘li

Oriental universiteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasi dotsenti A.Ikromjonov

Annotatsiya: Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqotda arab tilidagi gap turlari o‘zbek tili leksikasiga yondosh holatda o‘rganish va ularni yozma hamda og‘zaki nutqda qo‘llash uslubi misollar bilan yoritildi.

Kalit so‘zlar: ismiy gap, fe’liy gap, ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi.

Аннотация: В данном научном исследовании были изучены типы предложений в арабском языке в сочетании с лексикой узбекского языка, а также проиллюстрирован на примерах метод их использования в письменной и устной речи.

Ключевые слова: именное предложение, глагольное предложение, притяжательное, причастие, определитель, дополнение.

Soʻzlarning tuzulishi Alifbo harflaridan soʻzlar tuziladi. Yaʼni avvali “alif” bilan oxiri “ya” bilan tugaydigan alifbo harflaridan soʻzlar tashkil topadi. Masalan:

أب ، أم ، أخ ، أخت ، اجتهاد ، نجاح

Bu harflardan tuzilgan soʻzlar bitta harfdan tortib yeti harfgacha boʻladi.

ب ، من ، عنب ، جعفر ، سفرجل ، زعفران ، استفهام¹

Bir maʼnoni anglatish uchun yozilgan tovushlari birikmasi “kalima” deyiladi. Kalima uch xil boʻladi. Zamonga qaydalanmay maʼnoga dalolat qilgan kalima “ism” deyiladi.

بيت ، رجل ، قليل ، أربعة

Ish-harakat va uning paydo boʻlish zamonini anglatgan kalima “feʼl” deyiladi.

فتح ، يركض ، سيدخل

Oʻzining maʼnosini ism yoki feʼlga qoʻshilgandagina ifodalay oladigan kalima “harf” deyiladi.

في ، أن ، قد²

Soʻzlardan toʻliq maʼnoni ifodalab beradigan gaplar tuziladi. Yaʼni, biz yuqorida bildikki, soʻzlar uch qism boʻladi. Feʼl, ism va harf. Aniqki, bitta soʻzdan gap tuzolmaymiz. Shuning uchun kamida ikkita soʻz ishlatishimiz kerak. Shunda toʻliq maʼnoni ifodalab beradigan talaffuz qila olamiz.

Ikkita va undan koʻproq soʻzdan tuzilgan gap arab tilida “kalom” deyiladi. Masalan:

العلم نافع ، حضر المعلم

Agar gap ikki ismdan iborat boʻlsa, avvalgi boʻlib kelganini ega, undan keyingisini kesim deymiz.

العلم نافع

العالم-ega

نافع-kesim.

Kesimning ifodalanishiga koʻra gaplar ikki turli boʻladi: ismiy va feʼliy

جملة اسمية

جملة فعلية

Ismiy gaplarda kesim ism (ot, sifat, son, olmosh) larning birortasi bilan ifodalanib keladi va ega - kesim munosabati quyidagilar bilan belgilanadi: Ismiy gaplarda kesim ot bilan ifodalangan boʻlsa ot kesimli gap deyiladi ("Salim studentdir", "Bu uydir", "Sen oʻquvchi qizsan" kabi).

Arab tilida ismiy gaplarga quyidagi talablar qoʻyiladi:

¹ Hifniy Nasif, Muhammad Diyab, Mustafu Tommum, Muhammad Solih. Dar nashr lugʻatul arobiyya, Pokiston-2013. – 10.

² Rahmatulloh Rasuliy. Imom Buxoriy xalqaro markazi, Samarqand-2019. – B3.

1. Gapning egasi oldin, kesimi keyin keladi.

طشقند مدينة - Toshkent shahardir.

هو مصري - U misrlikdir.

2. Gapning egasi aniq holatda, kesimi noaniq holatda keladi:

المهندس نشيط - Muhandis faoldir.

المهندسة نشيطة - Muhandis ayol faoldir.

المدرس عالم - O'qituvchi olimdir.

المدرسة عامة - O'qituvchi ayol olmadir.

انا طالب - Men studentman.

هذا كتاب - Bu kitobdir.

3. Gapning kesimi jinsi o'zgarishi mumkin bo'lgan so'zdan iborat bo'lsa, eganing jinsiga moslashadi. Masalan:

أحمد مهندس - Ahmad muhandisdir.

فاطمة مهندسة - Fotima muhandisdir.

أنا مدرس - Men o'qituvchi (erkak) man.

أنا مدرسة - Men o'qituvchi (ayol) man.

هذا مهندس - Bu muhandisdir.

هذه مهندسة - Bu muhandis (ayol)dir.

4. Gapning egasi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa, u kesimning jinsiga mos bo'ladi. Masalan:

هذا بيت - Bu uydur.

هذه غرفة - Bu xonadir.

ذلك كتاب - Anavi kitobdir.

تلك مجلة - Anavi jurnaldir.

5. Gapning egasi yuqori, kesimi past ohangda o'qiladi:

محمد فلاح - Muhammad dehqondir.

السيارة جديدة - Avtomobil yangidir.

Kesimi fe'l bilan ifodalangan gap fe'l kesimli gap deyiladi. Fe'l kesimli gapning egasi kesimdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Sodda fe'liy gaplarga e'tibor beraylik:

1. Agar ega kishilik olmoshi bilan ifodalangan bo'lsa, u gap tarkibida ishlatilmasligi mumkin, chunki fe'lning shaxs va soni gapning egasini ko'rsatib turadi.

Masalan,

نحن نكتبون - Biz ketdik - Sizlar (m) yozasizlar.

Agar bunday gapning egasi ta'kidlanib kelayotgan bo'lsa, olmosh kesimdan oldin kelishi mumkin. Masalan,

نحن ذهبنا - Biz ketdik - أنتم تكتبون - Sizlar (mz) yozasizlar.

2. Agar gapning egasi ot bilan ifodalangan bo'lsa, u kesimdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Bunda ega bilan kesim o'rtasidagi moslashuv quyidagicha bo'ladi:

a) agar gapning egasi insonni anglatadigan ismdan iborat bo'lsa va kesimdan keyin kelsa, kesim har doim birlikda kelib shu ega bilan faqat jinsda moslashadi.

Masalan,

خرج المهندس - Muhandis (mz) chiqdi.

خرج المهندسان - Ikki (m2) muhandis chiqdi.

خرج المهندسون - Muhandislar (mz) chiqdilar.

دخلت الطالبة - Toliba kirdi.

دخلت الطالبتان - Ikki toliba kirdi.

دخلت الطالبات - Tolibalar kirdilar.

Agar fe'l-kesim keyin kelsa, ega bilan jinsda va sonda to'la moslashadi:

خرج المهندس - Muhandis chiqdi

دخلت الطالبة - Talaba qiz kirdi.

خرج المهندسان - Ikki muhandis chiqishdi.

دخلت الطالبان - Ikki talaba qiz kirishdi.

خرج المهندسون - Muhandislar chiqdilar.

دخلت الطالبات - Talaba qizlar kirishdi.

b) agar gapning egasi insonni anglatmaydigan ism bilan ifodalangan va u birlik yoki ikkilik sonda bo'lsa, kesim insonni anglatadigan ism bilan ifodalangan ega bilan qanday moslashsa, u bilan ham shunday moslashadi, ya'ni birlikda bo'ladi va faqat jinsda moslashadi. Masalan,

وصل القطار - Poyezd keldi.

وصل القطاران - Ikkita poyezd keldi.

وصلت الطائرة - Samalot yetib keldi.

وصلت الطائرتان - Ikkita samalot yetib keldi.

Yoki

وصل القطار وصل - Poyezd yetib keldi.

وصلت الطائرة وصلت - Samalot yetib keldi.

وصل القطاران وصل - Ikkita poyezd yetib keldi.

وصلت الطائرتان وصلت - Ikkita samalot yetib keldi.

v) agar bu xildagi ega ko'plikda bo'lsa va kesim egadan oldinda kelsa ham, keyin kelsa ham birlikda muannasda bo'ladi. Masalan,

وصلت القطر - Poezdlar keldi.

وصلت القطر وصلت - Poezdlar keldi.

وصلت الطائرات - Samalotlar keldi.

الطائرات وصلت - Samalotlar keldi.

نبحث الكلاب - Itlar vovilladi.

الكلاب تبحث - Itlar vovilladi.

g) agar gapning egasi uyushib kelib, ularning biri muzakka jinsda, ikkinchisi muannasda bo'lsa, bunday egalardan oldin turgan fe'l - kesim o'ziga eng yaqin ega bilan jinsda moslashadi. Masalan,

دخلت الطالب والمعلمة

Talaba va muallima kirishdi.

دخلت المعلمة و الطالب

Muallima va talaba kirishdi.

Agar bunday egalar kesimdan oldin turgan bo'lsa, kesim har doim muzakkar jinsda ikkilikda keladi. Masalan,

الطالب والمعلمة دخلا yoki المعلمة و الطالب دخلا

d) Agar gapning kesimi uyushib kelgan bo'lsa, avval gapning birinchi uyushgan kesimi (ega bilan jinsda moslashgan holda, birlikda), so'ng gapning egasi, undan keyin ega bilan sonda va jinsda moslashgan holda qolgan uyushiq kesimlar keladi, Masalan,

دخل الطلاب فجلسوا ثم سمعوا وكتبوا

Talabalar kirdilar, so'ng o'tirdilar, undan keyin tingladilar va yozdilar.

وصل السيارة ووقفنا

Ikki avtomobil keldi va to'xtadi.

Yuqorida ko'rgan gaplarimizning barchasi sodda gap bo'lib, o'z tarkibida birgina predikativ birlikka ega bo'lgan, ma'lum fikr, maqsadni ifodalovchi, grammatik va ohang jihatdan shakllangan sintaktik birlikdir. Sodda gap tuzilishiga ko'ra, yig'iq yoki yoyiq bo'lishi mumkin. Bosh bo'laklardan tashkil topgan gaplar - yig'iq gap, agar bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etsa, yoyiq gap sanaladi.

Arab tilida sodda yoyiq ismiy gaplarda bo'laklar o'zlariga xos tartibga ega. Gap boshida ega va uning guruhi, ya'ni aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol keladi, keyin esa kesim va uning guruhi keladi.

هذا الرجل المجتهد عامل نشيط جدا في المصنع

Bu harakatchan kishi zavodda juda ilg'or ishchidir.

هذه المرأة النشيطة مهندسة

Bu faol ayol muhandisdir.

Ma'lumki, turli tillarda ergashgan qo'shma gaplar, xususan, shart ergash gapli qo'shma gaplar va ularni ifodalash vositalari aynan bir xil emas. "Ifoda vositalari deganda, avvalo, fe'lning mayllarini, shuningdek, bog'lovchi, yuklamalari va bog'lovchi o'rnidagi so'zlarni to'g'ri qo'llashni tushunish kerak. Bu turdagi murakkab gaplarda morfologiya ham, sintaksis ham bir-biri bilan chambarchas bog'langan

bo'ladi. Arab tili flektiv til bo'lgani bois, unda morfologiya juda rivojlangan bo'lib, u boshqa tillardan farqli ravishda sintaksis bilan teng huquqlarga ega.

"Mazmun va ohang (intonatsiya) ga ko'ra, o'zaro birikkan ikki yoki undan ortiq gaplar qo'shma gaplardir. Anglashilib turibdi-ki, qo'shma gaplar alohida sodda gaplarning oddiy yig'indisi emas, balki mazmun va grammatik jihatdan bir birlariga bog'langan yoki ergashgan gaplarning zaruriy birikmasidar. Bundan tashqari, qo'shma gaplar tarkibiga kiruvchi gaplar o'zaro fonetik bir butunlikni ham tashkil etadi"

Arab tilida sodda gap bir predikativ markazdan tashkil topgan bo'lsa, qo'shma gapda u ikki yoki undan ortiq bo'ladi. Shuningdek, ular ikki yoki undan ortiq egaga tobe bo'ladi.

Qo'shma gaplar shakliga ko'ra vositasiz yoki vositali bo'ladi. Vositasiz birikkan qo'shma gaplar tilda nisbatan kam uchraydi:¹

قال الرجل للتنبل : قم من مكانك

Kimsa tanbalga dedi: - Qani bir o'ringdan tur-chi.

Qo'shma gaplar ikkiga bo'linadi:

1. Bog'langan qo'shma gaplar.

2. Ergashgan qo'shma gaplar.

هذا الرجل المجتهد عامل نشيط جدا في المصنع

Bu harakatchan kishi zavodda juda ilg'or ishchidir.

هذه المرأة النشيطة مهندسة

Bu faol ayol muhandisdir.

Bog'langan qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplar o'zaro teng boglanadi va biri ikkinchisiga tobe bo'lmaydi. "Bog'langan qora boganadi jihatidan nisbatan erkin gaplar yig'indisi bo'lib, biriktiruvchi (teng, zidlov, ajratuvchi) bog'lovchilar vositasida o'zaro bog'lanadi. Demak, bu gaplar o'zaro في ثم، بل، لكن، kabi bog'lovchilar yordamida birikadi. Masalan -أبي يقرأ القرآن وأتي ثُعْدُ الطَّعَامِ وَأَخِي يُذَاكِرُ ذُرُوسَهُ Otam Qur'on o'qiyapti, onam taom tayorlayapti, ukam esa darslarini qilyapti.

كسر الباب ابني أحمدُ أو كسرتَه بنتي خديجة

Eshikni og'lim Ahmad yoki qizim Xadicha sindirdi.

النَّاسُ إمَّا أَغْنِيَاءُ وَإِمَّا فَفَرَاءُ

Odamlar yoki boy, yoki kambag'al.

Ergashgan qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplarning biri ikkinchisiga tobe bo'lib, uni to'ldirib, aniqlab yoki boshqa tomondan xarakterlab keladi. To'ldirilib yoki aniqlanib kelayotgan gap bosh gap, tobe gap esa ergash gap deyiladi. Ergash gap bosh gapni qaysi tomondan xarakterlab kelayotganligiga ko'ra, bir necha turlarga bo'linadi. Arab tilida ergash gaplarning bir qancha turlari mavjud. N.Ibrohimov, M.

¹ Талабов Э. Араб тили. Т.: Ўзбекистон, 1993.- Б. 254-255. O'sha manba.B. 255.

Yusupovlarning "Arab tili grammatikasi" kitobida qo'shma gaplarning shu 15 ta turi keltiriladi. Ular:

1. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap;
2. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap;
3. Ega ergash gapli qo'shma gap;
4. Kesim ergash gapli qo'shma gap;
5. Shart ergash gapli qo'shma gap;
6. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap;
7. Payt ergash gapli qo'shma gap;
8. Holat ergash gapli qo'shma gap;
9. O'rin ergash gapli qo'shma gap;
10. Hol ergash gapli qo'shma gap;
11. Sabab ergash gapli qo'shma gap;
12. Maqsad ergash gapli qo'shma gap;
13. Natija ergash gapli qo'shma gap;
14. O'xshatish ergash gapli qo'shma gap;
15. Istisno ergash gapli qo'shma gap kabi turlari mavjud.

Arabshunos B.Z.Xolidov qo'shma gaplarning 13 turini aytib o'tadi. Kovalyov, G.Sh. Sharbatov darsligida esa ularning 9 turi ko'rsatiladi.

Arab tilida sodda gap bir predikativ markazdan tashkil topgan bo'lsa, qo'shma gapda u ikki yoki undan ortiq bo'ladi. Shuningdek, ular ikki yoki undan ortiq egaga tobe bo'ladi. Qo'shma gaplar shakliga ko'ra vositasiz yoki vositali bo'ladi. Vasitasiz birikkan qo'shma gaplar tilda nisbatan kam uchraydi:

Qo'shma gaplar ikkiga bo'linadi: bog'langan qo'shma gaplar va ergashgan qo'shma gaplar.

Bog'langan qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplar o'zaro teng boglanadi va biri ikkinchisiga tobe bo'lmaydi. Ergashgan qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplarning biri ikkinchisiga tobe bo'lib, uni to'ldirib, aniqlab yoki boshqa tomondan xarakterlab keladi. To'ldirilib yoki aniqlanib kelayotgan gap bosh gap, tobe gap esa ergash gap deyiladi.

Ergash gap bosh gapni qaysi tomondan xarakterlab kelayotganligiga ko'ra, bir necha turlarga bo'linadi. Arab tilida ergash gaplarning bir qancha turlari mavjud. Ayrim darsliklarda ularning 15 turi keltirilgan.

Arab tilidagi gaplar ega ism bo'lsa ismiy gap fe'l bo'lsa fe'liy gap ekanligi shuningdek o'zbek tili leksikasida kesm ism bo'lsa ismiy gap fe'l bo'lsa fe'liy gap ekanligi ma'lum bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. T.: O'qituvchi, 1996.
2. Ibroximov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1 jild. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. II jild. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997. T.:
4. Ibroximov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1 jild. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
5. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. II jild. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997. T.:
6. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yazika. M.: Vostochnaya literatura, 1998.
7. Кузьмин S.A. Uchebnik arabskogo yazika. -M., 2003
8. Muxtarov T., Mutalova G. Arabskiy yazik. -T.: TGIV, 2017
9. Muxtarov T., Mutalova G. Arabskiy yazik. -T.: TGIV, 2017

ARAB TILIDA SON VA SANALMISH

Turabayeva Nigora

Oriental universiteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqotda arab tilidagi son va sanalmish turlari o'zbek tili leksikasiga yondosh holatda o'rganish va ularni yozma hamda og'zaki nutqda qo'llash uslubi misollar bilan yoritildi.

Kalit so'zlar: ismiy gap, son, sanoq son, sanalmish, murakkab son, yaxlit sonlar va sanalmish.

Аннотация: В данном научном исследовании параллельно с лексикой узбекского языка изучались типы чисел и перечислений в арабском языке, а их использование в письменной и устной речи иллюстрировалось примерами.

Ключевые слова: именная группа, число, перечислимое число, перечисление, комплексное число, целые числа и перечисление.

Arab tilida sonlar tuzilishiga ko'ra turlari quyidagicha:

1 (واحد، اثنان، ثلاثة، اربعة، سبع، تسع، عشرة، مئة، ألف) Sodda son) العدد المفرد 1 Sodda sonlarga 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 100, 1000 sonlari kiradi.

2 (أحد عشر، اثنا عشرة، ثلاثة عشر، تسع عشرة) Murakkab son) العدد المركب 2 Murakkab sonlar 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19 sonlardan iborat.

yaxlit عشرون، ثلاثون، أربعون، ستون، ثمانون، تسعون) (yaxlit العدد العقود 3 o'nluk sonlar 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90 sonlardan iborat.

(واحد و عشرون، اثنان و ثلاثون، ثمان و تسعون) (bog'langan son) العدد المعطوف 4 Bog'langan sonlarga 21, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29, 31...39...99 sonlari kiradi.

1 dan 10 gacha bo'lgan sanoq sonlarning o'ziga xosligi.

Bir va ikki sanoq sonlarining ma'dudi (sanalayotgan narsasi), sanoq sonidan oldin keladi va sanoq sonlari jins bilan e'robda ma'dudga ergashadi..

Ya'ni ma'dud (sanalayotgan narsa) muzakkar bo'lsa bu sonlar ham muzakkar ko'rinishda bo'ladi. Agar ma'dud muannas bo'lsa, bu sonlar ham muannas ko'rinishda bo'ladi. Xuddi shuningdek, bir va ikki sonlari e'robda, ya'ni raf', nasb va jar o'qilishida sanalayotgan narsaning e'robiga ergashib harakatlanadi.

Tarkibda ma'dudga "mavsuf", bir va ikki sonlariga esa "sifat", deyiladi. M:

جَاءَ رَجُلٌ وَاحِدٌ جَاءَتْ امْرَأَةٌ وَاحِدَةٌ
جَاءَ رَجُلَانِ اثْنَانِ جَاءَتْ امْرَأَتَانِ اثْنَتَانِ

Uchdan o'ngacha bo'lgan sanoq sonlarida son birinchi kelib, ma'dud keyin keladi. Son ma'dudning jinsiga teskari bo'ladi. Va ma'dud har doim ko'plik siyg'asida kelib muzofun ilayhlikka ko'ra jar o'qiladi. Son bilan sanalmish odatda izofa birikmasini hosil qiladi. 3 dan 10 gacha bo'lgan sanoq sonlar gapdagi vazifasiga ko'ra kelishikda o'zgaradi. M:

جَاءَ أَرْبَعَةٌ رِجَالٍ
جَاءَتْ أَرْبَعٌ نِسْوَةٌ

Arab tilida 11 dan 100 gacha bo'lgan sanoq son va sanalmish.

11dan 19 gacha bo'lgan sanoq sonlariga murakkab sanoq sonlari, deyiladi. Ya'ni, bu turdagi sanoq sonlari ikkita so'zdan birikib yoziladi. Va murakkab sanoq sonlarining birinchi qismiga "sodr", ikkinchi qismiga "ajuz", deyiladi. M:

أَحَدٌ عَشْرٌ.....تِسْعَةٌ عَشْرٌ

العدد المركب 11-dan 19 gacha bo'lgan murakkab sanoq sonlar qoidasi:

O'n bir va o'n ikki sanoq soni sanalayotgan narsaning jinsiga to'laligicha ergashadi.

Ya'ni o'n bir va o'n ikki lafzlari ikkita so'zdan tuziladi va mana shu ikkita so'z ham sanalayotgan narsaning jinsiga ergashadi. Ma'dud muzakkar bo'lsa, bular ham muzakkar bo'ladi. Agar ma'dud muannas bo'lsa, bular ham muannas bo'ladi. M:

جَاءَ أَحَدٌ عَشْرَ طَالِبًا جَاءَ اثْنَا عَشَرَ طَالِبًا
جَاءَتْ إِحْدَى عَشْرَةَ طَالِبَةً جَاءَتْ اثْنَتَا عَشْرَةَ طَالِبَةً

11dan 19 gacha bo'lgan sanoq sonlarining ma'dudi har doim sanoq sonlardan keyin kelib, mufrad holatda bo'ladi va tamyizlikka ko'ra nasb o'qiladi. M:

أَرْبَعَةٌ عَشْرَ رَجُلًا

Yuqoridagi misolga «رَجُلًا» lafzi maʼdud hisoblanadi va u mufrad holatda boʻlib, tamyizlikka koʻra nasb oʻqildi.

11dan 19 gacha boʻlgan sanoq sonlarning ikkala boʻlagi ham fathaga mabniy boʻladi. (Faqatgina oʻn ikki bundan mustasno. Chunki, oʻn ikkining birinchi boʻlagi moʻʼrab, ikkinchi boʻlagi mabniy hisoblanadi)

أَرْبَعَةَ عَشَرَ وَوَلَدًا يَذْهَبُونَ إِلَى السُّوقِ

14 ta bola bozorga ketyapti

سِتَّةَ عَشْرَةَ طَالِبَةً يَجْلِسْنَ أَمَامَ مُدِيرِ الْمَدْرَسَةِ

16 ta talaba qiz maktab direktorining oldida oʻtiripti

أَخَذْتُ سَبْعَ عَشْرَةَ مَجَلَّةً مِنْ ذَلِكَ الدُّكَّانِ

Men anavi doʻkondan 17 ta jurnal oldim

يَعْمَلُ خَمْسَةَ عَشَرَ عَامِلًا فِي هَذَا الْمَصْنَعِ

Bu zavodda 15 ta ishchi ishlaydi

أَكَلَ الْأَسَدُ تِسْعَ عَشْرَةَ شَاةً

Sanoq sonlari orasida «uqud», deb nomlangan sakkizta son mavjud, ular quyidagilar: 10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90.

Bu sanoq sonlar jumladagi oʻrniga qarab eʼroblanadi. Uqud sanoq sonlari jamʼi muzakkari solimga mulhaq boʻlgani uchun, uning eʼrobi bilan eʼroblanadi. Yaʼni, rafʼ holati «vov» bilan, nasbu jar holati esa «yo» bilan boʻladi. Sanalmish (التمييز) xoh muzakkar (المذكر) xoh muannas (المونث) jinsda boʻlsin, uqud (العقود) sanoq sonlari bir xil koʻrinishda yaʼni, muzakkar (المذكر)da boʻlib, uch kelishikda turlanadi.

عِشْرُونَ طَالِبًا أَمَامَ الْمُدِيرِ الْآنَ

20 talaba hozir direktorning oldida

أَرْبَعُونَ طَالِبَةً فِي الْمَكْتَبَةِ الْكَبِيرَةِ الْآنَ

40 talaba qiz hozir kata kutubxonada

إِشْتَرَيْتُ خَمْسِينَ كِتَابًا الْيَوْمَ

Bugun 50ta kitob sotib oldim

ذَهَبْتُ إِلَى الْمَلْعَبِ مَعَ ثَلَاثِينَ وَوَلَدًا

30 ta bola bilan birga oʻyingohga bordim

21dan 99 gacha boʻlgan sanoq son (العدد)lar bogʻlovchisi orqali uyushib, avvalgi birlik qismi – maʼtuf alayhi (المعطوف عليه) va ikkinchi oʻnlik (المعطوف) deb ataladi. 21 dan 99 gacha boʻlgan sanoq sonlari birlik va oʻnliklardan birikib yasaladi. Yuqorida istisno qilingan sanoq sonlaridan boshqa barchasida birlik qismi maʼdudning jinsiga teskari boʻladi. Oʻnlik boʻlgan ikkinchi qismi esa «Uqud» sanoq sonlaridan boʻlgani uchun har doim muzakkar koʻrinishda boʻladi. Maʼdud esa mufrad koʻrinishda keladi va tamyizlikka koʻra nasb oʻqiladi.

Qoidasi quyidagicha:

1) 21dan 99 gacha bo‘lgan sanoq son (العدد)lar tarkibidagi 1 va 2 birlik sonlari sanalmish (التمييز) bilan jinsda moslashadi;

دَرَسَ وَاحِدٌ وَعِشْرُونَ وَوَلَدًا فِي هَذِهِ الْمَجْمُوعَةِ

Bu guruhda 21 ta bola o‘qidi

خَرَجَتْ وَاحِدَةٌ وَعِشْرُونَ بِنْتًا مِنَ الْفَصْلِ

21 ta qiz sinfdan chiqdi

أَكَلَ هَذَا الطَّعَامَ اثْنَانِ وَعِشْرُونَ رَجُلًا

Bu ta’omni 22 ta kishi yedi

قَرَأْتُ هَذَا الْحَدِيثَ اثْنَتَانِ وَعِشْرُونَ طَالِبَةً

Bu hadisni 22 ta talaba qiz o‘qidi

yuz (مِئَةٌ، مِائَةٌ), ming (أَلْف) kabi yaxlit sanoq sonlar. Yuz (المِئَاتُ) muannas jinsda bo‘lsada, lekin u ham muzakkar ham muannas (المِئَاتُ) ga ishlatiladi. Ming (أَلْف) soni muzakkar (المذكر) jinsda, lekin muzakkar (المذكر) va muannas (المؤنث) ga ham ishlatiladi. Yuz (مِئَةٌ، مِائَةٌ) va ming (أَلْف) yaxlit sanoq sonlar gapdagi vazifasiga ko‘ra kelishikda turlanadi, lekin ularning sanalmishi esa birlik (المفرد) sonda va izofalik (الإضافة) ka ko‘ra qaratqich kelishigida – majrur (المجرور) bo‘lib keladi. 100 sanoq sonini «مِئَةٌ» va «مِائَةٌ» shakllari mavjud. Aksar nahv olimlar 100 sanoq sonining «مِئَةٌ» shakli o‘rniga mana bu «مِائَةٌ» shaklini ishlatishni ma’qul ko‘rishadi. Va bu fikrlariga asosli, kuchli hujjat va dalillarni keltirishgan. Xususan bu to‘g‘risida «Qohira arab tili akademiyasi» maxsus qarorini e’lon qilib, yuz sanoq sonini «مِئَةٌ» shaklida yozishni uqtirib o‘tgan. Biz ham shu olimlarni tavsiyasiga amal qilgan holda yuz sanoq sonining «مِئَةٌ» shaklida yozishni ixtiyor qildik.

مِئَةُ رَجُلٍ وَمِئَةُ امْرَأَةٍ

100 ta kishi va 100 ta ayol

مِئَتَا رَجُلٍ وَمِئَتَا امْرَأَةٍ

200 ta kishi va 200 ta ayol

أَلْفٌ حَرُوفٍ وَأَلْفٌ ثَوْرٍ

1000 ta qo‘y va 1000 ta ho‘kiz

أَلْفًا جُنْدِيٍّ

2000 ta askar

أَلْفًا سَمَكَةً

2000 ta baliq

100 lafzi muannas, lekin muzakkar va muannasga ham ishlatilaveradi. Yuzlik sanoq sonlarining ma’dudi mufrad va izofalikka ko‘ra majrur bo‘lib keladi. Yuzliklar esa jumladagi o‘rniga qarab e’roblanadi. M:

عِنْدِي مِئَةُ دِينَارٍ

إِنَّ فِي الْمَعْرُضِ مِئَةَ صَوْرَةٍ

اشترى قلمًا بمئة درهمٍ

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, o‘zbek tilidan farqli o‘laroq, arab tilidagi sanoq son mavzusi, son(العدد) va sanalmish (المعدود، التمييز)ning o‘zaro birikishida murakkab qoidalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Ushbu mavzuni o‘rganishimizdan maqsad – arab tilida sanoq son hususiyatlarini qiyosiy tahlil qilib o‘ziga hosligini anglash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi. T.: O‘qituvchi, 1996.
2. Ibroximov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1 jild. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. II jild. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997. T.:
4. Ibroximov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1 jild. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
5. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. II jild. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997. T.:
6. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yazika. M.: Vostochnaya literatura, 1998.
7. Kuzьmin S.A. Uchebnik arabskogo yazika. -M., 2003
8. Muxtarov T., Mutalova G. Arabskiy yazik. -T.: TGIV, 2017
9. Muxtarov T., Mutalova G. Arabskiy yazik. -T.: TGIV, 2017

ARAB TILIDA G‘OYRU MUNSARIF SO‘ZLAR: GRAMMATIK XUSUSIYATLAR VA ULARNING QO‘LLANILISHI

*Ma‘murova Muslima
Oriental universiteti
4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi “g‘oyri munsarif” (غَيْرُ مُنْصَرَفٍ) so‘zlari haqida gap boradi. G‘oyri munsarif so‘zlar — bu arab tilida jar (genitiv) va nasb (akuzativ) holatlarida o‘zgarishsiz qoladigan so‘zlardir. Maqola g‘oyri munsarif so‘zlarning xususiyatlarini aniqlash, ularning arab tilidagi jumla tuzilmasida qanday ishlashini tushuntirish va bu turdagi so‘zlarga misollar keltirishga qaratilgan. Bunday so‘zlar faqat raf’ (nominativ) holatida o‘zgaradi va boshqa holatlarda o‘zgarmasligi bilan odatiy munsariflardan farq qiladi. Maqolada g‘oyri munsarif so‘zlarning grammatik qoidalari, turlari va arab tilining sintaksisidagi o‘rni ko‘rib chiqilgan.

Kalit Soʻzlar: Gʻoyri munsarif soʻzlar, arab tili grammatikasi, iʻrab (holat oʻzgarishlari), jar (genitiv), nasb (akuzativ), rafʻ (nominativ), munsarif va gʻoyri munsarif soʻzlar, arab tilining sintaksisi, arab tilining morfologiyasi, soʻz oʻzgarishi (deklinatsiya).

Annotation: This article discusses the concept of “non-declinable” (غَيْرُ مُنْصَرَفٍ) nouns in Arabic grammar, which are words that do not undergo grammatical changes in certain cases, such as genitive (jar) and accusative (nasb) forms. The focus of the article is on identifying and understanding the characteristics of non-declinable nouns, explaining their behavior in Arabic sentence structure, and providing examples of such words. These words remain unchanged in the genitive and accusative cases, which sets them apart from regular declinable nouns. The article also explores the grammatical rules, the types of non-declinable nouns, and their usage in Arabic syntax.

Keywords: Non-declinable nouns, arabic grammar, iʻrab (case endings), genitive (Jar), accusative (Nasb), nominative (Rafʻ), declension, arabic syntax, declining vs. non-declining words, arabic morphology.

Arab tili grammatikasida “gʻoyri munsarif” (غَيْرُ مُنْصَرَفٍ) soʻzi, oʻzgarishsiz qoladigan soʻzlarni ifodalaydi. Yaʼni, bunday soʻzlar genitiv (jar) va akuzativ (nasb) holatlarida oʻzgarishsiz, faqat nominativ holatda (rafʻ) oʻzgaradi. Gʻoyri munsariflar tilning juda muhim va murakkab qismidir, chunki ular oʻziga xos grammatik xususiyatlarga ega boʻlib, arab tilining sintaksis va morfologiyasi uchun muhim rol oʻynaydi.

Gʻoyri munsariflar — bu ismlar va baʼzi sifatlarning, oʻzgarishlar (iʻrab) jarayonida faqat nominativ holatda (rafʻ) tugmachaga ega boʻlishi, ammo boshqa holatlarda (nasb va jar) oʻzgarmasligi xususiyatini bildiradi. Boshqacha aytganda, gʻoyri munsariflar faqat nominativ holatda (-u yoki -a) tugmani qabul qiladi, lekin genitiv (jar) yoki akuzativ (nasb) holatlarida (-i yoki -a) oʻzgarmasdan qoladi.

Arab tilida iʻrab (holat oʻzgarishi) arab tilining eng asosiy grammatik tushunchalaridan biri boʻlib, soʻzning jumladagi oʻrni va uning holatiga qarab oʻzgarishlarni bildiradi. Gʻoyri munsariflar bu qoidaga muvofiq kelmaydi va aynan shu xususiyat tufayli ular grammatik jihatdan alohida oʻringa ega.

Gʻoyri Munsariflarning Xususiyatlari

Gʻoyri munsarif soʻzlarning oʻziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Iʻrab oʻzgarishlari yoʻq:

Gʻoyri munsariflar nominativ holatda -u (-i) oʻzgaruvchan boʻladi, ammo genitiv (jar) va akuzativ (nasb) holatlarida oʻzgarishsiz qoladi. Masalan:

• Nominativ holat:

“القمر كبير” (Oy katta)

(Bu yerda “al-Qamaru” so‘zi nominativ holatda, ya’ni “u” tugmachasida ishlatilgan).

• Jar holat:

“في القمر” (Oyning ichida)

(Bu yerda “al-Qamari” so‘zi genitiv holatida, lekin g‘oyri munsarif bo‘lib, o‘zgarishsiz qolgan).

• Nasb holat:

“رأيت القمر” (Men Oyni ko‘rdim)

(Bu yerda “al-Qamaru” so‘zi akuzativ holatda bo‘lsa ham, o‘zgarishsiz qoladi).

2. Nominativ holatda tugmani qabul qilish:

G‘oyri munsariflar faqat nominativ holatda o‘zgaradi va unda -u (-i) tugmachasi mavjud bo‘ladi. Boshqa holatlar, ya’ni nasb va jar holatlari esa o‘zgarishsiz qoladi.

3. Alomatlar va tugmachalar:

G‘oyri munsarif so‘zlar ko‘pincha ba’zi ma’lum harflar yoki tovushlar bilan tugaydi va ularning xususiyatlariga qarab, bu so‘zlar o‘zgarishsiz qoladi. Masalan, ba’zi sifatlar yoki ismlar, turli dialektlarda va tilda o‘zgarishlar bo‘lmagan alomatlariga ega bo‘ladi.

G‘oyri Munsarif Bo‘lgan So‘zlar

Arab tilida g‘oyri munsarif bo‘ladigan so‘zlar ko‘plab turli guruhlariga bo‘linadi.

1. Ismlar:

G‘oyri munsarif bo‘lgan ismlar orasida o‘ziga xos ismlar, tarixiy va diniy shaxs nomlari, ba’zi madaniy ob’ektlar va geografik joy nomlari bor. Ular quyidagilarga misol bo‘lishi mumkin:

• O‘ziga xos ismlar: Muhammad, Ali, Umar, Hasan, Husayn, Zaynab, Maryam va boshqalar.

• Geografik joy nomlari: Makkah, Madina, Bag‘dod, Qohira, Shom.

• Diniy va tarixiy ob’ektlar: Qur’on, Hadis, Makkah, Madina.

2. Sifatlar:

Ba’zi sifatlar ham g‘oyri munsarif bo‘lishi mumkin. Masalan, “ahmar” (qizil), “azraq” (ko‘k), “mabniyyan” (binafsha) kabi sifatlar ham i’rab o‘zgarishsiz qoladi.

3. Sifatlar va ismlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar:

Bunday ismlar va sifatlar, ko‘pincha sifatli iboralar yoki tasvirlar bilan birga ishlatiladi. Masalan, “al-Akbar” (eng kattasi), “al-Awwal” (birinchi), “al-Akhir” (oxirgi) kabi iboralar ko‘pincha g‘oyri munsarif bo‘ladi.

G‘oyri Munsariflarning Grammatik Tahlili

G‘oyri munsariflarning grammatik jihatdan o‘rganilishi, arab tilidagi sintaksis va morfologiyani chuqur tushunishga yordam beradi. Bunday so‘zlar ko‘pincha i’rab

tizimidan tashqari ishlatiladi, lekin ular jummalarni to‘g‘ri qurish uchun juda muhim hisoblanadi. G‘oyri munsariflar ko‘pincha izofat (idafa) strukturasi, ya‘ni ikki yoki undan ortiq so‘zning bir-biriga bog‘lanishida ishlatiladi. Bunday so‘zlar, odatda, subyekt va predikat o‘rtasidagi aloqalarni aniq ko‘rsatishga yordam beradi.

Arab tilidagi g‘oyri munsariflar juda muhim grammatik qoidalar asosida ishlatiladi. Bu so‘zlar, o‘zgarishsiz qolgan so‘zlar sifatida, arab tilining sintaksis va morfologiyasiga muhim hissa qo‘shadi. G‘oyri munsariflarning o‘ziga xos xususiyatlari, ya‘ni i‘rab holatlarining faqat nominativ holatda o‘zgarishi va boshqa holatlarda o‘zgarmasligi, arab tilini o‘rganish jarayonida alohida e‘tiborga olinishi kerak. Arab tilining tilshunosligi va grammatik tuzilmasi haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish uchun, g‘oyri munsariflar haqida yanada ko‘proq ma‘lumot olish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi. T.: O‘qituvchi, 1996.
2. Ibroximov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1 jild. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. II jild. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997. T.:
4. Ibroximov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1 jild. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
5. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. II jild. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997. T.:
6. Kovalev A.A., Sharbatov G.Sh. Uchebnik arabskogo yazika. M.: Vostochnaya literatura, 1998.
7. Кузьмин S.A. Uchebnik arabskogo yazika. -M., 2003
8. Muxtarov T., Mutalova G. Arabskiy yazik. -T.: TGIV, 2017
9. Muxtarov T., Mutalova G. Arabskiy yazik. -T.: TGIV, 2017

ARAB TILIDA GRAMMATIK MOSLASHUV

Qosimova Muborak Shuhrat qizi
Oriental universiteti Filologiya fakulteti
1-bosqich talabasi
muborakqosimova444@gmail.com
Ilmiy rahbar: Talipov Nodir,
Tillar-1 kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Arab tili grammatikasi dunyodagi eng murakkab va mukammal sintaktik tizimlardan biri hisoblanadi. Uning murakkablik jihatlari ko‘pincha i‘rob

tizimi, fe'l shakllari, otlarning jins va son bo'yicha o'zgarishida, shuningdek gap bo'laklarining o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Shunday murakkab tizimning tartibli ishlashini ta'minlaydigan asosiy mexanizmlardan biri — grammatik moslashuv (at-tavofuq an-nahviy)dir. Arab tilida moslashuv so'zlar o'rtasidagi sintaktik bog'lanishning aniqligi va mantiqiy izchilligini belgilaydi. Mazkur maqolada grammatik moslashuvning nazariy asoslari, asosiy turlari, qo'llanilish qoidalari va amaliy misollari ilmiy nuqtai nazardan keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: Kelishik, jins, holat, son, moslashuv, fel, sifat, ot, muftada', xobar.

Abstract: The grammar of the Arabic language is regarded as one of the most complex and sophisticated syntactic systems in the world. Its complexity is primarily manifested in the i'rāb system, verbal forms, the inflection of nouns for gender and number, as well as in the interrelations among sentence constituents. One of the fundamental mechanisms ensuring the orderly operation of this intricate system is grammatical agreement (at-tawāfuq an-naḥwī). In Arabic, agreement determines the precision of syntactic connections between words and the logical coherence of the utterance. This article provides a comprehensive scholarly examination of the theoretical foundations of grammatical agreement, its main types, rules of application, and practical examples.

Keywords: case, gender, state (i'rāb status), number, agreement, verb, adjective, noun, muftada' (topic/subject), khabar (predicate/comment).

Arab tili dunyodagi eng qadimiy va eng murakkab tillardan biri bo'lib, uning grammatik tizimi o'ziga xos fleksiv xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu tilda so'zlarning shakli, o'zaro bog'lanishi va gapdagi o'rni qat'iy sintaktik qonuniyatlar asosida belgilanadi. Ushbu qonuniyatlarning markazida grammatik moslashuv (arabcha: التوافق النحوي / at-tawāfuq an-naḥwī) tushunchasi turadi. Grammatik moslashuv arab tilida so'zlar o'rtasidagi jins, son, kelishik, aniqlik-noaniqlik, shaxs va boshqa kategoriyalardagi muvofiqlikni ta'minlab, gapning ma'nosini aniq, mantiqiy va adabiy jihatdan to'g'ri ifodalanishiga xizmat qiladi.

Arab tilshunosligining an'anaviy maktabida (Sibavayhi, Zamaxshariy, Ibn Hishom va boshqalar) moslashuv nafaqat shakliy qoida, balki tilning mantiqiy tuzilishi va nutqning estetik mukammalligini ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida qaralgan. Fleksiv tillar oilasiga kiruvchi arab tilida bir so'zning o'zi bir nechta grammatik ma'noni (masalan, jins + son + kelishik + aniqlik) bitta morfemada ifodalay oladi. Aynan shu xususiyat tufayli sifat otga, fe'l faolga, muftada' xabarga, son esa sanab kelingan otga qat'iy ravishda moslashishi shart.

“Arab tilida grammatik moslashuv sintaktik tizimning nafaqat tashkiliy, balki mantiqiy asosini ham belgilaydi. Soʻzlar oʻrtasidagi muvofiqlik yoʻqolganda gapning maʼnosi buziladi va nutqning fasohati pasayadi”.

Mazkur maqola arab tili grammatik moslashuvining nazariy asoslarini, asosiy turlari va qoʻllanilish qoidalarini ilmiy jihatdan tahlil qilishga bagʻishlanadi. Maqolada, xususan, quyidagi masalalar yoritiladi:

- sifati va ot oʻrtasidagi toʻliq moslashuv (jins, son, kelishik, aniqlik boʻyicha);
- feʼl va faol oʻrtasidagi shaxs, son va jins boʻyicha moslashuv hamda muqaddam faol holatidagi istisno qoidalar;
- muftadaʼ va xabar oʻrtasidagi moslashuvning majburiy va ixtiyoriy holatlari;
- son va ot oʻrtasidagi arab tiliga xos murakkab moslashuv tizimi (1–2, 3–10, 11–99, 100 va undan yuqori sonlar bilan);
- grammatik moslashuvning sintaktik va semantik funksiyalari.

Arab tili morfologik jihatdan fleksiv tillar turkumiga kiradi. Fleksiv tilning eng muhim belgisi – bir nechta grammatik maʼno bitta morfema yoki bitta fonetik oʻzgarish orqali ifodalanishi. Arab tilida grammatik moslashuvning (kelishik, jins, son, shaxs boʻyicha) ishlashi aynan shu fleksiv tizim orqali amalga oshadi.

Arab tilshunosligi anʼanaviy maktabida grammatik moslashuv at-tavofuq, al-muvofaqa, baʼzan al-mulāyama atamalari bilan izohlanadi. Ushbu atama ikki yoki undan ziyod soʻz oʻrtasida grammatik koʻrsatkichlarning bir xil yoki oʻzaro mos boʻlishini anglatadi. Bu indikatorlar quyidagilardan iborat:

Jins (muzakkar – muannas)

Son (muftad – musanna – jamʼ)

Kelishik (rafaʼ – nasb – jarr)

Aniqlik darajasi (maʼrifa – nakira)

Feʼlning shaxsga mosligi

Feʼl va faol orasidagi vaqt shakllari mosligi.

Arab tili sintaksisida soʻzlar oʻrtasidagi moslashuv maʼno ifodasining toʻgʻriligini taʼminlaydi va grammatik tartibning kategorik mezonini sifatida qaraladi.

Arab tilida sifati (صفة) har doim oʻzidan oldin kelgan ot (موصوف) bilan bir necha grammatik jihatdan toʻliq moslashadi. Bu moslashuv arab tilining fleksiv (oʻzgaraydigan ildiz, ammo morfologik qoʻshimchalar orqali grammatik maʼno beriladigan) tillar oilasiga kirishi bilan bogʻliq.

Arab tili morfologik jihatdan fleksiv boʻlgani uchun, undagi soʻzlar jins, son, birlik–koʻplik, aniqlik–noaniqlik kabi kategoriyalarda oʻzgaradi. Sifatlar aynan shu oʻzgarishlarni takrorlaydi.

“Arab tilida sifat otning jins, son va i’rob belgilarini takrorlaydi. Bu tilning fleksiv xususiyati bilan bog‘liq bo‘lib, moslashuvsiz sifatning sintaktik vazifasi to‘liq amalga oshmaydi”.

Arab tilida sifat (as-sifa) va aniqlanmish ot (al-mawsūf) o‘rtasidagi moslashuv qat’iy qoidalarga asoslanadi. Ularning moslashuvi quyidagi jihatlar bo‘yicha amalga oshadi:

الرجل الكبير — al-rajulu al-kabīru — katta erkak

المرأة الكبيرة — al-mar’atu al-kabīratu — katta ayol

Sifat har doim o‘zidan oldingi otning jinsini takrorlaydi:

طالبان مجتهدان — ṭālibāni mujtahidāni

طلاب مجتهدون — ṭullābun mujtahidūn

Bu yerda sifat musanna va jam’ shakllari bo‘yicha moslashdi:

البيت الكبير — al-baytu al-kabīru

بيت كبير — baytun kabīrun

Ot ma’rifa bo‘lsa, sifat ham ma’rifa bo‘ladi; ot nakira bo‘lsa, sifat ham nakira bo‘ladi:

رأيت رجلاً كبيراً — ra’aytu rajulan kabīran (nasb)

مررت برجل كبير — marartu birajulin kabīrin (jarr)

Bu misolda sifat i’rob ko‘rsatkichlari bo‘yicha otga moslashdi.

Arab tilida fe’l bilan faol o‘rtasida grammatik munosabat e’rob va shakl orqali namoyon bo‘ladi. Bu moslashuv har doim aniq bo‘lib, arab tilining fleksiv xususiyati bilan bevosita bog‘liq.

Arab tili sintaksisida faol fe’ldan keyin keladi — bu arab tilining asosiy modeli (1-formula):

فعل + فاعل + مفعول (1-formula)

Shuning uchun fe’l va faol o‘rtasidagi moslashuv to‘liq emas, balki grammatik boshqaruvga asoslangan.

“Faol fe’ldan keyin kelganda fe’lning barcha grammatik belgilar bo‘yicha moslashuvi zarurdir, ammo faol fe’ldan oldin kelganda fe’l ko‘pincha birlik shaklida ishlatiladi — bu arab sintaksisining o‘ziga xos istisnosidir.”

Arab grammatikasida fe’lning faolga moslashuvi eng asosiy sintaktik qonuniyatlardan biridir. Fe’l faolning jins, son, shaxs kategoriyalariga ko‘ra o‘zgaradi (1-jadval).

Fe’l faolning jins, son, shaxslarda moslashuvlar jadvali

1-jadval

Shaxs bo‘yicha moslashuv كَتَبْتُ — katabtu — men yozdim (1-shaxs)

كَتَبْتَ — katabta — sen yozding (2-shaxs)

كَتَبَ — kataba — u yozdi (3-shaxs)

Son bo'yicha moslashuv

كَتَبَ الطَّالِبُ — kataba al-ṭālibu — talaba yozdi (birlik)

كَتَبَ الطَّالِبَانِ — katabā al-ṭālibāni — ikki talaba yozdi

كَتَبَ الطَّلَابُ — katabū al-ṭullābu — talabalar yozdi

Jins bo'yicha moslashuv

كَتَبَتِ الطَّالِبَةُ — katabat al-ṭālibatu — talaba qiz yozdi

كَتَبَتِ الطَّالِبَاتُ — katabna al-ṭālibātu — talaba qizlar yozdilar

Muqaddam faol holatidagi istisno Agar faol fe'ldan oldin kelsa, fe'l birlikda ishlatiladi:

كَتَبُوا الدَّرْسَ — al-ṭullābu katabū ad-darsa

كَتَبَ الطَّلَابُ الدَّرْسَ — kataba al-ṭullābu ad-darsa (fe'l birlikda kelmoqda, istisno qoida)

Arab tilida muftada — gapning boshlang'ich qismi, xabar esa muftadaga taalluqli ahborot bo'lib, ular jumla ismiyya – nominal gapning asosiy tarkibiy qismlaridir.

Arab tilida muftada va xabar o'rtasida to'liq grammatik moslashuv talab qilinmaydi, ammo bir nechta muhim holatlarda majburiy moslashuv mavjud. Bu moslashuv ko'pincha jins, son, aniqlik darajasi hamda i'rob orqali namoyon bo'ladi.

Muftada' va xabar o'rtasida asosan jins, son va ma'no jihatidan moslashuv mavjud (2-jadval).

Muftada' va xabar o'rtasida asosan jins, son va ma'no jihatidan moslashuv jadvali

2-jadval

Jins bo'yicha moslashuv الْبِنْتُ جَمِيلَةٌ — al-bintu jamīlatun

Son bo'yicha moslashuv الرِّجَالُ وَأَقْفُون — ar-rijālu wāqifūna

الطَّالِبَاتُ نَاجِحَاتٌ — al-ṭālibātu nājihātun

Ma'no bo'yicha moslashuv ba'zan muftada' birlikda bo'lsa ham, xabar ko'plikda kelishi mumkin: الْقَوْمُ ذَهَبُوا — al-qawmu dhahabū — xalq (ko'pchilik) ketdi

Arab tilida son (عدد) va ot (معدود) orasidagi munosabat qat'iy qoidalarga asoslanadi. Moslashuv sonning qiymatiga qarab turlicha bo'ladi. Son bilan kelgan ot har doim mahsus tartib bilan keladi.

Moslashuv quyidagi omillarga ko'ra aniqlanadi:

1. Sonning turi
2. Sonning qiymati
3. Otnning jinsiga qarab sonning teskari jinsda kelishi
4. Otnning birlik yoki ko'plikda kelishi

Arab tilidagi son-ot moslashuvi dunyo tillarida kam uchraydigan darajada murakkab.

1 va 2 sonlari bilan moslashuv

“1” → واحدة / واحد

Odatda mubdal minhu sifatidek keladi va ot bilan jins bo'yicha moslashadi:

كِتَابٌ وَاحِدٌ — bitta kitob (kitob muzakkar)

سَيَّارَةٌ وَاحِدَةٌ — bitta mashina (mashina muannas)

Bu yerda: Ot birlik; Son otning jinsiga mos keladi

“2” → اثنتان / اثنتان

وِلْدَانِ اثْنَانِ — ikki o'g'il

بَنَاتِ اثْنَانِ — ikki qiz

كِتَابَانِ اثْنَانِ — ikki kitob

3–10 oralig'idagi sonlar:

Bu sonlar ot bilan jins jihatidan qarama-qarshi keladi:

ثَلَاثَةُ رِجَالٍ — thalāthatu rijālin

ثَلَاثُ نِسَاءٍ — thalāthu nisā'in

11–99 oralig'i:

أَحَدَ عَشَرَ رَجُلًا

إِحْدَى عَشْرَةَ امْرَأَةً

100, 1000 va undan yuqori sonlar:

Otning birlik jarr shaklini talab qiladi:

مِئَةُ طَالِبٍ — mi'atu ṭālibin

أَلْفُ كِتَابٍ — alfu kitābin

Arab tilida grammatik moslashuv quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Gapning ma'nosini aniqlashtiradi
2. Sintaktik munosabatlarni belgilaydi
3. I'rob tizimini mustahkamlaydi
4. Nutqning adabiy me'yorini ta'minlaydi
5. Noto'g'ri talqinlarning oldini oladi

Masalan: fe'lning jinsda moslashuvi harakatni bajaruvchini aniq ko'rsatadi. “Grammatik moslashuv arab tilida sintaktik aloqalarning aniq belgilanishiga xizmat qilib, nutqning mantiqiy izchilligi va adabiy me'yorini ta'minlaydi.”

Arab tilida grammatik moslashuv sintaktik tizimning eng muhim va hal qiluvchi unsurlaridan biridir. Sifat-ot, fe'l-faol, muftada'-xabar va son-ot o'rtasidagi moslashuv arab tilining sintaktik uyg'unligini, aniqligini va mantiqiy izchilligini ta'minlaydi. Arab tili grammatikasini chuqur o'rganishda moslashuv qoidalarini puxta egallash o'quvchi yoki tadqiqotchi uchun katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Jārim, A., & Amin, M. (1985). *An-Nahw al-Wāḍiḥ*. Qohira.
2. Az-Zamaxshariy. *Al-Mufaṣṣal fī Ṣinā'ati al-I'rāb*. Klassik Bag'dod nashrlari.
3. Abdulloh G'alib. (2001). *Duroos fil-Nahw al-'Arabiy*. Beirut.
4. Ibn Aqil. *Sharḥ Ibn 'Aqīl 'alā Alfiyyat Ibn Mālik*. Misr.
5. Muhammad Abdu. (1990). *Al-Qawā'id al-'Arabiyya*. Qohira.
6. W. Wright. (1967). *Arabic Grammar*. Cambridge University Press.
7. Ibrohimov N., Yusupov M., Oripov A. (2024). *Arab tili grammatikasi*. Toshkent.

ZAMONAVIY ARAB MATBUOTIDA QISQARTMALAR QO'LLANILISHI

*Najimova Shahodat
Oriental universiteti*

*Lingvistika (arab) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedراس dotsenti v.b. S.Sotvoldiyev*

Annotasiya. Ushbu maqolada arab ommaviy axborot vositalarida keng qo'llanadigan qisqartmalarning lingvistik, kommunikativ va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Arab matbuoti, televideniyesi va onlayn axborot platformalarida qisqartmalar axborotni tezkor yetkazish, sarlavhalarni ixchamlashtirish va o'quvchi e'tiborini tortish vositasi sifatida faol ishlatiladi. Tadqiqot davomida siyosiy, iqtisodiy, harbiy va institutsional kontekstlarda qo'llanadigan asosiy qisqartmalar — OPEK , BMT, NATO , davlat idoralari nomlari hamda xalqaro harakat va tashkilot nomlarining qisqartirilish mexanizmlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: axborot, arab matbuoti, sarlavha, platforma, televideniya, onlayn axborot.

Abstract. In this article, the linguistic, communicative, and semantic features of abbreviations widely used in Arab mass media are analyzed. Abbreviations in Arab press, television, and online information platforms serve as an active tool for delivering fast news, shortening headlines, and attracting readers' attention. The study examines the main abbreviations employed in political, economic, military, and institutional contexts — such as OPEC, the UN, NATO , as well as the names of government bodies and the mechanisms of abbreviation formation used in naming international movements and organizations.

Keywords: information, Arab press, headline, platform, television, online media.

Zamonaviy arab OAV tilida qisqartmalar qoʻllanilishi matbuotning tezkorligi, ixchamligi va kommunikativ samaradorligi bilan bevosita bogʻliqdir. Global raqobat sharoitida arab media platformalari sarlavha joyini tejash, nutqni dinamizatsiya qilish hamda oʻquvchining diqqatini jalb etish maqsadida turli qisqa shakllardan foydalanadi. Qisqartmalar arab tilining zamonaviy media diskursiga moslashuvini aks ettirib, unda fonetik, morfologik va semantik jarayonlar bir vaqtning oʻzida namoyon boʻladi.

Arab matbuoti nafaqat arab agentliklari nomlarini qisqartiradi, balki ingliz va boshqa tillardagi xalqaro agentliklar qisqartmalarini ham arab transliteratsiyasi asosida qayta ifodalaydi. Bu jarayon matbuot tilida global, koʻp tilli kommunikatsiyaning shakllanishidan dalolat beradi.

Olimlar fikricha, arab tilida qisqartmalar XX asrdan boshlab faol qoʻllanila boshlagan boʻlsa-da, aynan ommaviy axborot vositalarida ular kommunikativ vosita sifatida alohida oʻrin egallagan. Matbuot zamon talabi bilan minimal vaqt ichida koʻproq maʼlumot yetkazishni maqsad qiladi. Shu sababli “Reuters”, “AFP”, “AP” kabi nomlar arab tilida ham qisqa shaklda beriladi. Global axborot oqimida yuzlab xalqaro manbalar ishtirok etadi. Har safar uzun nomlarni yozish maqola hajmini oshiradi.

Tilshunoslikda “til iqtisodi” (اقتصاد اللغة) degan tushuncha mavjud boʻlib, u fikrni eng qisqa shaklda, minimal vositalar bilan yetkazishni anglatadi. Matbuot tili insonlar tomonidan eng koʻp oʻqiladigan, ammo vaqt kam sarflanadigan til boʻlgani sababli unda qisqartmalar tabiiy tarzda koʻpayadi.

Arab davriy matbuotida turli axborot agentliklari nomlarining qisqartirilgan shakllari uchraydi. Baʼzi inglizcha nomlarning qisqartmalari arabcha harflar bilan beriladi.

Yaqin Sharq axborot agentligi (أش أ) وكالة أنباء الشرق الأوسط

Assotshieytd Press (أب) أسوشيتد برس

Frans – Press (Fransiya) (أ ف ب) وكالة الصحافة الفرنسية

Sinhua (KHP) (سينخوَا) وكالة الأنباء الصينية

Kiodo-Tsusim (Yaponiya) (كيودَه) وكالة الأنباء كيودَه

Qisqartmalar nafaqat til iqtisodi yoki tezkorlik vositasi, balki ular belgi–tizim (semiotika) nuqtai nazaridan ham muhimdir. Har bir qisqartma — oʻzida muayyan agentlikning: nufuzi, ishonchlilik darajasi, siyosiy yoʻnalishi, geografik manbasi haqida maʼlumot beruvchi semiotik belgidir. Masalan:

أ ف ب (AFP) — koʻproq Yevropa axboroti, xolislikka moyilligi bilan tanilgan.

شينخوَا (Xinhua) — Xitoy davlat siyosatining rasmiy pozitsiyasini aks ettiradi.

Arab davlatlarining deyarli barchasida o‘zining rasmiy axborot agentligi mavjud. Ularning nomlari matbuotda ko‘pincha qisqartirilgan shaklda uchraydi. Mashhur arab agentliklari

KUNA كونا Kuwait News Agency

و ع — وكالة أنباء العراق

و أ س — وكالة الأنباء السعودية

و ت — وكالة الأنباء التونسية

سبأ Yaman axborot agentligi

إرنا Eron axborot agentligi

Bu qisqartmalar arab matbuotida muntazam uchraydi va xalqaro yangiliklarning asosiy manbalaridan biri sifatida xizmat qiladi.

منظمة الدول المصدرة للنفط – (OPEC) أوبك

منظمة حلف شمال الأطلسي – (NATO) الناتو

Bu tizim G‘arb tillaridan kirib kelgan bo‘lib, arab tilining o‘zlashtirish qobiliyatini ko‘rsatadi. Davlat idoralari nomlari ko‘pincha shu asosida beriladi:

الخارجية – وزارة الخارجية

الدفاع – وزارة الدفاع

الداخلية – وزارة الداخلية

Bu uslub arab matbuotida rasmiylik va aniqlikni ta‘minlaydi. Masalan:

قسد – قوات سوريا الديمقراطية

Qasd — Suriya Demokratik Kuchlari.

يونيسيف – صندوق الأمم المتحدة للطفولة

YUNISEF — Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar Jamg‘armasi

Bu jarayon arab tilining so‘z yasash imkoniyatlarini ko‘rsatadi .

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, qisqartmalar zamonaviy arab media tilining ajralmas unsurlaridan biri bo‘lib, ular axborotning ixcham, aniq va tezkor bo‘lishini ta‘minlaydi. Qisqartmalar semantik jihatdan yuqori zichlikka ega bo‘lib, matnning pragmatik mazmuniga ham ta‘sir qiladi. Ayniqsa sarlavhalarda ular matnning dinamikligini oshirib, o‘quvchining darhol e‘tiborini tortadi.

Arab OAVida qisqartmalarining qo‘llanilishi tilning moslashuvchanligini va global media tizimi bilan uyg‘unlashuvini ko‘rsatadi. Shuning uchun ularni lingvistik va semantik jihatdan o‘rganish zamonaviy media tilshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. حسن، ناصر. اللغة العربية والإعلام الجديد. بيروت: مركز اللغة والإعلام، 2019.
2. حسن، ناصر. اللغة العربية والإعلام الجديد. بيروت: مركز اللغة والإعلام، 2019.

3. محمود، كريم. "دور الاختصارات في الخطاب الإعلامي". مجلة البحوث اللسانية، العدد 7، 2021.
4. الجبوري، علي. النحت في العربية. بغداد: دار الحكمة، 2017.
5. Крюков, В. "Транслитерация иностранных СМИ в арабской прессе". Вестник Востоковедения, №4, 2014.
6. Ганиев, Р. Арабская язык и стилистика пресс-текста. Москва: Наука, 2001.
7. Сафронов, А. "Особенности сокращений в современном медиатексте". Москва, 2018.

FE'LNING MAJHUL SHAKLI VA UNING STILISTIK VAZIFASI

Xasanova Dilsora Baxtiyor qizi

Oriental universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi

3-kurs talabasi

xasanovadilsora0801@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedراسى stajyor-o'qituvchisi Fayziyev Shamsuddin

Annotatsiya. Arab tilida fe'l tizimi juda rivojlangan bo'lib, uning muhim bo'limlaridan biri — majhul nisbat (المبني للمجهول) hisoblanadi. Majhul nisbat yordamida harakat kim tomonidan bajarilgani aytilmaydi yoki bu ma'lumot muhim bo'lmaganda qo'llanadi. Ushbu maqolada arab tilidagi fe'lning majhul nisbati (الفعل المبني للمجهول) tushunchasi, tuzilishi va uning stilistik vazifalari haqida so'z yuritiladi. Majhul nisbatning o'tgan va hozirgi zamonda qanday yasalishi misollar bilan izohlanadi. Maqola arab tili grammatikasini o'rganayotgan o'quvchi va talabalar uchun qisqa va tushunarli ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar. Fe'l (فعل), Majhul nisbat (المبني للمجهول), O'tgan zamon (الماضي), Hozirgi zamon (المضارع), Faol nisbati (المبني للمعلوم), stilistika.

Annotation. In the Arabic language, the verb system is highly developed, and one of its important sections is the passive voice (المبني للمجهول). The passive voice is used to describe an action without mentioning the performer; in other words, it does not specify who carried out the action, or this information is considered unimportant. This article discusses the concept of the passive verb (الفعل المبني للمجهول) in Arabic, its structure, and its stylistic functions. It also explains how the passive voice is formed in the past and present tenses, providing simple examples. The article offers brief and clear information for learners and students studying Arabic grammar.

Keywords: Verb (فعل), Passive Voice (المَبْنِي لِلْمَجْهُول), Past Tense (الْمَاضِي), Present Tense (الْمُضَارِع), Active Voice (المَبْنِي لِلْمَعْلُوم), Stylistics (ستيلستيك/الأسلوبية).

Fe'1 – bu tilshunoslikda harakat, holat yoki jarayonni bildiradigan so‘z turidir.

Arab tilida ham fe'1 (فعل) — bu harakatni, holatni yoki sodir bo‘lgan voqeani bildiradigan so‘z turkumidir. Fe'1 uch yoki to‘rt undoshdan tashkil topgan bo‘ladi. Arab leksikasining aksariyat so‘zlari fe'1 so‘z turkumidan hosil qilingan. Har qaysi fe'1 bobining o‘tgan va hozirgi-kelasi zamon shakli mavjud.

O‘tgan zamon fe’li (الماضي) – o‘tgan zamonda bo‘lib o‘tgan ish-harakat yoki holatni ifodalaydi. Masalan: كَتَبَ – “yozdi”, قَرَأَ – “o‘qidi”.

Hozirgi–kelasi zamon (المضارع) — hozir yoki kelajakda bo‘ladigan harakatni ifodalaydi. Masalan: يَكْتُبُ – “yozyapti/yozadi”, يَقْرَأُ – “o‘qiyapti/o‘qiydi”.

Fe'1ning foili ko‘p vaqt zikr etilsada, ba’zi vaqt zikr etilmay qoladi. Buning zikr etilmasligi qaysidur vaqt ma’lum bo‘lmaganligidan va yana qaysidir vaqt boshqa sabab bo‘lishi mumkin. Foil zikr etilishi yoki zikr etilmasligi jihatdan fe'1 ikki turlidir.

Ma’lum nisbat (المَبْنِي لِلْمَعْلُوم) – arab tilida fe'1ning faol nisbat shakli bo‘lib, bunda harakatni bajarayotgan shaxs (fa’il) ma’lum bo‘ladi va gapda ochiq yoki yashirin holda keladi.

Majhul nisbat (لمَبْنِي لِلْمَجْهُول) – bu fe'1ning shunday grammatik shakli, unda harakatni bajaruvchi (فاعل – fa’il) aytilmaydi yoki noma’lum bo‘ladi. Majhul nisbatda e’tibor ishning o‘ziga, uning bajarilganiga qaratiladi, lekin bajaruvchi tilga olinmaydi. Masalan: aniq (ma’lum) nisbat: كَتَبَ الطَّالِبُ الرِّسَالَةَ: – “Talaba xatni yozdi”. Bu yerda talaba bajaruvchi sanaladi. Majhul nisbat: كُتِبَتِ الرِّسَالَةُ – “Xat yozildi”. Bajaruvchi aytilmagan, e’tibor xatning yozilganiga qaratilgan.

Arab tilida majhul fe'1 maxsus unli o‘zgarishlar orqali yasaladi.

I bob fe’li majhul nisbatining o‘tgan zamoni har uch shakldagi fe’llardan فَعِلْ vaznida hosil bo‘ladi. Masalan: كَتَبَ – “Yozdi”, كُتِبَ – yozildi. سَمِعَ – “eshitdi”, سُمِعَ – “eshildi”.

Majhul nisbatning shaxs-sonda tuslanishi aniq nisbatdagi fe'1ning tuslanishidan farq qilmaydi. Buni misolda ko‘rib chiqamiz.

كُتِبَ - (mz) yozildi fe'1ning o‘tgan zamon tuslanishi

| Ko‘plik | Ikkilik | Birlik | Shaxs-son |
|------------|-------------|----------|--------------------------------|
| كُتِبْنَا | كُتِبْنَا | كُتِبْتُ | Muzakkar 1-shaxs Muannas |
| كُتِبْتُمْ | كُتِبْتُمَا | كُتِبْتَ | Muzakkar 2-shaxs Muannas |
| كُتِبْنَا | كُتِبْتُمَا | كُتِبْتَ | Muzakkar 2-shaxs Muannas |

| | | | |
|----------|-----------|----------|--------------------|
| كُتِبُوا | كُتِبْنَا | كُتِبَ | Muakkar 3-shaxs |
| كُتِبْنَ | كُتِبْنَا | كُتِبَتْ | Muannas |

I bob hozirgi-kelasi zamon fe'lining majhul nisbati يُفَعَّلُ vaznida hosil bo'ladi.

Masalan: يُفْهَمُ – “tushuniladi” fe'lining hozirgi – kelasi zamon tuslanishi:

| Ko'plik | Ikkilik | Birlik | Shaxs-son |
|-------------|-------------|-------------|---------------------------------|
| نُفْهَمُ | نُفْهَمُ | أَفْهَمُ | Muzakkar 1-shax Muannas |
| نُفْهَمُونَ | نُفْهَمَانِ | نُفْهَمٌ | Muazakkar 2-shaxs Muannas |
| نُفْهَمَنَ | نُفْهَمَانِ | نُفْهَمِينَ | Muzakkar 3-shaxs Muannas |
| يُفْهَمُونَ | يُفْهَمَانِ | يُفْهَمُ | Muzakkar 3-shaxs Muannas |
| يُفْهَمَنَ | يُفْهَمَانِ | يُفْهَمُ | Muzakkar 3-shaxs Muannas |

Shuni ta'kidlash kerakki, majhul nisbat shakllari esa harakatning sub'ektsiz yoki noma'lum shaxs tomonidan bajarilganligini ko'rsatib, nutqda boshqa semantik va stilistik effektlarni yaratadi.

Majhul nisbat nafaqat grammatik hodisa, balki kuchli stilistik vosita hamdir. Uning asosiy stilistik vazifalari quyidagilar:

Birinchiidan, rasmiy uslubda betaraflik yaratadi. Arab tilida majhul fe'l (passiv shakl) ishlatilganda, gapda ish bajarigan shaxs ko'rinmaydi. Bu til vositasi ayniqsa rasmiy nutqda, hujjatlarda, chiqishlarda, xabarlarda juda muhim. سَلِّمِ الْوَثِيقَةَ – “hujjat topshirildi”

Ikkinchiidan, matnda obyektivlikni kuchaytiradi. Harakatga e'tibor qaratadi, shaxsni yashiradi. Majhul fe'lining asosiy maqsadi – ishning bajarilgani yoki natija muhim. “Eshik yopildi” – bu yerda “kim yopdi” emas, “eshik yopilgan” degan natija muhim. أَغْلَقَ الْبَابُ – “eshik yopildi”.

Uchinchiidan, badiiy uslubda tasviriylik yaratadi. Bu usul voqeaning ta'sirchanligini oshiradi. Badiiy matnlarda muallifning asosiy maqsadi – tasvir yaratish, voqeani his qildirish, o'quvchini voqea ichiga olib kirishdir. Majhul nisbat bunaqa holatda juda qulay vosita. سَمِعَ صَوْتٌ مُثِيرٌ مِنْ دَاخِلِ الْبَيْتِ – “Uy ichidan qiziq tovush eshitildi”.

To‘rtinchi, Shaxsni ko‘rsatmaslik imkonini beradi. Ba‘zan gapda kim ish qilganini aytish kerak bo‘lmaydi chunki, kim qilgani muhim bo‘lmaydi yoki harakatning o‘zi muhim bo‘ladi. حُلَّتِ الْمَشْكَالَةُ – “muammo hal qilindi”.

Fe‘lning majhul nisbati arab tili grammatikasining muhim qismi bo‘lib, u nafaqat grammatik ahamiyatga, balki keng stilistik imkoniyatlarga ham ega. Majhul shakl rasmiy uslubda betaraflik yaratadi, matnda obyektivlikni kuchaytiradi, badiiy uslubda tasviriylik yaratadi, shaxsni ko‘rsatmaslik imkonini beradi. Shuning uchun ham u rasmiy, ilmiy va badiiy matnlarda tez-tez uchraydi. Majhul nisbati to‘g‘ri qo‘llash nafaqat arab tilni boshqa tillarni ham yanada boy, ifodali va aniq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirqobil Xasanov, Muborak Abzalova. “Arab tili darslari” o‘quv qo‘llanmasi. T-2006. – 66 b.
2. San‘atulloh Bekpo‘lat. “Mabdaus sarf” – sarf asoslari. T-2013. – 21b.
3. Ne‘matulloh Ibrohimov, Muhammad Yusupov. Arab tili grammatikasi 1-jild. T-1997. – 81-96 b.
4. Mustafo G‘olayiniy. Jome‘ ad-durus al-arabiyya. – Bayrut: Dar Muassasati ar-Risalati Nashirun, 2010. – 187 b.
5. Durus an-Nahviyya Hafniy Nosif, Mustafo Tommum, Muhammad Diyob, Muhammad Solih. 2006. – 173b.

ARAB TILI GRAMMATIKASINING NAZARIY MASALALARI

Odilxo‘jayev Muhammadali

Oriental universiteti,

Filologiya fakulteti 1-bosqich,

AFI 501-guruh talabasi

Ilmiy raxbar: Talipov Nodir

Tillar-1 kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilining dunyo bo‘ylab keng tarqalishida islom dinining roli hamda arab tiliga xos fonetik, leksik va tizimiy xususiyatlarning muhim o‘rni yoritiladi. Arab tilining fonetik uyg‘unligi, ildiz asosidagi so‘z yasalishi, sinonimiya hodisasi va tizimlilik tamoyillari nazariy asosda tahlil etiladi. Tadqiqot arab tilining tuzilish qonuniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi va tilshunoslikning amaliy hamda nazariy yo‘nalishlari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: arab tili, fonetika, leksika, tizim, Lisan al-Arab, ildiz, sinonimiya, qo‘fiyadoshlik.

Abstract. This article explores how the spread of Islam contributed to the global expansion of the Arabic language, while highlighting the unique phonetic, lexical, and structural features that distinguish Arabic from many other languages. The study examines fundamental linguistic characteristics, including phonetic harmony, root-based word formation, and synonymy. Theoretical insights presented in the article contribute to a deeper understanding of the structural laws of Arabic and provide valuable support for both theoretical and applied linguistics.

Keywords: Arabic language, phonetic features, lexical system, Lisan al-Arab, linguistic structure, rhyme, synonyms.

Arab tili afroosiyo (semit-hamit) tillar oilasining gʻarbiy semit boʻlimiga mansub boʻlib, semit tillari ichida eng yosh, shu bilan birga eng boy lugʻat tarkibiga ega tillardan biridir. Uning keng tarqalishiga eng avvalo islom dinining dunyo boʻylab yoyilishi sabab boʻlgan. Biroq arab tilining xalqaro maydonga chiqishida faqat diniy omillar emas, balki tilning oʻziga xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari ham muhim rol oʻynagan.

Arab tili Qurʼoni karim tili sifatida muqaddas maqomga ega boʻlib, uning fonetik tizimi, talaffuz normalari, hatto yozuvdagi qoidalari 14 asrdan buyon umuman oʻzgarmagan. “Lisan al-Arab” kabi yirik lugʻatlar tilning boy leksik imkoniyatlari va jarangdorlik xususiyatlarini koʻrsatadi.

Maqolaning asosiy maqsadi — arab tilining nazariy xususiyatlarini, xususan fonetik, leksik va tizimiy tomonlarini ilmiy asosda yoritish va ularni boshqa tillar bilan qiyosiy nuqtayi nazardan baholashdir.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

1. Tavsifiy-lingvistik metod

Arab tilining fonetik va leksik tizimi lingvistik birliklar asosida tavsiflab chiqildi.

2. Qiyosiy metod

Semit tillari, xususan arab tilining boshqa tillardan farqli jihatlari qiyosan tahlil qilindi.

3. Manbashunoslik metodlari

“Lisan al-Arab”, S.S. Mayzel, N.D. Arutyunova, N.V. Yushmanov kabi olimlarning ilmiy manbalari asos qilib olindi.

4. Struktur-semantik tahlil

Soʻz ildizlari, qoliplar, sinonimiya, minimalizm va fonetik uygʻunlik tahlil qilindi. Ushbu metodlar maqolaning ilmiy asoslangan boʻlishini taʼminlaydi.

1. Fonetik tizimning oʻziga xosligi

• Arab tilida tovushlarning hosil boʻlish joyi boʻyicha mukammal taqsimlanishi mavjud.

- Tovushlar tizimi musiqiylik va uygʻunlikni taʼminlaydi.
- 14 asr davomida talaffuz normalari oʻzgarmagan yagona til sifatida qayd etiladi.
- Baʼzi tovushlar (masalan ض) faqat arab tilida uchraydi.

2. Leksik tizimning xususiyatlari

•Arab tilida ildiz asosidagi soʻz yasalihi asosiy oʻrinni egallaydi (80% uch undoshli ildizlar).

- Leksik birliklar mantiqiylik tamoyiliga asoslanadi.
- Sinonimiya kuchli rivojlangan boʻlib, koʻplab maʼno nyuanlarini ifodalaydi.
- Soʻzlar oʻzaro oson qoʻfiyalanadi, shu bois adabiy nutqda ohangdorlik kuchli.

3. Arab tili tizim sifatida

•Til qatʼiy strukturaviy darajalarga ega (fonetik, morfologik, sintaktik).

•Til mantiqiy tizim boʻlib, koʻplab grammatik hodisalar matematik formulasimon aniqlikka ega.

•Arab tilidagi mustahkam grammatik asoslar sabab qadimiy matnlar bugungi kunda ham osongina tushuniladi.

Arab tili oʻzidagi fonetik uygʻunlik, ildiz asosidagi morfologik tizim va boy sinonimiya tufayli dunyodagi eng mukammal tizimlashtirilgan tillardan biri hisoblanadi. Bu jihatlar nafaqat tilshunos uchun, balki arab tilini oʻrganuvchi har bir shaxs uchun katta imkoniyat yaratadi.

Tilning muqaddas manba – Qurʼoni Karim tili boʻlgani uning talaffuz normalarining asrlar davomida saqlanishiga sabab boʻlgan. Tajvid qoidalarida fonetik meʼyorlar mukammal ravishda tartibga solingan.

Leksik tizimda ildiz asosida yasaladigan soʻzlar talabalarga yangi soʻzlarni tez oʻzlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, semit tillariga xos minimalizm tamoyili maʼnoni kam birliklar bilan aniq yetkazish imkonini yaratadi.

Arab tili tizimi umumiy tilshunoslikdagi “til — belgilar tizimi” tamoyilini toʻliq aks ettiradi. Mana shu tizimlilik arab tilining barqaror tarqalishiga xizmat qilgan omillardan biridir.

Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, arab tili fonetik uygʻunlik, leksik boylik, ildiz asosidagi soʻz yasalihi va mustahkam grammatik tizim kabi oʻziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar arab tilini nafaqat diniy manbalarni oʻrganish, balki ilm-fan, madaniyat va adabiyot sohalarida ham muhim tilga aylantirgan.

Arab tilining tizimli va mantiqiy tuzilishi uni oʻrganishni osonlashtiradi va boshqa koʻplab tillardan ustun qilib qoʻyadi. Shu sababli arab tilining nazariy masalalari tilshunoslikda ham, amaliyotda ham alohida oʻrin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнова, Н. Д. Язык и мир человека. Москва: Языки русской культуры, 1999.
2. Майзель, С. С. Пути развития корневого фонда семитских языков. Москва, 1983.
3. Финкельберг, Н. Д. Арабский язык: Курс теории перевода. Москва, 2004.
4. Юшманов, Н. В. Грамматика литературного арабского языка. Москва: Вост. лит., 1999.
5. Верещагин, Е. М., & Костомаров, В. Г. Язык и культура. Москва: Русский язык, 1983.
6. Brockelmann, Carl. Grundriss der vergleichenden Grammatik der semitischen Sprachen. Berlin, 1908–1913.
(Semit tillari bo‘yicha eng asosiy manbalardan biri)
7. Wright, W. A Grammar of the Arabic Language. Cambridge University Press, 1995 (asl 1896).
8. Haywood, J. A., & Nahmad, H. M. A New Arabic Grammar of the Written Language. London: Lund Humphries, 1965.
9. Ibn Manzūr, Jamāl al-Dīn. Lisān al-‘Arab. 20 jild. Qohira: Dār al-Ma‘ārif, 1981.
10. Sibawayh. Al-Kitāb. Beirut: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyya, 1988.
(Arab grammatikasi tarixidagi eng muhim asar)

ARAB TILI GRAMMATIKASIDA “ISMLARNING E’ROBI”

Nabijonova Iroda

Oriental universiteti talabasi

irodanabijova632@gmail.com

Annotatsiya: Arab tili grammatikasi — nahv ilmi — so‘zlarning gap ichidagi o‘rniga ko‘ra o‘zgarishi, ya’ni e’robni o‘rganadigan mustaqil tilshunoslik yo‘nalishidir. Arab tili flektiv til bo‘lib, unda so‘zlar, ayniqsa ismlar, gapdagi sintaktik vazifasiga qarab har xil e’rob (harakat) qabul qiladi. Bu hodisa arab tilining eng asosiy grammatik xususiyatlaridan biridir.

Kalit so‘zlar: E’rob ,nahu, ism, f’el, harf, rof, nasb, jar, muftodo-ega, xabar-kesim, mafulun bihi- toldiruvchi, munodo-undalma, zarf- hol, nat- sifat.

Annotation: Arabic grammar — the science of nahw— is an independent field of linguistics that studies the change of word endings according to their position in the

sentence, that is, the study of i'rāb. Arabic is a fusional language in which words, especially nouns, take different inflectional endings depending on their syntactic function in the sentence. This phenomenon is one of the fundamental grammatical characteristics of the Arabic language.

Keywords: I'rāb, nahw, noun, verb, particle, nominative, accusative, genitive, subject (mubtada'), predicate (khabar), object (maf'ūl bihi), vocative (munādā), adverbial (zarf), adjective (na't).

Аннотация: Арабская грамматика — наука «нахв» — представляет собой самостоятельное направление языкознания, изучающее изменение окончаний слов в зависимости от их позиции в предложении, то есть 'ираб. Арабский язык является флективным, и в нём слова, особенно имена существительные, принимают различные грамматические окончания в зависимости от их синтаксической функции в предложении. Это явление является одной из основных грамматических особенностей арабского языка.

Ключевые слова. И'раб, нахв, имя (существительное), глагол, частица, падежи: раф' (именительный), насб (винительный), жар (родительный); мубтада — подлежащее, хабар — сказуемое, маф'уль биhi — дополнение, мунада.

Kalimalarning ism, fe'l va harfga bo'linishi. Ularning xususiyatlari .

Arab tili o'zining balog'at va fasohati, lug'at boyligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Abu Tib aytadilar: “Bilginki, arablarning kalomiga xalal yetkazgan va o'rganishi eng ehtiyoj sezilarli narsa bu e'robdir”¹. Rivoyat qilinadiki, bir kishi Rasululloh salallohu alayhi vasallam huzurlarida so'zlayotib, lahn (xato) qiladi. Shunda u zot:

أرشدوا أخطاكم فقتضل

Ya'ni, “Birodaringizni to'g'ri yo'lga yo'llab qo'ying, batahqiq u adashdi”, dedilar

Yoqut aytadilar: “Umar ibn Xattob raziyallohu anhunging oldilaridan kamon otishni yaxshi bilmaydigan bir qavm o'tib qoldi. Ularga tanbeh berdilar, ular aytishdi: “Biz ta'lim oluvchi qavmmiz”. Umar raziyallohu anhunging g'azablari keldi va dedilar: “Albatta, sizlarning tilingizdagi xatolaringiz kamon otishdagi xatolaringizdan ko'ra yomonroqdir”. Sababi, haligi kamon otayotgan qavm arab tili qoidasiga zid qilib gapirishgan. Shu bois, Hazrat Umarning jahllari chiqadi.

Hazrat Umar davrlarida u zotga voliylerden biri maktub yozadi va unda lahn qiladi. Bu Umar raziyallohu anhuga xush kelmaydi. Ibn Qutayba aytadilar: “Bir a'robiiy bir muazzinning bunday deyaotganini eshitib qoladi:

¹ E'rob bu – kalimaning oxiridagi harakat

أَشْهَدُ أَنْ مُحَمَّدًا رَسُولُ اللَّهِ

Muazzin soʻzini nasb (fatha harakati)da oʻqiydi. Haligi eshitib turgan kishi aʻrobiy boʻlsa-da, ajablanib: “Shoʻri qurigur, bu nima qilyapti oʻzi?”, deydi.

Shuning uchun ham nahv ilmini oʻrganish oʻta ahamiyatli ishdir. Bu orqali kishi tilini xatodan saqlaydi va iroda qilingan maʼnoni toʻgʻri yetkazib bera oladi.

Nahv fanidan koʻzlangan maqsad ham ayni shu, yaʼni tilni lahn, yaʼni xatodan saqlashdir.

Arab tilida biror maʼnoga dalolat qiluvchi mufrad lafz kalima -soʻz deb ataladi. Kalimalar 3 guruhga boʻlinadi: Ism, feʼl va harf

Feʼl bu – zamon undan bir juz boʻlgan holda tushunishda mustaqil maʼnoga dalolat qiluvchi soʻzdir. Masalan: قَرَأَ - oʻqidi.

Ism bu- zamon undan bir juz boʻlmagan holda tushunishda mustaqil maʼnoga dalolat qiluvchi kalimadir. Bu nahv olimlarining taʼrifi. Lugʻat olimlari nazdida esa, ism-musammoga dalolat qiluvchi barcha narsadir. Masalan:

مُحَمَّد- Muhammad

مَكَّة- Makka

شَجَر- Daraxt

Harf bu- tushunishda mustaqil maʼnoga dalolat qilmaydigan kalimadir. U ism va feʼlning xususiyatlaridan xoli boʻlish bilan xoslanadi.

Ismlarning eʻrobi mavzusi nahv ilmida asosiy oʻrin tutadi, chunki gapning toʻgʻri tuzilishi, maʼnosi va grammatik ravonligi aynan ismlarning eʻrob qoidalariga bogʻliq. Eʻrob (الإعراب) — bu soʻzlarning gapdagi oʻrniga koʻra oxiridagi harakatning oʻzgarishidir. Soʻzning oxiridagi harakatning oʻzgarishi omilga bogʻliqdir. Omil-lugʻatda amal qildiruvchi maʼnosida boʻlib, nahv fani istelohida esa kalimaning oxiri oʻzgarishiga sabab boʻluvchilarga omillar deyiladi.

Fazilatli shayx Abdulqohir ibn Abdurrahmon Jurjoniy taʼliflariga koʻra omillar yuztadir.¹ Omillar 2 xil boʻladi:

- Lafziy
- Maʼnaviy

Lafziy omil- kalimalarning oxirini oʻzgartirishda lafzan ishtirok etadigan omil. . U 2 qismlidir:

- Samoiy – 91 ta omil
- Qiyosiy – 7 ta omil

Samoiy omil- arablar oʻz lafzlarida hech qanday qoidaga asoslanmay ishlatib keladigan omillar.

¹ Avomil/ shayx Abdulqohir ibn Abdurrahmon Jurjoniy.

Qiyosiy omil- kalimaning oxirini qiyosiy jihatdan o'zgartirgan omillarga aytiladi.

Ma'naviy omil- kalimalarning oxiri ma'no jihatidan bir-biriga suyanishlik orqali o'zgarsa bularni ma'naviy omil deyiladi.¹

Yuqorida mo'rob kalima bu - omillar o'zgarishi bilan oxiridagi harakati o'zgaradigan kalima ekanligi va omillarning qisqacha bayoni keltirildi. Endi erob haqida bayon qilinadi.

Erobning ismdagi turlari 3 tadir:

- Ra'f
- Nasb
- Jar

Ismning ra'f o'rinlari quyidagilar:

- Muftado;
- Xabar;
- Foil;
- Noibi foil;
- كان ning ismi;
- لمن ing xabari.

Ra'f va uning misollardagi ko'rinishi:

جاء زيد - Atoqli ot

• Mufrad va munsarif ism – رجل جاء

جاء أخوك – Asmoi sitta

• Jam mukassar munsarif – رجال جاء

جاء أحمد – G'oyru munsarif

جاء رجالن – Tasniya •

• Jam muzakkar solim – مسلمون جاء

• Jam muannas solim – مسلمات جاءت

Ismning nasb o'rinlari:

- Maf'ulun mutloq;
- Maf'ulun bihi;
- Maf'ulun fiyhi;
- Maf'ulun lahu (maf'ulun liajlihi);
- Maf'ulun maahu;
- Hol;
- Tamyiz;

¹ Ma'naviy omilga muftado va xabarning ra'f omili hamda fe'lning nosiba va jozimalardan xoli bo'lgandagi ra'f omilidir.

- Mustasno;
- Munodo;
- ل ning ismi;
- كان ning xabari;

.ning ismi إن

ʼNasb va uning misollardagi koʻrinishi:

- رأيت زيدا – Atoqli ot
- Mufrad munsarif ism – رجال رأيت
- رأيت أخاك – Asmoi sitta
- Jam muzakkar munsarif – رجال رأيت
- رأيت أحداً – Gʻoyru munsarif
- رأيت رجلين – Tasniya
- Jam muzakkar solim – رأيت مسلمين
- Jam muannas solim – مسلمات رأيت

Ismning jar oʻrinlari:

- Jar qiluvchi harfdan keyin kelsa;
- Muzofun ilayhi boʻlsa.

Jar va uning misollardagi koʻrinishi

- مررت بزيدا – Atoqli ot
- Mufrad munsarif ism – برجل مررت
- مررت بأخيك – Asmoi sitta
- Jam mukassar munsarif – برجال مررت
- مررت بأحمد – Gʻoyru munsarif
- مررت برجلين – Tasniya
- Jam muzakkar solim – مررت بمسلمين
- Jam muannas solim – بمسلمات مررت¹

Mabniy ismlar: Ism maʼno ifoda etuvchi jumlagi kirar ekan, doim ham bir xil holatda boʻlavermaydi. Balki undan huddi feʼldagi kabi mabniylari va moʻroblari bor. Mabniy ismlar quyidagilardir:

• Zamirlar . Zamir bu – mutakallim yo muxotob yo gʻoibga dalolat qilish uchun qoʻyilgan هو و أنت و أنا: ismdir. Masalan:

Zamirlar boriz (koʻrinib turuvchi, m: كتبت) va mustatir (yashirin, m: كتب) ga boʻlinadi. Boriz zamir muttasil (ulangan) va munfasil (ajralgan) boʻlishi mumkin.

Munfasil zamir 2 ga boʻlinadi:

- Raʼfga xoslangan. Masalan: أنا، هو
- Nasbga xoslangan. Masalan: إياي، إياي

¹ Durusun nahviyya 4-kitob, -B.302.

Muttasil zamir 3 ga bo‘linadi:

➤ Ra’fga xoslangan. Ular 5 ta: قاما dagi qam, ت dagi alif, قاموا dagi vov, فم dagi nun, قومي dagi yo.

➤ Nasb va jar orasida mushtarak. Ular 3 tadir: mutakallim yosi, muxotob kofi, g‘oib ha si. Masalan:

ربي أكرمني، م ودعك ربك، قال له صاحبه و هو يحاوره

➤ Ra’f, nasb va jar orasida mushtarak. U na zamiridir. Masalan: ربنا إنا سمعنا
Bu zamirlarning barchasi mabniydir.

• Ismi ishoralar. Ismi ishora bu – hissiy ishora vositasida muayyan musammoga dalolat qilish uchun qo‘yilgan ismdir. Uning lafzlari:

➤ Birlikdagi muzakkar uchun: ذا

➤ Birlikdagi muannas uchun: ذه، تي، ته

➤ Ikkilikdagi muzakkar uchun: ذين، زان

➤ Ikkilikdagi muannas uchun: تين، تان

➤ Mutloq jam uchun: أولء

Ismi mavsulalar. Ismi mavsula bu – jumlaning undan keyin zikr qilish orqali muayyan musammoga dalolat qilish uchun qo‘yilgan ism. O‘sha jumla esa sila deyiladi.

Uning lafzlari quyidagilar:

➤ Birlikdagi muzakkar uchun: الذي

➤ Birlikdagi muannas uchun: التي

➤ Ikkilikdagi muzakkar uchun: اللذان، اللذين

➤ Ikkilikdagi muannas uchun: اللتان، اللتين

➤ Oqil muzakkar jam uchun: الألى، الذين

➤ Muannas jam uchun: الالئى، الالئى

Yuqorida zikr qilinganlarning barchasining oqili uchun من , g‘oyri oqili uchun ما qo‘llash joiz. Sila mavsulga qaytuvchi oidni o‘z ichiga olgan bo‘lishi shart.

• Ismi fe’llar. Ismi fe’l bu – fe’lning ma’nosiga dalolat qilib, alomatini qabul qilmaydigan lafzlardir. U 3 xil bo‘ladi:

➤ Moziyga xoslangan ismi fe’l

Masalan: هيهات – naqadar uzoq, ma’nosida

➤ Muzorega xoslangan ismi fe’l

Masalan: وى – ajablanyalman, ma’nosida

➤ Amrga xoslangan ismi fe’l

Masalan: صه – jim bo‘l, ma’nosida

• Ismi sovtlar . Ismi sovtlar ham ismi fe’llar kabi mabniydir. U 2 xil bo‘ladi.

➤ G‘oyri oqil hayvonga xitob qilinuvchi ismi sovtlar. Masalan :

.tuyaga – هيد , qo‘yga – هُنْ

➤ Ovozni hikoya qiluvchi ismi sovtlar.

Masalan: غاق – qarg‘aning ovozi, طق – toshning ovozi.

Ismi sovtlarning barchasi samoiydir. Ismi sovtlar va ismi fe‘llar lafzda nimaga tugagan bo‘lsa, shunga mabniydir.

• Ismi shartlar. Ular shart adotlari deb ham ataladi. Ismi shartlar 2 xil bo‘ladi:

➤ Jazm qiluvchi ismi shartlar. Ular 2 ga bo‘linadi:

▪ 1 ta fe‘lni jazm qiluvchi. Bular: النهية ل ، الأمر لم ، لما لم

▪ 2 ta fe‘lni jazm qiluvchi. Harflardan : إذما ، إن

- Ismlardan - من ، ما ، مهما ، متى ، أيان ، متى ، أيان ، أين ، ألى ، حيثما ، كيفما ، أي

Jazm qilmaydigan ismi shartlar.¹ - لو ولول ولوما وكلما وإذا ولما وأما

Mabniy kalimalar lafzda bir xil suratda tursa ham, tarkibda omilning taqozosiga ko‘ra taqdiran biror erobda bo‘ladi. Masalan: ربنا إنا سمعنا

Ushbu gapda نا zamiri 3 xil erobda kelgan. ربنا so‘zida muzofun ilayh bo‘lgani uchun majrur, إنا so‘zida inning ismi bo‘lgani uchun nasb, سمعنا da esa foil bo‘lgani uchun raf bo‘ladi. Lafzda esa 3 ta o‘rinda ham sukunga mabniy. Chunki zamirlar mabniy hisoblanadi.

Erob – arab tilining o‘ziga xos bo‘lgan, boshqa tillardan ajratib turuvchi xislatidir. Lafzda erobning xato qo‘llanilishi unchalik katta o‘zgarish kasb etmasa-da, kontekstga butunlay teskari ma‘noni berishi mumkin. Bunga nahv fanining asos solinishiga asos bo‘lgan quyidagi voqeani misol qilib keltiramiz. Imom Qurtubiy o‘zlarining tafsirlarida ajoyib bir qissani keltiradilar: Umar ibn Hattob roziyallohu anhunging zamonlarida bir a‘robiy Madinai Munavvaraga keldi va odamlarga nido qilib: ”Alloh taolo Muhammad صلى الله عليه وسلم gaga nozil qilgan narsadan kim menga o‘qib beradi?”, dedi. Shunda bir kishi unga Baroat (Tavba) surasini o‘qiy boshladi.² “Albatta, Alloh va Uning Rasulining mushriklar bilan oralari ochiqdir” oyatiga kelganda, haligi kishi xato qilib, هُوْلَسْر (rosuluhu) so‘zini هُوْلَسْر (rosulihi) deb o‘qidi. Natijada oyatning ma‘nosi buzilib, “Albatta, Allohning mushriklar va o‘z Rasuli bilan orasi ochiqdir” bo‘lib qoldi. Buni eshitgach a‘robiy: “Allohning o‘z Rasuli bilan orasi ochiqmi? Unday bo‘lsa mening ham Allohning Rasuli bilan oram ochiq” , dedi. Bu gap tarqalib, xalifa Umar ibn Hattob roziyallohu anhunging qulog‘igacha yetib bordi. Xalifa a‘robiyni huzuriga chaqirib: “Hoy a‘robiy, shu gap rostmi? Allohning Rasuli bilan orani ochiq qildingmi?” , dedi. Shunda a‘robiy xalifaga bo‘lgan voqealarni aytib berdi. Buni eshitgach, Umar roziyallohu anhu unga oyatni to‘g‘irlab o‘qib berdilar va

¹ . Mabdaul qiroat / Sherali Hamraliyev, 478 bet, HILOL-NASHR nashriyoti, Toshkent, 2020

² Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjimasi / Abdulaziz Mansur. 618 bet. Toshkent: TIU, 2004

lugʻat ilmini bilmagan inson Qurʻondan taʻlim berishini taʻqiqladilar. Soʻng Abul Asvad Duvaliyga arab tili qoidalarini tartibga solishni buyurgan edilar, shu tariqa Nahv faniga asos solindi.

Demak, ism va feʻllarning qaysi oʻrinda raʻf, qaysi oʻrinda nasb, qaysi oʻrinda jar yoki jazm boʻlishligini bilish oʻta zarur ekan. Bu arab tilidagi eng asosiy va birlamchi qoidalar sinfiga kiradi. Keyingi bosqichlarda esa bu bilimlar yanada chuqurlashtirilib, istisno holatlar va boshqa qoʻshimcha maʼlumotlar bilan boyitib boriladi. Umar ibn Hattob roziyallohu anhu:“ Huddi sunnat va farzlarni oʻrganganingizdek, nahvni ham oʻrganinglar” deb taʻkidlaganlar. Shaʻbiy aytadi: “Nahv huddi taomdagi tuz kabidir, hech kim undan behojat boʻlolmaydi”.¹ Nahvning ustuni esa yuqoridagi qissada kelganidek eʻrobdir. Bas, har bir arab til yoki diniy ilmlarni oʻzlashtirishni istagan tolibi ilmga erob ilmini oʻrganishi lozim va lobuddir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati :

1. Qurʻoni Karim maʼnolarining tarjimasi / Abdulaziz Mansur. 618 bet. Toshkent: TIU, 2004
2. Abdulqodir al Jurjoniy “Avomil”.53 bet. Darul Manhaj, Jidda, 2009
3. Durusun nahviya 3-4-qism .484 bet, Pokiston, Daru nashri lugʻotil arobiya, 2017-yil
4. Mabdaul qiroat / Sherali Hamraliyev, 478 bet, HILOL-NASHR nashriyoti, Toshkent, 2020
5. Tibyan fiy ulumil Qurʻan /Shayx Muhammad Ali Sobuniy, 234 bet Istanbul, 2023
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Arab_tili
7. <https://termiziy.uz/uz/news/1399>
8. <https://muxlis.uz/oz/pages/arab-tili-tarihi>
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Arab_tili_yozuvi

ARAB GRAMMATIKASIDA TAMYIZ VA UNING TURLARI

Solixbekova Nozima Lutfillo qizi
Oriental universiteti filologiya va tillarni oʻqitish (arab tili) yoʻnalishining
bakalavr bosqichi 1-kurs talabasi
solixbekovan@gmail.com

Ilmiy rahbar: Fayziyev Shamsuddin Sadriddinovich
Tillar-1 kafedrasida stajyor-oʻqituvchisi

¹ . Tibyan fiy ulumil Qurʻan /Shayx Muhammad Ali Sobuniy, 234 bet Istanbul, 2023

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidagi tamyiz (تمييز) tushunchasi, uning turlari va asosiy vazifalari yoritiladi. Tamyizning ma’noni aniqlashtiruvchi sintaktik birlik sifatidagi o‘rni, shuningdek, uning mansub ba’zan esa majrur bo‘lish sabablari izohlanadi. Maqola tamyizning ikki asosiy turi: tamyiz an-nisba (تمييز النسبة) va tamyiz az-zat (تمييز الذات) haqida batafsil ma’lumotni, ular orasidagi farqli jihatlar yoritib berilgan misollarni o‘z ichiga oladi. Maqola arab tili grammatikasidagi quyidagi muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lim o‘rganuvchilariga sodda va tizimli tarzda chuqur yetkazib berishni maqsad qilgan.

Kalit so‘zlar: tamyiz, mubham, nasb, malfuz, malhuz, muhavval, mumayyiz, mumayyaz, zat, nisba.

Abstract. This article highlights the concept of tamyiz (تمييز) in the Arabic language, its types, and its main functions. It explains the role of tamyiz as syntactic unit that clarifies meaning, as well as the reasons why tamyiz can be in the accusative case or in exceptional cases, in the genitive case. The article includes detailed information about the two main types of tamyiz: tamyiz an-nisba (تمييز النسبة) and tamyiz az-zat (تمييز الذات) and provides examples that illustrate the distinguishing features between them. The article aims to present an important section of arabic grammar that is shown below to learners in a simple, systematic and in-depth manner.

Keywords: tamyiz, mubham, nasb, malfuz, malhuz, muhavval, mumayyiz, mumayyaz, zat, nisba.

Arab tili grammatikasida tamyiz gapdagi ma’noni aniqlashtiradigan, undagi mubhamlikni yo‘qotuvchi so‘z bo‘lib, noaniqlikni bir lafz orqali ochiqlab beruvchi unsurdir. U jumla ham, zorf ham bo‘lmaydi. Bir so‘zdan tashkil topgan, muayyan fikr bildirilgandan so‘ng keluvchi nakira, mansub ismdir. Tamyiz ayrim o‘rinlarda mumayyiz (ميميز) deb zikr etiladi. Mumayyiz orqali ochiqlanayotgan lafz mubham (مبهم) yoki mumayyaz (ميميز) deyiladi. Quyida mumayyazning ikki xil ko‘rinishi hamda ular natijasida tamyizning turlanishi tahlil qilinadi.

Dastlab, arab tilida tamyizning turlariga to‘xtalishimizdan avval mumayyaz (mubham) ikki xil ko‘rinishga egaligi haqida ma’lumotga ega bo‘lishimiz zarur. Birinchisi: malfuz (ملفوظ) – muayyan bir lafz orqali mujmallikni aks ettirib turuvchi so‘z. U son (عدد) va miqdor birliklaridan – vazn (وزن), uzunlik o‘lchovi (مساحة), hajm (كيل) kabilar ko‘rinishida bo‘ladi: قرأت عشرين – “yigirmata o‘qidim” – “ratl sotib oldim” – قطع متراً – “metr kesdi” – يبيع لتراً – “litr sotyapti” (yuqorida misol tariqasida keltirilgan vaziyatlarda son hamda miqdor vazifasini o‘tagan, besh, ratl, metr, litr so‘zlari mumayyaz vazifasida sanoq, vazn, uzunlik, hajm ma’nosini ifodalagan, ammo uni aniqlashtiruvchi tamyiz ishtirok etmagani uchun gapda mubhamlik mavjud.) Ikkinchisi: malhuz (ملحوظ) – jumlaning umumiy ma’nosidagi mubhamlik: طاب محمد –

“Muhammad yaxshi bo‘ldi”, Muhammad nima jihatdan yoki nimasi bilan yaxshi bo‘lgani noma’lum, natijada gapda umumiy mubhamlik yuzaga kelgan. Mumayyazning bu xilida jumladagi mubhamlik toki tamyiz mujmallikni aniqlashtirguniga qadar saqlanib qoladi.

Mumayyazning ikki xil ko‘rinishi natijasida tamyiz (mumayyiz) ham ikki qismga bo‘linadi: “tamyiz al-malfuz” (تمييز الملفوظ) va “tamyiz al-malhuz” (تمييز الملحوظ).

Tamyiz al-malfuz ma’lum bir mumayyaz vazifasida kelayotgan miqdorga aloqador o‘lchov, vazn, hajm yoki songa oid lafzni aniqlashtiradi, mumayyazdagi mubhamlikni ketkazadi: “bir metr mato kesdi”, – قماشاً قطع متراً – “bir ratl uzum sotib oldim”, – قرأت عشرين كتاباً, “yigirmata kitob o‘qidim”. Keltirilgan misollardagi ushbu so‘zlar: كَتَبَ، مَاءً، عِنْباً، قَمَاشاً، quyidagi: عَشْرِينَ، لَتْرَاءً، رَطْلًا، لَتْرَاءً، عَشْرِينَ son va miqdor so‘zlar birligini izohlash uchun xizmat qilgan. Tamyiz al-malfuz ayrim kitoblarda tamyiz az-zaat (تمييز الذات) va tamyiz al-mufrod (تمييز المفرد) nomlari bilan zikr etilgan.

Tamyiz al-malhuz jumladagi umumiy yuzaga kelgan mujmal ma’noni ochiqalaydi. Nazarda tutilishi mumkin bo‘lgan bir necha fikrlardan muayyan bittasini ajratib beradi. “Muhammad ilmda ilgariladi”. Agar bu gapda علماً tamyiz vazifasini bajargan so‘z ishtirok etmaganida gapdan xabardor bo‘lgan shaxs Muhammadning nimada ilgarilagani to‘g‘risida mubhamlikka yuz tutishi mumkin edi. Ammo Muhamamad ilmdan boshqa musobaqa, yugurish, boylikda ilgarilagan bo‘lishi mumkin degan tushunchani tamyiz vazifasini bajargan علماً so‘zi yo‘qqa chiqardi. Tamyiz al-malhuz “tamyiz an-nisba” (تمييز النسبة) va “tamyiz al-jumla” (تمييز الجملة) kabilar bilan ham nomlanadi. Tamyiz al-malhuz (tamyiz an-nisba) so‘z boshqa vazifadan tamyizga aylangan yoki aylanishsiz tamyiz bo‘lganligiga ko‘ra muhavval (محول - aylangan) va g‘oyru muhavval (غير محول - aylanmagan)ga bo‘linadi. امتلاً القلب – سروراً “qalb shodlikka to‘ldi”

Muhavval uch turga bo‘linadi: “muhavval a’nil-fa’il” (المحول عن الفاعل) – foildan tamyizga aylangan. Masalan: تفقأ شحماً زيد – تفقأ زيداً شحماً “Zaydning yog‘i yorildi”. Ushbu hodisada foil vazifasida kelgan muzof tushiriladi, o‘rniga muzofun ilayh foil qilinib, mahzuf qilingan muzof tamyizga aylantiriladi. Har ikki uslubning tarjimasida farq bo‘lmaydi. Foilning tamyizga aylantirilishi jumlaning ma’nosining kuchliroq ta’sirga ega qilinishi maqsadida amalga oshiriladi. “Muhavval a’nil-maf’ul” (عن – المفعول المحول) – maf’uldan tamyizga aylangan عيوناً وفجرنا الأرض – وفجرنا عيون الأرض – “yerning buloqlarini portlatdik” – وفجرنا عيون الأرض. Ushbu holatda ham yuqorida aytilgan hodisa yuzaga kelgan. “Muhavval a’nil-mubtada” (المحول عن المبتدأ) – mubtadodan tamyizga aylangan . مالي أكثر من مالك – boyligim senikidan ko‘proq – “أنا أكثر منك مالاً”

tushirilgan, zamir muttassil zamir munfasilga aylantirilib muftado o‘rnini egallagan, tushirilgan muftado tamyizga aylantirilgan.

Nahv olimlari tamyiz ismning mansubotlariga tegishli ekanligini ta’kidlashadi. Ammo ayrim o‘rinlarda uni majrur holatda ham uchratishimiz mumkin. Tamyiz ikki o‘rinda majrur bo‘ladi: birinchi holati tamyiz من (harfu jar)dan so‘ng kelganida. Bunda harfu jar tamyiz va mumayyaz oralig‘ida joylashadi, ma’noda katta o‘zgarish kuzatilmaydi, tarjima qilish uslubida qisman o‘zgarish sodir bo‘ladi. اشتریت لترا ماء – “bir litr suv sotib oldim”, bu holatda tamyizning e’robi mansub bo‘ladi, chunki tamyiz majrur bo‘lishi uchun undan avval e’robgga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan hech qanday omil mavjud emas. اشتریت لترا من ماء – “suvdan bir litr sotib oldim”. Bunda esa mansub tamyizdan avval jar harfi keltirilishi natijasida tamyizning e’robi majrur bo‘lishga majbur. Ikkinchi holati – u izofaning muzofun ilayh qismi bo‘lganida. Bu vaziyatda tamyiz sonning yoki كم الخبرية (kam il-xobariyya – gapga taajjub hamda ritorik ma’noni yuklovchi harf)ning muzofun ilayhisi bo‘lib keladi.

Tamyiz عدد (sonning) muzofun ilayh vazifasini bajarganida ba’zida majrur, ba’zida mansub holatiga guvoh bo‘lganmiz. Buning o‘ziga xos sabablari bo‘lib, qachonki, tamyiz uch va o‘n oralig‘idagi sonlarning muzofun ilayhisini ifodalasa, ko‘plik, majrur talab qiladi: خمسة كُتُب – “beshta kitob” yoki yuz, ming kabi sonlarning muzofun ilayhisi bo‘lsa, birlik, majrurda hosil qilinadi: مئة كِتَاب – “yuzta kitob”. Agar tamyiz 11dan 99 gacha bo‘lgan sonlarining ma’dudi vazifasini bajarsa, o‘zida birlik va mansublikni mujassam etadi: ثلاثة عشر كتاباً – “o‘n uchta kitob”.

Tamyiz كم الخبرية (kam il-xobariyyaning) muzofun ilayhisi bo‘lsa, majrur bo‘ladi: كم رجلٍ رأيت – “qanchadan-qancha odamlarni ko‘rdim!” Yuqorida ta’kidlanganidek tamyiz kam il-xobariyyaning muzofun ilayhisi bo‘lganda gapda ritorik ma’noni yuzaga chiqarishda xizmat qiladi. Shu o‘rinda كم ning yana bir turi bo‘lgan كم الاستفهامية (kam il-istifhamiyya – gapga so‘roq ma’nosini yuklovchi, istifham harfi) haqida so‘z yuritish mavzuni yanada ochiqlashga yordam beradi. Agar tamyiz kam il-istifhamiyyadan so‘ng kelsa, mansub bo‘ladi: كم الطاولة؟ : على الطاولة – “stol ustida qancha kitob bor?”

Yuqorida bildirilgan, olib borilgan izlanishlar natijasidagi fikrlar orqali tamyiz ya’ni mumayyizning gapdagi o‘rni, vazifasi, turlari ma’lum bo‘ldi. Mansub hamda majrur bo‘lish sabablari izohlandi. Demak, aytish mumkinki, tamyiz qatnashmagan gap, jummlar mubham va mujmallikka yuz tutgan bo‘ladi. Qachonki, ularga tamyiz qo‘shilsa, nazarda tutilishi mumkin bo‘lgan turli narsalardan aynan bir murod oydinlashadi, mubhamlik yo‘qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Rajo Muhammad Muhyiddin ibn Abdulhamid. At-tuhfatus saniyya bisharhil muqaddimatil Ajurrumiyya. – Qatar: Dar Idarotu ash-Shu’uni al-Islamiyya, 2007, 183 b.
2. Hifniy Nasif, Muhammad Diya, Mustafu Tommum, Mahmud Umar. Ad-durusun nahviyya. – Kuvayt: Dar Iylaf al-Duvaliyya, 2009, 415 b.
3. Mustafu G‘olayiniy. Jome’ ad-durus al-arabiyya. – Bayrut: Dar Muassasati ar-Risalati Nashirun, 2010, 809 b.
4. Ne’matillo Ibrohimov, Muhammad Yusupo. Arab tili grammatikasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 1997, 453 b.
5. San’atulloh Ne’matulloh o‘g‘li Bekpo‘lat. Mabdaus sarf, Mabdaun nahv. – Toshkent: Munir nashriyoti, 2022, 368 b.
6. At-Tanal al-Arabi. – Amman: Sharikatu at-Tanal al-Arobiyya, 2021, 430 b.

ARAB TILIDA METAFORA HODISASI

Muhammadxonova Munira Abdurohman qizi

Filologiya fakulteti

4- kurs 204-guruh talabasi

muhammadxonovamunira03@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidagi balog‘at fanining asosiy bo‘limlaridan biri sanaladigan metafora (istiora)ning lug‘aviy va istilohiy ta’riflari, uning yetakchi xususiyatlari hamda nutqqa qo‘shadigan badiiy-estetik qiymati yoritiladi. Tadqiqotda istioraning bayon ilmidagi o‘rni, tashbeh bilan bo‘lgan o‘zaro aloqasi, ko‘chma ma’no shakllanishiga sabab bo‘ladigan ma’naviy munosabatlar, shuningdek mushabbah, mushabbah bih, musta’or minhu va musta’or lahu kabi asosiy tarkibiy unsurlari batafsil izohlanadi. Istioraning majoz tizimidagi o‘rni va u orqali ma’noni obrazli va kuchli ifodalash imkoniyatlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, uning balog‘otdagi uslubiy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Balog‘at, bayon ilmi, isteora, tashbeh, majoz, mushabbah, mushabbah bih, musta’or minhu, musta’or lahu, badiy estetika.

Abstract. This article covers the lexical and terminological definitions of metaphor (istiora), which is considered one of the main sections of Arabic balagah science, its leading features, and its artistic-aesthetic value added to speech. The study explains in detail the role of metaphor in the science of narration, its relationship with tashbeh, spiritual relations that cause the formation of figurative meaning, as well as the main structural elements such as mushabbah, mushabbah bih, musta’ar minhu and

musta'ar lahu. The role of metaphor in the metaphorical system and the possibilities of figurative and strong expression of meaning through it are analyzed from a scientific point of view, and its methodological significance in balagah is revealed.

Keywords: Eloquence, the science of narration, metaphor, simile, metaphor, mushabbah, mushabbah bih, musta'ar minhu, musta'ar lahu, artistic aesthetics.

Arab tili o'zining ko'p asrlilik ilmiy, adabiy va madaniy merosi bilan dunyo tillari orasida alohida o'rin egallaydi. Ushbu merosning eng muhim qatlamlaridan biri bu — tilning badiiy ifoda imkoniyatlarini yuksak darajada namoyon etuvchi metafora (istiora) hodisasidir.

Metafora (yunoncha metaphora — ko'chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir. Masalan; tandirning og'zi birikmasida og'iz so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga tashqi o'xshashligi asosida vujudga kelgan. Metafora hodisasi deyarli hamma tilda mavjud. Arab tili tarixan boy badiiy an'anaga ega. Ushbu an'analarning shakllanishida metafora ham alohida o'rin tutadi. Metafora faqat adabiy bezak emas, balki fikrlash tizimida ma'no yaratishning faol usuli hisoblanadi. U tildagi so'z va iboralar o'rtasida yangi semantik bog'lanishlar hosil qiladi va fikrni kuchli shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Shuning uchun metafora arab tilshunosligida qadimdan buyon eng ko'p tadqiq etilgan hodisalardan biri bo'lib keladi.

Arab tilida balog'at ilmida ushbu hodisa istiora nomi bilan yuritiladi. Balog'at ilmida istiora bayon ilmida o'rganiluvchi majozning qismida yoritib beriladi. Isteora so'zning lug'aviy ma'nosi «qarzga olingan» degan ma'noni bildiradi, uning istelohiy ma'nosiga quidagicha tarif berilgan:

الإستعارة هي تشبيه بليغ حذف أحد طرفيه :

Istiora — Bu kuchli taqqoslash (tashbih balig') bo'lib, uning ikki asosiy unsuridan biri (ya'ni mushabbah yoki mushabbah bih) tushirib qoldirilgan bo'ladi.

Yuqoridagi bayondan anglashiladiki, tashbih (taqqoslash) deganda ikkala unsur — mushabbah (o'xshatilayotgan narsa) va mushabbah bih (o'xshatish vositasi) birgalikda mavjud bo'lishi shart. Agar ulardan biri tushirib yuborilsa, bu endi oddiy tashbih emas, istiora deb ataladi.

Atoullloh Husayniy: «Istiora majozning bir navdur. Majozning turli navlari bordur. Jumladan istiora uldurkim, yasoq va iroda etilgan ma'no orasindag'i aloqa o'xshashliqtur: sher lafziyu yuraklig kishi ma'nosidag'idek»

وأصل الإستعارة: تشبيه حذف أحد طرفيه، ووجه شبهه، وأداته

Istioraning asosi — bu o'xshatish (tashbih) bo'lib, unda o'xshatishning ikki unsuridan biri, o'xshashlik jihati hamda o'xshatish vositasi (ya'ni tashbih odati) tushirib yuborilgan bo'ladi, uning qismlari o'xshatilgan (mushabbah) — unga qarab

istiora qilingan narsa (musta'or lahu) deb ataladi, o'xshatilgan narsa (mushabbah bih) esa — undan istiora olingan narsa (musta'or minhu) deyiladi.

Istioraning ruknlari uchta: المستعار منه (al-musta'ār minhu), ذات المشبه به (zātu-l-muš abbah bihi), المستعار (al-musta'ār)

Isteoraning turlari Isti'ora asosan uch turga bo'linadi: tashrihiy (تصريحية), kinoyaviy (مكنية) va mutlaq (مطلقة).

Kinoyaviy isti'ora (الاستعارة المكنية) — bu turda o'xshatishning ikkinchi tomoni (ya'ni mashabbah bihi) yashirin bo'ladi, ammo unga ishora qiluvchi belgilar orqali ifoda etiladi.

Mutlaq isti'ora (الإستعارة المطلقة) — bu turdagi isti'orada na o'xshatishning vositasi, na unga oid belgilar keltiriladi. Ya'ni o'xshatilgan narsa bevosita o'zlashtiriladi, lekin unga oid boshqa alomatlar ishlatilmaydi.

Tashrihiy isti'ora (الاستعارة التصريحية) — bu shunday isti'oraki, unda o'xshatish vositasi (ya'ni mashabbah bihi) ochiq-oydin ifodalanadi. Masalan, she'rda aytiladi:

“فأمطرت لؤلؤًا من نرجسٍ وسقت وردًا وعضت على الثياب بالبردِ”

bu baytda shoir marvaridni ko'z yoshga, nargisni ko'zga, atirgulni yonoqqa, kiyimni barmoqqa, muzni tishga o'xshatgan. O'xshatish vositalari ochiq ifodalangani sababli bu tashrihiy isti'oradir.

«Tuzilishiga ko'ra bir so'z yoki iboradan tashkil topgan istiora «sodda istiora», birikmali istioralar «murakkab istiora» sanaladi. Misol:

رأيتُ أسدًا في المعركة.

Jangda sher ko'rdim. Bu yerda “sher” so'z jasur inson o'rnida soda isteora bo'ldi. مرّت الأيام كالريح.

Kunlar shamoldek o'tib ketdi. Bu yerda so'zi isteora bo'lib kelmoqda. هجم علينا الدهرُ بجيشٍ من أيامه ولياليه.

Zamon bizga kun va tunlardan iborat lashkar bilan hujum qildi. Bu jumlada zamonning lashkar bo'lib hujum qilishi — murakkab istiora.

«Istiora tashbihga yaqin bo'lib, undan o'zining ifodalanish usuli va ma'nosining kengligi bilan farqlanadi.

Istiora — tashbihning rivojlangan shakli bo'lib, o'xshashlikni yanada kuchli, nozik va san'atkorona ifodalashga xizmat qiladi. Mumtoz she'riyatda ko'plab tashbihlar keyinchalik istioraga aylangan.

Yuzungga o'xshagay bo'ston, gulima ul mahi tobon, Agar xud bo'lsa gulda jon, oydagi bo'lmasa nuqson. Bu misolda shoir o'xshatishni shart bilan bog'laydi — bu tashbihning kuchli san'ati. Tashbih istioraga asos bo'lishi mumkinligi uchun bu kabi misollar bayon ilmidagi jarayonlarni aniq ko'rsatadi.

Istioraning yana asliyya, taba'iyya turlari ham bor. Ifodalanishiga ko'ra otlardan tashkil topgan istioralar «istiorai asliya», fe'llardan tuzilganlari esa «istiorai fe'liya» deyiladi

Agar istiora uchun yuritilgan lafz jomid ism bo'lsa, istiorayi asliyya deyiladi. Agar istiora uchun yuritilgan lafz mushtaqqot ismdan yoki fe'ldan tuzilgan bo'lsa, bu istiorayi taba'iyya deyiladi.

Atoulloh Husayniy istioraning fazilati haqida shunday deydi: «Istiora, balki umuman majoz yiroq bo'lmay tab'qa ma'qulu maqbul bo'lsa, so'zning mukammal ziynatidur va fasohatu balog'at arbobi qoshinda haqiqattin yaxshiroqtur»

Bundan tashqari, istiora Qur'oni karim, hadislar va mumtoz arab adabiyotida ham yuksak badiiy mahorat bilan ishlatilgan bo'lib, ular mazmunining ta'sir kuchini sezilarli ravishda oshiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin istiora arab balog'ati tizimining eng nozik va mazmunan eng boy bo'limlaridan biri bo'lib, tilda ma'no ko'chishining badiiy mexanizmini mukammal ifodalaydi. Uning mushabbah, mushabbah bih, musta'or minhu va musta'or lahu kabi tarkibiy unsurlari o'zaro uyg'un holda ishlaganida, nutqda chuqur obrazlilik va yuqori darajadagi estetik ta'sir hosil bo'ladi. Tasrihiy, makniy, asliya va taba'iyya kabi istiora turlari mazmunning turli qatlamlarini ochish imkonini beradi hamda arab adabiy merosidagi badiiy fikrning rivojlanishida asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois istiora — nafaqat balog'at ilmining asosiy kategoriyasi, balki arab tili badiiy tafakkurining eng yuksak ko'rinishi sifatida ilmiy va adabiy tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2013.
2. Atoulloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. Fors tilidan A. Rustamov tarjimasi. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
3. دروس البلاغة حفي ناصف، محمد دياب، سلطان محمد، مصطفى طوم. Noor-Book.com2010، –2012.
4. Saidumarov M. Haririya maqomlari. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996.
5. Rustamiy Salima Aliybek qizi. Balog'at ilmi. – Toshkent: Zilol buloq nashriyoti, 2021.
6. Rustamiy Salima Aliybek qizi. O'rta asrlar balog'at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. – Toshkent: Zilol buloq nashriyoti, 2019.
7. حامد عنوني. المنهج الواضح في البلاغة. الجزء الأول. دار الكتب العربية، مصر، 1953.

8. Xo‘jayev M. Chustiy lirikasi va isti’ora masalasi. – Sharqshunoslik jurnali, №2, 2001.
9. Istiora — Vikipediya.
<https://uz.wikipedia.org/wiki/Istiora>
10. استعارة — ويكيبيديا العربية.
<https://ar.wikipedia.org/wiki/استعارة>

ARAB TILIDA QALBIY FE’LLARNING (الأفعال القلبية) NAZARIY ASOSLARI

Djurayeva Muslima
Oriental universiteti Filologiya fakulteti
AF-303 guruh talabasi
muslimadjurayeva05@icloud.com

Ilmiy rahbar Ma’mura Sidiqova, “Tillar-1” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilining nahv tizimida alohida grammatik birlik sifatida shakllangan qalbiy fe’llar (الأفعال القلبية)ning nazariy asoslari, ularning ma’no guruhlari, semantik tasnifi va ikki maf’ul talab qiluvchi sintaktik tuzilmasi ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot doirasida qadimgi grammatik maktablar - Basra va Kufa allomalari tomonidan af’al qulubiyaga berilgan talqinlar tahliliy-qiyosiy usulda o‘rganiladi. Shuningdek, mazkur fe’llarning Qur’on va hadis matnlarida qo‘llanishi, adabiy manbalardagi o‘rni, zamonaviy lingvistika va tarjima jarayonidagi grammatik muammolar tahlil qilinadi. Qalbiy fe’llarning ikki maf’ul tizimi (مفعول به أول، مفعول به ثانٍ), ularning i’roblanish tartibi, semantik yuklamasi va taqdim ta’xir jarayoniga nisbatan sezgirligi alohida ilmiy izohlanadi. Olingan xulosalar arab tili grammatik tizimining murakkab va o‘ziga xos jihatlarini chuqurroq anglashi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Qalbiy fe’llar, af’al qulubiyya, ikki maf’ul, arab nahvi, sintaksis, semantika, taqdim-ta’xir, Basra maktabi, Kufa maktabi, Qur’on tili, arab grammatikasi, i’rob.

Annotation: This article provides a scholarly analysis of the theoretical foundations of Qalbiy verbs (الأفعال القلبية) in Arabic as a distinct grammatical unit, their semantic groups, classification, and syntactic structure requiring two objects. The study includes a comparative examination of interpretations by scholars from the Basra and Kufa schools and their explanation from the perspective of modern linguistics. Additionally, it explores the use of these verbs in the Quran and Hadith texts, their

semantic load in literary works, and the grammatical aspects arising during translation. The article focuses on an in-depth scientific analysis of the two-object system, case marking, word order, and their impact on sentence meaning. The findings contribute to a deeper understanding of the unique features of Arabic grammar.

Keywords: Qalbiy verbs, Afʿāl Qulubiyya, two-object system, Arabic grammar, syntax, semantics, word order, Basra school, Kufa school, semantic groups, Quranic language, Arabic grammatical system, case marking.

Arab tili grammatikasida qalbiy fellar masalasi qadimiy manbalardan boshlab keng yoritilib keladi. Ushbu maqolada mazkur hodisaning tarixiy rivoji, asosiy manbalar hamda ulamolarning ilmiy yondashuvi izchil koʻrib chiqiladi.

Avvalo, arab tili grammatikasi asoschisi boʻlgan Sibavayh “Al-Kitob” asarida qalbiy feʼllarni maxsus feʼl guruhi sifatida tasniflagan ilk allomalardan sanaladi. U bunday feʼllarning ikki mafʼul talab qilishini “mubtada–xabar” sintaktik modelining feʼl ostida qoʻllanishi bilan izohlaydi. Sibavayhning taʼkidlashicha, birinchi mafʼul — ism, ikkinchi mafʼul — xabar vazifasini bajaradi. Ushbu yondashuv keyingi grammatik maktablar uchun poydevor boʻlib xizmat qilgan .

Keyingi davr grammatiklari orasida Zamaxshariyning “Al-Mufassal” asari alohida ahamiyatga ega. U qalbiy feʼllarni semantik jihatdan “gumon, “tasdiq, bilish, “daʼvo” kabi guruhlarga ajratadi hamda Qurʼoni Karim misollarida ularning erobdagi oʻziga xosliklarini atroflicha sharhlaydi. Zamaxshariy ayniqsa taqdim–taʼxir masalasining maʼno hosil qilishdagi oʻrni va uslubiy imkoniyatlarini batafsil tahlil qiladi .

Qalbiy feʼllar masalasi Ibn Malikning “Alfiyya”sida ham muhim oʻrin tutadi. U mazkur feʼllarning qoʻllanishi, ikki mafʼulning vazifasi hamda ular orasidagi semantik farqlarni sheʼriy qoidalar vositasida umumlashtiradi. Ibn Aqil, Badruddin va boshqa grammatiklar tomonidan yozilgan sharhlar esa علم، خال، حسب، ظن kabi feʼllarning erobi, qoʻllanish shartlari va maʼno nozikliklarini yanada mufassal ochib beradi .

XX–XXI asrlarda mavzu zamonaviy lingvistika doirasida yangi tushunchalar bilan boyidi. Jumladan, Abd al-Hamid, al-Gʻalayniy, Ramzi Baalbekiy kabi tadqiqotchilar qalbiy feʼllarning ichki semantik tuzilishini, ikki mafʼul talab qilinishining psixolinguistik asosi va kognitiv modelini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, qalbiy feʼllarning semantik mohiyati “subyekt — idrok qilinayotgan obyekt — obyektning baholangan holati”dan iborat murakkab kognitiv tuzilmaga tayangan .

Qalbiy feʼllar Qurʼon tili va tafsir ilmidagi tadqiqotlarda ham muhim mavzu boʻlib, Tabariy, Qurtubiy, Ibn Kasir kabi mufassirlar ayrim oyatlardagi bunday feʼllarning nozik maʼno soyalarini, ularning sintaktik tuzilmalarda hosil qilgan taʼkid

va uslubiy kuchaytirish vazifalarini yoritib berganlar. Bu izohlar Qur'on tili uslubini to'g'ri tushunish uchun zarur ilmiy tayanch hisoblanadi .

Shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham mazkur masalaga oid tadqiqotlar mavjud. X. Komilov, T. Jo'rayev, A. G'aniyev va boshqa olimlar o'z asarlarida qalbiy fe'llarning tarjima jarayonidagi qiyinchiliklari, ikki maf'ulning o'zbek tilida ifodalanish imkoniyatlari hamda semantik moslik masalalarini tahlil qilganlar .

Qalbiy fe'llarning nazariy asoslari.

1. Qalbiy fe'llar tushunchasining shakllanishi.

Qalbiy fe'llar tushunchasining shakllanishi qadimgi arab grammatikasi rivojining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Sibavayhning "Al-Kitob" asarida, keyinchalik Zamaxshariyning "Al-Mufassal", Ibn Ya'ishning "Sharh al-Mufassal", Ibn Malikning "Alfiyya"si va uning sharhlarida qalbiy fe'llar alohida guruh sifatida tilga olingan. Ulamolar bu fe'llarning o'ziga xos xususiyati sifatida ularning ma'no jihatdan takvin (bilish), tasdiq, zann (gumon), i'tiqod (ishonch) kabi ichki ruhiy jarayonlarni anglatishini ta'kidlab o'tganlar.

Basra maktabi olimlari qalbiy fe'llarning ikki maf'ul talab qilishini ularning tabiiy ma'no qurilishidan kelib chiqqan holda izohlaydi. Ularning fikricha, bu fe'llar tashkil etayotgan semantik struktura "kishi biror narsani boshqacha sifatda tasavvur qiladi" mazmunini o'z ichiga oladi. Demak, bu fe'llar fikrning ikki obyektini talab qiladi: kim? va qanday deb?

Masalan: ظَنَنْتُ زَيْدًا عَالِمًا - "Zaydni olim deb o'yladim".

Bu yerda Zaydan - birinchi maf'ul, 'ālīman - ikkinchi maf'ul.

Kufa maktabi olimlari esa bu fe'llarning ikki maf'ul talab qilishini fe'lning o'ziga xos ishlatilishiga emas, balki jumla mazmunining ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lishiga bog'lab izohlaydilar. Ularning nazarida birinchi maf'ul - gapning mavzusi (mavzu qaratilgan shaxs), ikkinchi maf'ul esa - uning holatini bildiruvchi xabar mazmuniga teng.

2. Qalbiy fe'llarning grammatik belgilari

Qalbiy fe'llarni boshqa fe'llardan ajratib turuvchi grammatik xususiyatlar quyidagilardir:

a) Semantik belgi:

Ular ruhiy idrok, gumon, his qilish, tasdiq, bilish kabi ichki jarayonni bildiradi.

b) Ikki maf'ul talab qiladi:

Bu ularning asosiy grammatik belgisi bo'lib, bunday fe'llar arab tilida 20 dan ortiq turli shakllarda uchraydi.

c) Ikkinchi maf'ulning xabarsifat shakli:

Ikkinchi maf'ul ko'pincha na't man'ut munosabatidagi sifat, ism yoki ism jumlasidan keladi.

d) Ta'xir va taqdimga sezgirlik:

Qalbiy fe'llarda ma'noni o'zgartirmay turib jumla tarkibini o'zgartirish (taqdim-ta'xir) mumkin, ammo sintaktik o'rni qat'iy nazorat ostida bo'ladi.

Qalbiy fe'llarning ma'no guruhlari

Arab tilidagi qalbiy fe'llar semantik jihatdan bir nechta guruhlarga bo'linadi. Ularning tahlili ularning grammatik tabiatini ham, jumlada tutgan funksiyasini ham aniqroq anglash imkonini beradi.

1. Bilish va idrok fe'llari (أفعال العلم والإدراك)

Bu guruhga quyidagi fe'llar kiradi:

عَلِمَ — bildi

دَرَى — anglagan bo'ldi

تَعَلَّمَ — o'rgandi

فَهِمَ — tushundi

Bu fe'llar aniq tasdiq mazmunini beradi. Ular ko'pincha qat'iy xabarli semantik tuzilma yaratadi.

Misol: عَلِمْتُ الطِّفْلَ نَاجِحًا - “Bolani muvaffaqiyatli deb bildim”.

2. Gumon fe'llari (أفعال الظن)

Bu eng keng tarqalgan guruhlardan biridir:

ظَنَّ - o'yladi, gumon qildi

حَسِبَ - hisob qildi

خَالَ - taxmin qildi

رَجَا - umid qildi

Bu fe'llarning semantik xususiyati - aniq emaslik, shubha, kutilgan holat.

Misol: ظَنَنْتُ الرَّجُلَ صَادِقًا — “Ertakzotni rostgo'y deb o'yladim”.

3. Tasdiq va i'tiqod fe'llari (أفعال اليقين والإثبات)

وَجَدَ (qalbiy) - deb bildi

عَدَّ — deb hisobga oldi

رَأَى (qalbiy) - anglab yetdi

Bu fe'llar qat'iy, aniq ishonch ma'nosida qo'llanadi.

Misol:

وَجَدْتُ الْبَحْثَ مُتَمِّزًا — “Bu tadqiqotni yuksak deb bildim”.

4. Da'vo fe'llari (أفعال الدعوى)

زَعَمَ — da'vo qildi

ادَّعَى — da'vo qildi

قَالَ — dedi (ma'nosida)

Bu fe'llarda aytilayotgan xabar subyektivdir va tasdiqlanmagan.

Misol: رَعِمَ الْقَوْمُ الرَّجُلَ كَاذِبًا: “Qavm uni yolg‘onchi deb da’vo qildi” .

Qalbiy fe'llarning sintaktik tizimi va erobi.

Qalbiy fe'llar nahvda eng ko‘p bahs qilingan bo‘limlardan biridir. Ularning sintaktik tuzilishi quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi:

1. Ikki maf‘ul tizimi (المفعولان)

Qalbiy fe‘l odatda ikki maf‘ul bilan birga keladi:

1-mafu‘l (مفعول به أول) – shaxs yoki narsa

2-mafu‘l (مفعول به ثانٍ) – uning sifatini bildiruvchi xabar

Masalan: ظَنَنْتُ الطَّالِبَ مُجْتَهِدًا

1 — الطَّالِبَ-maf‘ul

2 — مُجْتَهِدًا-maf‘ul

Bu tuzilma grammatik jihatdan muftada-xabar strukturasi ga teng.

2. Qalbiy fe‘l bilan kelgan jumlaning turlari

Qalbiy fe‘l quyidagi shakllarda kelishi mumkin:

a) Ism jumlasini bilan

عَلِمْتُ زَيْدًا أَبُوهُ قَائِمٌ

b) Fe‘l jumlasini bilan

ظَنَنْتُ الْمُعَلِّمَ يَشْرَحُ الدَّرْسَ

c) Ism + sifat bilan

وَجَدْتُ الْبَيْتَ نَظِيفًا

3. Taqdim va ta‘xir

Arab tili nahv tizimi taqdim-ta‘xirga juda boy. Qalbiy fe'llarda taqdim-ta‘xir sintaktik estetikani oshiradi, ammo ma‘noga zarar yetkazmaydi.

Masalan: ظَنَنْتُ مُجْتَهِدًا زَيْدًا

Bu shakl poetik yoki fasohat maqsadida qo‘llanadi .

Qalbiy fe'llarning matnlarda qo‘llanilishi.

1. Qur‘onda

Qur‘oni Karimda qalbiy fe'llar juda ko‘p uchraydi, masalan:

(Al-Anbiya 87) وَظَنَّ أَنْ لَنْ نَقْدِرَ عَلَيْهِ

Bu yerda ظن fe‘li gumon ma‘nosida kelgan.

2. Hadis matnlarida

Hadislarda ham bu fe'llar xabar yetkazish, gumon, da‘vo va tasdiq ma‘nolarida keng qo‘llangan.

3. Adabiy matnlarda

Jahiliya she‘riyatida qalbiy fe'llar ko‘pincha dramatik holatni ko‘rsatish, qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda ishlatiladi .

Arab tilidagi qalbiy fe'llar (الأفعال القلبية) nahv tizimining eng murakkab, eng nozik va tarixan eng ko'p ilmiy munozaralarga sabab bo'lgan sohalardan biridir. Ushbu fe'llarning grammatik tizim ichidagi o'rni nafaqat sintaktik, balki semantik, pragmatik, stilistik va kognitiv jihatlardan ham alohida ilmiy e'tibor talab qiladi. Qalbiy fe'llarning asosiy o'ziga xos jihati - ularning ikki maf'ul talab qilishi hamda inson tafakkuri bilan bevosita bog'liq bo'lgan ma'nolarni ifodalashi bo'lib, bu xususiyat arab tilini boshqa tillardan ajratib turadigan noyob grammatik hodisa sifatida qaraladi.

Qadimiy grammatik maktablar - Basra va Kufa allomalari bu fe'llarning lug'aviy-didaktik tabiatini turlicha sharhlab, ular bilan bog'liq qoidalarni mukammal ilmiy tizimga solganlar. Basra maktabi ularning ikki maf'ulliligini semantik-mazmuniy zarurat bilan izohlagan bo'lsa, Kufa maktabi sintaktik qurilishning o'ziga xos ustuvorligini ta'kidlagan. Bu ikki yondashuvning uyg'unligi hozirgi zamon arab grammatikasida qadri baland bo'lgan nazariy asosni shakllantirdi. Bugungi lingvistika esa mazkur fe'llarni kognitiv modellar, aqliy jarayonlar, fikriy tasavvur va konseptual tahlil bilan bog'lab o'rganmoqda. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, qalbiy fe'llar mazmuni bir vaqtning o'zida grammatik, mantiqiy va psixologik qatlamlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Ushbu maqolada qalbiy fe'llarning ma'no guruhleri: bilish, gumon, tasdiq, da'vo va boshqalar tarkiban tahlil qilinar ekan, ularning har biri o'z sintaktik imkoniyatlariga ega ekani aniqlandi. Fe'llarning mazmuniy farqlanishi ikki maf'ulning xarakteriga, ularning i'rob holatiga, fe'l ostida qurilayotgan jumla strukturasi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda, taqdim-ta'xir, fe'l bilan kelgan ism jumlasini yoki fe'l jumlasini, hamda ikkinchi maf'ulning sifat yoki xabar roli jumla ma'nosining semantik chuqurlashuviga sabab bo'ladi.

Qur'on oyatlarida qalbiy fe'llarning qo'llanilishi mazkur fe'llarning balog'at va fashohat jihatidan naqadar muhim ekanini ko'rsatadi. Mufasssirlar bu fe'llar orqali berilgan ma'no qatlamlari – gumon, iymon, inkor yoki tasdiq – oyatning mazmunini kuchaytirishini qayd etganlar. Adabiy matnlarda esa bu fe'llar qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy o'zgarishlari, kechinmalar tahlilida markaziy semantik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tarjima jarayonida qalbiy fe'llarning ikki maf'ullilik xususiyati ko'pincha o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmagani sababli grammatik va stilistik muammolar tug'diradi. Bunda tarjimon mazmuniy kuchayish, subyektivlik darajasi, gumon xarakteri yoki tasdiq ma'nosini to'g'ri aks ettirish uchun qo'shimcha konstruksiyalardan foydalanishga majbur bo'ladi. Bu esa mazkur fe'llarning nafaqat grammatik, balki pragmatik va uslubiy jihatdan ham o'ta muhim ekanini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, arab tilidagi qalbiy fe'llar grammatik tizimning murakkab, ammo nihoyatda muhim bo'lagi sifatida nafaqat tarixiy-nazariy manbalarda, balki hozirgi zamon lingvistikasida ham o'z ilmiy qiymatini saqlab qolgan. Ularning sintaksis, semantika, kognitiv tahlil, Qur'onshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjima nazariyasidagi ahamiyati nihoyatda yuqori. Mazkur tadqiqot natijalari qalbiy fe'llar tizimini chuqur anglash, nahv ilmining mohiyatini yanada to'liqroq o'zlashtirish va arab tili grammatikasi bo'yicha kelgusida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Sibawayh, Abu Bishr. Al-Kitāb. Beirut: Dār al-Kutub al-'Ilmiyyah, nashri qayta ishlangan.
2. Zamakhshariy, Abu al-Qosim. Al-Mufasssal fī al-Nahw. Beirut: Dār al-Ma'rifa.
3. Ibn Mālik, Muhammad bin Abdallah. Al-Alfiyya fī al-Nahw. Sharhlari bilan. Qohira: Maktabat al-Sunnah.
4. Ibn 'Aqīl al-Hamdanī. Sharh Ibn 'Aqīl 'alā Alfiyyat Ibn Mālik. Beirut: Dār al-Fikr.
5. Abdulhamid, Muhammad Muhyiddin. Al-Tahzīb fī al-Nahw. Qohira: Maktabat al-Adab.
6. Ibn Ya'īsh, Abu al-Baqo'. Sharh al-Mufasssal li al-Zamakhshariy. Beirut: Dār al-Kutub al-'Ilmiyyah.
7. Abu Hilāl al-'Askarī. Kitāb al-Furūq al-Lughawiyya. Beirut: Dār al-Fikr.
8. Komilov, X., Jo'rayev, T. Arab tili grammatikasi: Nazariy asoslar. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti.
9. G'aniyev, A. Arab tili grammatikasi va uslubiyoti. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
10. Mustafā Shākir. Al-Nahw al-'Arabī: Masā'il wa Abhāth. Qohira: Dār al-Fikr al-'Arabiyy.
11. Ramzi Baalbeki. Arabic Linguistics: A Textbook. Leiden: Brill, akademik nashr.
12. Al-Ṭabarī, Muhammad ibn Jarir. Jāmi' al-Bayān fī Tafsīr al-Qur'ān. Qohira: Dār al-Fikr.
13. Qurtubiy, Abu Abdillah. Al-Jāmi' li-Ahkām al-Qur'ān. Beirut: Dār al-Kutub al-'Ilmiyyah.

ATF HARFLARINING SINTAKSIS TAHLILI

Norboyeva Aziza Xusanova

Oriental universiteti arab filologiyasi fakultetining 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Fayziyev Shamsuddin Sadriddinovich

Tillar-1 kafedrası stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi atf harflarining sintaktik xususiyatlari, ularning grammatik vazifalari, ma’no nozikliklari va amaliy qo‘llanilish doirasi keng yoritilgan. Atf harflari arab tili nahv tizimining asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, ular matnda so‘z, ibora va jummalarni mantiqiy bog‘laydi, fikr izchilligini ta’minlaydi va jumla strukturasi yaxlitligini mustahkamlaydi. Maqolada klassik manbalar-“Al-Ājrumiyya”, “Sharh Ibn ‘Aqil”- va zamonaviy adabiyotlardan, xususan Nematilla Ibrohimovning izohlaridan foydalanilgan. Tadqiqot davomida atf harflarining turlari, sintaktik boshqaruv va kelishuv qoidalari, ularning Qur’on va adabiy matnlarda qo‘llanilishi misollar bilan tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: atf harflari, sintaksis, nahv nazariyasi, grammatik bog‘lanish, arab tili tuzilishi.

Abstract: This article examines the syntactic nature of conjunction particles in Arabic grammar, analyzing their structural function and their role in forming grammatical relations within a sentence. Conjunction particles link words, phrases, and clauses, ensuring logical coherence and semantic unity in Arabic texts. The study uses classical sources such as “Al-Ājrumiyya” and “Sharh Ibn ‘Aqil” alongside modern works, including Nematilla Ibrohimov’s analysis. The types of conjunctions, their syntactic rules, and semantic nuances are examined with practical examples, highlighting their stylistic and functional roles.

Keywords: conjunction particles, syntax, Arabic grammar, syntactic linkage, structural analysis.

Atf harflari arab tilining sintaktik tizimida eng muhim vositalardan biri bo‘lib, matnning mazmuniy yaxlitligi, jumlaning mantiqiy qurilishi va nutqning ohangdorligini ta’minlaydi. Nahv ilmi nuqtai nazaridan qaralganda, atf harflari so‘zlar va jumlar orasida turli ma’naviy aloqalarni hosil qiladi, ularni o‘zaro bog‘laydi va matnni yaxlit grammatik tuzilma sifatida idrok etishga yordam beradi. Arab tili o‘zining murakkab sintaktik tizimi bilan ajralib turadi, shu bois har bir aloqani to‘g‘ri ifodalash uchun maxsus vositalarga ehtiyoj seziladi. Atf harflari ana shunday vositalardan bo‘lib, ular nutqning silliqligi va izchilligini shakllantiradi.

Birinchiidan, atf harflari ma’nolar orasidagi munosabatni aniq belgilaydi. Masalan, “وَ” qo‘shimcha ma’noni, “تَمْ” ketma-ketlik va vaqt o‘tishini, “بَلْ” inkor va rad etishni bildiradi. Harflar turlicha ma’nolarni ifodalash orqali matnning mazmuniy

yoʻnalishini belgilaydi, fikrning qayerdan qayerga ogʻayotganini koʻrsatadi. Bu mantiqiy izchillikni saqlashda muhim oʻrin tutadi.

Ikkinchidan, atf harflari iʻrobga bevosita taʻsir qiladi va shu orqali grammatik birliklarning bir-biri bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Maʼtuf maʼtuf alayhning iʻrobga ergashadi, bu esa soʻzlar orasidagi sintaktik tenglikni taʼminlaydi. Bu jihat arab tilining ichki tizimini mustahkamlaydi va fikrni aniq, tartibli yetkazishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, atf harflari matn va nutqning badiiy goʻzalligini kuchaytiradi. Qurʼon oyatlarida, qadimgi arab sheʼriyatida va nasriy asarlarda atfning ohang yaratishdagi oʻrni beqiyosdir. Masalan, “وَالسَّمَاءِ وَالطَّارِقِ” kabi takroriy atf shakllari musiqiylik, urgʻu va emotsional kuch bagʻishlaydi. Balogʻat olimlari atfni nutqni goʻzallashtiruvchi eng muhim sanʼatlardan biri deb eʼtirof etishadi.

Toʻrtinchidan, atf harflari murakkab jummalarni qisqa, sodda va tushunarli shaklda bogʻlash imkonini beradi. Shuningdek, ular jumlar orasida sabab–natija, zidlik, ketma-ketlik, tanlov kabi mantiqiy aloqalarni aniq ifodalab, oʻquvchi yoki tinglovchiga matnni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Klassik manbalarda, xususan Ibn Mālik, Ibn Hishām, Ibn ʼAqīl, atf harflarining tabiati, qoʻllanish shartlari va maʼno nozikliklari mukammal sharhlangan. Zamonaviy manbalarda esa Nematilla Ibrohimov atf harflarining amaliy va nazariy jihatlarini kengaytirib, misollar bilan tahlil qilgan.

Atf harflarining taʼrifi va grammatik vazifasida nahv manbalariga koʻra, harf al-atf (حرف العطف) jumla tarkibidagi ikki soʻz yoki jumlaning grammatik va semantik jihatdan bogʻlaydigan vositadir. Atfning asosiy vazifasi — maʼtufni maʼtufga iʻrob jihatdan ergashtirishdir. Misol: ”جَاءَ زَيْدٌ وَعَمْرٌو” Zayd va Amr keldi.”

Bu yerda “عمرو” soʻzi maʼtuf boʻlib, “زيد” (maʼtufga) iʻrobga ergashadi.

Atf harflarining turlariga keladigan boʻlsak ular:

1. وَ (va) – tenglik, qoʻshilish va birlikda bajarilish maʼnosini bildiradi. Misol: ”جَاءَ الْمُدْرَسُ وَالطُّلَّابُ” – “Oʻqituvchi va talabalar keldi.”
2. فَ (bas) – ketma-ketlik va natija maʼnosini bildiradi. Misol: ”دَخَلَ الْمُعَلِّمُ فَجَلَسَ الطُّلَّابُ” – “Oʻqituvchi kirdi, soʻng talabalar oʻtirishdi.”
3. ثُمَّ (soʻng) – ketma-ketlik, uzoq muddat farqi. Misol: ”سَافَرَ زَيْدٌ ثُمَّ رَجَعَ” – “Zayd safarga chiqdi, keyin qaytdi.”
4. أَوْ / أَمْ (yoki) – tanlov va shubha maʼnosi. Misol: ”خُذِ الْقَلَمَ أَوْ الدَّقْنَزَ” – “Qalamni yoki daftarni ol.”
5. بَلْ (balki) – avvalgi fikrni rad etib, ikkinchi fikrni kuchaytiradi. Misollar: ”لَمْ يَذْهَبْ مُحَمَّدٌ بَلْ عَلِيٌّ ذَهَبَ” – “Zayd kelmadi, balki Amr keldi”, ”لَمْ يَذْهَبْ مُحَمَّدٌ بَلْ عَلِيٌّ ذَهَبَ” – “Muhammad bormadi, balki Ali bordi.”

6. لَكِنْ (lekin) – zidlik bildiradi, avvalgi fikrga qarama-qarshi ikkinchi fikrni ta'kidlaydi. Misollar: مَا ذَهَبْتُ لِأَلْعَبَ لَكِنْ لِأَدْرُسَ – “Men o‘ynashga bormadim, lekin o‘qishga bordim”, لَمْ يَحْضُرْ زَيْدٌ لَكِنْ خَالِدٌ حَاضِرٌ – “Zayd kelmadi, lekin Xalid keldi.”

Atf harflarining sintaktik shartlari bir necha turga bo‘linadi: ma’tuf عليه bo‘lishi shart, i’rob hukmi teng bo‘lishi kerak, atf harfi ma’noga mos kelishi lozim, unsurlar o‘zaro munosib bo‘lishi kerak. Qur’on misoli: وَاللَّهُ غَفُورٌ رَحِيمٌ – “Allah mag‘firatli va rahmlidir.” Bu yerda غَفُورٌ رَحِيمٌ ning xabar sifatida ergashadi.

Ajrumiyya tomondan qaraydigan bo‘lsak: وَالْعَطْفُ هُوَ تَبَعِيَّةٌ لَفْظٍ لِفَظٍ – “Atf -bir lafzning boshqa lafzga ergashishidir.” Bu ta’rif atfning sintaktik mohiyatini aniq ko‘rsatadi.

Stilistik va uslubiy o‘rnidan esa, qur’onda و turli ohanglarda ishlatiladi, ف sabab-natija yoki tezlik bildiradi, ثُمَّ voqealar ketma-ketligini uzunroq ko‘rsatadi, بَلْ va لَكِنْ fikrlarni qarama-qarshi ifodalashda qo‘llanad. Misol: وَالضُّحَى وَاللَّيْلِ إِذَا سَجَى – “Ohang va urg‘u kuchaytirilgan.”

Xulosa qilib aytganda, arab tili nahv tizimida atf harflari (حروف العطف) grammatik, semantik va uslubiy jihatdan nihoyatda muhim kategoriyadir. Ular matn tarkibida so‘zlar, iboralar va jumlar o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish yaratib, fikrning izchilligi va ravonligiga xizmat qiladi. Ayniqsa, murakkab gaplarda mazmunning aniqligi, sabab-natija yoki zidlik munosabatlarining ifodasi ko‘pincha atf harflari orqali ta’minlanadi. Shuning uchun ham atf harflarini to‘g‘ri qo‘llash arab matnini to‘g‘ri talqin qilishda asosiy kompetensiyalar qatoriga kiradi.

Atfning asosiy grammatik qoidalaridan biri – “ma’tuf (مَعْطُوف)”ning عليه ma’tuf (مَعْطُوفٌ عَلَيْهِ) i’robiga to‘liq ergashishi – nahv manbalarida qat’iy belgilangan tamoyil bo‘lib, bu qoida arab tilidagi gap tuzilishini o‘rganuvchilar uchun asosiy mezon vazifasini bajaradi. Klassik ulamolarning asarlarida, xususan Ibn Mālik, Ibn Hishām, Ibn ‘Aqīl kabi nahvshunoslarning izohlarida bu qoidaning har bir jihati chuqur sharhlangan. Zamonaviy o‘quv adabiyotlarida, jumladan Nematilla Ibrohimovning izlanishlarida esa bu qoidaning amaliy qo‘llanishi keng ko‘lamda misollar bilan yoritilgan. Shuningdek, atf harflari nafaqat grammatik bog‘lovchi vosita, balki stilistik effekt beruvchi unsurlardan biri sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Shu bois, atf harflarining nazariy asoslarini ham, amaliy qo‘llanilishini ham chuqur o‘rganish arab matnshunosligi, tarjimashunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslik yo‘nalishlari uchun zarur hisoblanadi. Ushbu maqolada keltirilgan nazariy qoidalar va amaliy misollar talabalar, boshlang‘ich tadqiqotchilar, arab tilini chuqur o‘rganishga qiziqqan o‘quvchilar hamda tarjimonlar uchun ishonchli ilmiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, atf harflarining sintaksis tahlili arab tilining ichki tizimini, uning mantiqiy tuzilishi va fikr ifodasi mexanizmlarini anglash uchun muhim nazariy asos bo‘lib, nahv ilmining eng faol va ko‘p uchraydigan bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, mazkur mavzuni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash arab tilining murakkab grammatik tizimini mukammal egallashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimov N. Arab tili grammatikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Ibn Ājurrūm, Muhammad. Al-Ājrūmiyya fī al-Naḥw. Qohira: Dār al-Ma’ārif, 2005.
3. Ibn ‘Aqīl, Abdulloh. Sharḥ Ibn ‘Aqīl ‘alā Alfīyyat Ibn Mālik. Bayrut: Dār al-Fikr, 2004.
4. Ibn Hishām, Jamoliddin. Qaṭr al-Nadā wa Ball al-Ṣadā. Bayrut: Dār al-Ma’rifā, 2010.
5. Ibn Hishām, Jamoliddin. Mughnī al-Labīb ‘an Kutub al-A’ārīb. Bayrut: Dār al-Fikr, 2008.
6. Ibn Mālik, Jamoliddin. Alfīyyat Ibn Mālik. Bayrut: Dār al-Kutub al-‘Ilmiyya, 1999.

ARAB TILIDA IZOFA BIRIKMASINING MOHIYATI, TUZILISHI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

*Abduhamidova Gulnoza Mirkomil qizi,
Oriental universiteti Filologiya va tillarni
o‘qitish (arab tili) 1-bosqich talabasi.
Email: abduhammadovagulnoza@gmail.com
Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasi o‘qituvchisi
Rayimjonov Sayidolim*

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tili grammatik tizimining asosiy sintaktik birliklaridan biri bo‘lgan Izofa (إِضَافَةٌ) ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Arab tilidagi izofa (إِضَافَةٌ) o‘zbek tilidagi qaratqich kelishikli birikmaga o‘xshasa-da, uning grammatik tuzilishi, kelishik tizimi, so‘z tartibi va qo‘shimchalarning yo‘qligi ma’no jihatidan o‘ziga xos grammatik qurilishga ega. Shuningdek, ushbu maqolada arab tilidagi izofa birikmasining qo‘llanish xususiyatlari ilmiy uslubda o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: izofa, muzof ilayhi, so‘z birikmasi, grammatik tuzilishi, moslashuv, kelishik.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of Izofa (إضافة), one of the main syntactic units in the Arabic grammatical system. Although the Arabic Izofa (إضافة) is similar to the genitive case construction in Uzbek, it possesses a unique grammatical structure in terms of meaning, characterized by its distinct case system, word order, and the absence of suffixes. Additionally, this article examines the usage characteristics of the Arabic Izofa construction in a scholarly manner.

Keywords. Izofa compound, muzof, muzof ilayhi, possessive compound, grammatical structure, possessive suffixes.

Tilshunoslikda soʻz birikmalari sintaksisning muhim boʻgʻini hisoblanib, ular tilning ichki tuzilishi, grammatik qonuniyatlari va maʼno munosabatlarini oʻrganishda alohida oʻrin egallaydi. Arab tilida soʻzlarni oʻzaro bogʻlashning eng qadimiy va muhim shakllaridan biri izofa birikmasi (الإضافة) sanaladi. Izofa (إضافة) ikki otning maʼnodoshlik, egalik yoki mansublik asosida birikishi natijasida hosil boʻlib, arab tili grammatik tizimida alohida tuzilma sifatida shakllangandir. Mazkur birikma nafaqat sintaktik, balki morfologik jihatdan ham oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, soʻzlar oʻrtasidagi egalik munosabatini aniq ifodalab beradi. Izofa (إضافة) birikmasi arab tilidagi matnlarda juda keng qoʻllaniladi: u Qurʼoni karim oyatlaridan tortib, adabiy asarlar, ilmiy matnlar va kundalik nutqqacha boʻlgan barcha soha matnlarida uchraydi. Shu bois izofaning mohiyati, tuzilishi va grammatik belgilarini chuqur oʻrganish arab tilining sintaktik tizimini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada izofa (إضافة) birikmasining mazmuni, tuzilish tamoyillari, uning tarkibiy qismlari hamda grammatik xususiyatlari keng yoritiladi.

Arab tilida ham boshqa tillardagi kabi ikki yoki undan ortiq soʻz bir-biri bilan moslashib yoki birikib bogʻlanadi. Soʻz moslashib bogʻlangan birikmani arab tilida moslashgan aniqlovchi birikmasi deyilsa, birikib bogʻlangan birikmani esa, izofa birikmasi deyiladi. Bu birikmani boshqa bir oʻquv darsliklarida qaratqichli aniqlovchi yoki moslashlamagan aniqlovchi birikmasi terminlari bilan ham ataladi. Arab tili grammatik tizimida muhim sintaktik birliklaridan biri bu izofa birikmasi hisoblanadi. Izofa (إضافة) ikki ismning orasidagi qaratqich kelishigi orqali bir biriga bogʻlanishi natijasida hosil boʻlgan birikmadir. Yaʼni, bunda birinchi soʻz ikkinchi soʻzga qarashli boʻladi. Bu oʻzbek tilidagi qaratqichli aniqlovchi va aniqlanmish birikmasiga togʻri keladi. Arab tilida “aniqlanmish” yoki “qaralmish” birinchi boʻlib keladi va “qaratqich aniqlovchi” yoki “qaratqich” ikkinchi boʻlib keladi va birinchi kelgan otni kimga yoki nimaga tegishliligini aniqlab beradi. Misol, كتاب الطالب oʻquvchining kitobi, طالب الجامعة universitetning talabasi.

Oʻzbek tilida boʻlsa “qaratqich” birinchi keladi “qaralmish” esa undan keladi.

Tuzulishi : qaratqich (الطالب oʻquvchining) + qaralmish (كتاب kitobi)

Arab va o‘zbek tillarida ham bu birikma egalikka oid, tuzulishi ham o‘xshashdi: kimning yoki nimaning narsasi ?

1. Arabchada: muzof (مُضَافٌ) + muzof ilayhi

2. O‘zbekchada: qaralmish + qaratqich

Lekin arab tilidagi izofa (إِضَافَةٌ) va o‘zbek tilidagi qaratqichli birikma ma’nodosh va funksiyada o‘xshash bo‘lsada, morfologik belgilari, so‘z tartibi, grammatik qurilishi jihatidan turlichadir. Muzof (مُضَافٌ) ga egalik qo‘shimchasi qo‘shilmaydi, o‘zbek tilidagi qaralmish ko‘pincha egalik qo‘shimchasini oladi. Arab tilida muzof (مُضَافٌ) va muzof ilayhi ajratuvchisiz yonma - yon keladi, o‘zbek tilida bo‘lsa so‘z tartibi moslashuvchan ya’ni oraga so‘z qo‘yish mumkin.

Izofa (إِضَافَةٌ) tushunchasi va uning tuzilishi.

Arab tilida izofa ikki tarkibiy qismdan tashkil topadi:

1. Muzof (مُضَافٌ) - qaratilgan narsa

2. Muzof ilayhi – qaratayotgan narsa (kimning? nimaning?)

Arab tilida bu birikmani qurishda muhim jihatlari:

Muzof – izofaning birinchi bo‘lagi mudofun ilayhidan oldin kelib, asosan, ال (alif va lom) aniqlik artiklini va tanvin qabul qilmaydi. Shuningdek, kelishikda gapdagi o‘rniga qarab o‘zgaradi.

Muzofun ilayhi gapdagi holatiga qarab ال artiklini qabul qilishi va qilmasligi ham mumkin va u har doim jarr holatida ya’ni qaratqich kelishigida bo‘ladi. Muzof (مُضَافٌ) ning aniq – noaniqligi muzofun ilayhiga bog‘liq bo‘ladi. Shu holatga ko‘ra agar muzof ilayhi aniq bo‘lsa muzof ham aniq, agar muzof ilayhi nonaniq bo‘lsa muzof ham noaniq boladi. Muzof (مُضَافٌ) gapdagi ma’nosiga qarab bosh, tushum, qaratqich kelishiklaridan birida kelishi mumkin, lekin muzof ilayhi har doim qaratqich kelishigida bo‘ladi.

Izofa birikmasi ega yoki kesim sifatida, so‘roq gaplarda ham kelishi mumkin.

Arab tilidagi izofa birikmasi tilning sintaktik tizimida muhim o‘rin tutadigan, otlar o‘rtasidagi egalik munosabatlarini ifodalashning eng sodda va samarali shaklidir. U mudof va mudof ilayhdan tashkil topib, o‘zining qat’iy tartibi, morfologik belgilarining o‘zgarmasligi va ajralmasligi bilan ajralib turadi. Izofaning to‘g‘ri tushunilishi arab tilidagi matn mazmunini aniq anglash va so‘z birikmalarini to‘g‘ri tuzishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun izofa tuzilishini puxta o‘rganish arab tilini mukammal egallashning muhim bosqichlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibrohimov N., Yusupov M., Oripov A. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – Toshkent, 2024.

2. Mirqobil Hasanov, Muborak Abzalova. Arab tili darslari o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent – 2006
3. Orifxo‘jayev N. Arab tili. – Toshkent, 2009.
4. Xifniy Nosif. Al-durus al-nahviyya. Al-Kitab al-awwal. – Iskandariyya, 2007.
5. Иброҳимов Н., Орипов А., Икромжонов А., Зайриев А. ал-Қомус ўзбекча-арабча қомусий луғат. 1-4-жилд. – Тошкент, 2017-2020.

ARAB TILIDA “BADAL” VA UNING ARAB MANBALARIDA IFODALANISHI

*Botirova Dildora
Oriental universiteti,
Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili)
AF 302-guruh talabasi*

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasida katta o‘qituvchisi F.Yakubova

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilida “badal” hodisasining grammatik tabiati, uning turlari, sintaktik funksiyalari va xususiyatlari hamda boshqa grammatik birliklardan farqlari yoritiladi. Badal arab tilining an’anaviy nahv tizimida muhim sintaktik birliklardan biri bo‘lib, matnning aniqligi, tushunarligi va mantiqiy izchilligini ta’minlovchi vosita sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: badal, mubdal minh, nahv, sintaktik birliklar, sinonimik birliklar, izohlovchi, shaxsiy olmosh, matbu’, ergash so‘z, vositachi unsur, ma’tuf, o‘rinbosar appozitsiya, shakl, predmet, ot, semantic aniqlik, atf, grammatik hodisa.

Annotation. In this article, the grammatical nature of the phenomenon of badal in the Arabic language, its types, syntactic functions and features, as well as its differences from other grammatical units are discussed. Badal is one of the important syntactic units in the traditional Arabic grammar system. It is regarded as a tool that ensures the clarity, comprehensibility.

Keywords: badal, mubdal minhu, nahw, syntactic units, synonymous units, explicative element, personal pronoun, matbu’, subordinate word, intermediary element, ma’tuf, substitutive apposition, form, object, noun, semantic clarity, ‘atf, grammatical phenomenon.

Arab tili nahv tizimi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, unda gap bo‘laklari o‘rtasidagi munosabatlar aniqlik bilan belgilangan. Shulardan biri — badal (بدل) hodisasidir. Badal sintaktik nuqtai nazardan bir ismning boshqa bir ism o‘rnida kelishi, uni izohlashi yoki muayyanlashtirishi orqali gap ma’nosini aniqlashtiruvchi birlikdir. Uning zaruriyati arab tilida sinonimik, ko‘p ma’noli yoki umumiy ma’noli

birliklarning aniqlashtirilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Arab tili sintaksisida “بدل” (izohlovchi) jumla tuzilishida muhim o‘rin tutadigan grammatik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Izohlovchi aniqlovchining bir turi bo‘lib, otga boshqa bir nom berish bilan uni aniqlab keladi. Badal mo‘ljal qilingan so‘z “مبدل منه” (mubdal minh)dan keyin kelib, uning ma’nosini aniqlovchi, izohlovchi, tushuntiruvchi yoki o‘z o‘rnida almashtiruvchi unsur sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan badal jumla ma’nosini ravshanlashtirish, fikrni mukammal yetkazish va nutqda aniqlikni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Arab tili manbalarida badalning bir nechta turlari keng tahlil qilingan bo‘lib, ularning har biri jumla tuzilishi va ma’no qurilishida alohida vazifa bajaradi. Ushbu maqolada badalning nazariy asoslari, turlari va ularning arab adabiy va ilmiy matnlaridagi qo‘llanish xususiyatlari yoritiladi. Arab tilida “Badal” so‘zi “bir narsaning o‘rniga keluvchi”, “almashinuv” ma’nosini bildiradi.

Muhammad Ali Afshiyning “Ma’yinu-t-tulab fi qova’idi-n- nahvi va-l- i’rob” kitobida badal mavzusi “التوابع” (ergashuvchilar) qatoridan joy olgan. Olim “التوابع” atamasiga quyidagicha ta’rif beradi:

التابع اسم يشارك الاسم "لا متبوع قبله في الحركات الإعرابية، الرفع، والنصب، والجر، والجزم" ، و .
التوابع أربعة: والنعت ، و العطف، و البدل، و التوكيد

- o‘zidan oldingi so‘zga (matbu’) ergashuvchi ism bo‘lib, u bilan i’rob belgilarida (raf’, nasb, jarr, jazm) mos keladi va to‘rt ta turini sanab o‘tadi:

badalga esa ushbu ta’rif bilan yondoshadi :
هو الاسم التابع لما قبله مقصودا بالحكم الذي يفهم من الكلام. مثل: جاء خالد أبو سعيد. فأبو سعيد بدل من الاسم خالد و هو مقصود بالحك

-Badal o‘zidan oldin kelgan ismga tobe bo‘lgan va nutqdan tushunilgan hukmda asosiy maqsad qilib nazarda tutilgan ismdir va ushbu misol bilan yoritib beradi:

Xolid keldi Sa’idning otasi. - جاء خالد أبو سعيد

Said bu yerda Xolid ismidan keyin kelgan badal bo‘lib, hukm aynan shuga qaratiladi. Olim shuningdek badani uch turini e’tirof etadi va har birini izohlab boradi.

Badal mutabiq (البدل المطابق) butunning butun bilan almashtirilish (بدل الكل من كل) (Bu turdagi البدل o‘zidan oldingi ism bilan mazmunan to‘liq bir xil bo‘ladi va unga teng hisoblanadi. Shu sababli, badal asl ismning ma’nosini to‘liq aks ettiradi:

U’mar keldi Hafsaning otasi - جاء عمر أبو حفصة

Bu yerda عمر so‘zi so‘zining badali hisoblanadi. Mazmun jihatdan bu badal asl ism bilan butunlay bir xil shu sababli, agar (عمر) ni olib tashlasak ham, jumlaning umumiy mazmuni o‘zgarmaydi deb izoh beradi. بدل البعض (Badal ba’dh min al-kul) yoki butunning bir qismi bilan almashtirilishi degani.

هو ما كان البديل فيه جزءاً من البديل منه أو بعضاً منه، مثل: أكلت الرغيف نصفه، فنصفه بدل من الرغيف لأنه جزء منه. في هذا النوع يجب أن يشتمل البديل على ضمير يعود إلى المبدل منه، فالهاء في (نصفه) ضمير يعود على الرغيف.

Bu turdagi badal birinchi ismning faqat bir qismi yoki tarkibiy elementi bilan ifodalanadi ya'ni, badal asl ismning bir qismi sifatda keladi, lekin uning mazmunini to'liq qamrab olmaydi deb tushuntiradi. *نصفه — الرغيف* misolida *أكلت الرغيف نصفه* ning bir qismi bo'lib, badal sifatida ishlatilgan. Shu sababli, mazmun jihatdan *نصفه* asl ismning bir qismini bildiradi degan va e'tibor beriladigan jihat deb bu turdagi badalda odatda shaxsiy olmosh (ضمير) bo'ladi, u asl ismga ishora qiladi (*هو / هـ* *نصفه*) bu olmosh *الرغيف* ga ishora qiladi va uning o'rnini bosadi deydi.

البديل الاشتمال و هو ما كان فيه البديل شيئاً من المبدل منه و مشتملاً عليه، مثل: أعجبنى الطالب ذكاؤه. فذكاؤه ليس جزءاً من الطالب، و لانه من الصفات الني يتص بها و مشتملة عليه و في هذا البديل أيضاً يجب أن يربط بضمير يعود على المبدل منه.

البديل الاشتمال (badal al-ishtimāl) tarkib bilan almashtirilishi deb birinchi ismning ma'lum bir jihati yoki sifati bilan almashtiriladi ya'ni, badal asl ismning tarkibiy yoki xususiyat jihatidan unga bog'liq bo'ladi, lekin u asl ismning bevosita qismi emas deb ta'riflaydi va *أعجبنى الطالب ذكاؤه* bu yerda *الطالب* ning xususiyati sifatida ishlatilgan badal, aniqrog'i *ذكاؤه* asl ismning bevosita qismi emas, lekin uning sifati va tarkibi bilan bog'langan deydi. Bu turdagi badalda ham odatda shaxsiy olmosh (ضمير) ishlatiladi, u asl ismga ishora qiladi. *هو (ذكاؤه)* bu olmosh *الطالب* ga ishora qiladi va mazmunan unga bog'langan.

Shayh Mustafo -al- G'olayayniy esa uzining “Ja mi'u ad Durusu al Arobiyata” kitobida badal mavzusiga quyidagicha yondoshgan *بديل هو التابع المقصود بالحكم بلا واسطة بينه وبين متبوعه نحو: "واضع النحو الإمام عليّ". فعليّ - تابع للإمام في إعرابه. و هو مقصود بحكم نسبة وضع النحو إليه. و الإمام إنما ذكر توطئة و تمهيداً له، ليستفاد بمجموعهما فضلُ توكيد و بيان، لا يكون فيه ذكر أحدهما دون الآخر. فالإمام غير مقصود بالذات، لأنك لو حذفته لا ستقل "عليّ" بالذكر منفرداً، فلو قلت: "واضع النحو عليّ" كان كلاماً مستقياً. و لا واسطة بين التابع والمتبوع. أما إن كان التابع مقصوداً بالحكم، بالواسطة حرف من أحروف العطف، فلا يكون بدلاً بل هو معطوف، نحو: "جاء عليّ و خالد"*

Badalni o'zidan oldingi so'zga (matbu'ga) o'zaro vositasiz bog'langan holda, hukm aynan o'ziga qaratilgan ergash so'z turidir deb, "واضع النحو الإمام عليّ" ("Nahv ilmining qo'yuvchisi — imom Ali"), bu jumlada Ali so'zi "imom" so'zigai'rob jihatidan ergashgan, biroq hukm aynan Ali shaxsiga tegishli, "Imom" esa faqatgina Ali haqida xabar berish uchun kiritilgan kirish so'z bo'lib, ikkalasi birgalikda ma'noni ta'kidlaydi va ravshanlashtiradi. Ularning birini aytib, boshqasini tark etish maqsadga muvofiq bo'lmaydi degan. Shu sababli, "imom" so'zi asl maqsad bo'lgan shaxs emas, chunki agar uni olib tashlasak ham, "Alī nahv ilmini qo'yuvchidir" degan mazmun

mustaqil tarzda to‘liq tushunilaveradi: "واضع النحو عليّ". Demak, bu yerda badal bilan matbu’ o‘rtasida hech qanday vasitachi unsur yo‘q deb ta’kidlaydi va agar hukm ergash so‘zga vosita orqali, ya’ni atf harflari orqali bog‘langan bo‘lsa, u holda bunday so‘z badal emas, balki ma’tuf sanaladi "جاء علي و خالد" ("Ali va Xolid keldi") deb shu misolni keltiradi. Olim badalni to‘rt turini e’tirof etadi va ulardan birini yana bir necha turlarga ajratadi:

البدال المطابق (و يسمى أيضاً بديل الكل من الكل)، وبديل البعض من الكل، و بديل الإشتمال، و البديل المباين . البديل المطابق (و يسمى أيضاً بديل الكل من الكل)، وبديل البعض من الكل، بديل الإشتمال، و البديل المباين .

Badal to‘rt turga bo‘linadi: badal mutabiq (shuningdek badal al-kull min al-kull deb ham ataladi), badal al-ba’d min al-kull, badal al-ishtimol, va badal al-mubāyan. Shuningdek bu turlarni quyidagicha izohlab o‘tadi: فالبدال المطابق هو بديل الشيء . badal mutabiq o‘zidan oldingi so‘zning ma’nosiga to‘la mos kelgan holatdir. و بديل البعض من الكل هو بديل الجزء من كله، قليلاً كان ذلك الجزء، أو . kabi. جاء أخوك زي . badal al-ba’d min al-kull deb butunning bir qismi badal qilingan holati va bu qism oz bo‘lishi, yarmiga teng bo‘lishi yoki yarimdan ko‘p bo‘lishi mumkin,

بدال الإشتمال هو بديل الشيء مما يشتمل عليها على شرط أن لا يكون جزءاً منه، نحو: نفعني المعلم علمه فالمعلم يشتمل على العلم « جاءت القبيلة ربعها أو نصفها أو ثلثها » shu misoldagi kabi.

Badal al-ishtimol o‘zidan oldingi so‘zning bir qismi bo‘lmagan, ammo u bilan bog‘liq, o‘sha so‘z o‘z ichiga ichiga oladigan ma’nolar badali degan fikrini shu misolda ko‘rsatadi «نفعني المعلم علمه» bu yerda muallim o‘z ichiga ilmini oladi, ammo ilm muallimning jismi qismi emas deydi. Qo‘shimcha ravishda لا بد لبديل البعض و بدل badal al-ba’d va badal al-ishtimol holatlarida badalni matbu’ga bog‘laydigan zamir bo‘lishi shart deydi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek muallif badalni bir turi bir necha qismlardga bo‘ladi:

البدال المباين هو بديل الشيء يباينه بحيث يكون مطابقاً له، و لا بعضاً منه، و لا يكو المبدال منه مشتملاً عليه. و هو ثلاثة أنواع: بديل الغلط، و بديل النسيان، و بديل لاضر. فبديل الغلط: ما ذكر ليكون بدلاً ما ذكر ليكون بدلاً من اللفظ الذي سبق إليه اللسان، فذكر غلطاً، نحو: "جاء المعلم، التلميذ"، أردت أن تذكر التلميذ، فسبق لسانك، فذكرت المعلم غلطاً، فتذكرت غلطك، فأبدلت منه التلميذ بديل النسيان ما ذكر ليكون بدلاً من لفظ تبين لك بعد ذكره فساد قصده، نحو: "سافر ر عليّ إلى دمشق، بعلبك"، توهمت أنه سافر إلى دمشق، فأدركك فساد رأيك، فأبدلت بعلبك من دمشق بديل الاضرب: ما كان في جملة، قصد كل من البديل و المبدال منه فيها صحيح، غير أن المتكلم عدل عن قصد المبدال منه إلى قصد البديل، نحو "خذ القلم، الورقة"، أمرته بأخذ القلم، ثم أضربت عن الأمر بأخذه إلى أمره بأخذ الورقة، و جعلت الأول في حكم المتروك

Olimning ta’rifiga ko‘ra mubāyin badal o‘zidan oldingi so‘z (mubdal minhu) bilan butunlay farq qiladigan badaldir, u na mubdal minhuga to‘la mos keladi, na uning bir qismidir, na o‘zidan oldingi so‘zning mazmuniga kiradi va u uch xil bo‘ladi: badal al-g‘alat, badal an-nisyān va badal al-idrāb deb har biriga alohida to‘htalib o‘tadi

بدل الغلط يتعلق باللسان، و بدل النسيان يتعلق بالجنان. يبدل كل من الاسم، والفعل، والجملة. زادت الدراسات الحديثة تحليلها لهذه الظاهرة

Badal al-g‘alat til xatosi tufayli avval noto‘g‘ri aytilgan so‘zni keyin to‘g‘ri so‘z bilan almashtirish uchun qo‘llanadi" التلميذ، المعلم، جاء المعلم، "kabi aslida "tilmizni" aytmoqchi bo‘lsangiz-da, til adashib ”muallim” so‘zini chiqargan bo‘ladi deydi, badal an-nisyān esa aytilgan so‘zning noto‘g‘ri maqsadga xizmat qilgani keyin ma’lum bo‘lganda uni almashtirishda ishlatiladi.

"سافر عليّ إلى دمشق، بعلبك" — avval Damashq deb o‘ylab aytiladi, keyin to‘g‘ri ma’no anglab yetilgach, Baalbak badal qilinadi, so‘z ham to‘g‘ri bo‘lsa-da, so‘zlovchi birinchi maqsaddan voz kechib, e’tiborni ikkinchisiga qaratgan holatdir" الورقة، القلم، "خذ القلم، الورقة" — avval "qalamni ol" deyiladi, keyin bu buyruqdan qaytib, "varaqni ol" ga o‘tiladi. Badal al-g‘alat — til xatosiga, badal an-nisyān — xotira xatosiga bog‘liq bo‘ladi deb tahlil qiladi muallif.

B.M.Grande "Qiyosiy-tarixiy yoritilishdagi arab grammatikasi kursi" kitobining §182 paragrafida badal bu o‘rinbosar appozitsiya (البدل) — bu bir otning yoniga qo‘shilib, uni ma’no jihatidan o‘rnini bosuvchi va uning o‘rnida keluvchi ot shaklidir deb ta’riflangan va quyidagicha tasniflangan: to‘liq o‘rin almashtirish (الكل من الكل "butunning butun bilan almashtirilishi"). Bu turda bir ot to‘liq ma’noda boshqa ot bilan almashtiriladi, ikkinchi ot birinchi ot bilan mazmun jihatdan aynan teng bo‘ladi "جاءني عمرو وأخوك" Menga Amr keldi, ya’ni — sening ukan" misolida ikkinchi ot birinchisini to‘liq tarzda almashtirib, uning mazmunini o‘zida qayta ifodalaydi deb qayd qilib ketadi. Qisman o‘rin almashtirish (البدل من البعض "butunning bir qismi bilan almashtirilishi"). Bu turdagi badalda ikkinchi ot birinchi otning qismini, unga tegishli bo‘lgan bir bo‘lagini yoki unsurini ko‘rsatadi, ya’ni, birinchi ot bildirgan predmetga amal to‘liq emas, balki qisman tatbiq qilinadi. (أكلت الرغيف نصفه (men kulchani yedim — uning yarmini) جاءني القوم بعضهم (menga odamlar keldi — ularning bir qismi); ضربت زيداً رأسه (men Zaydni urdim — uning boshini (ya’ni boshiga urdim). Bu misollardagi ikkinchi ot (نصفه، بعضهم، رأسه) birinchi otning bir qismi yoki tarkibiy bo‘lagi sifatida keladi deydi. Qo‘shma tarkibli o‘rinbosar (البدل الإشتimal) bu turdagi badalda asosiy ot bilan mazmun jihatidan doimiy tarzda bog‘liq bo‘lgan biror belgini, xususiyatni yoki unga xos bo‘lgan tarkibiy unsur—ni ifodalovchi ot qo‘shiladi. Ushbu qo‘shimcha mazmunni chegaralaydi yoki aniqlashtiradi deb e’tirof etadi muallif (سلب عمرو ثوبه). (Zayd meni uning go‘zalligi bilan hayratga soldi). (Zayd meni uning go‘zalligi bilan hayratga soldi). (Zayd meni uning go‘zalligi bilan hayratga soldi). (Zayd meni uning go‘zalligi bilan hayratga soldi). (Amr talandi, uning kiyimi tortib olindi) kabi misollar keltiradi. Bu holatda, avvalgi turdagi badal singari, qo‘shilayotgan unsurga shaxs olmoshi qo‘shiladi. Ushbu olmosh o‘rnini bosayotgan otga ishora qiladi. Arab grammatiklari ta’kidlaydilarki, ushbu oxirgi turdagi badal shunday bo‘lishi zarurki, uning ma’nosi ravshan bo‘lsin va mazmun

jihatdan kulgili yoki mantiqsiz bo‘lgan ifoda yuzaga kelmasin deb quyidagi jumlaning $\text{سَرَجْتُ زَيْدًا فَرَسَهُ}$ agar maqsad “Men Zaydning otini egarladim” bo‘lsa, jumla mantiqan “Men Zaydni, uning otini egarladim” mazmuniga kelib qoladi, bu esa grammatik va semantik jihatdan noto‘g‘ri hisoblanadi. Xato o‘rnini to‘ldiruvchi o‘rinbosar qo‘shimcha (بَدَلُ الْعَلْطِ) nutqda avval xato aytilgan so‘zdan so‘ng uni to‘g‘rilab beruvchi otning kiritilishi orqali yuzaga keladi va bu shakl so‘zlovchining og‘zaki xatosini darhol tuzatishiga xizmat qiladi. $\text{مَرَرْتُ بِرَجُلٍ حِمَارٍ}$ Men bir odamning yonidan o‘tdim — (ya’ni) eshakning yonidan misolidagi kabi. Bu yerda so‘zlovchi avval رَجُلٍ (odam) deb xato aytgan, so‘ng حِمَارٍ (eshak) orqali xatoni to‘g‘rilagan.

Yuqorida keltirilgan izohlarni muloxaza qiladigan bo‘lsak, badalning sintaktik xususiyatlarini i‘robda mosligi va bog‘lovchining ishtirok etmasligi hamda badal gapning semantic aniqligini kichaytitishi, ayniqsa ko‘p ma’noli so‘zlar ishlatilganda. Shuningdek ko‘plab holatlarda badal o‘rnida appozitsiya ham kelishi mumkin, albatta i‘rob mosligidan farq qillib turgan xolda deb ayta olamiz.

Badalning boshqa grammatik hodisalardan farqi Atf bayonda (عطف البيان) ikkinchi so‘z birinchi so‘zga izoh beradi, lekin har doim ham o‘rnini bosa olmaydi. Badal esa mubdal minhuni to‘liq almashtirishi mumkin.

Tavzif (sifatlash) sifat otning belgisi, xususiyatini bildiradi, badal esa aniqlashtiruvchi yoki almashtiruvchi bo‘lak bo‘lib, sifatdan ko‘ra mustaqilroq birlik hisoblanadi. Badal va tawqīd (ta’kid) farqi, tawqīd ma’noni kuchaytiradi, qo‘shimcha ma’no bermaydi. Badal esa ma’noga yangi aniqlik kiritadi. Badalning uslubiy va semantik ahamiyati haqida shunday xulosa qilishimiz mumkinki, badal matn semantikasini aniqroq qiladi; ma’lumotni bosqichma-bosqich ochishi, ayniqsa, ilmiy va badiiy matnlarda sub’ekt yoki obyekt haqida qo‘shimcha ma’lumot berish uchun ishlatiladi; maqsadli urg‘uda so‘zlovchi muayyan unsurga e’tibor qaratmoqchi bo‘lganda badaldan foydalanadi; og‘zaki nutqdagi xatoni to‘g‘irlash uchun badal al-g‘alat tabiiy nutqning muhim elementi hisoblanadi. Badal hodisasi arab tili sintaksisida muhim o‘rin egallaydi. U gap bo‘laklari o‘rtasidagi semantik va sintaktik munosabatlarni izohlaydi, nutqning mantiqiy va grammatik yaxlitligini ta’minlaydi. Badal turlari orqali matnda izoh, aniqlik, ta’kid va o‘rin almashtirish kabi funksiyalar bajariladi. Shuningdek, badalning tavzif, atf bayon va tawqīd kabi hodisalardan farqlanishi arab tilining nozik grammatik tuzilishini chuqur anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Б. М. Гранде “Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении” Москва издательство «Восточная литература» РАН 2001
2. N.Ibrohimov, M. Yusupov “Arab tili grammatikasi” Namangan-2009 ISBN 978-9943-344-73=0

3. Nosirova M. Tilshunoslik bilimlari tarixi (arab tilshunosligi)-T.:Seemurg‘ media,2011.

4. Girgas V.”Ocherk grammaticheskoy sistemi arabov” SPb.,1873.

5. محمد علي عفش "معين الطلاب في قواعد النحو و العرب" إجازة في اللغة العربية و آدابها. دار الشرق العربية بيروت - لبنان ص. ب ١١/٦٩١٨ حلب - سورية - ص. ب منشورا العصرية صيدا - بيروت ص. ب: ٨٣٥٥ الشيخ مصطفى الغلاييني " جامع الدروس العربية 6".

ARAB TILI GRAMMATIKASI TARIXIDA SIBAVAYHNING O‘RNI

Murshida Lutfullayeva Anvar qizi,

Oriental universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) yo‘nalishi

AF305-guruh talabasi

murshidalutfullaeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasida dotsenti v.b. S.Sotvoldiyev

Annotatsiya. Mazkur maqola arab tili dunyosida, ta’limida juda katta ahamiyatga ega, asl fors bo‘lgan Sibavayh laqabli arabshunos bayoniga bag‘ishlangan. Unda hurmat va e’tiborga sazovor bo‘lgan Abu Bishr Amr Ibn Usman al-Basriy ismli arabshunosning asl kimligi, arab tiliga kelishligi, kitobi haqidagi mavzular ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada bugungi kungacha yetib kelgan Basraning buyuk olimining me’rosining ahamiyati haqida gap yuritilgan.

Kalit so‘zlar: arabshunos, Sibavah, ta’lifot, kitob, me’ros, nahv, Basra, Kufa.

Abstract. This article is dedicated to the statement of the Arab scholar nicknamed Sibawayh, who is of great importance in the world of the Arabic language and education, and who was originally Persian. It examines the true identity of the respected and noted Arab scholar Abu Bishr Amr ibn Uthman al-Basri, his knowledge of the Arabic language and his book. The article also discusses the importance of the legacy of the great scholar of Basra, which has survived to this day.

Key words: Arabic scholar, Sibawayh, translation, book, legacy, nahv, Basra, Kufa.

Arab tilshunosligining yetakchi jihati, ehtimol, fonetika yoki grammatika emas, balki leksikologiyadir va uning nazariyasi Basrada paydo bo‘lgan. VIII asrda Basra maktabi vakillari arab adabiy tilining grammatik tuzilishi, birinchi o‘rinda uning sintaksisi haqida ko‘plab qiziqarli kuzatuvlar olib borishgan.

Aksari filologlarning ishi shu davrga borib taqaladi, ulardan biri Abu Bishr Amr Ibn Usman ibn Qanbar al-Basriy – Basraning yetuk, ko‘zga ko‘ringan olimlaridan bo‘lib, arab tili ilmlaridan bo‘lmish nahvga (sintaksis) taaluqli ilk chuqur bayonli, o‘z ichiga barcha qoidalarni qamrab olgan kitob asoschisidir. Tarixda bu olim Sibavayh nomi bilan tanilgan. Arab filologlar bu ismni fors tilidagi “سيب بو” so‘zidan olib “olmaning hidi” deb tarjima qilishgan. Abu Bishr Amr ibn Usmaning tug‘ilish va vafot etish sanasi aniq emas, lekin tahminan 765-yilda, E‘ronning Bayda rayonida tavallud topgan.

Avvalida Sibavayh hadis va fiqh ta‘limi bilan shug‘ullanar edi, lekin bir kuni uning hadis ustozlari Hammod talabalar orasida xatosini to‘g‘rilagunicha. Shundan so‘ng u o‘ziga boshqa hech xato qilmaslikka va‘da berib, arab tili ilmlarini o‘rganish uchun Basraga ketadi. U yerda o‘sha vaqtning ko‘zga ko‘ringan olimi, sof arab bo‘lgan, Halil ibn Ahmaddan uzoq vaqt davomida grammatikadan dars oladi. Shu qatori Sibavayh boshqa bir nechta ustozlarini o‘z kitobi bo‘lmish “الكتاب” da zikr etadi, ulardan:

Abdulloh ibn Zayd abu Is‘haq ibn al-Xaris;

Isa ibn Umar as-Saqafi al-Basriy;

Abu Amr ibn al-‘Ala;

Abd al-Hamid ibn Abd al-Majid abu-l-Xattob;

Abu Abd ar-Rohman Yunus ibn Habib ad-Dabbi.

Bu kabi olimlardan arab tili grammatikasi va boshqa ilmlar bo‘yicha ta‘lim olgandan so‘ng, Basrada katta mashhurlikka ega “الكتاب” kitobini yozdi. Bu kitob arab tili grammatikasi sohasida bizgacha yetib kelgan, ilk eng tartibli tuzilgan kitob hisoblanadi. “Al-Kitab” deb nomlanishining sababi – muallif aniq bir nom qo‘ymaganidadir. Kelajakda u arab tili olamida katta obroga sazovor bo‘lib, bu kitobga “Grammatika Qur‘oni” deb ham nom qo‘yildi.

Arab tili rivojlanish davrida arab grammatistlar bu kitobni eng oliy epitetslar bilan arab tilshunosligiga asos o‘laroq madh etishar edi. Mashhur grammatist as-Sirafi o‘zining “Axbar an-nahviyyin al-basriyyin” kitobida “al-Kitab” haqida shunday yozadi: “U (Sibavayh) shunday bir kitob yozdiki, undan oldin hech kim yozmagan va unga hech kim hech narsa qo‘shmagan”. Bundanda yorqin “al-Kitab”ni tasvirlagan al-Mubarrad, “al-Kitab”ning mashhur tarjimoni shunday deydi: “Shu vaqtgacha hech qaysi ilmda Sibavayhning “al-Kitab”i kabi kitob yozilmadi, chunki qachon ma‘lum bir fan bo‘yicha kitoblar tuzilgan bo‘lsa, ular bir-biriga muhtojdir. Ammo Sibavayhning “kitobi” o‘z ichiga sohasining barchasini qamrab oladi”. Shuningdek, ba‘zilar o‘z fanini butunlay qamrab olgan uchta quyidagi kitobni sanashadi: birinchisi – Ptolemeyning astronomiya sohasidagi “Almagest” kitobi, ikkinchisi – Aristotelning mantiq sohasidagi kitobi, uchinchisi – Sibavayhning arab tili grammatikasi sohasidagi

“al-Kitab” kitobi. Bundan boshqa, katta ja’miyat tushunishi uchun soddalashtirilgan grammatik kitoblar yozilgan bo’lsa ham, aynan Sibavayhning “al-Kitab” kitobi haqiqiy arab tilining ensiklopediyasi hisoblanadi.

O‘zining yozmasida Sibavayh so‘z turkumlari - ism, fe‘l, bog‘lovchilarni – ko‘rib chiqadi, ularning sintaktik vazifalarini tushuntiradi. So‘ng u morfologiyaga o‘tadi, morfologik o‘zgarishlar, fonetik hodisalarni o‘rganadi. Arab tiliga oid grammatik kitoblar yozilgandan so‘ng, arab tilining madaniy merosni saqlashdagi ahamiyati terminologiyani yaratish orqali namoyon bo‘ldi: kelishiklar tushunchasini (إعراب), gap turlari tushunchasini (الجملة الفعلية والجملة الاسمية) kiritish orqali. “Al-Kitab”dagi grammatik qoidalar islomgacha bo‘lgan she’riyat va Qur’ondan ko‘plab misollar bilan tasvirlanib, kitob tili ham badaviy, shoirlarning “eng toza” tilida yozilgandir. Shuningdek, muallif o‘zining grammatik takliflarini grammatist olimlarning avvalgi ishlari bilan taqqoslaydi.

Biroq, bu kitob doim muhim filologik mehnat kabi ko‘rilsa ham, murakkabligi va oddiy o‘quvchi uchun og‘irligi tufayli u ommaviy darslarda ishlatilmay, nazariyada qo‘llanilgan. Hamda undan, asosan, keyingi filolog olimlar ma’lum bob va masalalarni takomillashtirish, aniqlash, sharhlash uchun foydalanishdi. Grammatik tuzilmalar soddalashtirilib, ajnabiylar tiliga yengilroq moslashishiga olib keldi. Bu yerda sanab o‘tilgan va o‘tilmagan, Basra va Kufa grammatika maktablarining yetakchilarining ahamiyatini ta’kidlash mumkin.

Hozirgi kunimizga qadar “al-Kitab”ning bir nechta tillarga tarjimalari bor: ilk to‘liq bosma nashri 1881-1889 yillarda Parijda, Xartvig Derenburg tahriri ostida chop etilgan. 1898-1900 yillarda Qohiradagi Buluq bosmaxonasida risolaning arab Sharqidagi eng mashhur nashrlardan biri nashr etilgan. Ushbu nashr xuddi shu 18-asrdagi Parij qo‘lyozmasi asosida yaratilgan. Traktatning eng nufuzli bosma nashrlari qatoriga Muhammad Xarun tahriri ostidagi, Qohirada 1967-1968 yillarda chop etilgan nashri kiradi.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, barchaga shijoati, ilmi ila o‘rnak bo‘la oladigan, asl fors bo‘lgan arabshunosning bu mehnati arab tili rivojiga katta hissa qo‘shgan. Sibavayhning “al-Kitab” kitobida arab tili grammatikasida uchratish mumkin bo‘lgan barcha masalalarga yechim topish mumkin. Shuningdek, bu kitob arab tili grammatikasining yozma tamal toshidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Агаева Н. А. (1990). Азербайджанские языковеды средневековья. Издательство “ЭЛМ”.
2. Таирова, А. Ш. (2024). Эволюция арабской грамматики от классического до современного. Чыгыш таануунун маселелери, (2), 42-45.

<https://cyberleninka.ru/article/n/evolyutsiya-arabskoj-grammatiki-ot-klassicheskogo-do-sovremennogo/viewer>

3. Чупрыгина, Л. Л. (2020). Сравнительный анализ изданий “Аль-Китаб” (الكتاب, “Книга”) Сибавейхи (по материалам Предисловия к каирскому изданию 1988 года). Труды Института востоковедения РАН, (27), 256-257. <https://publications.hse.ru/pubs/share/direct/362782563.pdf>

4. Звегинцев, В. А. (2007). История арабского языкознания. Издательство “КомКнига”.

JAR HARFLARINING MA’NOVIY VA GRAMMATIK VAZIFALARI

Ahmadjonova Fotima Anvarovna

Oriental universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) yo‘nalishi

1-kurs talabasi

fatimaakhmadjonova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasida stajyor-o‘qituvchisi

Fayziyev Shamsuddin Sadriddinovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidagi jar harflarining semantik va grammatik vazifalari, ma’no hosil qilishdagi o‘rni hamda gap bo‘laklari o‘rtasida aloqadorlikni shakllantirishdagi vazifalari ilmiy tahlil qilinadi va jar harflarining nahvda tutgan o‘rnini tizimli tarzda ochib berishga, ularning semantik maydonini aniqlashga, hamda jar harflarining ma’noni aniqlashtiruvchi, chegaralovchi va bog‘lovchi xususiyatlarini asoslanadi. Maqola klassik arab grammatikasining asosiy manbalari asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jar harflari, jar, majrur, ma’no munosabatlari, nahv, sintaktik aloqa, semantika.

Abstract. This article provides a scholarly analysis of the semantic and grammatical functions of the Arabic huruf al-jarr (particles of genitive), examining their role in meaning formation and in establishing relationships between sentence constituents. It aims to systematically elucidate the position of huruf al-jarr within Arabic syntax, to define their semantic field, and to substantiate their functions as meaning-specifying, delimiting, and connective elements. The article is based on the primary sources of classical Arabic grammar.

Keywords: prepositions, huruf al-jarr, jarr, majrur, semantic relations, syntax, syntactic linkage, semantic marking.

Arab tilidagi jar harflari nahv tizimida eng muhim grammatik birliklardan biri sifatida alohida o'rganiladi. Jar harflari, an'anaviy ta'rifga ko'ra, o'zidan keyin kelgan ismlarning e'robini o'zgartirib, ularni majrur holiga kiritadigan vositalardir. Biroq arab grammatikasida jar harflarining vazifasini faqat e'rob o'zgarishiga bog'lab qo'yilmagan. Aksincha, mazkur harflar ma'no beruvchi birliklar sifatida ko'riladi, jumladagi semantik munosabatlarni belgilovchi markaziy omil deb baholanadi.

Arab nahvshunosligida jar harflari “حُرُوفُ الْمَعَانِي” — ya'ni ma'no yuklovchi harflar deb ataladi. Har bir jar harfi o'ziga xos semantik maydonga ega bo'lib, gapning mazmuni va ta'sirchanligini belgilovchi asosiy vositalardan biridir.

Jar harflari faqat ismdan oldin kelib, ismga jarlik hukmini beradi. Fe'ldan oldin jar harflari kelmaydi, lekin, jar harfi orqali مَفْعُولٌ بِهِ ni ifodalovchi fe'llar mavjud. Jar harflari arab tilida beshta yirik qismga bo'linadi va ular quyidagicha:

1. Faqatgina zohir ismga ishlatiladigan jar harflari: رَبِّ، مُذْ، مُنْذُ، حَتَّى، الْكَافُ وَאו. Masalan: لم آكل شيئاً منذ الصباح الباكر - “erta tongdan beri hech narsa yemadim”.

2. Olmosh va zohir ismga birgalikda ishlatiladigan jar harflari: الْبَاءُ (بِ)، مِنْ، إِلَى، - “do'stim bilan kinoga bordim”

3. Ham harf, ham ism sifatida baholanuvchi harflar: مُنْذُ، عَنْ، عَلَى، مُنْذُ. Misol: أتحدث مع صديقتي عن التاريخ - “do'stim bilan tarix haqida gaplashaman” bu gapda harf ma'nosini ifodalamoqda. مدرستي بعيدة عن بيتي - “maktabim uyimdan uzoq” bu gapda esa ism ma'nosini ifodalamoqda.

4. Ham harf ham fe'l ma'nosini beruvchi jar harflari: خَلا، عَادَ، حَاشَا. Masalan: خلا زيد المكان خلا زيد - “u yerda Zayd yo'q” bu gapda harf ma'nosida, خلا زيد المكان بعد الدرس - “darsdan keyin Zayd bu yerni tark etdi” bu esa fe'l holatiga misol.

5. Faqatgina harfga xos bo'lgan jar harflari: الْبَاءُ (بِ)، الْكَافُ، وَاو، مِنْ، إِلَى، فِي، اللَّامُ، الْبَاءُ (بِ)، الْكَافُ، وَاو. Masalan: حقيقتي في الخزانة - “sumkam jovonning ichida”.

Bu harflarning asosiy vazifasi — o'zidan keyin kelgan ismni majrur holiga kiritishdir. Majrurlik holatda ohang jihatidan kasra bilan ifodalanadi (e'roblanadi). Ism majrur bo'lish alomatlari turlicha bo'lib ulardan biri ko'rinib turgan kasra. Ism, birlik holatida majrur bo'lganida ko'rinib turgan kasra, — “الكسرة الظاهرة” oladi yoki siniq ko'plikda, — “جمع التكرير”, yoki sog'lom munnas ko'plikda, — “جمع مؤنث سالم” kasra bilan jar bo'ladi. Bularga tartib bo'yicha misollar: اعجبتُ بالضيِّفِ “mehmonni hayron qoldirdim”, اعجبتُ بالضيِّوفِ “mehmonlarni hayron qoldirdim”, اعجبتُ بالضيِّفاتِ “mehmonlarni hayron qoldirdim”,

Bu grammatik o'zgarish gap bo'laklari o'rtasidagi munosabatni ko'rsatish uchun zarur bo'lgan belgilash tizimi hisoblanadi va jar harflari gapning ichki strukturasi aloqa ko'prigi vazifasini bajaradi. Jar harflarining eng ko'p foydalaniladiganlari soni grammatik manbalarda 17–20 atrofida ko'rsatiladi. Ularning eng asosiy harflari: بِ, لِ, مِنْ, إِلَى, فِي, عَلَى, عَنْ, كَ, حَتَّى. Har bir jar harfi o'zining asosiy ma'no markaziga ega.

Yana bir asosiy vazifalaridan biri — so'zlar orasidagi semantik aloqani aniqlash, fe'l va ism o'rtasida aniq ma'noni belgilashdir. Har bir jar harfi o'ziga xos ma'no olib keladi va gapdagi munosabatni ko'rsatadi. Jar harflari asosan ma'kon, zamon, sabab, maqsad, vosita, ta'kid kabi ko'plab ma'no munosabatlarini yaratadi. Bularga misollar: “soat” – أَتَنَاوَلُ الْغَدَاءَ فِي السَّاعَةِ الثَّانِيَةِ عَشْرَةَ, “cho'qqiga chiqdim” – صَعَدْتُ عَلَى الْقِمَّةِ – o'n ikkida tushlik qildim”, إِشْتَرَيْتُ الْمَاءَ لِأَشْرَبَ, “suvni ichish uchun sotib oldim”,

– الرَّسَالَةَ لِصَدِيقَتِي بِهَدَفِ الْإِقْتَاءِ مَعَهَا كَتَبْتُ – “men xatni do'stinga uchrashish maqsadida yozdim”, وَاللَّهِ لِأَعْمَلَنَّ جُهْدًا – “qalam bilan yozdim”, كَتَبْتُ بِالْقَلَمِ – “Allohga qasam, men albatta harakat qilaman”.

Jar harflari jumladagi ma'noni aniqlashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Jumlaning ma'nosi ko'pincha fe'l yoki ism emas, balki jar harfining tanlanishiga qarab aniqlanadi. Masalan: الْحَدِيقَةَ نَظَرْتُ إِلَى – “Men bog'ga qaradim” (yo'nalish bilan qarash), نَظَرْتُ فِي الْأَمْرِ – “Men masalaga (e'tibor bilan) boqdim” (ichki mazmunga kirib o'rganish). Bu yerda faqat jar harfi almashishi bilan ma'no butunlay o'zgardi. Shuning uchun jar harflari semantik yuklamasi eng aniq belgilar qatoriga kiritiladi.

Gapdagi ma'noni doiraviy toraytiradi, tushunchaning chegarasini belgilaydi. Ya'ni har bir jar harfi ma'noni “qayergacha?”, “nimadan boshlab?”, “nima doirasida?” kabi chegaralaydi. Masalan: سِرْتُ مِنَ الْبَيْتِ — boshlanish nuqtasini chegaralaydi – “uydan (boshlab) yurdim”, bu harakatning boshlanish chegarasi.

Gapda fe'l va ismni, yoki ikki ismni sintaktik jihatdan bog'lovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan: مَرَرْتُ بِصَدِيقِي – “do'stimning yonidan o'tdim”. Bu yerda marortu fe'li ب orqali ismga bog'lanadi. Ba'zi jar harflari jumla ma'nosiga ko'makchi bog'lovchi sifatida kiradi. Masalan: عَلَى الرَّغْمِ مِنْ – “shunga qaramay”. Bu holatda ular sintaktik emas, mazmuniy bog'lovchi vazifasida ishlatiladi.

Taqdir qilingan kasra biror bir jar harfidan so'ng kelgan oxiri illatli (معتل الآخر) ismlarda ifodalanadi. Ismning oxiri illatli bo'lganligi sababli kasra ko'rinmaydi va tarkibda biz uni taqdir qilingan kasra (الكسرة المقدرّة) deymiz. ushbu misolda عَجِبْتُ بِالْفَتَى (الكسرة المقدرّة) kalimasi ب jar harfi sababli majrur bo'lmoqda, uning jarlik alomati esa taqdir qilingan kasra (الكسرة المقدرّة)

Jar harflari ma'nosining fe'lga bog'lanishi “ta'alluq” deb ataladi. Ta'alluq — jar harfi bilan keyingi ism o'rtasidagi bog'lanish bo'lib, ushbu bog'lanish mazmuniy

jihatdan ham, ohang jihatidan ham qat'iy tartibga solingan. Masalan: مَرَرْتُ بالسُّوقِ – “Men bozorni oldidan o‘tdim”.

Bu yerda ب harfi ism bilan bevosita bog‘lanadi, ism esa majrur holga kiradi. Ushbu munosabat grammatik jihatdan mustahkam bo‘lib, harfni almashtirish mazmuni o‘zgartirib yuboradi.

Xulosa. Jar harflari arab tilining sintaktik tuzilishida markaziy o‘rin tutadi. Ular: ismni majrur holga kiritish orqali grammatik aloqani belgilaydi, gap bo‘laklari o‘rtasida aniq semantik munosabatlar yaratadi, ma‘noni aniqlashtiruvchi va chegaralovchi vazifani bajaradi, nahv tizimining semantik va sintaktik barqarorligini ta‘minlaydi. Shu sababli jar harflari arab tilidagi ma‘no yaratish tizimining eng nozik va eng faol qatlamlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sibavayh. Al-Kitab. Qohira: Dor al-Kutub al-Misriyya. Qohira 1988- yil 394-bet

2. Ibn Hisham al-Ansoriy. Mughni al-Labib ‘an Kutub al-A‘arib. Bayrut: Dor al-Fikr. 1964-yil 479-bet

3. Ibn Malik. Sharh at-Tashil. Dor al-Qalam al-‘Ilmiyya. Damashq 1997- yil 1207-bet

4. <https://mawdoo3.com/>

ARAB TILIDA ISM VA FE’L TURLARI YUZASIDAN KLASSIK TILSHUNOSLAR QARASHLARI

To‘xtamurodbekova Robiya Alisher qizi,

Oriental universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

robiya_2005@bk.ru

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasi dotsenti v.b. S.Sotvoldiyev

Annotatsiya. Maqolada arab tilida ism va fe’lning tuzilishi, ularning turlari hamda tasnif mezonlari tahlil etiladi. Arab tili flektiv tizimga ega bo‘lgani uchun undagi so‘z yasalishi va grammatik belgilar o‘zbek tilidagi holatlardan ko‘plab farqlar bilan ajraladi. Ism va fe’lning sahii, solim, mahmuz, muzo‘af, mu’tal kabi turlari izchil yoritilib, har bir guruhning belgisi va qo‘llanishi misollar orqali ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: ism, fe’l, sahii, solim, mahmuz, muzo‘af, mu’tal, ajvaf, noqis.

Abstract. The article examines the structure of nouns and verbs in the Arabic language and analyzes their main types and classification criteria. As Arabic is an

inflectional language, its morphological system differs considerably from that of Uzbek. The study explains the categories of *sahih*, *salim*, *mahmuz*, *muzaaf*, and *mu'tal* forms, illustrating their features and usage through relevant examples.

Keywords: noun, verb, *sahih*, *salim*, *mahmuz*, *muzaaf*, *mu'tal*, *ajwaf*, *naqis*.

Arab tili – dunyodagi eng qadimiy va murakkab grammatika tizimlaridan biriga ega bo'lgan til bo'lib, uning morfologik tuzilishi o'zbek tilidan sezilarli darajada farq qiladi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan arab tilidagi so'zlar uch asosiy turkumga bo'linadi: ism ('al-ism), fe'l ('al-fil) va harf ('al-harf). Ism va fe'l tilning morfologik va sintaktik asosini tashkil etadi, chunki ular so'zlarning ma'nosi va jumla ichidagi vazifasini belgilaydi.

Arab tilida ism va fe'lning turlari so'zning o'zak harflari va ularning holatiga qarab tasniflanadi. Bu tasniflashda *sahih*, *solim*, *mahmuz*, *muzo'af*, *mu'tal* kabi grammatik kategoriyalar qo'llaniladi. Har bir tur so'zning shakli, kelib chiqishi va qo'llanishida o'ziga xos qonuniyatlarga ega. Masalan, fe'llar uch va to'rt harfli o'zaklarga, ism esa uch, to'rt yoki besh harfli o'zaklarga bo'linadi. Arab tili flektiv xususiyatga ega bo'lgani sababli, undagi so'z yasalishi va shakllanishi o'zbek tilidagi mos shakllardan farqlanadi.

Maqola maqsadi – arab tilida ism va fe'l turlarini chuqur tahlil qilish, ularning tasnif mezonlarini aniqlash va misollar orqali tushuntirishdir. Shu orqali arab va o'zbek tillari orasidagi morfologik farqlarni ko'rsatish hamda arab tilidagi so'z turlarini to'g'ri aniqlash uchun asos yaratish nazarda tutiladi.

Arab tilida so'zlar uch asosiy turkumga bo'linadi: ism ('al-ism), fe'l ('al-fil) va harf ('al-harf). Bu turkumlar tilning morfologik va sintaktik tizimida asosiy bo'g'inlarni tashkil qiladi va ularning har biri o'zining aniq funksiyasiga ega. Ismlar turkumiga arab tilida ot, sifat, olmosh, son, ravish, fe'lning harakat nomi (*masdarlar*), sifatdoshlar, ba'zi ko'makchi va modal so'zlar kiradi. Shu bilan birga, fe'l turkumiga barcha zamon, mayl, nisbat, shuningdek bo'lishli va bo'lishsiz shakldagi fe'llar kiradi. Harflar esa tilning yordamchi elementlari bo'lib, ular aniqlik artikli, predloglar, turli hil yuklamalar va boshqa grammatik vositalarni qamrab oladi (Xolidov, 1981:23; Xasanov, 2018:15).

Arab tilining flektiv xususiyati, ya'ni so'z shakllarining ildiz harflarining o'zgarishi bilan morfologik ma'nolarni ifodalashi, uni o'zbek tilidan sezilarli darajada ajratib turadi. Shuningdek, ism va fe'llar o'zak harflarining tabiati bo'yicha uch asosiy guruhga bo'linadi: soda (*sahih*) kalimalar, *muzo'af* kalimalar va sinq (*mu'tal*) kalimalar. Ushbu tasniflash sarf (morfologiya) fanida alohida ahamiyatga ega, chunki u so'zlarning shakllanish qoidalarini aniqlashga yordam beradi.

Sahih (soda) kalimalar — o‘zak harflaridan hech biri illat harfi bo‘lmagan va ikki harfi bir xil bo‘lmagan kalimalar sifatida aniqlanadi. Ularning asliy harflarida hamza (ء) ishtirok etmasa, bunday kalimalar solim deb ataladi. Misol tariqasida: حَبْرٌ (siyoh) va كَتَبَ (yozmoq) keltiriladi (Abdujabbarov, 2007:48). Agar asliy harflardan biri hamza bo‘lsa, kalima mahmuz deb hisoblanadi. Mahmuzning uch turi mavjud:

Mahmuz ul-fo – hamza الف (fa) o‘rnida bo‘ladi. Masalan: أَكَلَ (yemoq)

Mahmuz ul-ayn – hamza ع (ayn) o‘rnida bo‘ladi. Masalan: رَأَى (ko‘rdi)

Mahmuz ul-lom – hamza ل (lom) o‘rnida bo‘ladi. Masalan: دَرَأَ (boshlab berdi)

Sahih kalimalar va ularning turlari morfologik tahlilda asosiy model sifatida xizmat qiladi, chunki ular o‘zgarishsiz o‘z vazifasini bajaradi va boshqa grammatik shakllar bilan aralashmaydi (Ibrohimov va boshq., 2024:32).

Muzo‘af kalimalar — bu ikki harfi bir xil bo‘lgan ism va fe‘llar hisoblanadi. Ular o‘zbek tilida uchramaydigan murakkab morfologik shakllarni ifodalaydi. Uchinchi harflik (sullosiy) fe‘llarda muzo‘aflik ع (ayn) va ل (lom) harflarining bir xil bo‘lishi bilan aniqlanadi. Masalan: مَدَدَ yoki دَقَّ. To‘rt harflik (rubo‘iy) fe‘llarda esa birinchi va ikkinchi harflar, shuningdek uchinchi va to‘rtinchi harflar bir xil bo‘lishi kerak. Masalan: فَعَّلَ, زَلَّزَلَ.

Mu‘tal (siniq) kalimalar — o‘zak harflaridan biri illat harfi bo‘lgan kalimalar bo‘lib, ular quyidagi turlarga ajratiladi:

Misol – agar ف (fo) illat harfi bo‘lsa. Masalan: وَعَدَ (va‘d berdi)

Ajvaf (g‘ovak) – agar ع (ayn) illat harfi bo‘lsa. Masalan: قَالَ (aslida قَوْلٌ)

Noqis (qisqa) – agar ل (lom) illat harfi bo‘lsa. Masalan: رَمَى

Lafif (yopishgan) – agar ع (ayn) va ل (lom) illat harfi bo‘lsa. Masalan: هَوَى

Multaviy (o‘ralgan) – agar ف (fo) va ل (lom) illat harfi bo‘lsa. Masalan: وَجَّى

Ba‘zan bir kalima bir nechta guruhga mansub bo‘lishi mumkin. Masalan, وَعَدَ fe‘li f (fo)si illat harfi bo‘lganiga ko‘ra misol deb, ع (ayn) va ل (lom) bir xil harf bo‘lgani uchun muzo‘af ham hisoblanadi. Shuningdek رَأَى, fe‘li mahmuz ul-ayn va noqis, أَبِي fe‘li mahmuz ul-fo va noqis, يَيْسَنَ fe‘li esa misol va mahmuz ul-ayn kategoriyalariga kiradi (Xasanov, 2018:77).

Bu tasniflash arab tilida morfologik tahlilni tizimli ravishda olib borish imkonini beradi. So‘zlarning o‘zak harflari, illat harflar, hamza va ikki ketma-ket kelgan harflar tahlili orqali fe‘llar va ismlarning turkumlarga ajratilishi sarf nazariyasi uchun muhimdir. Shu yo‘l bilan tilshunoslar arab tilining morfologik tuzilishini chuqurroq anglaydi va so‘zlarning morfologik o‘zgarishlarini aniq tasniflay oladi.

Arab tilining klassik olimlari fe‘l va ism turlarini tasniflashda o‘ziga xos yondashuvni ishlab chiqqan. Ularning tahlillari morfologik tuzilish, ildiz harflari va

fonetik xususiyatlarga asoslangan bo‘lib, arab tilining flektiv xususiyatlarini chuqur anglashga imkon beradi.

Sibawayh o‘zining mashhur asari Al-Kitabda arab tilidagi so‘zlar uch turkumga bo‘linishini ta’kidlagan: ism (‘al-ismu), fe‘l (‘al-filu) va harf (‘al-harfu) (Sibawayh, 1975:45). U ism turkumiga ot, sifat, olmosh, son, ravish, fe‘lning harakat nomi (masdar) va sifatdosh kabi funksional formalarni kiritgan, shuningdek ayrim yordamchi va modal so‘zlarni ham shu guruhga qo‘shgan (Sibawayh, 1975:47). Fe‘l turkumi fe‘lning barcha zamonlari, mayllari va nisbatlarini o‘z ichiga oladi, ularning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarini ham tahlil qilgan (Sibawayh, 1975:52). Harf turkumi esa artikl, predlog va yordamchi so‘zlarni qamrab oladi (Sibawayh, 1975:55).

Al-Farahidi fe‘llarni ildiz harflarining holatiga qarab uch asosiy guruhga ajratgan: sahih (soda), mu‘tal (siniq) va muzo‘af (takrorlangan) (Al-Farahidi, 1980:23). U sahih fe‘llar haqida shunday degan: “Agar o‘zak harflaridan hech biri illat harfi bo‘lmasa va ikki harfi bir xil bo‘lmasa, fe‘l sahih hisoblanadi. Agar sahihning asliy harflarida hamza ishtirok etmasa, u solim deb nomlanadi” (Al-Farahidi, 1980:25). Masalan, كَتَبَ (yozmoq) va حَبْرٌ (siyoh) so‘zlarini u solim sahihlarga misol keltiradi (Al-Farahidi, 1980:26).

Ibn al-Sarraj fe‘llarni muzo‘af va mu‘tal turlarga ajratishda qo‘shimcha tafsilotlar kiritgan. U yozadi: “Muzo‘af fe‘llar ikki harfi bir xil bo‘lgan so‘zlardir. Sulosiy (uch harfli) fe‘llarda ع va ل harflari bir xil bo‘ladi, masalan: مَدَدٌ. Rubo‘iy (to‘rtta harfli) so‘zlarda esa ف va birinchi ل bir xil, shuningdek ع va ikkinchi ل ham bir xil bo‘ladi, masalan: زَلْزَلٌ – فَعْلَلٌ” (Ibn al-Sarraj, 1987:42).

Ibn al-Sarrajning tahliliga ko‘ra, mu‘tal fe‘llar o‘zak harflaridan biri illat harfi bo‘lgan so‘zlardir. U quyidagi turlarga bo‘ladi:

Ibn Jinni fe‘l va ism turlarini ildiz, shakl va ma‘no o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida tahlil qilgan. U shunday degan: “Illat harflar va hamza mavjudligi fe‘lning morfologik turini belgilovchi asosiy omillardir. Shu jihat fe‘lning zamon, nisbat va maylga moslashuvini aniqlashga yordam beradi” (Ibn Jinni, 1990:33).

Xalil ibn Ahmad fe‘llarni fonetik va morfologik tamoyillarga qarab guruhlab, sahih, mu‘tal va muzo‘af tasniflarini shakllantirgan (Al-Khalil ibn Ahmad, 1980:22). U fe‘llarning ildiz harflari bilan bog‘liq bo‘lgan morfologik xususiyatlarini chuqur o‘rganib, zamonaviy sarf fanining nazariy asoslarini yaratgan (Al-Khalil ibn Ahmad, 1980:24).

Xulosa qilib aytganda, Fe‘l va ismning sahih, solim, mahmuz, muzo‘af, mu‘tal kabi turlari so‘zning o‘zak harflari va ularning xususiyatiga ko‘ra aniqlanadi. Sahih kalimalar o‘zak harflari illat harflardan iborat bo‘lmagan va ikki harfi bir xil bo‘lmagan kalimalardir. Muzo‘af fe‘llar ikki harfi bir xil bo‘lgan kalimalar, mu‘tal

fe'llar esa o'zak harflaridan biri illat harfi bo'lgan kalimalardir. Bu tasniflash fe'llarning shakllanish qoidalari va qo'llanishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Klassik arab tilshunoslari, xususan Sibawayh, Al-Farahidi, Ibn al-Sarraj, Ibn Jinni va Al-Khalil ibn Ahmad, fe'l va ism turlarini ildiz harflari, illat harflar va hamza mavjudligi asosida tasniflagan. Shu yondashuv arab tilining morfologik tizimini chuqur anglashga yordam beradi va tilshunoslikda nazariy me'yor sifatida xizmat qiladi.

Natijada, arab tilidagi ism va fe'llarning turlari va tasniflari ularning morfologik qonuniyatlarini tushunishga, fe'l va ismlarni to'g'ri aniqlashga va arab tilini o'rganishda samarali metodik baza yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolidov B. Arab tili darsligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
2. Xasanov M. Arab tili. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2018.
3. Abdujabbarov A. Arab tili. Oliy o'quv yurtlari uchun. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2007.
4. Ibrohimov N. Yusupov M. Oripov A. Arab tili grammatikasi. I jild. – Toshkent, 2024.
5. 1975. سيويه. الكتاب في النحو. – بغداد: المكتبة العربية, 1975.
6. 1980. الفراهيدي, الخليل بن أحمد. كتاب العين. – بغداد: دار الكتاب العربي, 1980.
7. 1987. ابن السراج. المحاسن. – بيروت: دار صادر, 1987.
8. 1990. ابن جني. الخصائص. – القاهرة: دار المعارف, 1990.

ARAB TILINING SHAKLLANISHI VA UNDAGI YANGI KIRIB KELGAN SO'ZLARNING O'RNI

Muxiddinova Odinaxon Mo'minjon qizi
Oriental universiteti,
Filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: S.Rayimjonov

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilining tarixiy shakllanish jarayoni, uning ichki taraqqiyot bosqichlari hamda turli davrlarda kirib kelgan yangi so'zlarning (daxil, muwallad, musta'rab, mu'arrab) tildagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Arab tili dastlab qabila va hududiy lahjalar asosida shakllangan bo'lib, islom davriga kelib umumiy adabiy til sifatida mustahkamlangan. Islomdan keyingi siyosiy, madaniy va ilmiy aloqalarning kengayishi natijasida arab tiliga fors, suryoniy, yunon, hind va

turkiy tillardan ko‘plab terminlar, ma’naviy tushunchalar hamda madaniy birliklar kirib kela boshladi. Maqolada aynan shu yangi kirib kelgan so‘zlarning arab tilining lug‘aviy boyligiga ta’siri, semantik maydonning kengayishiga qo‘shgan hissasi, ilmfan va adabiyotdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, yangi so‘zlarning fonetik, morfologik va semantik moslashuvi, arab lug‘atchilarining ularga bergan ta’riflari hamda klassik manbalarda ularning qo‘llanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yangi kirib kelgan so‘zlar arab tilining rivojlanishida faqat tashqi ta’sir emas, balki tilning o‘z-o‘zini boyitish jarayonidagi tabiiy bosqich bo‘lganligi isbotlanadi.

Kalit so‘zlar: qadimgi arab yozuvi, oromiy alifbosi, klassik davr, arab xattotligi turlari, arab tilida so‘zlashuvchi davlatlar, iqtibos, arab tilidagi neologizmlar.

Annotation. This article provides a scholarly analysis of the historical formation of the Arabic language, its internal stages of development, and the role of newly adopted words (dakhil, muwallad, musta’rab, mu’arrab) that entered the language during various periods. Arabic initially developed on the basis of tribal and regional dialects, and by the Islamic era it had been consolidated as a unified literary language. With the expansion of political, cultural, and scientific relations after the advent of Islam, numerous terms, spiritual concepts, and cultural elements from Persian, Syriac, Greek, Indian, and Turkic languages began to enter Arabic.

The article examines how these newly introduced words enriched the Arabic lexicon, contributed to the expansion of its semantic field, and played a role in scholarly and literary contexts. It also discusses the phonetic, morphological, and semantic adaptation of these words, the definitions given by Arabic lexicographers, and their usage in classical sources. According to the research findings, these borrowed words were not merely an external influence on the development of Arabic, but rather a natural stage in the language’s self-enrichment process.

Keywords: ancient Arabic script, Aramaic alphabet, classical period, types of Arabic calligraphy, Arabic-speaking countries, quotation, neologisms in Arabic.

Eng qadimgi arab yozuvi haqida bizgacha yetib kelgan lixyan, semud, saf, annimar (eramizning 328-yili), zabad (eramizning 512-yili) yozuvlari hisoblanadi. Uning adabiy formasi islom dini paydo bo‘lmasdan avval shakllangan [30, 5 b.]. Ma’lumki, bu yozuv arablarnigina emas, balki arab bo‘lmagan ko‘pgina sharq xalqlarining adabiyoti va fanida qo‘llanib kelgan harf-tovushli yozuvdir. U qadimgi finikiy yozuvining oromiy tarmog‘idan kelib chiqqan. Milodning III–IV asrlarida shakllanib, arab tilining ifodasi uchun qo‘llana boshlagan va “arab yozuvi” nomini olgan. Oromiy alifbosida 22 ta harf bo‘lgan. Arablar bu alifboga 6 ta yangi tovush harf (ث ح ذ ض ظ غ) (qo‘shib, 28 taga yetkazganlar. Harflar so‘z boshida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxirida va alohida yozilish shakllariga ega. Ular (أ) alif, (د) dol, (ذ) zol, (ر) ro, (ز)zo, (و)

vov) bo‘lib, so‘z boshida va so‘z o‘rtasida qo‘shilib yozilmaydi. Arab yozuvidagi 28 ta harfdan 18 tasi mustaqil grafik belgisiga ega. Boshqa harflar ustiga yoki tagiga qo‘shilgan nuqtalarning soniga qarab farqlanadilar. Arab alifbosidagi harflarning deyarli hammasi undosh tovushlarni, faqat uchta - (أ) alif), (و) vov), (ي) yoy) unli tovushlarni bildirib keladi. (“Vov” va “yoy” ham unli, ham undosh vazifasini bajaradi). Bu yozuvda unli harflarni ifoda qilish uchun harflarning ost-ustiga qo‘yiladigan harakatlardan foydalaniladi. Biroq, arab yozuvida unli harflarga ishora qo‘yilmasa ham, so‘zlar sarf va nahv qoidalariga ko‘ra mazmunga moslab o‘qilaveradi.

Ko‘plab saqlangan adabiy yodgorliklar klassik davrga to‘g‘ri keladi. Bu davrda, ya’ni klassik davrda yaratilgan ko‘plab asarlar asosan islomgacha poeziya (she’riyat) hisoblanib, u uzoq vaqt og‘zaki shaklda saqlangan va faqat VIII-IX asrlarda arab filologlari tomonidan yozib olingan. Klassik davr adabiy merosi Qur’oni Karim hisoblanadi. Yuqoridagi adabiy yodgorliklarda arab tili o‘zining grammatik tizimiga ega bo‘lgan, boy leksikaga, qadimgi arab tiliga va arab qabilalari lahjalariga asoslangan tilga aylangan edi. Klassik arab tili O‘rta va Yaqin Sharq tillarining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Arab istilosi sababli va islom dinining tarqalishi bilan arab tilining ahamiyati Sharqda yanada kuchaydi. Bu davrda arab tili O‘rta va Yaqin Sharq xalqlarining madaniy hayotida xalqaro til rolini o‘ynadi. Arab tili O‘rta va Yaqin Sharqning ko‘plab tillariga leksika sohasida juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Turk, fors, afg‘on (pushtu) va boshqa tillar lug‘at boyligining 50-60 foizini arab so‘zlari tashkil etadi. Hozirgi kunda Afrika qit’asining shimolida, Arabiston yarim orolida va Old Osiyodagi 22 ta arab davlatlarida – Mavritaniya, Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr, Sudan, Jibuti, Somali, Qamar orollari, Saudiya Arabistoni, Yaman, Ummon Sultonligi, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn, Qatar, Quvayt, Iordaniya, Iroq, Falastin, Livan, Suriyada arab tili davlat tili hisoblanadi. Arab adabiy tili XIX asrda shakllana boshlagan. Hozir arab adabiy tili bilan bir qatorda ko‘plab mahalliy dialektlar ham mavjud. Eng ko‘p tarqalgan dialektlardan Saudiya Arabistoni, Iroq, Suriya, Misr va Mag‘rib lahjalaridir. Arab adabiy tiliga eng yaqini Suriya dialekti hisoblanadi. Arab adabiy tilidan katta farq qiluvchi dialekt – bu Mag‘rib dialektidir. Har bir dialekt o‘z navbatida bir necha she’valarga bo‘linadi. Lahjalar arab adabiy tiliga qaraganda tor mahalliy, hududiy ahamiyatga egadir. Arab adabiy tili – davlat tili, OAV, adabiy asarlar, fan, yagona yozuv hamda barcha arab mamlakatlari uchun rasmiy til hisoblanadi. Bu til arab xalqlari birligining timsolidir. Lekin arablar turmushda asosan lahjadan foydalanadilar. Turli arab mamlakatlarining xalqlari suhbatga kirishganlarida bir-birlarini juda qiyin tushunadilar. Arablarning xalq tili – (العامية) lahja) kundalik aloqa vositasi hisoblanib qolmasdan, u kino, teatr, radio, televideniya hamda ham keng qo‘llaniladi. Arab tili somiy tillar guruhiga kiradi, unga yana

Efiopiyaning amhar, tigre, qadimgi yahudiy, ivrit (Isroil), Malta tillari ham kiradi. Somiy tillari grammatikasida, lugʻat tizimida bir xillik, oʻxshashlik mavjud. Bu tillarning barchasining soʻzlari asosan uch undoshli boʻlib, ularda affiksatsiya rivojlangan. Arab yozuvining VII asrdan XIV asrgacha shakllangan va mashhur nazariyotchi xattotlar tomonidan eʼtirof etilgan – kufiy, suls, nasʼh, muhaqqaq, rayhoniyy, tavqeʼ, riqo deb atalgan yetti uslubi mavjud. Ayrim xattotlar kufiyini asosiy uslublar qatoriga kiritmaydilar. Chunki, ular keyingi olti uslub kufiydan oʻsib chiqib shakllangan, deb hisoblaydilar. XIV-asr oxirlarida yuzaga kelgan nastaʼliq va XVIII-asrda paydo boʻlgan shikasta xatlarini ham baʼzi xattotlar arab yozuvining asosiy uslublariga qoʻshadilar. Islom dini va arab tilining VII-asr ikkinchi yarmidan boshlab Yaqin va Oʻrta Sharqdagi qator oʻlkalarga, keyinroq esa Afrika, janubiy Yevropa va Osiyodagi koʻp joylarga tarqalishi bilan arab yozuvi ham birgalikda kirib bordi. Natijada arab yozuvi oʻsha oʻlkalardagi xalqlar tomonidan oʻzlashtirildi va mahalliy tillarga moslashtirilgan holda qoʻllana boshlandi. Arab yozuvi Movarounnahrda VII-asrning ikkinchi yarmida kirib keldi. VIII-asr boshlarida arab xatida yozilgan hujjatlar saqlangan. Bunga misol qilib Panjikent hokimi Divashtichning Arab xalifaligining Xurosondagi noibiga yoʻllagan maktubini keltirish mumkin. Arab yozuvi Movarounnahrda kirib kelgandan boshlab XIII- asrlarga qadar bu yozuvda bitilgan birorta turkiy tildagi hujjat, manba hozirgacha maʼlum emas. XIII-asrga qadar mazkur yozuvdagi barcha manbalar asosan arab tilida va qisman forstojik tilida kitobat qilingan. Maʼlumki, bir yarim ming yildan buyon ogʻzaki va yozma manbaalarda saqlangan arab tili, garchi oʻz normalarini saqlab qolgan boʻlsada, biroq u leksik oʻzgarishlarga uchramay qolmadi. Chunki iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyot sohasidagi oʻzgarishlar birinchi oʻrinda, albatta, tilda aks etadi, yaʼni bir xil qadriyatlar qadrsizlanib yoʻq boʻladi va ularni anglatgan soʻzlar ham bir chetga surilib arxaiklashadi, uning oʻrnini yangicha qadriyatlar egallaydi.[] Bu hodisalar, albatta, oʻz davrida yaratilgan lugʻatlarda oʻz aksini topgan. Shuningdek baʼzi soʻz turlari borki, iqtisodiy formatsiyalar almashinuvi, ijtimoiy-siyosiy-madaniy oʻzgarishlar bilan bogʻliq holda amalda qoladi yoki kuchga kiradi. Demak, ularni anglatuvchi soʻzlar ham bularni aks ettiradi. Islomgacha boʻlgan shirk va budparastlik bilan bogʻliq boʻlgan oylarning nomlari va kunlar kabi atamalar ana shunday soʻzlar sirasidandir. “obyektivlik”, “subyektivlik”, “sivilizatsiya”, “axloq” kabi soʻzlar bildirgan tushunchalarning ifodasi oʻlaroq yuzaga keldi. ^أ - “madmuazel “ - شعائر, “gerb “ - باخَرَةٌ, “fojea “ - مؤتَمًا, “kongress“ - سَمَةٌ - نَسَةٌ, مَر, “restoran “ - مَطْعَمٌ - “Paroxod“ -

bu borada sezilarli natijaga erishmadi . Arab tili somiy tillarning orasida iqtibosga boy til hisoblanadi. Iqtibos (iqtibos – yangi so‘zlarning o‘zlashish jarayoni) arab tiliga kirgan so‘zlarning turli davrlarni bosib o‘tganidan darak beradi. Iqtibos hodisasiga turli davrlardagi turlicha sharoit, o‘ziga xos uslublar bilan ta’sir etganligi sabab bo‘lgan. Iqtibos qilingan so‘zlardan to‘la o‘zlashgan, yarim o‘zlashgan, o‘zlashib ulgurmagan yoki chala o‘zlashganlari mavjud. Semantik mohiyatiga ko‘ra to‘laqonli buzilmay qabul qilingan, buzib qabul qilingan so‘zlar bilan bir qatorda iqtibos qilingan mazmunlarni ifodalovchi yangi so‘zlarni ham tushunish mumkin. Quyidagilarni ta’kidlasak bo‘ladi: “نَ قُلْتُ” qo‘ng‘iroq qilmoq” fe’li misolida ko‘rish mumkinki, yangi o‘zlashtirilgan so‘zlar yozma adabiyot orqali qabul qilinganiga qaraganda og‘zaki nutq orqali o‘zlashishi tezroq singadi. Iqtibosda 4 ta davrni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchi eng qadimiy davr bo‘lib, yozuv gacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrdagi so‘zlar butunlay arablashib bo‘lgan. U davrda kirgan so‘zlar odatda arablarning idroki, dunyoqarashi ortib borayotgan davrning mahsuli bo‘lib, uning tarkibiga ko‘proq atrof muhitga oid, oddiy hayot, maishiy ashyolar bilan bog‘liq so‘zlar kiradi. Bu jarayonda o‘rta fors tili muhim o‘rin egallaydi, undagi hunarmandchilik, dehqonchilikka oid o‘troq hayotni aks ettiruvchi yangi so‘zlar ko‘proq joy olgan.

Ko‘plab saqlangan adabiy yodgorliklar klassik davrga to‘g‘ri keladi. Bu davrda, ya’ni klassik davrda yaratilgan ko‘plab asarlar asosan islomgacha poeziya (she’riyat) hisoblanib, u uzoq vaqt og‘zaki shaklda saqlangan va faqat VIII-IX asrlarda arab filologlari tomonidan yozib olingan. Klassik davr adabiy merosi Qur’oni Karim hisoblanadi. Yuqoridagi adabiy yodgorliklarda arab tili o‘zining grammatik tizimiga ega bo‘lgan, boy leksikaga, qadimgi arab tiliga va arab qabilalari lahjalariga asoslangan tilga aylangan edi. Klassik arab tili O‘rta va Yaqin Sharq tillarining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Demak har bir arab tilini o‘rganuvchi, agar u chinakam tarjimon bo‘lsa, ushbu til haqida o‘z dunyoqarashi, binobarin, o‘ziga xos tasvir vositalariga ega bo‘ladi. Tarjimonning o‘ziga xosligi uning qaysi mualliflar va qaysi asarlarni o‘z ona tilida qayta yaratishni tanlashida ham namoyon bo‘ladi. Til- tarjimon uchun matnning ideal muallifi bilan birlashishdir. Ammo bu birlashish ixtiro va topqirlikni, empatiyani, ko‘rish keskinligini va izlanishni talab etadi. Bular, albatta, asl muallifning o‘ziga xosligiga soya solmaydigan tarzda ijodiy individuallikni ochib berishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Развитие языков в странах зарубежного Востока (послевоенный период)”, М., “Наука”, 1983. 164 б
2. «Восточная литература» РАН, 1998 г.

3. Qodirov T.Sh., Aliyev D.I. Arab tili leksikologiyasi.
4. ToshDShI, 2010. 110 b.
5. Абдужабборов А. «Араб тили дарслиги», Тошкент, 2007;
6. Баранов Х.К. «Арабско - русский словарь», Москва 2005 г.
7. Гранде Б.М., «Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении», Москва,
8. Ковалев А.А., Шарбатов Г.Ш.
9. Ковалев А.А., Шарбатов Г.Ш. «Учебник арабского языка», Москва, «Восточная литература» РАН, 1998 г.
10. М., 1998. 3. Белкин В.М. Общие тенденции развития арабской научно-технической терминологии в послевоенный период.
11. Н.И. Иброхимов, М. Юсупов “Араб тилиграмматикаси”, 1,2-жилдлар, Тошкент, “Ўзбекистонмиллий
12. Учебник арабского языка.
13. Халидов Б.З., «Учебник арабского языка», Ташкент, «Ўқитувчи», 1985 г.
14. энциклопедияси”, 1997-2002 йиллар

ARAB GAZETALARIDA SIYOSIY TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISHI

Mirxaydarova Mubina Mirakbar qizi

Oriental universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

mirkhaidarovamubina@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrası stajyor-o‘qituvchisi Fayziyev Shamsuddin

Annotatsiya. Arab gazetalarining sahifalari orqali odamlar siyosiy voqealarni tushunishni o‘rganadi. Gazetalar nafaqat yangilik beradi, balki siyosiy so‘zlar va tushunchalarni jamiyatga yetkazadi. Misr, Livan, Aljir va Tunis gazetalarida yangi siyosiy atamalar paydo bo‘lgan va keng tarqalgan. Shu tariqa ushbu maqola siyosiy terminlarning qayerdan kelib chiqqani, qanday shakllangani va jamiyatga qanday ta’sir qilganini yoritadi. Har bir siyosiy atama jamiyatdagi voqealar va qarorlarni tushuntirishga yordam beradi. Arab gazetalarini siyosiy bilimni oshirish, yangi tushunchalarni ommalashtirish va yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalb qilishda katta rol o‘ynagan. Shu bois, ular nafaqat axborot manbai, balki siyosiy bilim va madaniyatni rivojlantiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: atama, siyosiy terminologiya, arab gazetasi, tizim, matbuot va jamiat, terminlarning shakillanishi.

Abstract. Through the pages of Arab newspapers, people learn to understand political events. Newspapers not only provide news but also introduce political words and concepts to society. In the newspapers of Egypt, Lebanon, Algeria, and Tunisia, many new political terms emerged and became widespread. Thus, this article explains where political terms come from, how they developed, and how they have influenced society. Each political term helps to describe events and decisions within the community. Arabic newspapers have played a major role in increasing political knowledge, popularizing new concepts, and involving young people in political processes. Therefore, they are not only a source of information but also an important tool for developing political awareness and culture.

Keywords: term, political terminology, arabic newspaper, system, press and society, formation of terms.

Arab mamlakatlarida matbuot taraqqiyoti XIX asr oʻrtalarida rivojlanishni boshlagan. Gazetalar nafaqat siyosiy maʼlumotlar manbai, balki arab tilining zamonaviy lugʻat boyligini oshirish uchun muhim manbaga aylandi. Ayniqsa, diplomatiya, siyosat, boshqaruv va xalqaro munosabatlar sohalarida yangidan -yangi atamalar gazeta sahifalari orqali ommalashdi. Ushbu maqola arab gazetalarida siyosiy atamalarining kelib chiqishi, shakillanishi, taraqqiyoti, asosiy omillari hamda ushbu terminologiyalarni oʻrganishga va tahlil qilishga qaratilgan.

Shu jumladan, Jazoir, Misr, Tunis, Livan, Iordaniya kabi davlatlarda siyosiy terminologiya aynan matbuot orqali ommalashgan. Ushbu maqolada arab gazetalarida siyosiy terminlarning paydo boʻlishi, ularning manbalari va qoʻllanilish xususiyatlari keng yoritiladi.

Arab dunyosida dastlabki gazeta Usmoniylar davrida 1828-yili Misr hukmdori Muhammad Ali buyrugʻi asosida “Al-Vaqoiy Al-Misriya” (الوقائع المصرية) – “Misr hodisalari” nomli gazetasi tashkil qilingan.

Keyingisi “Hadiqat al-Axbar” 1858-1911 (حديقة الأخبار)-yillarda Bayrutda ikki yillik tanaffus bilan nashr etilgan haftalik gazeta edi. Bayrutda birinchi shaxsiy kundalik boʻlgan muntazam adabiy boʻlimga ega boʻlgan birinchi Arab gazeta va mintaqadagi birinchi haftalik Arab gazetasi.

Va soʻnggisi 1933-yil Livanda An-Nahar (النهار) yaʼni “kun” gazetasi paydo boʻlgan. An-Nahar – oʻng qanot liberal yoʻnalishi va Suriyaga qarshi qatʼiy pozitsiyasiga ega boʻlgan yozuvlar gazetasi hisoblangan. Asosan ushbu gazetalar siyosiy va ijtimoiy mavzularni yoritishda faol boʻlgan nashrlardir. Aynan shu nashrlar

orqali G'arbdan kirib kelgan ko'plab siyosiy terminlar tarjima qilingan, moslashtirilgan yoki yangidan yaratilgan.

Siyosiy terminologiyaga keladigan bo'lsak, bu – siyosat sohasi bilan bog'liq bo'lgan atamalar, iboralar va tushunchalar majmui bo'lib, siyosiy jarayonlarni aniq va tushunarli ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu terminlar siyosiy tizimlar, davlat boshqaruvi, xalqaro munosabatlar, huquqiy normalar, mafkuraviy yo'nalishlar va jamiyat hayotining turli siyosiy ko'rinishlarini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Siyosiy atamalar ko'pincha murakkab va ko'p qatlamli ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Ularning mazmunini to'g'ri anglash siyosiy matnlarni o'qish, siyosiy voqealarni talqin qilish yoki jamiyatdagi siyosiy munosabatlarni tushunishda juda zarurdir. Bundan tashqari, siyosat haqida muloqot qilishda ham terminlarning aniq va o'rinli qo'llanishi fikrni ravshan ifodalashga yordam beradi.

Shuningdek, siyosiy terminologiya doimo rivojlanib boradi. Yangi siyosiy jarayonlar, global tendensiyalar yoki geosiyosiy o'zgarishlar natijasida ayrim terminlar kengayadi, mazmunan boyiydi yoki yangilari paydo bo'ladi. Shu sababli siyosiy terminlarni o'rganish doimiy ravishda e'tibor talab etadi va siyosiy savodxonlikning muhim qismiga aylanadi.

Arab matbuoti XIX asr o'rtalarida Misr va Livanda shakllana boshlagan (”الأهرام”, ”الجمهورية“), mustamlakachilik davrida esa Jazoir va Tunisda ham rivoj topdi. Bu nashrlar siyosiy harakatlar, mustaqillik uchun kurash va milliy uyg'onishni yoritish ekan, yangi siyosiy atamalarga ehtiyoj tug'ildi.

Yevropa manbalaridan XIX–XX asrlarda g'arb siyosiy fikrining ta'sirida bir qator terminlar arab gazetalari orqali kirib keldi: ديمقراطية – demokratiya, برلمان – parlament, دستور – konstitutsiya, اشتراكية – sotsializm, رأسمالية – kapitalizm, انتخابات – saylov.

Bu atamalarning ko'pchiligi to'g'ridan-to'g'ri fransuz va ingliz tillaridan muvofiqlashtirilgan. Hozirgi payitda, arab matbuoti bugungi siyosiy mavzuni yoritishda islom tarixidan o'tgan siyosiy tushunchalardan ham foydalanadi: شورى – shuro, إمام – yetakchi, بيعة – bay'at, qasam.

Gazetalar ushbu atamalarni vaqt talabiga moslab zamonaviy ma'noda qayta talqin qilgan.

Shu bilan bir vaqtda Jazoir matbuoti “Ash-shuruq” (الشروق), “Al-Xabar” (الخبير), An-nahar (النهار), Ash-Shaab (الشعب)) arab dunyosida siyosiy termin yaratishda faol ishtirok etgan. Bunga ikki asosiy omil ta'sir qilgan:

Fransuz mustamlakachiligiga qarshi kurash davrida quyidagi siyosiy terminlar kengaydi: المقاومة – muqovama, qarshilik, الحركة الوطنية – milliy harakat, التحرر – ozodlik, مناهضة الاستعمار – mustamlakachilikka qarshi kurash, الاستقلال – istiqlol.

Bu atamalar “Jazoir ozodlik kurashi” mafkurasining asosiy siyosiy lug‘atini shakllantirdi.

Keyinchalik mustaqillikdan keyingi davlat qurilishi asnosida yosh respublikada yangi siyosiy institutlar va huquqiy tizimlar bilan bog‘liq terminlar shakllandi: البرلمان – parlament, الدستور – konstitutsiya, التعددية الحزبية – ko‘p partiyaviyli, الدولة المدنية – fuqaroviy davla, الإصلاحات السياسية – siyosiy islohotlar, المجلس الشعبي الوطني – Milliy xalq kengashi, سيادة وطنية – milliy suverenitet.

Qo‘shimcha ravishda, rasmiy OAVda davlat boshqaruvi va ma‘muriy tizimga oid atamalar keng qo‘llanila boshlandi, masalan: السلطة التنفيذية – ijroiya hokimiyat, السلطة التشريعية – qonun chiqaruvchi hokimiyat, الانتخابات – saylovlar, المؤسسات الوطنية – milliy institutlar.

Qardosh tillar ta‘sirida arab gazetalarida siyosiy terminlarning shakllanishida turli manbalardan foydalaniladi. Masalan:

Fransuz tili: ديبلوماسية، بيروقراطية، ليبرالية

Ingliz tili: جيوسياسة، لوبي، تمويل خارجي

Turk tili: انقلاب، حزب، دستور

Qolaversa, qadimiy arab ilmiy merosida islom siyosiy fikrlardan foydalanilgan terminlar yangi ma‘no olgan: عدالة – adolat, دولة – davlat, ولاية – viloyat, ma‘muriy birlik.

Gazeta uslubida siyosiy terminlarning o‘rni bir necha turga bo‘linadi:

1. Xabar janri. Ushbu janrda aniq, qisqa siyosiy atamalar ishlatiladi. Masalan: أزمة – siyosiy inqiroz, مفاوضات – muzokara, حكومة انتقالية – muvaqqat hukumat.

2. Tahliliy maqolalar. Bunda tushunchaviy, ideologik atamalar ko‘p uchraydi. Masalan: صراع أيديولوجي – ideologik kurash, محور المقاومة – muqovama o‘qi, نفوذ إقليمي – mintaqaviy ta‘sir.

3. Muharrir maqolalar. Bunda baholovchi va ta‘sirchan terminlar qo‘llanadi, misol uchun: هيمنة – hukmronlik, تهمة – chetlatish, شفافية سياسية – siyosiy shaffoflik.

Shuningdek, arab gazetalarida siyosiy terminlarning rivojlanishi jamiyatga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Avvalo, siyosiy savodxonlik oshadi, bundan tashqari gazetalar orqali yangi siyosiy tushunchalar, atamalar va ideologik fikrlar keng jamoatchilikka yetkaziladi. Natijada, oddiy fuqarolar siyosiy jarayonlarni tushunishga, hukumat siyosati va milliy masalalarni baholashga qodir bo‘ladi.

Qolaversa, yangi demokratiya tushunchalari ommalashib siyosiy terminlar va tushunchalar gazetalar orqali xalq ongiga kirib boradi, demokratik qadriyatlar, saylov tizimi, qonuniylik va huquqiy madaniyat tushunchalari keng yoyiladi. Bu jarayon jamiyatda siyosiy madaniyatni oshiradi va fuqaro faoliyatini rag‘batlantiradi.

Bundan tashqari, matbuot siyosiy nutq yaratishda muhim rol o'ynaydi. Gazetalar nafaqat yangiliklarni yetkazadi, balki siyosiy munozaralar, tahliliy maqolalar va sharhlar orqali jamoatchilikni fikr almashishga jalb qiladi. Shu tarzda, matbuot siyosiy jarayonlarni shakllantiruvchi, ommaviy fikrni yo'naltiruvchi kuchga aylanadi.

Shu orqali, yoshlar siyosiy jarayonlarga qiziqqa boshlaydi. Gazetalar orqali ular siyosiy voqealar bilan tanishadi, yangi atamalar va tushunchalarni o'rganadi hamda jamiyatdagi siyosiy faollikka jalb qilinadi. Bu esa kelajak avlodni siyosiy jihatdan ongli va faol fuqarolar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, arab davlatlarining ko'pchiligida gazeta siyosiy kommunikatsiyaning eng faol maydoniga aylangan. U jamoatchilik ongini shakllantiradi, siyosiy bilim va tushunchalarni kengaytiradi hamda demokratik jarayonlarni qo'llab -quvvatlaydi. Shu sababli arab gazetalarining siyosiy terminologiyani rivojlantirishdagi roli nafaqat akademik, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, arab gazetalaridagi siyosiy terminologiya faqat oddiy so'zlar jamlanmasi emas, balki tarixiy voqealar, siyosiy jarayonlar, madaniy meros va tilning tabiiy evolyutsiyasining murakkab uyg'unligi natijasidir.

Yevropa va boshqa xorijiy mamlakatlardan kirib kelgan siyosiy tushunchalar mahalliy kontekstga moslashgan, islomiy siyosiy meros esa o'ziga xos qadriyatlar va tushunchalarni boyitgan. Shuningdek, mustamlakachilik davridagi qarshilik harakatlari va mustaqillik jarayonlari siyosiy tilni yanada rang - barang va ifodali qilgan, yangi institutlar, qonunlar va demokratik jarayonlar uchun so'z boyligini yaratgan.

Bugungi kunda arab gazetalarining ahamiyati faqat yangilik tarqatishda emas, balki siyosiy so'z boyligi va terminologiyani shakllantirish, ijtimoiy ongni rivojlantirish va zamonaviy siyosiy voqelikni to'liq ifodalashda namoyon bo'ladi. Ular jamiyatda fikr almashuvini kuchaytiradi, yosh avlodni siyosiy faollikka undaydi va demokratik qadriyatlarni keng jamoatchilik ongiga yetkazadi. Shu sababli arab gazetalar nafaqat axborot manbai, balki siyosiy bilim va tilni boyituvchi, jamiyat taraqqiyotida muhim vosita sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurrahmon M. Arab matbuotida siyosiy terminologiyaning shakllanishi. Qohira: Cairo University Press, 2017, 12 – 48 b.
2. Ash-Shuruq (الشروق), Al-Khabar (الخبير), An-Nahar (النهار), Ash-Shaab (الشعب) - jazoir matbuoti sahifalaridagi siyosiy maqolalar va tahlillar, 1 – 35 b.

3. Haddod L. Yaqin Sharq matbuoti tarixi. Bayrut: An-Nahar Publishing, 2012, 65 – 120 b.

4. Mahmudov A. OAVda siyosiy terminologiya taraqqiyoti. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2021, 20 - 57 b.

5. Hassan R. Arab ommaviy axborot vositalarida siyosiy lugʻatning rivoji. Arab World Studies Review, 2020, 44 – 62 b.

ARAB ADABIYOTINING DOLZARB MASALALARI

MAHMUD DARVISH SHE'RIYATI VA UNDA RAMZLAR TILSIMI

Abdurasulova Iqbola Abduvoxid qizi,

Oriental universiteti,

Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi

AF305-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedراسi dotsenti v.b. S. Sotvoldiyev

Annotatsiya. Maqolada Mahmud Darvish she'riyati, uning poetik olami va ramziy tasvirlar tizimi tahlil qilinadi. Shoirning ijodida Vatan, tarixiy xotira, ruhiy iztirob va insoniy mavjudlik mavzulari markaziy o'rin tutishi ko'rsatiladi. Xususan, "Zaytun daraxti" she'ri misolida zaytun obrazi barqarorlik, matonat va tinchlikning ramzi sifatida sharhlanadi. Maqolada Darvishning poetik uslubi, metaforik fikrlash xususiyatlari, erkin she'r imkoniyatlaridan foydalanishi va ramziy qatlamning ma'no yukini ochib beruvchi badiiy tahlil amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: Mahmud Darvish, she'riyat, ramz, zaytun daraxti, Vatan, tarix, iztirob, poetika, metafora, erkin she'r.

Abstract. This article examines the poetic world of Mahmoud Darwish, focusing on the symbolic system, thematic diversity, and philosophical layers of his poetry. Central themes such as homeland, historical memory, human suffering, and existential reflection are highlighted. Through an analysis of Darwish's poem "The Olive Tree," the study reveals how the olive tree becomes a symbol of resilience, continuity, and peace. The article explores Darwish's poetic style, his rich use of metaphor, and the artistic depth achieved through free verse and symbolic imagery.

Keywords: Mahmoud Darwish, poetry, symbolism, olive tree, homeland, history, suffering, poetics, metaphor, free verse.

XX asr oxiri va XXI asr boshida arab adabiyotida o'zining betakror ovozi, chuqur falsafiy qarashlari va teran lirik ohanglari bilan alohida o'rin egallagan Mahmud Darvish (1941–2008) bugungi kunda ham butun arab she'riyatining eng nufuzli vakillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Uning ijodi Falastin xalqining og'riqli taqdiri, erkinlikka bo'lgan intilishi, tarixiy adolatsizliklar va insoniy mavjudotning ma'naviy iztiroblari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shu bilan birga universal g'oyalarga ham ega. Darvishning she'rlari ramziy ifodalar, boy metaforalar, musiqiy ritm va erkin she'rning badiiy imkoniyatlari orqali o'quvchini chuqur o'yga to'ldiradi.

Shoirning ijodiy merosi muhabbat, Vatan, tahlikali tarixiy jarayonlar va insonning ruhiy olami singari mavzularni qamrab oladi. Ayniqsa, uning "Falastin kundaliklari", "Bizga kichik mo'jiza kerak" kabi asarlari arab adabiy merosining

durdonalari qatoriga kiradi. Darvishning badiiy uslubi arab she'riyatida yangicha poetik nafas yaratdi, erkin she'rni rivojlantirdi va she'riyatni siyosiy makon bilan birga mavjudlik falsafasiga yaqinlashtirdi.

Mahmud Darvish ijodi bugungi kunda nafaqat filologlar, adabiyotshunoslar va san'at ahli uchun, balki xalqlararo madaniy muloqot, tarixiy xotira va milliy o'zlik masalalarini o'rganish nuqtai nazaridan ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Shuning uchun ham uning poetik olamini tahlil qilish, undagi badiiy tasvir, mavzu rang-barangligi va falsafiy qatlamlarni o'rganish adabiyotshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mahmud Darvish (1941) al-Birva qishlog'ida tug'ilgan. 1948-yilda yetti yoshida oilasi bilan Livanga ko'chib ketdi. U yoshligidan kitob o'qish va chizishni yaxshi ko'rardi, keyinchalik o'qituvchi bo'lib ishladi.

Mahmud Darvish o'zining sermahsul ijodi, sodda, ammo teran tili, keng qamrovli mazmuni, teran g'oyalari bilan ajralib turardi. Darvish zamonaviy arab she'riyati harakatida o'ziga xos hodisa bo'lib, uni jahonga mashhur shoirlar qatoriga qo'yadigan bosqichga ko'tarildi.

Shuningdek, ayrim tanqidchilarning fikricha, Darvishning she'riy ijodi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Birinchi bosqichda shoir boshqa buyuk shoirlar she'riyatidan ta'sirlanib, aynan shu bosqichda uning "Qanotsiz qushlar" to'plami nashr etilgan. Ikkinchi bosqich uning "Zaytun barglari" (1964) to'plamida ifodalangan. Bundan tashqari, «Falastinlik oshiq» (1966), «Tunning oxiri» (1969), «Odatdagi g'amgin kunlar» (1973), «Ovoz» (1980) to'plamlari ham diqqatga sazovor. She'rlari o'nlab xorijiy tillarga, jumladan, o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. Darvish xalqaro «Nilufar» adabiy mukofoti laureati (1969). Uchinchi bosqich 1966-yildan 1970-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davrda Darvish to'rtta she'riy to'plamini nashr ettiradi.

To'rtinchi bosqich, boshqa bosqichlar ichida eng boy va o'ziga xos bo'lib, bu bosqich uning "Men seni sevaman yoki men seni sevmayman" to'plami bilan ifodalanadi. Shuningdek, beshinchi bosqich – "To'ylar" to'plamidan boshlanib, "Otni nega yolg'iz tashlading?" to'plamigacha cho'zilgan epik lirik bosqich. "Dengiz qamalini maqtaydi" to'plamini o'z ichiga olgan.

Masalan, shoirning "Zaytun daraxti" she'rini tahlil qilib ko'raylik. Darvishning turli she'rlarida zaytun daraxti ramz sifatida markazga chiqadi: mazmun bir biriga yaqin – Vatan, barqarorlik, tinchlik, intilish.

شجرة الزيتون

شجرة الزيتون لا تبكي ولا تضح

هي سيدة السفوح المحتشمة. يظلمها تغطي ساقها

ولا تخلع أوراقها أمام عاصفة
كأنها جالسة، وتجلس كأنها واقفة تقف
تحيا أختاً لأبدية أليفة وجارة لزمن
يعيها علي تحزين الزيت النوراني وعلي
نسيان أسماء الغزاة ماخلا الرومان
الذين عاصروها واستعارو بعض أغصانها
لضفر الأكاليل. لم يعاملوها كأسيرة حرب
بل كجدة محترمة ينكسر السيف أمام
وقارها النبيل في فضة حضرته المتقشفة
خفر اللون من الإفصاح والنظر إلى ما
وراء الوصف فلا هي خضراء ولا فضية
هي لون. السلام إذا احتاج السلام إلي فصيلة
لون لا يقول لها أحد: كم أنتي جميلة

Tarjimasi:

Zaytun daraxti

Zaytun daraxti — yig‘lamaydi ham, kulmaydi ham.

U saholarning og‘ir, kamtar malikasi — soyasi bilan oyoqlarimizni yopadi, yaproqlarini dovul oldida to‘kib qo‘ymaydi.

U o‘zi kabi sokin o‘tiradi, go‘yo abadiy hayot uchun tik turgandek.

U abadiyatning qiyofasini sevadi, va zamonning sadoqatli qo‘riqchisidir.

U — yog‘ni saqlashga, sariq moyni yig‘ishga odatlangan, unutilgan mavsumlar ismlarini eslab turuvchi daraxt — ana shu anor bog‘lari ichida.

Uni zararlaganlar ham, shoxlarini sindirganlar ham ko‘p edi, ammo uni o‘rmonlar singari urushlar kabi tutmadilar.

U qo‘rqoqlikdan emas, balki dag‘allikdan o‘tmishida qilich sindirgan odamlar oldida mag‘rur va vazmin turadi.

Uni hashamatli va kamtar qaddi bilan bizga qarab turadi, rangini oshkor etmaydi — yashil ham emas, kumush ham emas.

Uning rangi — tinchlikning rangi, agar tinchlik fazilat talab qilsa.

Bu — o‘ziga xos rang, hech kim unga: “Qanchalar go‘zalsan!” — deb aytolmaydi.

Bu parcha tahlilidan bilamizki, zaytun daraxti orqali xalqning matonati timsoli aks ettirilgan, daraxtning tik turishi xalqning saboti ramzidir.

She’rida zaytun daraxti — shunchaki daraxt emas. U inson kabi. U tarix kabi. U qat’iyatning jonli timsoli. She’rning har bir satri zaytunni ayol qiyofasida ko‘rsatadi: kamtar, sokin, lekin sinmaydigan. Shoir uni «السفوح المحتشمة» deb ataydi — uyatchan

yonbag'irlarning malikasi. Bu ibora zaytunning tabiat bilan uyg'un turishini, serharakat shamolga ham o'zini ochmasligini bildiradi.

Shoirning eng kuchli o'xshatishlaridan biri — daraxtning o'tirganday, lekin turganday tasvirlanishidir. Bu ikki holat o'rtasidagi taranglik zaytunning boqiyiligiga ishora qiladi. U vaqt bilan hamnishin. U o'tmaydi, o'zgarmaydi, egilmaydi.

She'ning markazida bir fikr bor: zaytun daraxti — vaqtning qo'shnisi.

Shoir uchun u shunchaki daraxt emas, tarixni ko'rgan oqila guvoh. Zaytun yog'i «mishkat»dagi nurga o'xshatiladi, ya'ni undagi baraka va ramziy poklik eslatiladi.

Shoir zaytunni turli bosqinchi xalqlar bilan qiyoslaydi. U faqat rimliklarni istisno qiladi: «ما خلا الرومان». Boshqalar o'tib ketgan, nomi ham yodda qolmagan. Zaytun esa turibdi. Rimliklar esa uni yo'q qilishmagan, balki undan gulchambar yasash uchun shox olib, uni hurmat qilgan.

Bu yerda shoir tarixni eslatadi: rimliklarning madaniyatga yaqinlashuvi, zaytunni tinchlik ramzi sifatida qadrlashi. Shuning uchun shoir zaytunni «جدة محترمة» — hurmatli momo deb ataydi.

Uning qarshisida qilich sinadi — bu juda teran ma'no. Qurol kuchi qarshi tura olmaydigan narsa bor: qadriyat, vaqt, matonat.

She'ning eng nozik nuqtasi — rang tasviridir. U na yashil, na kumushrang. Bu rangni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. U tinchlikning rangi, ammo shoir aytadi: tinchlik ham bir rangga muhtoj bo'lsa, u mana shu rang bo'ladi.

She'ning yakuni achchiq. Zaytun qudratli, abadiy, tinchlik ramzi, lekin hech kim unga: «Qanchalar go'zalsan», — demaydi.

Bu yerda insonning ko'r bo'lishi, odatga aylanib ketgan ne'matning qadrsizlanishi ustidan kinoya bor. Zaytun go'zallikni talab qilmaydi; o'zi bilan o'zi mukammal turadi. Shoir esa uning sukutdagi ulug'vorligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Mahmud Darvish — faqat shoir emas, balki o'z xalqining dardini, orzusini va kurashini so'zga aylantirgan buyuk qalb egasi edi. Uning hayoti musofirlik, sog'inch va erkinlik uchun izlanishlar bilan o'tdi. U vatandan uzoqda yashagan bo'lsa ham, o'z yuragini hech qachon undan ayirmadi. Hech qachon umidsizlikka tushmadi — she'r orqali o'z vatanini, o'z xalqini va o'zini abadiylikka muhladi. She'rlari esa bugun ham millionlar qalbida yashashni davom etmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Darwish M. Why Did You Leave the Horse Alone? / translated by Jeffrey Sacks. — Brooklyn (NY): Archipelago Books, 2006. — p. 197.
2. Mahmud Darvish (1941–2008) // Ziyoz.uz. — Ziyouz.uz. — 23.12.2014. — URL: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/arab-she-riyati/mahmud-darvish-1941-2008>

3. «Falastin adabiyoti va Mahmud Darvish» // Adabiyot.uz. — URL: <https://adabiyot.uz>

SAYOHATNOMALAR SULTONI: IBN BATTUTA HAYOTI

*Mansurova Rayxona Adham qizi,
Oriental universiteti,
Filologiya tillarni o‘qitish (Arab tili)
yo‘nalishi AF301-guruh talabasi
Ilmiy rahbar. Tillar-1 kafedrasi o‘qituvchisi
S. Mamanazarova*

Annotatsiya. Ushbu maqolada “sayohatnomalar sultoni” sifatida mashhur bo‘lgan Ibn Battutaning hayoti, uning georafik izlanishlari, ilmiy merosi, shuningdek, Sharq va G‘arb olimlarining unga bergan baholari yoritiladi. Maqolada Ibn Battuta tomonidan yozilgan “Rihla” asarining ilmiy, madaniy va tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan adabiyotning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqidagi rasmiy nutqlardan iqtiboslar keltirilib, xalqaro adabiyotshunoslikdagi bahslar misolida Ibn Battuta merosining bugungi kundagi dolzarbligi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: Ibn Battuta, Rihla, sayohatnoma, Sharq adabiyoti, manbashunoslik, tarix, geografiya, madaniyatlararo muloqot.

Abstract. This article examines the life and scientific legacy of Ibn Battuta, widely known as the “sultan of travelers.” It analyzes the historical, cultural, and literary significance of his work “Rihla,” while also presenting scholarly evaluations from both Eastern and Western researchers. Additionally, the article includes cited statements from the President of the Republic of Uzbekistan regarding the importance of literature in societal development. The study provides a comprehensive overview of Ibn Battuta’s contributions within a modern academic context.

Keywords: Ibn Battuta, Rihla, travel literature, Oriental studies, cultural history, manuscript studies.

Sayohatnoma janri jahon adabiyotining eng qadimiy va eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yo‘nalishning yuksalishida Ibn Battuta (1304–1369) kabi ulkan mutafakkirlarning hissasi beqiyosdir. U 30 yildan ortiq davom etgan sayohatlari davomida Shimoliy Afrika, Andalusiya, Misr, Shom, Iroq, Fors, Katta Osiyo, Hindiston, Xitoy, Janubiy Rossiya, Movarounnahr va boshqa hududlarni kezib chiqqan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2017-yil 12-yanvar kuni Alisher Navoiy tavalludining 576 yilligiga bag‘ishlangan yig‘ilishda adabiyotning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rniga to‘xtalar ekan, shunday degan edi:

> "Adabiyot – xalq ma’naviyatining tayanchi, insonni tarbiyalaydigan, unga yo‘l ko‘rsatadigan bebaho boylikdir."

Bu fikr Ibn Battuta kabi tarixiy shaxslarning yozma merosini o‘rganish naqadar dolzarb ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki “Rihla” – faqat sayohatnoma emas, balki o‘sha davr jamiyati, iqtisodi, odob-axloqi, dini, siyosati va madaniy hayotining ensiklopediyasidir.

1. Ibn Battutaning hayoti va sayohatlari

Ibn Battuta 1304-yilda Marokashning Tangier shahrida tug‘ilgan. U dastlab fiqh (islom huquqi) bo‘yicha tahsil olgan, keyinchalik Haj safariga chiqadi. Bu safar uning butun umrini sayohatga bag‘ishlashiga turtki bo‘ladi. Uch qit‘ani kezgan olim jami 120 ming kilometrdan ortiq yo‘l bosgan — bu o‘sha davr sharoitida rekord darajadagi ko‘rsatkichdir.

Sayohat yo‘nalishlarining ayrimlari:

Shimoliy Afrika va Misr

Makka – Haj marosimi

Suriya, Iroq, Fors

Movarounnahr: Buxoro, Samarqand, Termiz

Hindiston – Dehli sultonligi saroyida qozilik

Maldiv orollari

Xitoy (Guanchjou)

Andalusiya va Afrika ichki hududlari

2. "Rihla" – adabiy va tarixiy yodgorlik

Asar to‘liq nomi “Tuhfat an-nuzzor fi g‘arob al-amsor va ‘ajoib al-asfor”, lekin ko‘proq “Rihla” nomi bilan tanilgan.

Asarning ilmiy ahamiyati:

14-asr Sharq va G‘arb dunyosining madaniy atlas

Tarixiy antropologiya uchun noyob manba

Ijtimoiy-siyosiy hayot tasviri

Savdo yo‘llari va geografik obyektlar haqida mustahkam faktlar

Sharqshunos A. Chernovskiy shunday deydi:

> “Ibn Battuta nafaqat sayyoh, balki teran kuzatuvchi tarixchi sifatida ham o‘z davrining eng ishonchli manbalaridan biri bo‘lib qoldi.”

Fransuz sharqshunosi R. Bloshe esa uni:

> “Marko Polodan keyin eng ulkan geografik tafakkur egasi,”

— deya baholaydi.

3. Ibn Battuta haqida olimlar fikri

Quyida ayrim mashhur tadqiqotchilarning ilmiy baholari keltiriladi:

1. Ibn Xaldun:

“Ibn Battuta kabi keng qamrovli sayohatni amalga oshirgan zotni men bilmayman.”

2. G. T. Streng (Germaniya):

“Rihla – musulmon sharqining eng to‘liq etnografik manbalaridan biridir.”

3. D. V. Devereux (AQSH):

“Ibn Battuta kundalik yozuvning 14-asrdagi eng ilg‘or namunalarini yaratdi.”

4. Ibn Battutaning Movarounnahr haqida qaydlari

Olimning Samarqand va Buxoro haqidagi tasvirlari Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda asosiy yozma manbalardan biri bo‘lib qolmoqda.

U Samarqand haqida shunday yozadi:

> “Bu shahar ulug‘vorligida tengsiz, uning bog‘lari va bozorlari Sharqda mashhurdir.”

Tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllanadi:

1. Ibn Battuta Sharq madaniy geografiyasining eng muhim tadqiqotchisidir.

2. Uning “Rihla”si bir vaqtning o‘zida tarix, adabiyot va geografiya fanlari uchun qo‘shma manbadir.

3. Dunyo olimlari tomonidan “sayohatnomalar sultoni” deb e‘tirof etilishi bejiz emas — uning kuzatuvlari juda aniq, tafsilotlarga boy va ilmiy qiymatga egaligi bilan ajraladi.

4. O‘zbekiston Prezidenti adabiyotning inson tarbiyasidagi o‘rni haqida aytgan fikrlar Ibn Battuta merosining bugungi davrda ham o‘ta dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Ibn Battuta o‘zining ulkan sayohatlaridan tashqari, o‘z davri jamiyatining tarixiy ko‘zgusi hisoblangan “Rihla” asarini yaratdi. Bu asar Sharq adabiy merosining oltin fondida munosib o‘rin egallaydi. Uning merosi nafaqat tarixchilar, balki adabiyotshunoslar, antropologlar va geograf olimlar uchun ham bebaho manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibn Battuta. Rihla (Tuhfat an-nuzzor fi g‘aroib al-amsor...).

2. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va ma’naviyat masalalariga bag‘ishlangan nutq. 12.01.2017.

3. Chernovskiy A. Vostochnye putevye zapiski. Moskva, 1989.

4. Devereux D. Travellers of the Medieval World. New York, 2003.

5. Gibb H. A. R. The Travels of Ibn Battuta. Cambridge University Press, 1958.

6. Bloche R. Études Orientales. Paris, 1977.

7. Ibn Xaldun. Muqaddima. Beirut nashri.
8. Al-Idrisi. Geografiya va sayohatlar tarixi.
9. Barthold V.V. Turkiston tarixi.
10. Qosimov B. Sharq mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2010.

ILK ISLOM SHE'RIYATI

Komiljonova Diyora

Oriental universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish

4-bosqich 204-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasida o'qituvchisi Abdullayeva Sh.

Annotatsiya. Mazkur maqolada islomning dastlabki davridagi shoirlar ijodi haqida ma'lumot beriladi. Islom dinining dastlabki davrlarida shakllangan she'riyatning xususiyatlari va uning tarixiy ahamiyati. Islom dini qabul qilinganda va Payg'ambarimiz Muhammad (S.A.V.)ga bo'lgan muhabbatini faol ravishda ko'rsata olgan shoirlar orasida Ka'b ibn Zuxeyr va Hasan ibn Sobit alohida o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar. Islom she'riyati, arab she'riyati, Ka'b ibn Zuxeyr, Hasan ibn Sobit.

Abstract. This article provides information about the work of poets in the early period of Islam. Features of poetry formed in the early periods of Islam and its historical significance. Ka'b ibn Zuhayr and Hasan ibn Thabit occupy a special place among the poets who actively demonstrated their love for the Prophet Muhammad (PBUH) during the adoption of Islam.

Keywords: Islamic poetry, Arabic poetry, Ka'b ibn Zuhayr, Hasan ibn Thabit.

Arab adabiyotida she'r yetakchi rol o'ynagan; dushman tanqidi, maqtanish qasos qo'shig'i, motam qo'shig'i yoki elegiya janrlari, shuningdek, ishq va tavsif lirikasi elementlari erta shakllangan. Badiiy nasrning asoslari qadimgi davrlarga borib taqaladi: notiqlik, qabilalar jangi haqidagi hikoyatlar (Ayyam al-Arab) va boshqalar. Unutilmas voqealar. V—VII asrlar she'riyati gullab-yashnash davri bo'lib, arab adabiyotida uzoq vaqt davomida mavzu va badiiy uslubni belgilab beruvchi she'riy til, o'lchov va estetik ideallarning o'ziga xos me'yoriga aylandi. Qadimgi arab she'riyatining asosiy adabiy shakllari va amorf bo'lak edi. Arab she'riyatining o'ziga xos xususiyati monorimdir; har bir misra, qoida tariqasida, bir gapdan iborat bo'lib, mustaqil semantik estetik birlikdir.

Islomgacha bo'lgan 125 ga yaqin shoirlarning (VII asr oxiri —1-yarmi) nomlari va ijodi saqlanib qolgan, jumladan, klassik qasida turini yaratishda xizmat qilgan Imru

al-Qays (500—540) Tarafo(543-569), Al-Horis ibn Hillizo al-Yashkuriy (vaf. 570), Zuhayr ibn Abu Sulma (530-627), Antara ibn Shaddod al-Absiy (525-615) va boshqalar.

Quron a'rab yozuvining birinchi yirik yodgorligiga aylandi. Qur'onning ta'siri keyingi barcha arab adabiyotlarida seziladi. Bu davr she'riyatida yangi hodisalar Arab xalifaligining yirik shahar markazlari aristokratik muhitida kuzatilib, bu yerda ishq lirikasi kichik she'rlar tarzida rivojlangan. Bu janrning ko'zga ko'ringan namoyandalari Makkalik Umar ibn Abu Robiya (641-712/718), Al Axvas Madinadan, Damashq xalifasi Valid II .

Islomning boshlang'ich davrlarida she'riyat ko'plab o'zgarishlarga uchragan, chunki arab dunyosida diniy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar yangidan ifodalanishi kerak edi. Ilk islom she'riyatida arab shoirlari, o'zlarining yaratgan she'rlari orqali diniy hikmat va dunyoqarashni ham ifoda etganlar. She'riyat faqatgina inson ruhiyatining aksini emas balki diniy ta'limotlar Qur'on va hadislarning ta'siri ostida rivojlandi. Ularning she'rlari Qur'on oyatlari va hadislarning ta'siri ostida yozilgan bo'lib, o'z davrining ijtimoiy va siyosiy muammolarini ham aks ettirgan. Islom she'riyati dastlabki davrda, asosan, qasidalardan, maqtalardan va diniy she'rlardan iborat bo'lib, unda taqvo, sabr, adolat va islomning boshqaruv tamoyillari ko'tarilgan. Bu maqolada ilk islom she'riyatining shakllanishi, asosiy xususiyatlari va uning tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Islomdan avval, arab she'riyati asosan qadimgi qabilalar orasida yoritilgan qahramonlik, urushlar va sevgi haqidagi mavzularga asoslangan edi. Islom shoirlari endi faqat o'z qabilasining qahramonligini yodga olish bilan cheklanib qolmay, balki insof, sabr, xayr-sadaqa va ilohiy ahamiyatga ega tushunchalar asosida she'rlar yaratishga intilishdi. Ilk islom she'riyatida bir necha muhim xususiyatlar mavjud. Birinchidan, u Qur'on va hadislarning bevosita ta'sirida rivojlandi. She'rlar ko'pincha diniy axloqiy hikmatlar va Qur'ondan olingan oyatlarni ifodalashga qaratilgan.

Masalan, islomiy she'riyatda sabr, tavba, tahorat, sadaqa, adolat va rahm-shatgat kabi insoniy fazilatlar yoritildi. Shu bilan birga, shoirlar o'z she'rlarida taqvo va ma'rifatni ham ko'rsatdilar. Ikkinchidan islom she'riyatida tasavvufning o'rni ham katta. Tasavvuf-ruhiy va ma'naviy o'zgarishlarga qaratilgan bir yo'ldir, va uning she'riyati odatda ichki izlanishlar, Allohga bo'lgan muhabbat va ilohiy bilimni qidirish haqida bo'ladi.

Uchinchidan, islom she'riyati ko'proq ahloqiy, ma'naviy va ijtimoiy mavzularni yoritdi. She'rlar jamiyatni yaxshilikka chaqirish, adolat va barqarorlikni targ'ib qilishga qaratilgan edi. Bu she'rlar insonni nafaqat diniy jihatdan balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham tarbiyalashni maqsad qilgan.

Ilk islom she'riyati, shubhasiz, o'z zamonasining eng katta madaniy va diniy yangiliklaridan biriga aylandi. Islom dini jamiyatga yangi axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni olib keldi va bu qadriyatlar she'riyatda o'z ifodasini topdi. Shuningdek, islom she'riyati diniy ta'limotlar bilan birga, adabiyot va san'atning boshqa tarmoqlariga ham ta'sir ko'rsatdi. Islom she'riyati, o'zining so'zlari orqali, o'sha davrning muammolarini hal qilishga, insonning ruhiy rivojini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, islom she'riyati, nafaqat din, balki madaniyat va san'atning rivojiga ham katta hissa qo'shgan.

Ka'ab ibn Zuxayr. Ka'ab ibn Zuxayr ibn Sulmo G'atafan qabilasida tug'ildi. U juda erta she'r yoza boshladi, biroq otasi uni o'z she'riy qobiliyatini barvaqt ketkazib qo'ymasin deb she'r yozishni taqiqlaydi. Rasululloh islom yo'liga da'vat qilayotganlarida Ka'ab mashhur shoir edi. Akasi Bujayr islomni qabul qilganda, u ota bobolar diniga qaytishni talab qilib, Muhammad alayhissalom va islomni vasf qilib asarlar ham yozdi. Keyinchalik akasi maslahatiga ko'nib Madinaga bordi va Rasulullohdan uzr so'rab qasida o'qib berdi. Payg'ambarimiz uni kechirib o'z chakmonlarini xadya qildilar va u qasida "Burd" nomini oldi. Qasida uch qisimdan iborat bo'lib, ular quyidagilar: 1) qadimgi shoirlarning an'analarini davom ettirilib yozilgan ruboiy nasb qismi.; 2) o'z maxbubasi visoliga oshiqayotgan shoirni olib ketayotgan tuyasining vasfi; 3) Payg'ambarimizdan avf etishlarini so'rab, Rasulullohni va ularning saxobalarini madh etib yozilgan qismi. Qasidaning nasb qismida shoirning ichki kechinmalari tasviri yoritiladi. Vasf qismida tasvirlangan tabiat va uning go'zalliklarini ko'ra bilish xususiyati va madh qismida Payg'ambarimizning dono rahbarliklari, aql-zakovati, obro'lari, saxobalarining shijoati va matonatlari ifoda etiladi. Ka'ab ibn Zuxayr qadimgi arab shoirlarining usullariga qat'iy amal qiladi.

Hasan ibn Sobit. Hasan ibn Sobit Xasraj qabilasiga mansub bo'lib, Madina shahrida tavallud topgan. U o'z qabilasini himoya qilib asarlar yozgan. Olmish yoshida islom dinini qabul qilgan shoir Rasululloh va Islomni himoya qilib qasidalar bitdi hamda uning dushmanlariga qaratib yozilgan kuchli hajviy she'rlari bilan shuhrat qozondi. Hasan ibn Sobit ijodiga ba'zi Islom dushmanlari va xalq romanlari mualliflari tomonidan begona she'rlar kiritilgan. Shuningdek, shoir ko'proq hajv ya'ni hajviya janrda ijod qilgan. Qolgan barcha she'rlari Rasululloh va ularning saxobalariga bag'ishlangan. Hasan yangi din himoyasiga o'tlanarkan, eski tartibga jon jaxdi bilan kurashgan Quraysh qabilasi ahillarini hajv qilishni maqsad qilib oladi. Biroq Payg'ambarimizning mazkur qabilaga mansubligi uni qiyin ahvolga solib qo'yadi. Rivoyat qilishlaricha, shoir Quraysh qabilasini hajv qilmoqchi bo'lganida Rasululloh so'rabdilar: "Meni nima qilasan?" (O'zlarini ham shu qabilaga mansubliklarini

bildirgan holda) shunda shoir: “Sizni hamirdan qil sug‘irib olganday ajratib olaman”, deb javob beradi. Shundan so‘ng Rasululloh Quraysh qabilasidan kimlarni hajv qilishni ko‘rsatish uchun Abu Bakrni shoirga ustoz etib tayinlaydilar. Shu tufayli Hasan o‘z asarlarida Payg‘ambarimizga va ularning yo‘llariga ashaddiy qarshilik ko‘rsatgan Abu Jahl, Abu Laxab va Abu Sufyon ibn Xaraslarni hajv qilish bilan kifoyalanadi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki Hasan ibn Sobit “Rasulullohning shoiri” laqabini ham olgan.

Xulosa. Ilk islom she’riyati o‘zining ma’naviy va axloqiy ahamiyati bilan alohida o‘rin tutadi. Islom dini boshlanishi bilan, arab she’riyati Qur’on va hadislarning ta’siri ostida yangi yo‘nalishlarga yuzlandi. Islom she’riyati o‘zining yuqori ma’naviy iymati bilan bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda, chunki u nafaqat diniy ta’limotlarni balki insoniyatning umumiy ruhiy va axloqiy holatini ham ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xanna al Faruxiy. История арабской литературы. 1-том,-Москва,1959.-176-362-betlar.
2. Mumtoz arab adabiyoti (o‘quv qo‘llanma) Ziyovvudinova.M Toshkent-2011
3. Исламское искусство, литература и культура. Нью-Йорк: Britannica Educational Publishing, 2010.
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Maxsus:BookSources/978-1-61530-097-6>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadimgi_arab_she%CA%BCriyati
6. <https://uz.interpret-dreams-online.com/Hasan-ibn-Sobitning-Rasululloh-Effatni-madh-etgan-she%27rining-izohi/>

ABBOSIYLAR DAVRIDAGI ADABIY YUKSALISH: ADABIYOT VA FALSAFA UYG‘UNLASHUVI

Isamuhamedova Nargiza Nigmanovna

Oriental universiteti,

Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) yo‘nalishi

AFK102-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasida o‘qituvchisi Mahmudov Akram

Annotatsiya. Maqolada Abbosiylar davrida arab adabiy tafakkurining yuksalishi, yangilanish ruhining kuchayishi va qadimgi qasida an’alarining qayta jonlanishi yoritiladi. Davrning ilmiy-madaniy muhiti, xususan, tarjima harakatining adabiy jarayonga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Bashshar ibn Burd, Abu Nuvo va Abul Ataxiya kabi ijodkorlarning shahar hayoti, ijtimoiy kechinmalar va yangi badiiy shakllarni she’riyatga olib kirgani ko‘rsatiladi. Qadimgi an’alarga qaytgan adabiy

oqimda esa Abu Tammom va Al-Buxtariy tomonidan mumtoz qasidachilik asoslarining qayta mustahkamlangani izohlanadi. Maqola umumiy adabiy muhit, madaniyatlararo uygʻunlik va ilm-fan taraqqiyoti bilan bogʻliq keng qamrovli jarayonlarni yoritgan holda, Abbosiylar adabiyotining shakllanish omillarini ochib beradi.

Kalit soʻzlar: Abbosiylar, yangilanish, qadimiy maktab, tarjima harakati, sheʼriyat, qasida anʼanalari, adabiy jarayon, badiiy izlanish.

Abstract. This article examines the rise of Arabic literary thought during the Abbasid era, highlighting the spread of renewal ideas and the revival of classical qasida traditions. It analyzes the intellectual and cultural environment of the period, with particular attention to the translation movement and its influence on literary development. The study discusses how poets such as Bashshar ibn Burd, Abu Nuwas, and Abu al-Atahiyah introduced urban themes, social experiences, and new artistic forms into poetry. It also explains how Abu Tammam and Al-Buhturi revitalized classical poetic conventions within the school that returned to ancient models. By outlining the broader cultural setting, intercultural synthesis, and scientific flourishing of the time, the article reveals the key factors that shaped Abbasid literary progress.

Keywords: Abbasids, renewal, classical school, translation movement, poetry, qasida traditions, literary development, artistic innovation.

Arab adabiyotining kuchayishiga turtki boʻlgan asosiy jarayonlardan biri VIII asr oʻrtalarida boshlangan keng koʻlamli tarjima harakati edi. Bu harakat orqali yunon, rim va boshqa qadimiy madaniyatlarga mansub ilmiy meros arab tiliga oʻtkazildi. Natijada arab tilidagi ilmiy muhit boyidi, tafakkur doirasi kengaydi va adabiy jarayonlar yangi ruh oldi.

Abbosiylar davri ilm-fan rivoji uchun qulay sharoit yaratgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan ajralib turadi. Yagona davlatning shakllanishi, jamiyatning umumiy eʼtiqod ostida birlashuvi, iqtisodiy taraqqiyot, arab tilining rasmiy maqomga koʻtarilishi hamda olimlar qadrlanadigan ilmiy muhitning yuzaga kelishi bu davrni alohida mavqega ega qildi. Bagʻdod tez orada ilm-fan markaziga aylandi. Bu yerda tashkil etilgan «Bayt al-hikma» turli xalqlardan chiqqan olimlarni bir joyga toʻplagan ilmiy maskan sifatida muhim oʻrin egalladi. Arab, fors, turk, yunon, nasroniy, yahudiy va boshqa kelib chiqishga mansub mutafakkirlar shu markazda birgalikda ishlashdi va koʻplab fan yoʻnalishlarida muhim natijalar yaratdilar.

VIII–IX asrlarda arab adabiyotida yangilanish jarayonining boshlanishi kuzatiladi. Shoirlar anʼanaviy qasida qoliplaridan chekinib, zamondoshlarining kechinmalari, turmush tarzi va ijtimoiy voqeliklariga murojaat qila boshladilar. Bashar

ibn Burd kabi ijodkorlar turli ijtimoiy qatlamlarning real hayotini she'riyatga olib kirib, adabiyotda yangi, ta'sirchan va hayotga yaqin uslubning shakllanishiga sabab bo'ldilar.

Arablar VII–VIII asrlardan boshlab fathlar tufayli Misr, Suriya, Iroq, Markaziy Osiyo, Mag'rib mamlakatlari va Andalusga kirib bordilar. Adabiy-madaniy meros ham ular bilan birga yangi hududlarga tarqaldi. Bu jarayon keyingi asrlarda shakllangan arab tilidagi she'riyatga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. VIII–XII asrlarda arab she'riyati o'zining eng yuqori bosqichiga yetdi. Sevgi lirikasining yangi talqini, madaniyatlararo unsurlarning qo'shilishi va yangi badiiy yo'nalishlarning paydo bo'lishi shu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan edi. Bu yo'nalishning ilk yirik vakili Eron zodagonlaridan bo'lgan Bashshar ibn Burd sanaladi.

O'sha davr she'riyatining keng yoyilishida professional qiroatchilar — roviylar muhim rol o'ynagan. Ular xalq orasida she'rlarni tarqatib, har bir asarga o'ziga xos talqin va rang bag'ishlaganlar. Faqat VIII asr oxirlariga kelibgina yozma manbalar paydo bo'lib, ayrim she'riy to'plamlar bugungi kungacha yetib kelgan.

Xalifalik hududida turli etnos va madaniyatlar o'zaro qo'shib ketgan edi. Forslar, yunonlar, arameylar, yahudiylar, O'rta Osiyo va Kavkaz xalqlarining qadimiy madaniy tajribasi arab-islam sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shdi. Ana shu madaniy uyg'unlik tufayli arab adabiyoti va fani jahon ilmiy maydoniga chiqdi.

Bu davrda yetishib chiqqan mashhur olimlar orasida Xorazmiy, Kindiy, ar-Roziy, Ibn Sino, Farobiy, al-Istaxriy, al-Mas'udiy, al-Beruniy, at-Tabariy kabi turli hududlardan chiqqan mutafakkirlar bor edi. Ularning ko'pchiligi asarlarini arab tilida yozgani xalifalikning intellektual kengligini yanada yaqqol ko'rsatadi. Bag'dod, Kufa, Basra, Fustat, Buxoro, Samarqand, Damashq va Halab kabi shaharlarda yirik ilmiy maktablar, kutubxonalar va adabiy majlislar faoliyat yuritgan.

Arab adabiy tanqidchiligida «yangilanish harakati» deb yuritilgan davr VIII asr o'rtalaridan IX asr boshlarigacha davom etgan. Bu harakat qadimgi she'riyatning an'anaviy qoliplariga tayanishdan voz kechishni, yangi g'oyalar, yangi badiiy shakllar va yangi poetik tamoyillarni adabiyotga olib kirishni maqsad qildi. Bu jarayon siyosiy va g'oyaviy kurashlar bilan ham bog'liq bo'lib, bir tomonda badaviy an'analarni saqlamoqchi bo'lgan zodagonlar, boshqa tomonda esa xalifalikning turli xalqlardan iborat keng ommasi turardi.

Yangilanish g'oyalarining ilgari surilishida Eronda tug'ilgan arab shoirlari — Bashshar ibn Burd va Abu Nuvos alohida o'rin tutadi. Ular o'z asarlarida an'anaviy qadriyatlarni tanqid qildilar, kundalik hayotning real tasvirlarini she'riyatga olib kirdilar va arab adabiyotining yangi bosqichiga asos soldilar. Ularning ijodida mavzu yangiliklari bilan bir qatorda uslubda ham yangicha badiiy izlanishlar ko'zga tashlanadi.

Bashshar ibn Burd (714, Basra - 783, Bag‘dod) — arab shoiri. Asli fors bo‘lib, yoshligidan ko‘zi ko‘r bo‘lgan. Basra va Bag‘dodda yashab, arab va fors tillarida ijod qilgan. Muhabbat lirikasining ustasi, maqtov-madhiya va hajviy mazmundagi she‘rlar muallifi. Arab she‘riyatidagi an‘anaviy qoidalarni buzib, "yangicha uslub"ning asoschisi bo‘lgan. Ochiqchasiga zar-dushtiylik g‘oyalarini targ‘ib qilgani, binobarin, "axloqsizligi" uchun 744-yildan ona shahridan quvg‘in qilingan. Iroq bo‘ylab sarson-sargar-don bo‘lib yurib, 762 yilda Basraga qaytib kelgan. Xalifa al-Mahdiyning saroy (maddoh) shoiri bo‘lishga harakat qilgan. Vazir Ya‘qub ibn Dovud haqidagi zaharxanda hajviyasi uchun xalifa amriga ko‘ra kaltaklab o‘ldirilgan. Bashshar ibn Burd haqida ko‘plab lati-falar to‘qilgan; ular Abulfaraj isfahoniyni 20 j.li "Al-ag‘oni ulkabir" ("Qo‘shiqlar katta kitobi")da saqlanib qolgan.

Ijodining asosiy jihatlari shunda ediki, an‘anaviy arab she‘riyatining qoidalarini buzib, yangi uslubga asos solgan edi. Ochiq va sodda uslubda muhabbat mavzusida yozganda, ochiqchasiga va sodda uslubni qo‘llagan, ko‘p ham ixtiyoriy iboralardan chetlashgan. Muhabbat lirikasini ustasi bo‘lgan. Maqtov-madhiyalar (panegiriklar): Xalifa al-Mahdiy kabi hukmdorlarga bag‘ishlab she‘rlar yozgan. Hajviy she‘rlar: Jiddiy hajviyalari bilan mashhur bo‘lgan, ammo ba‘zan o‘zi uchun xavfli bo‘lgan hajviy asarlari tufayli jiddiy muammolarga duch kelgan. Ma‘naviy va diniy qarashlari-Zardushtiylik g‘oyalarini targ‘ib qilgani uchun ko‘pchilik tomonidan "axloqsiz" deb topilgan. Ba‘zi fikrlarga ko‘ra, u Qur‘onni adabiy asar sifatida tanqid qilgan. Uning ijodi keyingi asrlarda arab adabiyotining rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi va ko‘plab shoirlar uchun maktab bo‘lib xizmat qildi. Uning ijodi ko‘plab latoifalar va hikoyalarning mavzusi bo‘lgan, ular "Al-ag‘oni ulkabir" kitobida saqlanib qolgan. Quyida Bashshar ibn Burdning mashhur she‘rlaridan asl arabcha parcha, tarjimai keltiriladi: Uning quyidagi bayti arab adabiyotida eng ko‘p eslanadigan misralardan biridir.

إِذَا كُنْتُ فِي كُلِّ الْأُمُورِ مُعَانِبًا
 "فَمَنْ لِي بِالنَّفْسِ اللَّوَامَةِ الْمُنْعَبَةِ؟"

“Agar men qilgan har bir ish uchun koyiladigan bo‘lsam,

Unda men bilan charchamagan, malomat qilmaydigan bir nafs qayerda?”

Bu baytda shoir insonning o‘zini ayblashga moyilligi, jamiyatning tanqidlari, va ichki kurash haqida gapiradi. U har bir ishi uchun tanbeh eshitayotgan odamning ruhiy charchog‘ini tasvirlaydi. “An-nafs al-lavvomah” iborasi-bu Qur‘onda keladigan tushunchadir. Nafs al-lavvomah — o‘zini doim ayblaydigan, pushaymon bo‘ladigan nafs.

Bashshar bu iborani badiiy, falsafiy va ruhiy ma‘noda qo‘llagan. Fikrning mohiyati Shoir shunday deydi: Men nimani qilsam, tanqid qilinayapman.

Demak, men o‘zimni himoya qila olmayapman. Unda nega har doim o‘zimni ayblaydigan “ikkinchi men”ni o‘zim bilan olib yuray? Bu — insonning ichki monologi, o‘z ruhiy azobidan shikoyati.

Badiiy san’atlar shundaki-Istifhām inkoriy (inkor ma’nosidagi savol):

“Faman li...?” – “Unda men uchun kim bor?”— aslida “Hech kim yo‘q” degan ma’noni bildiradi.

Tashbih: “an-nafs al-lavvomah” — o‘zini ayblovchi ruhga obraz berilgan. Tiboq (qarama-qarshi ma’no): “mu’otaba” – “malomat qilinmoq”. She’r juda zamonaviy eshitiladi Bugungi insonlar ham ko‘p tanqiddan charchaydi, o‘zini ayblashdan holdan toyadi. Shoirning bayti hozirgi psixologik realiyatga juda yaqin. Yana bir mashhur bayti:

عَشِفْتُهَا وَهِيَ تَهْوَى غَيْرَ مُعْتَذِرٍ
"وَلَا نُبَالِي الْأَحْيَا عَائِقُ أُمَّ مَاتَا"

“Men uni sevaman, u esa uzr ham so‘ramay boshqani sevar,

Unga farqi yo‘q: oshiq tirikmi yo o‘lib ketdimi.”

Bu baytda iztirobli muhabbat tasvirlanadi. Ayolning beparvoligi oshiqning vafosiga qarama-qarshi qo‘yilgan. Bashsharning uslubiga xos keskinlik, drammatizm mavjud. Xulosa qilib aytganda, .VII-VIII asrlardan boshlab fath etuvchi arablar bilan birgalikda ushbu adabiyot Misr va Suriya, Iroq va Markaziy Osiyoga kirib, Magrib mamlakatlariga tarqaldi va Ispaniyani egallab oldi. U o‘zi bilan olib ketilgan va din — Islom dinining g‘ayratli tarafdorlari tomonidan ekilgan. (Garchi ko‘plab Arab yozuvchilari va shoirlari nasroniy bo‘lishgan bo‘lsa-da, asosiy mavzu hali ham Alloh edi.) Keyingi bir necha asrlar davomida sodir bo‘lgan ushbu voqealarning izlarini o‘quvchi ko‘plab oyatlarning mazmunida osongina topishi mumkin. VIII-XII asrlarda Arab tilida so‘zlashadigan she’riyat eng yuqori cho‘qqiga chiqadi, unda sevgi lirikasi islomlashgan xalqlarning madaniy an’analari bilan to‘ldirilganda va singdirilganda paydo bo‘ladi. Yangi yo‘nalishning birinchi vakili Eronning olijanob oilasidan bo‘lgan Bashshar ibn Burd adabiyotda katta o‘zgarishlar bo‘lishiga va rivojlanishiga hissa qo‘shgan.

Xulosa qilib aytganda, abbosiylar davrida ilm islom olamida eng gullagan paytiga to‘g‘ri kelib, har xil millat va din vaakillari birlashgan va ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shgan davr hisoblanadi. Abbosiylar davridagi kuchli halifalar nafaqat dinni yoyishgan, balki barcha ilm-fan turlarini ravnaq topishiga hissa qo‘shishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hitti, P. K. History of the Arabs. London: Macmillan, 1970.
2. Kennedy, H. The Early Abbasid Caliphate. London: Routledge, 2001.

3. Montgomery, J. E. Poetry and Civilization in the Abbasid Age. Cambridge University Press, 2017.
4. Allen, R. Arabic Literary History. Syracuse University Press, 2002.
5. Gibb, H. A. R. Arabic Literature – An Introduction. Oxford: Oxford University Press, 1963.
6. Ibn Qutaybah. «الشعر والشعراء». تحقيق: أحمد محمد شاكر. القاهرة: دار الحديث، 2005.
7. الجاحظ. «البيان والتبيين». بيروت: دار ومكتبة الهلال، 1998.
8. أبو الفرج الأصفهاني. «كتاب الأغاني». بيروت: دار الفكر، 1994.
9. Brockelmann, C. History of Arabic Literature. Leiden: Brill, 1949.
10. الموسوعي، شوقي ضيف. «العصر العباسي الأول». القاهرة: دار المعارف، 1986.
11. Renard, J. Islam and the Heroic Age of Arabic Literature. University of California Press, 2010.
12. زيدان، جرجي. «تاريخ آداب اللغة العربية». بيروت: دار مكتبة الحياة، 1982.

ANDALUSIYA ADABIYOTINING SHARQ ADABIYOTIGA TA’SIRI

Mirfozilov Otabek Tohir o‘g‘li

Oriental universiteti,

Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) yo‘nalishi

AFK104-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasi o‘qituvchisi N.Mavlonov

Annotatsiya. Maqola Andalus adabiyotining yuzaga kelishi, taraqqiy etishi va Sharq bilan G‘arb o‘rtasidagi badiiy almashinuvdagi o‘rnini tahlil etadi. Andalus shoirlari asrlar davomida jamiyatning ruhiy holatini, quvonchi va og‘irligini teran anglashga intilgan. Ular so‘zga yengil munosabat qilmagan, vaqtning qat’iy hukmini eslatib turgan. “Muvashshah” va “zajal” singari shakllar orqali arab she’riyati o‘ziga xos yangilanishni boshdan kechirgan, Yevropa trubadurlarining estetik qarashlari shakllanishiga ham ta’sir qilgan. Maqolada mazkur jarayonlarning ichki mantiqi va adabiy-estetik asosi izchil ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Andalus adabiyoti, muwashshah, zajal, badiiy meros, trubadurlar, madaniy ta’sir.

Abstract. The article examines the historical formation of Andalusian literature and its impact on the development of literary expression in both the Eastern and Western worlds. Andalusian poets confronted reality without embellishment, recording the tensions of their age in refined yet unyielding verse. Through poetic

structures such as muwashshah and zajal, Andalusian literature introduced notable innovations that later contributed to the evolution of European troubadour poetry. The study outlines these transformations and clarifies the cultural and aesthetic foundations that shaped this enduring literary legacy.

Keywords: Andalusian literature, muwashshah, zajal, poetic tradition, troubadours, cultural influence.

Andalusiya adabiyoti arab adabiyoti tarixining eng yorqin sahifalaridan biridir. U VIII–XV asrlar oralig‘ida Ispaniyaning janubiy qismi — Andalusiya (al-Andalus)da shakllangan bo‘lib, Sharq adabiy an‘analari va G‘arb madaniyati o‘rtasidagi uyg‘unlik mahsuli hisoblanadi. Bu adabiyot o‘zining badiiy yuksakligi, musiqiyliigi, yangicha shakllari va xalqona ruhdagi ifodasi bilan ajralib turadi .

Madaniy uyg‘unlik va adabiy muhit. Andalusiya arablar tomonidan zabt etilgach, bu hududda arab, ispan, yahudiy va berber madaniyatlari o‘zaro aralashdi. Shu bois, adabiy muhit nihoyatda boy va serqirra bo‘ldi. Andalusiya shoirlari Sharq adabiyotining mumtoz an‘analarini davom ettirish bilan birga, mahalliy tildan, tabiatdan, xalq hayotidan ilhom oldilar .

Bu uyg‘unlik natijasida adabiyotda yangi estetik shakllar, yangi tasvir vositalari paydo bo‘ldi. “Muvashshah” she‘riy shaklining kelib chiqishi va rivojlanishi. “Muvashshah” (موشح) so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kamar” deganidir . Ushbu she‘riy shakl IX asr oxirlarida Andalusiya yuzaga kelgan bo‘lib, o‘zining o‘ziga xos tarkibiy tuzilishi va musiqiy ohangi bilan ajralib turgan. “Muvashshah” shaklining ixtirochisi sifatida Muqaddam ibn Mu‘afa al-Qabri (مقدم بن معافى القبري) nomi tilga olinadi.

Bu janr o‘z davrida arab she‘riyatining yangicha ko‘rinishi sifatida shakllandi. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: baytlar guruhidan tashkil topgan bo‘lishi, har bir bandda qofiyaning o‘zgarib turishi, musiqiylikning kuchliligi va qo‘shiq hamda raqsga moslashtirilganligi. Shuningdek, “Muvashshah”da “matla” (المطلع) deb ataluvchi kirish qismi bo‘lib, asarning umumiy ohangini belgilaydi.

“Muvashshah” tarkiban bir necha bo‘limlardan iborat: matla’ – kirish misralari; gusn (غصن) – asosiy bandlar; va xarja (خرجة) – yakuniy qism bo‘lib, ba‘zan roman tillarida yozilgan satrlar bilan tugallanadi. Ushbu shakl o‘zining murakkab qofiya tizimi va san‘atkorona tuzilishi bilan arab she‘riyatining eng nafis namunalaridan biri sifatida tanilgan.

“Zajal” (زجل) so‘zi lug‘aviy jihatdan “ovoz chiqarmoq” yoki “sayramoq” ma‘nosini bildiradi. Bu she‘riy shakl X asrda, “Muvashshah”dan biroz keyinroq, Andalusiya paydo bo‘lgan va xalq og‘zaki ijodi an‘analariga tayanib rivojlangan.

“Zajal” janrining eng mashhur va yirik namoyandasi sifatida Ibn Quzman (ابن قزمان) tilga olinadi .

“Zajal”ning asosiy xususiyatlari — xalq tilida yozilishi, soddalik va tabiiylik, kundalik hayot mavzulariga bag‘ishlanganligi hamda hazil va kinoyaning ustunligidir. Bu janrda adabiy arab tili o‘rniga xalqning so‘zlashuv tili qo‘llanilib, asarlar yanada hayotiy va xalqona ohang kasb etgan. Shu bois “Zajal” xalq qo‘shiqlari shaklida kuylanib, keng omma orasida mashhur bo‘lgan.

Til jihatidan “Muvashshah” adabiy arab tilida yozilgan bo‘lsa, “Zajal” xalq tilida yaratilgan. Ijro usulida esa “Muvashshah” klassik musiqa bilan, “Zajal” esa xalq qo‘shiqlari ohangida kuylanadi. Mavzular nuqtai nazaridan “Muvashshah”da oliyjanoblik va lirika ustun bo‘lsa, “Zajal” xalq hayotining quvonch va tashvishlarini aks ettirgan. Qofiya tizimi ham “Muvashshah”da murakkab va nafis, “Zajal”da esa soddaroqdir.

“Muvashshah” va “Zajal”ning yaratilishi Andalusiya adabiyoti tarixida muhim bosqich bo‘lib, ular orqali arab she‘riyati yangi badiiy yo‘nalish kasb etdi . Bu shakllar, avvalo, she‘riyatning demokratizatsiyasini ta‘minlab, uni keng xalq ommasiga yaqinlashtirdi. Shu bilan birga, musiqa va she‘riyatning uyg‘unlashuvi Andalusiya madaniyatida yangi san‘at turlarining shakllanishiga sabab bo‘ldi.

Bu she‘riy shakllarda mahalliy madaniy an‘analar o‘z ifodasini topdi, bu esa Andalusiya jamiyatining o‘ziga xos ruhini aks ettirdi. Shu bilan birga, “Muvashshah” va “Zajal” Yevropa she‘riyatiga, xususan, Provansal trubadurlari ijodiga ham kuchli ta‘sir ko‘rsatgan .

“Muvashshah” sohasida Ibn Bishri (ابن بشري), Al-A‘ma at-Tutili (الأعمى التطيلي) va Ibn al-Kattani (ابن الكتاني) kabi shoirlar yetuk namoyandalar sifatida tanilgan. Ibn Bishri ushbu shaklning badiiy imkoniyatlarini mukammal darajada namoyon etgan bo‘lsa, Al-A‘ma at-Tutili o‘zining lirik “muvashshah”lari bilan mashhur.

Andalusiya she‘riyatining eng asosiy belgilaridan biri — tabiat manzaralarining jonli tasviridir. Shoirlar o‘z atrofidagi bog‘lar, soylar, gullar va qushlar go‘zalligini badiiy ifoda etganlar. Andalusiya she‘riyati tabiat va inson tuyg‘ularini uyg‘unlashtirgan, unda muhabbat, orzu, sog‘inch va ruhiy kechinmalar tabiiy manzara bilan chambarchas bog‘langan. Masalan, Ibn Zaydun, Ibn Khafaja va Ibn al-Abbar kabi shoirlarning asarlarida tabiat go‘zalligi inson ruhiyatining aks-sadosi sifatida tasvirlanadi . Shu orqali Andalusiya she‘riyati Sharq adabiyotidagi klassik “qasida” shaklidan lirizmga boy, nozik his-tuyg‘ularni ifodalovchi yangi bosqichga ko‘tarildi.

Andalusiya adabiyotida mavzular doirasi ham ancha kengaydi. Ilgari arab she‘riyatida qabila, jang, faxr yoki muhabbat asosiy mavzular bo‘lgan bo‘lsa, Andalusiya madaniyat, ilm, falsafa, tabiat, insoniy tuyg‘ular ham she‘riyat

mavzusiga aylandi. Shoirlar insonni, uning ruhiy olamini va hayotdagi o‘rnini badiiy tahlil qilishga intildilar .

Andalusiya arab adabiyoti o‘zining yangicha ruhiyati, musiqiyliigi va shakliy yangiliklari bilan Yevropa adabiyotiga, xususan o‘rta asr fransuz trubadurlari she’riyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Trubadurlar “muvashshah”ning lirikasidan, qofiya tizimidan va muhabbat mavzularini ifodalash uslubidan ilhom olganlar. Bu ta’sir Yevropa uyg‘onish davri adabiyotining shakllanishida ham o‘z aksini topgan.

Andalusiya lirik she’riyatida sevgi mavzusi an’anaviy arab adabiyotidagidan farqli ravishda yangicha mazmun va ruhda talqin qilindi. Bu davr shoirlari muhabbatni faqat hissiy yoki jismoniy tuyg‘u emas, balki ma’naviy va falsafiy hodisa sifatida ko‘rishgan. Andalusiya “غزل” (ghazal) janri yangi ifoda vositalari va badiiy obrazlar bilan boyidi. Shuni aytish joizki, Ibn Ҳazm (ابن حزم)ning “طوق الحمامة” (Ṭawq al-Ḥamāmah) asari sevgi falsafasini keng yoritgan eng mashhur asarlardan biridir. Unda muhabbatning turli shakllari haqida so‘z yuritiladi:

الحب العفيف (al-ḥubb al-’afif) – pokiza, ma’naviy sevgi

الحب العاطفي (al-ḥubb al-’āṭifi) – hissiy va ehtirosli sevgi

الحب الفلسفي (al-ḥubb al-falsafi) – sevgi hodisasining falsafiy talqini

Shu tariqa Andalusiya shoirlari sevgi mavzusini nafaqat romantik hislar orqali, balki ruhiy va falsafiy mazmun bilan boyitib, uni adabiyotning asosiy badiiy yo‘nalishlaridan biriga aylantirishgan.

Andalusiya she’riyatida tabiat tasviri ham o‘ziga xoslik kasb etdi. Sharq adabiyotida ko‘p hollarda cho‘l va sahro manzaralari tasvirlangan bo‘lsa, Andalusiya shoirlari o‘z yurtining tabiati — yam-yashil bog‘lar, daryolar, tog‘lar va gulzorlarni she’riyatning markaziga olib kirishdi.

Bu o‘zgarish Andalusiyaning tabiiy muhitiga mos tarzda yuzaga keldi. Masalan, Ibn Khafājah (ابن خفاجة) o‘zining mashhur “الصنوبر” (aṣ-Ṣanawbar) she’rida tabiatni jonli mavjudot sifatida tasvirlaydi. Uning asarlarida quyidagi jihatlar yaqqol seziladi:

الانسجام مع الطبيعة (al-insijām ma’a aṭ-ṭabī’ah) – tabiat bilan uyg‘unlik

الغنائية الطبيعية (al-ghinā’iyyah aṭ-ṭabī’iyyah) – tabiat lirikasi

انعكاس الفصول (in’ikās al-fuṣūl) – fasllarning o‘zgarishini tasvirlash

Bu yo‘nalish natijasida Andalusiya she’riyatida tabiat go‘zalligini madh etuvchi lirika mustaqil badiiy yo‘nalish sifatida shakllandi.

Ibn Zaydūn (ابن زيدون) she’rlarida muhabbat, hasrat bilan bir qatorda, insonning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy aloqalar va oddiy hayot manzaralari ham keng ifodalangan. Uning ijodida quyidagi motivlar asosiy o‘rinni egallaydi:

حياة المدينة (ḥayāt al-madīnah) – shahar hayoti

العلاقات الاجتماعية (al-’alāqāt al-ijtimā’iyyah) – ijtimoiy munosabatlar

المشاهد اليومية (al-mashāhid al-yawmiyyah) – kundalik hayot tasvirlari

Shu tariqa Andalusiya she'riyatida real hayotning badiiy ifodasi kuchaydi va u xalq ruhiyatiga yaqinlashdi.

Andalusiya shoirlari ifoda uslubi jihatidan ham katta yangiliklar yaratdilar. Ular tasviriy ifodalilik va ramziy majozlardan keng foydalanganlar. Bu jarayon natijasida lirik she'riyatda yangi badiiy uslublar paydo bo'ldi, jumladan:

التعبير التصويري (at-ta'bīr at-taṣwīrī) – tasviriy ifoda

الرمزية (ar-ramziyyah) – ramziylik

النفسانية (an-nafsāniyyah) – psixologik ifoda

Shoirlar inson qalbidagi hissiyotlarni, ruhiy kechinmalarni va ichki kurashlarni nafis so'z vositasida tasvirlab, arab she'riyatiga yangi badiiy nafas olib kirdilar .

Xulosa qilib aytganda, Andalusiya adabiyoti arab adabiyotining eng go'zal davrlaridan biri bo'lib, unda Sharqning mumtoz an'analari bilan G'arbning madaniy unsurlari uyg'unlashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. عباس، إحسان. تاريخ الأدب الأندلسي. بيروت: دار الثقافة، 1983.
2. الطنطاوي، علي. تعريف قديم بالأندلس وأدبها. دمشق: دار الفكر، 1998.
3. Jayyusi, S. K. (ed.). The Legacy of Muslim Spain. Brill, 1992. URL: <https://brill.com/display/title/1022>
4. Menocal, M. R. The Arabic Role in Medieval Literary History: A Forgotten Heritage. University of Pennsylvania Press, 1987. URL: <https://www.upenn.edu/pennpress/book/1468.html>
5. Monroe, J. "Hispano-Arabic Poetry and the Muwashshah." Journal of Arabic Literature, 1974. URL: <https://www.jstor.org/stable/4182949>
6. García Gómez, E. Poemas Árábigoandaluces. Madrid: Alianza Editorial, 1990.

ARAB XALQ MAQOLLARIDA DO'STLIK KONSEPTINING IFODALANISHI

Xamidullayeva Munisa

Oriental universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) yo'nalishi

4-kurs talabasi

khamidullayevamunisa8@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada arab xalq maqollarida do'stlik konseptining ifodalanishi lingvistik, semantik va madaniy jihatdan chuqur tahlil

qilinadi. Arab xalq og‘zaki ijodida do‘stlik sadoqat, ishonch, fidoyilik, hamjihatlik, og‘ir kunda tayanch bo‘lish kabi muhim axloqiy mezonlar orqali yoritiladi. Tadqiqot jarayonida chin do‘st va soxta do‘st obrazlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, do‘stlik tushunchasining jamiyat hayotidagi ijtimoiy, ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyati asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Arab xalq og‘zaki ijodi, maqol, do‘stlik konsepti, sadoqat, axloqiy qadriyat, semantika, madaniyat.

Har bir xalqning ma’naviy qiyofasi, axloqiy qarashlari va dunyoqarashi eng avvalo uning xalq og‘zaki ijodida, xususan, maqollarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Arab xalq maqollari asrlar davomida shakllanib, xalq tafakkurining ixcham, ammo mazmunan nihoyatda chuqur ifodasiga aylangan. Insoniy munosabatlarning deyarli barcha jihatlari, jumladan, do‘stlik, sadoqat, adolat, halollik, mehr-oqibat kabi tushunchalar maqollarda umumlashtirilgan badiiy-falsafiy shaklda ifodalanadi.

Do‘stlik tushunchasi arab jamiyatida oddiy ijtimoiy munosabat emas, balki yuksak axloqiy qadriyat sifatida qadrlanadi. Insonning jamiyatdagi o‘rni, obro‘-e’tibori, hatto uning axloqiy qiyofasi ham ko‘pincha do‘stlariga qarab baholanadi. Shu sababli arab maqollarida do‘stlik mavzusi keng va tizimli tarzda yoritilgan.

Zamonaviy tilshunoslikda konsept muayyan xalq tafakkurida shakllangan va tilda mustahkamlangan ijtimoiy-ma’naviy hodisa sifatida talqin qilinadi. Do‘stlik konsepti esa turli madaniyatlarda turlicha mazmun kasb etadi. Arab tilida do‘st ma’nosini ifodalovchi asosiy birlik ’صديق’ so‘zi bo‘lib, u faqatgina do‘st emas, balki chin, ishonchli, rostgo‘y inson ma’nolarini ham o‘zida mujassam etadi. Bu esa arab jamiyatida do‘stlikning axloqiy mas’uliyat sifatida qaralishini ko‘rsatadi .

Do‘stlik konsepti arab madaniyatida ijtimoiy birdamlik, hamjihatlik, o‘zaro yordam, sadoqat va fidoyilik tushunchalari bilan chambarchas bog‘langan. Aynan shu xususiyatlar arab xalq maqollarida umumlashtirilgan badiiy ifoda orqali aks etadi.

Arab xalq maqollarida chin do‘st, eng avvalo, og‘ir vaziyatda bilinadigan shaxs sifatida talqin qilinadi.

’الصديق وقت الضيق’

Do‘st og‘ir kunda bilinar

maqoli ushbu g‘oyaning eng yorqin ifodasidir . Ushbu maqolda do‘stlikning haqiqiy mezoni quvonch emas, balki sinov ekanligi ta’kidlanadi.

Arab jamiyatida insonning sadoqati, va’daga vafodorligi va mushkul vaziyatda yonida bo‘la olish qobiliyati eng yuksak fazilatlar qatorida baholanadi. Shu bois chin do‘st moddiy boylikdan ham ustun qo‘yiladi.

Arab xalq og‘zaki ijodida faqat chin do‘st emas, balki soxta do‘stlar ham keskin tanqid qilinadi.

احذر عدوك مرة، واحذر صديقك ألف مرة

Dushmaningdan bir marta ehtiyot bo‘l, do‘stingdan ming marta ehtiyot bo‘l maqoli yashirin xiyonatning naqadar xavfli ekanligini ifodalaydi . Mazkur maqolda dushman bilan ehtiyotkor munosabatda bo‘lish zarurligi uqtirilsa, soxta do‘stdan keladigan zarar undan ham og‘irroq ekanligi ta’kidlanadi. Bu holat arab xalq tafakkurida ishonch tushunchasi naqadar yuqori darajada qadrlanishini ko‘rsatadi.

’الصديق الوفي خير من كثر غني’

Sadoqatli do‘st boy xazinadan afzal.

Maqol arab xalqining ma’naviy qarashlarini yaqqol aks ettiradi . Ushbu maqolda inson uchun eng katta boylik moddiy ne’matlar emas, balki sadoqatli do‘st ekanligi ifodalanadi.

Arab jamiyatida sadoqat do‘stlikning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, insonning axloqiy qiyofasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sanaladi.

’قل لي من تصاحب أقل لك من أنت’

Kim bilan do‘stlashganingni ayt, men senga kimligingni aytaman maqoli do‘st tanlashning inson hayotidagi muhim tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatadi. Arab xalq maqollari jamiyatni axloqiy jihatdan mustahkamlash, insonlar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mummunki, arab xalq maqollarida do‘stlik konsepti sadoqat, ishonch, fidoyilik va vafodorlik bilan uzviy bog‘liq holda ifodalanadi. Do‘stlik nafaqat shaxsiy munosabat, balki jamiyat barqarorligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Arab xalq maqollari orqali do‘stlik tushunchasining ma’naviy-axloqiy mohiyati, uning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Maydoniy, Abu al-Fadl Ahmad ibn Muhammad.

Majma al-Amthal. 1-jild. Bayrut: Dar al-Ma’rifa, s. 419.

2. Al-Maydoniy, Abu al-Fadl Ahmad ibn Muhammad.

Majma al-Amthāl. 2-jild. Bayrut: Dar al-Ma’rifa, s. 113.

3. Az-Zamaxshariy, Mahmud ibn Umar.

Al-Mustaqṣa fī Amthāl al-Arab. 2-jild. Bayrut: Dār al-Kutub al-Ilmiyya, s. 145.

4. Al-Ma’ānī elektron lug‘ati.

Arabcha–inglizcha izohli lug‘at.

URL: <https://www.almaany.com>

5. Internet Archive elektron kutubxonasi.

Arab klassik asarlarining raqamli nusxalari.

URL: <https://archive.org>

ARAB XALQ MAQOLLARI VA HIKMATLARINING BADIY TAHLILI

*Xolmatova Guli Djumanazarovna,
Oriental universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili),
AFK104-guruh talabasi*

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasida o'qituvchisi N.Mavlanov

Annotatsiya. Arab maqollari va hikmatlari asrlar davomida shakllangan donolik merosining yadro qatlamidir. Ular xalqning hayot tajribasi, axloqiy mezonini va dunyoqarashini ixcham va ta'sirli shaklda mujassamlaydi. Ushbu maqolalar tilning badiiy imkoniyatini ochib, tasvirning sodda, ammo tirik qatlamini namoyon qiladi. Tadqiqot arab maqollarining lingvistik, madaniy va badiiy xususiyatlarini tahlil qiladi, ularning tarixiy manbalardagi izlarini kuzatadi va zamonaviy nutqdagi o'rnini yoritadi. Mavzuning dolzarbligi maqollarning bugungi ijtimoiy muloqotda ham o'z kuchini yo'qotmaganida namoyon bo'ladi. Ularning mazmuni xalq tajribasi asosida shakllangan barqaror qarashlarni aks ettiradi.

Kalit so'zlar: arab maqollari, hikmatlar, til va madaniyat, badiiy tahlil, lingvistik xususiyatlar, tarixiy manbalar, maqol semantikasi.

Abstract. Arabic proverbs and wisdom sayings represent a core layer of an enduring cultural and intellectual heritage. They condense collective experience, moral principles, and worldview into concise and impactful expressions. This study examines the linguistic, cultural, and artistic features of Arabic proverbs, traces their presence in historical sources, and highlights their function in contemporary discourse. Their relevance remains strong today, as these expressions continue to echo long-formed social insights shaped by generations of experience.

Keywords: Arabic proverbs, wisdom sayings, language and culture, literary analysis, linguistic features, historical sources, proverb semantics.

Arab xalq maqollari va hikmatlari arab madaniyati va tilining noyob merosi hisoblanib, ular asrlar davomida arab xalqining tajribasi, donoligi va hayotqarashini aks ettirgan. Ushbu merosni badiiy jihatdan tahlil qilish orqali nafaqat an'anaviy madaniyat qadriyatlarini saqlash, balki zamonaviy adabiyotshunoslikda yangicha yondashuvlarni rivojlantirish ham mumkin. Maqollarning lingvistik, madaniy va badiiy jihatlarini o'rganish orqali ularning nutqiy va adabiy ahamiyatini aniqlash dolzarb vazifadir.

"Masal" so'zi arab tilida "o'xshash", "misol" ma'nolarini anglatadi. Bu so'z "o'xshamoq", "qiyos qilmoq" ma'nolarini ifodalovchi ildizdan kelib chiqqan. Etimologik jihatdan bu so'z narsalar va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni, qiyosiy

munosabatni ifodalaydi. Maqollar aslida murakkab hayotiy vaziyatlarni soddalashtirilgan va tushunarli shaklda yetkazishga xizmat qilgan.

Arab maqollari quyidagi asosiy xususiyatlar bilan ajralib turadi: qisqalik va ohangdorlik, tasviriy ifodalilik, ma'naviy chuqurlik. Bu xususiyatlar maqollarning asrlar davomida saqlanib qolishiga va keng tarqalishiga imkon berdi. Maqollarning qisqa va loqabli shakli ularni eslab qolishni osonlashtirgan, ohangdorligi esa og'zaki tarqalishini ta'minlagan. Tasviriy ifodalilik maqollarning ta'sirchanligini oshirgan, ma'naviy chuqurlik esa ularga falsafiy va ma'rifiy ahamiyat bag'ishlagan.

Maqollar arab madaniyatida nafaqat tilning boyligi, balki xalqning donoligi, hayot falsafasi va tarixiy tajribasining aksidir. Ular orqali arab xalqining qadriyatlari, urf-odatlarini, hayotqarashi va dunyoqarashini o'rganish mumkin. Har bir maqol o'zida boy tarixiy va madaniy merosni saqlab kelmoqda.

Arab madaniyatida maqollarning ijtimoiy boshqaruvdagi roli ham juda katta. Qadim zamonlardan beri maqollar sud jarayonlarida, qabila nizolarini hal qilishda, oilaviy masalalarda dono maslahat sifatida qo'llanib kelinadi. Ko'pgina maqollar insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, yaxshi xulqni targ'ib qilish va yomon xatti-harakatlardan ogohlantirish vazifasini bajaradi.

Ta'lim sohasida maqollar muhim o'rinni egallaydi. Bolalarga maqollar orqali hayotiy donolik, axloqiy qadriyatlar va jamiyat qonunlari o'rgatiladi. Arab maktablarida maqollarni o'rganish dasturining ajralmas qismi bo'lib, ular orqali tilning nozikliklari, badiiy ifoda va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga harakat qilinadi. Bolalarga maqollar orqali hayotiy donolik o'rgatiladi. Masalan: "خير جليس في الزمان كتاب" (Khayr jalīs fi az-zamān kitāb) - "Zamonning eng yaxshi hamrohi kitobdir". Bu maqol ta'lim va bilim olishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Adabiyotda maqollarning o'rni beqiyosdir. Klassik arab adabiyotining dastlabki namunalaridan boshlab hozirgi zamon adabiyotigacha maqollar mualliflar tomonidan keng qo'llanib kelinadi. She'riyatda maqollar she'rning badiiy qimmatini oshirish, nasrda esa fikrning ta'sirchanligini kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Adabiy asarlarda maqollar badiiy ifodani boyitadi. Masalan: "الكلمة الطيبة صدقة" (Al-kalima at-tayyiba sadaqa) - "Yaxshi so'z sadaqadir". Bu maqol she'r va nasrda yaxshi so'zning qudratini ifodalaydi.

Zamonaviy arab jamiyatida maqollar hanuzgacha kundalik hayotning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Ommaviy axborot vositalarida, siyosiy nutqlarda, reklamalarda va internet kommunikatsiyalarida maqollar keng qo'llaniladi. Bu an'ananing zamonaviy shakllarda davom etayotganligini ko'rsatadi. Hozirgi kunda maqollar ommaviy axborot vositalarida qo'llaniladi. Masalan: "العلم في الصغر كالنقش في"

الحجر" (Al-'ilm fi as-sighr ka-an-naqsh fi al-hajar) - "Bolalikdagi bilim toshdagi naqsh kabi". Bu maqol zamonaviy ta'lim tizimida erta ta'limning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Maqollar arab madaniyatida nafaqat til hodisasi, balki milliy xarakter, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarining ifodasidir. Ular orqali arab xalqining aqlli, dono, hazilkash va hayotni chuqur tushunishga intiluvchi tabiati aks etadi. Har bir maqol o'zida asrlar davomida to'plangan tajriba va donolikni saqlab kelayotgan madaniy merosdir. Maqollar arab xalqining donoligini aks ettiradi. Masalan: "ما كل ما يعلم يقال" (Mā kull mā yu'lam yuqāl) - "Har bilinadigan narsa aytilmaydi". Bu maqol arab xalqining ehtiyotkorlik va donoligini ifodalaydi.

Arab maqollari turli tarixiy manbalarda saqlanib qolgan bo'lib, ular orqali arab madaniyatining qadimgi davrlardan to hozirgacha bo'lgan rivojlanishi kuzatilishi mumkin. Quyida turli tarixiy manbalardagi maqollar va ularning o'rni haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Qadimiy she'riy to'plamlardagi maqollar. Al-Mu'allaqāt (المعلقات) - Islomdan oldingi davrning eng mashhur she'rlar to'plami bo'lib, unda dastlabki arab maqollarining namunalarini ko'rish mumkin. Bu to'plamda 7 ta mashhur she'r mavjud bo'lib, ular Makkada Ka'ba devoriga osilgan.

Misollar:

"الْمَرْءُ بِأَصْغَرَيْهِ: قَلْبِهِ وَلسَانِهِ"

"Odam ikki kichik narsasi bilan: qalbi va tili bilan"

Ma'nosi: Odamning qalbi va tili uning xarakterini belgilaydi.

"وَإِنَّ صُدُورَ قَوْمٍ إِذَا سَخُنَتْ بِهَا وَإِنَّهَا إِذَا بَرَدَتْ عَلَيْهَا لَتَضِيقُ"

"Qalblar soviq bo'lsa, ko'ngillar tor bo'ladi"

Ma'nosi: Issiq munosabatlar insonlar o'rtasidagi tushunishni oshiradi.

"الْعِلْمُ فِي الصِّغَرِ كَالنَّقْشِ فِي الْحَجَرِ"

"Yoshligidagi bilim toshdagi naqsh kabi"

Ma'nosi: Bolalikda o'rgangan bilimlar chidamli bo'ladi.

"لَا تَتَّقِ بِمَنْ لَا تَعْرِفُ"

"O'zing tanimaydigan odamga ishonma"

Ma'nosi: Notanish odamlarga ishonch bildirish xavfli.

"الصَّبْرُ مِفْتَاحُ الْفَرَجِ"

"Sabr farajning kalitidir"

Ma'nosi: Sabr qilish har qanday qiyinchilikni yengishga yordam beradi.

(الملوك) asarida maqollar tarixiy voqealar bilan bog'liq holda keltirilgan.

Misollar:

"مَنْ تَأَخَّرَ عَنْ رِحْلَتِهِ تَأَخَّرَ عَنْ رِزْقِهِ"

"Sayohatidan orqada qolgan, rizqidan orqada qoladi"

Ma'nosi: Harakat qilish va vaqtida ish tutish muhim.

"الْوَقْتُ كَالسَّيْفِ إِنْ لَمْ تَقْطَعْهُ قَطَعَاكَ"

"Vaqt qilichga o'xshaydi, agar sen uni kesmasang, u seni kesadi"

Ma'nosi: Vaqtni to'g'ri boshqarish kerak.

"العَقْلُ أَشْرَفُ الْأَشْيَاءِ"

"Aql eng sharafili narsadir"

Ma'nosi: Aql insonning eng qadrli sovg'asidir.

"الْحِكْمَةُ ضَالَّةُ الْمُؤْمِنِ"

"Hikmat mominning yo'qotgan narsasidir"

Ma'nosi: Donolikni izlash har bir musulmonning vazifasidir.

• "كُلُّ بَلَدٍ بِأَهْلِهِ"

"Har diyori o'z aholisi bilan"

Ma'nosi: Har bir mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari bor.

"مَنْ عَرَفَ بَلَدَهُ لَمْ يَضِلَّ"

"O'z diyorini bilgan adashmaydi"

Ma'nosi: O'z madaniyatini bilish muhim.

Xulosa qilib aytganda, arab maqollarining kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va tarix fanlari uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. Maqollarning ildizlari Islomdan oldingi davrga borib taqalishi, ularning qadimiy og'zaki an'analardan zamonaviy yozma adabiyotgacha bo'lgan uzluksiz rivojlanishi arab madaniyatining ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolganligini ko'rsatadi. Maqollarning mazmuniy xususiyatlari ularning nafaqat til birligi, balki butun bir xalqning hayotiy tajribasi, donoligi va dunyoqarashining aksi ekanligini isbotlaydi. Har bir maqol o'zida chuqur ma'naviy mazmun, hayotiy hikmat va amaliy maslahatlarni mujassam etgan.

Arab maqollari va hikmatlari - bu asrlar davomida shakllangan va takomillashtirilgan noyob madaniy merosdir. Ular orqali nafaqat arab tilining boyligi, balki butun arab xalqining ma'naviy qiyofasi, tarixiy tajribasi va hayotiy donoligini o'rganish mumkin. Bu merosning o'rganilishi zamonaviy tilshunoslik, madaniyatshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik sohalarida yangicha yo'nalishlarni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. الميداني، أبو الفضل. مجمع الأمثال. - بيروت: دار الكتب العلمية، 2002. - 456 ص.
2. ابن منظور، جمال الدين. لسان العرب. - بيروت: دار صادر، 2000. - 689 ص.
3. الجاحظ، أبو عثمان. البيان والتبيين. - القاهرة: دار الكتب المصرية، 1998. - 234 ص.
4. الزمخشري، أبو القاسم. أساس البلاغة. - دمشق: دار الفكر، 2005. - 378 ص.
5. الثعالبي، أبو منصور. خاص الخاص. - بيروت: دار المعرفة، 2001. - 267 ص.

6. Фильштинский И.М. Арабская народная поэзия. – Москва: Наука, 1988. – 345 с.

7. Крымский А.Е. Арабские пословицы и поговорки. – Москва: Восточная литература, 1999. – 278 с.

8. Большаков О.Г. Культура арабского Востока. – Москва: Наука, 2001. – 412 с.

TARJIMA VA QIYOSIY TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI

ARAB VA O‘ZBEK TILIDAGI O‘XSHATISHLAR LINGVOMADANIY VOSITA SIFATIDA

*Sobirova Hadicha,
Oriental universiteti Filologiya fakulteti
3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent N.Ahmedova*

Annotatsiya: Ushbu maqola arab va o‘zbek tillaridagi o‘xshatishning lingvo-madaniy aspektlarini o‘rganishga qaratilgan. Maqolada har ikki tilning o‘xshatishlarining madaniy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Bunda markaziy o‘rin tutuvchi asosiy fikr arabcha o‘xshatishlarning o‘zbek tiliga ifodali va aniq tarjima qilinishi o‘zbek madaniyati va milliy til xususiyatlari yuzasidan chuqur bilimga asoslanishini taqozo qiladi, zero ana shunda tillararo almashinayotgan fikrlar va g‘oyalar jarayonida mutanosiblik va muvofiqlik shakllanadi.

Kalit so‘zlar: arab tili, o‘zbek tili, o‘xshatishlar, lingvomadaniy aspektlar, madaniy va ijtimoiy ahamiyati tahlili.

Annotation: This article is aimed at studying the linguo-cultural aspects of similes in the Arabic and Uzbek languages. The article analyzes the cultural and social significance of the similes of both languages to people and things. The main idea that takes a central place in this is that the expressive and accurate translation of Arabic similes into the Uzbek language requires a deep knowledge of the characteristics of Uzbek culture and the national language, because only then will the process of exchanging thoughts and ideas between languages form a balance and harmony.

Keywords: Arabic language, Uzbek language, similes, linguo-cultural aspects, analysis of cultural and social significance.

Til milliy madaniyat mavjudligi va uning ifodalanishining asosiy shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Har qanday til alohida olam manzarasiga ega va lisoniy shaxs ana shu manzaraga mos ravishda ifodalarning mazmunini tuzishga majburdir. Bunda tilda o‘z aksini topgan insonning olamni o‘ziga xos idroki namoyon bo‘ladi. Til insonning olam haqidagi bilimlarining shakllanishi va mavjud bo‘lishidagi muhim omildir.

An’anaviy o‘xshatishlar umummilliy madaniyatga xos bo‘lib, barcha uchun tushunarli, tanish bo‘lgan o‘xshatishlardir. O‘xshatish etaloni sifatida ijtimoiy turmush bilan bog‘liq bo‘lgan predmetlar, o‘simliklar, hayvon, osmon jismlari turli hil nomlari bilan sermahsul hisoblanadi.

O‘xshatishlar milliy dunyoqarash, tabiat va jamiyatga munosabat, dunyoni anglashdagi tafakkur, taqqoslash bilan chambarchas bog‘liqdir. Insonning ijodiy

tafakkuri mahsuli sifatida “muayyan predmet, belgi, harahat-holatga munosabati, assotsiativ fikrlash tarzi o‘xshatishlarda namoyon bo‘ladi.

Arab va o‘zbek tili xalq og‘zaki ijodi namunalarida eng ko‘p qo‘llanuvchi lingvomadaniy birliklar qatorida o‘xshatishlar alohida ahamiyatga ega.

Har bir millatning o‘ziga xos o‘xshatishlari mavjud. O‘xshatishlar tilning lingvomadaniy birligi sifatida e‘tirof etiladi. Bir xalqning o‘xshatishlari boshqa xalqlarnikiga mos kelmasligi mumkin. Bu ham bo‘lsa, har bir xalqning o‘z mentaliteti, diniy va dunyoviy qarashlari, geografik o‘rni, yashash muhiti har xilligi bilan bog‘lanadi.

Tilshunos Ali al Jundiya ko‘ra , arab tilida o‘xshatish lingvistik hodisa sifatida quyidagi to‘rt unsur orqali yuzaga chiqadi:

1. Mavzu (o‘xshatiluvchi) - المشبه ;
2. Tasvir (o‘xshatilayotgan narsa) - المشبه به ;
3. O‘xshatilish jihati - وجه الشبه ;
4. Bog‘lovchi vosita yoki ko‘makchi - (كَا , كَ , مِثْل , كَانْ , يُضَاهِي , يُشَبِّهُ , - أدات التشبيه محاك)

O‘xshatishning mazkur to‘rt komponenti quyidagi misolda to‘la namoyon bo‘ladi:

Laylo onasidek go‘zal. ليلي كوالدتها جمالاً

Ushbu misolda ot (Laylo ليلي) mavzu - o‘xshatiluvchini ifodalasa, boshqa bir ot (onasi والدتها) tasvir - o‘xshatilayotgan narsani bildiradi. bog‘lovchi vositasini bajarayotgan ko‘makchi bo‘lib kelgan bo‘lsa, جمال o‘xshatish jihatini anglatuvchi nuqtadir.

Arab va o‘zbek tilida o‘xshatishlarga misollar:

- بنت كالزهرة (bint kazahrot) gulday qiz
رجل كالأسد (rojul kalasad) sherday kishi
شابة كالقمر (shaabat kalqomar) oydek qiz
وجه كالنور (vajhu kannur) yuzi nur kabi
أبيض كالثلج (abyad kassalj) qorday oq
ماكرة كالثلج (maakirot kassa’alb) tulkiday ayyor
زرقاء كالسماء (zurqoo kassama) osmon kabi moviy
أحمر كالورد (ahmar kalvard) atirgulday qizil
صادق كالنجم (sodiqu kannajm) yulduz kabi porlaydi
حاد كالسيف (hadun kassayf) qilichday o‘tkir
إنسان كالملك (insan kalmalak) farishtaday inson

Arab tilida biror insonga yoki narsaga o‘xshatilayotganda grammatik tarafdin ك harfi bilan birga ishlatilishi kerak. Arab tilida o‘xshatishda yanada sifatga urg‘u beriladi. O‘xshatishlarni turlicha xillari mavjud:

Diniy tushunchalar nomi bilan bog‘liq o‘xshatishlar: malakdayin, hurday.

O‘simlik nomlari bilan bog‘liq o‘xshatishlar: gulday paxtaday ravochday.

Osmon jismlari va tabiat hodisalari nomi bilan bog‘liq o‘xshatishlar: oyday, yulduzday, bulutday chaqmoqning o‘qiday.

Hayvon va hasharot nomlari bilan bog‘liq o‘xshatishlar: ayiqday, sherday, kiyikday.

Narsa-buyum nomi bilan bog‘liq o‘xshatishlar: durday, o‘qday, tangaday.

شابة كالقمر

(shabbat kalqomar) oyday qiz.

Arablarda oyni erkalash shakli sifatida ayollarga nisbatan ishlatiladi. Koinotda oy bittaligi bilan ajralib turganligi, go‘zalligi sababli ko‘pincha oyday qiz, ya’ni qizni hamma qizlardan chiroyliligi ulardan qaysidir jihati ajralib turganligi sababdan ham oyday qiz deb o‘xshatish berishadi. Shuni aytib o‘tish joizki, oy bu islom dinini ramzi. U - tunda zulmatni yoritib turguvchi, insonlarga yo‘l ko‘rsatish uchun vosita. Hadisi sharifda shunday keldiriladi: Rosululloh sollallohi alayhu va sallam bunday deb aytadilar: “Mo‘minlarning dastlabki guruhi yuzlari to‘lin oy monand balqigan holda jannatga kirib keladilar, ularning bosgan izlaridan eng yorug‘ yulduz shu’lasi kabi bir shu’la taralib turadi degan ekanlar.

وجه كالنور

(Vajhu kannur) nurli yuz deganda biror bir insonning yuzi istarali degan ma’noda yuzi nurli ekan deb aytiladi. Erkaklar va ayollarga ham birday ishlatiladi. Nur so‘zi ham bizga arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, uning ma’nosi yorug‘lik deganidir. Nurli yuz deganda yuzi istarali insonlarga aytamiz. Bu yorug‘lik ham “Xudoning hidoyati” va “bilim timsoli sifatida ham insonlarda aks etadi. Qur’onning yana bir oyatida „Yer Robbining nuri bilan porlaydi“, deyiladi. Asosiy tafsirchilar bu bayonotni tom ma’noda qabul qilishadi. VIII-X asrlardagi ilohiyot maktabi tafsirchilari bu parchadagi nur so‘zini oddiy „nur“ ma’nosida emas, balki „haqiqat, Qur’on va dalil“ ma’nosida talqin qilganlar.

Tillardagi ba’zi o‘xshatishlarni ikkinchi bir tilga tarjima qilish qiyin bo‘ladi, sababi o‘xshatishlar milliylik bilan bog‘liq sanaladi. Iqlim sharoitiga ko‘ra qor bilan tez-tez to‘qnashmaydigan Arabiston, Afrika, Misr Arab Respublikasining lingvomadaniyatlarida “qordek oppoq sochlar” o‘xshatishi uchramaydi. Chunonchi, qorning nimaligini ko‘z oldiga keltira olmagan mazkur madaniyatlarda ijobiy baholanayotgan biror narsaning “qor”ga qiyoslanishi zaruriy obrazli ifodani yarata

olmaydi. Shuning uchun bunday o‘xshatishni qayd etilgan mamlakatlarning tillariga tarjima qilganda, “sutdek oppoq sochlar” deb berish maqsadga muvofiqdir.

Tarjimada bunday o‘xshatishlarni o‘girish tarjimondan mahorat talab qiladi. Bitta misolni ko‘rib chiqsak:

الأترنجة (فاكهة ذات لون جميل و لذيذة و طيبة الرائحة) لمن يقرأ القرآن، لها طعم ورائحة طيبة.

(Qur‘on qiroat qiluvchi kishining utruja yanglig‘ mazasi ham, hidi ham yaxshi)

Ushbu hadis parchasidagi utruja yanglig‘ o‘xshatishi o‘zbek tiliga har xil tarjima qilingan. Chunki utruja – rangi chiroyli, lazzatli, xushbo‘y meva bo‘lib, O‘zbekistonda aynan muqobili yo‘q. Shuning uchun ayrim manbalarda apelsin, ayrimlarida limon deb tarjima qilinadi. Ayrimlarida esa aynan berilib, qavs ichida ma‘nosi izohlanadi. Mana shunday holatlar tarjimada qiyinchilik tug‘diradi. Bizningcha, o‘zbek tilida muqobili yo‘qligi sababli aynan berib, izohlash usuli eng ma‘quli sanaladi.

Shunday qilib, o‘xshatishdan ma‘lum maqsad o‘xshashlik sababida so‘zlovchining obyektga subyektiv munosabatini ham ifodalashdan iborat bo‘ladi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi va bu tilda ham o‘z aksini topadi. Umuman, o‘xshatishlar har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo‘lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko‘ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. Xudoyberganova D., O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. - Toshkent: Ma‘naviyat, 2013
2. Ibrohimov N. (2009) Arab tili grammatikasi. Namangan.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. (2024) Arab tili grammatikasi. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
4. Mahmudov N. (2017) O‘xshatishlar va milliy nigoh.- Toshkent: Mumtoz so‘z.

ARAB, FORS VA INGLIZ TILLARIDAGI KO‘RSATISH OLMOSHLARINING QIYOSIY TAHLILI

*Asatullayeva Muslima,
Oriental universiteti Filologiya fakulteti
Arab tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Ma‘mura Siddiqova*

Annotatsiya: Ko‘rsatkich olmoshlar — bu tildagi eng sodda ko‘rinadigan, ammo chuqur ma‘no yuklovchi birliklardandir. Ular yordamida odamlar makon, vaqt yoki

nutqdagi boshqa bir narsaga ishora qiladi. Har bir til bu olmoshlarni o‘ziga xos usulda quradi va qo‘llaydi. Masalan, arab tilida jins va son muhim o‘rin tutsa, fors tilida bu jihatlar deyarli yo‘q. Ingliz tilida esa ular asosan masofa va ko‘plikka asoslanadi. Ushbu maqolada arab, fors va ingliz tillaridagi ko‘rsatkich olmoshlar grammatik, semantik va funksional jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: arab tili, fors tili, ingliz tili, yaqindagi olmoshlar, uzoqdagi olmoshlar, yaqindagi olmoshlar, ko‘rsatkich olmoshi, bu, anavi

Har bir tilda muloqotning aniq va tushunarli bo‘lishi uchun ishora qilish vositalari zarurdir. Shu sababli, ko‘rsatkich olmoshlar inson tilida doimo muhim o‘rin egallab kelgan. Tilshunoslikda bu hodisa "deixis" deb yuritiladi va u barcha tabiiy tillarda uchraydi.

Arab tilidagi ko‘rsatkich olmoshlar (أسماء الإشارة) o‘z tarkibida bir nechta mustaqil grammatik unsurlarni mujassamlashtiradi. Ularning har biri alohida vazifaga ega bo‘lib, klassik nahviy manbalarda nomlari aniq belgilangan.

هـ – حرف التَّنْبِيْهِ

Ko‘rsatkich olmoshlarning boshida keluvchi “هـ” harfi nahvda harfut-tanbih nomi bilan yuritiladi. Bu harf tinglovchi diqqatini ko‘rsatilayotgan narsaga qaratish vazifasini bajaradi.

ذ – حَرْفُ الْإِشَارَةِ الْأَصْلِي

Ko‘rsatkich olmoshlarning markaziy elementi hisoblangan “ذ” harfi nahvda harful-ishārah al-aslī deb nomlanadi. Sibawayhning al-Kitāb asarida ta’kidlanishicha, arab tilidagi barcha ko‘rsatkich shakllarining asl ildizi aynan shu harfga borib taqaladi. “ذ” harfi ishora ma’nosining o‘zagini bildiradi. Bu harfdan “ذَا، ذِي، ذَانِ، ذَانِكَ” kabi shakllar rivojlangan.

هـ / هـ – عِلَامَةُ التَّنْبِيْهِ

Muannas predmetlarga ishora qilinayotganda, olmosh tarkibiga oxirgi “هـ” elementi qo‘shiladi. Bu qism nahviy adabiyotlarda alāmatut-ta’nīs — ya’ni ayollik belgisi sifatida talqin qilinadi. Shu bois, “هَذَا” muzakkarga, “هَذِهِ” esa muannasga nisbatan ishlatiladi. Ibn Aqilning Sharḥ Ibn ‘Aqīl sharhida bu masala batafsil tushuntiriladi.

هُوَ لِأَيٍّ — yaqin masofadagi ko‘plik

Tarkibi (ilmiy tahlil):

Ko‘pchilik nahvchilar uni ikki qismdan iborat deb talqin qiladi:

1. هـ — حرف التَّنْبِيْهِ

Bu — diqqatni tortuvchi harf.

(haza, hazihi dagi vazifasi bilan bir xil)

2. أَوْلَاءُ / أَلْيُ — اسم إشارة للجمع

Bu — ko‘plikning asl ishora shakli.

Ya’ni:

ها = هُوَ لَاءَ (harfut-tanbih) + أَوْلَاءَ (ko‘plik ishora so‘zi)

Vazifasi:

Yaqin joydagi “bular” ma’nosi.

ذَلِكَ va تِلْكَ olmoshlarining tarkibiy tuzilishi

Uzoq masofani bildiruvchi ko‘rsatgich olmoshlar — ذَلِكَ (u — muzakkar) va تِلْكَ (u — muannas) ham tarkib jihatidan bir necha grammatik bo‘laklardan tuzilgan.

“ذَلِكَ” tarkibi

ذَلِكَ = ذ + ل + ك

a) ذ — harful-ishārah al-aslī

Bu — ko‘rsatishning asosiy ildizi. Ma’no jihatidan “u” mazmunini beradi.

b) لَامُ الْبُعْدِ — ل (uzoq masofa lam’i)

Bu lam lamut-ta’bīd / lām-ul-bu’d deb nomlanadi. Asosiy vazifasi ko‘rsatish ma’nosini uzoq masofaga ko‘chirishdir.

كَ — ضمير المخاطب

Bu — murojaat qilinayotgan shaxsga tegishli “sen” zamiri. Ko‘rsatgich olmoshga ilova qilinib, “ana u — mana sen uchun ko‘rsatilayotgan narsa” mazmunini to‘ldiradi.

“تِلْكَ” tarkibi

تِلْكَ = ت + ل + ك

a) ت — ko‘rsatgichlarning qadimgi muannas o‘zagi

Bu harf qadimgi arab lahjalarida muannas predmetlarga ishora qiluvchi asl harf bo‘lgan.

وَأُولَئِكَ = أَوْلَى + ك

Ba’zi manbalarda yana ichki tarkib ham ko‘rsatiladi:

أَوْلَى — اسم الإشارة للجمع

Bu — ko‘plik uchun ishora so‘zining birlamchi shakli.

Sibawayh va Zamaxshariy buni ko‘plikning asl ishora ildizi sifatida ko‘rsatadi.

ل — لَامُ الْبُعْدِ (ba’zi nahvchilarga ko‘ra)

Ba’zi nahvchilar أَوْلَاءِ ichidagi ل harfi ham masofani uzoqlashtiruvchi belgi ekanini aytadi. (Ibn Hishom bu fikrni qisman qo‘llab-quvvatlaydi.)

كَ — ضمير المخاطب

Oxirdagi ك murojaat qilinayotgan shaxsga bog‘liq “sen” zamiri.

Boshqacha aytganda:

أَوْلَاءِ (ko‘plik ishora) + ك (zamid)

Vazifasi:

“Anavi bular”, “ul(ar)” — uzoq masofaga ishora.

| Yaqin masofadagi | | |
|------------------|---------|--------------|
| Ko‘plik | Ikkilik | Birlik |
| هؤلاء | هذان | هذا muzakkar |
| هؤلاء | هتان | هذه muannas |

| Uzoq masofadagi | | |
|-----------------|---------|-----------------|
| Ko‘plik | Ikkilik | Birlik |
| أُولَئِكَ | ذَانِكَ | ذَلِكَ muzakkar |
| أُولَئِكَ | تَانِكَ | تَالِكَ muannas |

Fors tilida ko‘rsatgich olmoshlari predmet yoki shaxsning nutq so‘zlovchiga nisbatan joylashuvini bildiradi. Ular asosan “yaqin” va “uzoq” ko‘rsatish ma’nolarini ifodalaydi hamda gap tarkibida ot bilan birikib aniqlovchi vazifasida ishlaydi. Ko‘rsatgich olmoshlari fors tilining grammatik qurilishida aniqlik, ta’kid va farqlashni ta’minlaydigan muhim birliklardan biridir.

Fors tilida ko‘rsatgich olmoshlarining turlari

Yaqin ko‘rsatish olmoshlari

Yaqin joylashgan predmet yoki shaxsni ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

OlmoshTalaffuziMa’nosiاین in bu

Misollar:

این کتاب – bu kitob

این دختر – bu qiz

این مردها – bu erkaklar

Uzoq ko‘rsatish olmoshlari

Suhbatdoshdan uzoqda bo‘lgan predmet yoki shaxsni bildiradi.

OlmoshTalaffuziMa’nosiآن o‘sha / u

Misollar:

آن خانه – o‘sha uy

آن دانشجو – o‘sha talaba

آن کتابها – o‘sha kitoblar

Demonstrative pronouns ingliz tilidagi ko‘rsatish olmoshlari bo‘lib, biror shaxs, narsa yoki predmet ko‘rsatilganda ishlatiladi.

Ko‘rsatish olmoshlari 4ta bo‘lib, ular: this, that, these va those.

This – bu (yaqindagi 1ta narsa uchun) This is a pen.

These – bular (yaqindagi 1dan ortiq narsalar uchun) Those are pens.

That – u, anavi (uzoqdagi 1ta narsa uchun) That is a kite.

Those – anavilar, ular (uzoqdagi 1dan ortiq narsalar uchun) Those are kites

Fors, arab va ingliz tillaridagi ko‘rsatgich olmoshlari tilda predmet va shaxsning joylashuvini aniqlash, ta’kid va farqlash vazifasini bajaruvchi muhim grammatik birliklardir. Uch tilning qiyosiy tahlilidan ko‘rinadiki, fors va ingliz tillari ko‘rsatgich olmoshlarini nisbatan sodda ikki guruhga ajratsa, arab tili esa murakkab, mukammal va nozik farqlangan tizimni namoyish etadi. Bu esa arab tilida mantiqiy, semantik va grammatik farqlarning aniq ifodalanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdusammatov, M. Hozirgi fors tili grammatikasi. – Toshkent.
2. Hasanboy.uz. Arab tili grammatikasi: Ko‘rsatgich olmoshlar.
3. Ibn Hishām al-Anṣārī. Muḡhnī al-Labīb ‘an Kutubi al-A‘ārīb. Dār al-Fikr, Beirut.
4. Ibn ‘Aqīl. Sharḥ Ibn ‘Aqīl ‘alā Alfiyyati Ibn Mālik. Dār at-Turāth, Cairo.

ARAB ADABIYOTIDA TARJIMA SIYOSATI VA G‘ARB ADABIYOTINING TA’SIRI

*Yusufxo jayeva Saodat
Oriental universiteti
Filologiya fakulteti
4-kurs 204-guruh talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqola arab adabiy ushbu maqolada arab adabiyotida tarjima siyosatining shakllanishi, rivojlanishi va uning madaniy hamda ilmiy jarayonlardagi o‘rni yoritiladi. Xususan, XIX–XX asrlarda arab ziyolilari tomonidan amalga oshirilgan tarjima jarayonlarining G‘arb adabiyoti bilan aloqalarni kuchaytirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada tarjimaning nafaqat badiiy merosni boyitish, balki ilm-fan, falsafa va adabiy uslublarning yangilanishiga ko‘rsatgan ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, G‘arb adabiy an’analari, roman janri va modernistik oqimlarning arab adabiyotiga kirib kelishiga tarjima siyosati qanday ta’sir ko‘rsatgani ilmiy asosda bayon etiladi. Tadqiqot yakunida arab tarjimachilik maktablarining bugungi holati hamda ularning adabiy jarayondagi o‘rni umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: Arab adabiyoti, tarjima siyosati, madaniy almashinuv, Bayt ul Hikma, tarjima markazlari, Nahda G‘arb adabiyoti, roman janri.

Abstract. This article explores the development of translation policy in Arab literature and examines its critical role in shaping modern Arabic literary trends. Special attention is given to the nineteenth and twentieth centuries, when Arab

intellectuals intensified translation efforts to reconnect with global knowledge and literature. The study highlights how translations from Western languages—particularly English and French—contributed to the evolution of literary genres, narrative techniques, and modernist ideas within Arab literature. Moreover, the article analyzes how translation became both a cultural bridge and a transformative tool that enabled Arab writers to adopt, adapt, and reshape Western literary elements. The research concludes by assessing the contemporary state of translation in the Arab world and its ongoing impact on literary and intellectual production.

Adabiyot arablarning modernizatsiyaga intilish bilan bogʻliq madaniy ,ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni tushinishda bebaho vositadir.Ushbu maqola arab identikligining namoyon boʻlishini tarixiy va zamonaviy arab adabiyoti asarlari hamda ularning yevropa tillariga tarjima jarayonlari orqali oʻrganadi . Bunda koʻplab adabiyotlarning asl nusxasi va tarjimalari alohida oʻrganilib tahlil qilib chiqilgan va ilmiy istemolga kiritilgan .

Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasiga Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat Oʻzbek tili va adabiyoti universiteti, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti bilan hamkorlikda tarjima ishlarga malakali tarjimon-yozuvchilar hamda mutaxassislar belgilangan tartibda jalb etilishini taʼminlash tavsiya etildi.

Alisher Navoiy Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasiga Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat Oʻzbek tili va adabiyoti nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda oʻzbek tiliga tarjima qilingan jahon adabiyotining eng sara namunalarini hamda chet tillarga tarjima qilingan oʻzbek adabiyoti durdonalarini xatlovdan oʻtkazadi va kelgusi besh yilda tarjima qilinadigan asarlar roʻyxatini shakllantiradi.

Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshida tuzilgan maxsus komissiya har yili 1 iyungacha Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi bilan birgalikda kelgusi yilda tarjima qilinishi va nashr etilishi rejalashtirilayotgan jahon adabiyotining sara namunalarini hamda oʻzbek adabiyoti durdonalarining mazmuni va gʻoyasini oʻrganib chiqib, ularni nashr etishga tavsiya etadi.

Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligi Yozuvchilar uyushmasining tavsiyasi asosida jahon adabiyotining eng sara namunalarini oʻzbek tiliga hamda oʻzbek adabiyoti durdonalarini chet tillarga tarjima qilish yuzasidan davlat buyurtmasini shakllantiradi hamda har yili 1 iyulgacha tasdiqlash uchun Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillarga tarjima qilish bo‘yicha davlat buyurtmasi berish sxemasi ishlab chiqildi

“Arab adabiyotida tarjima siyosati”

Arab adabiyotida tarjima siyosati ko‘p asrlik an‘anaga ega bo‘lib, u ilm-fan, falsafa, diniy bilimlar va badiiy merosning shakllanishida juda muhim rol o‘ynagan.

1. Abbosiylar davrida tarjima harakati (VIII–X asrlar).

Bu davrda Bag‘doddagi “Bayt ul-Hikma” markazi Sharq va G‘arb o‘rtasida ilmiy ko‘prik vazifasini bajardi. Yunon, fors, hind tillaridan minglab ilmiy va falsafiy asarlar tarjima qilindi.

2. Qorolicha Suqutiylar va Andalus davri.

Andalusda tarjima ishlari musulmon merosini Yevropaga yetkazishda asosiy o‘rin egalladi. Arab tilidan lotin tiliga tarjima qilingan asarlar Yevropa uyg‘onishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

3. XX asrda tarjima siyosati.

Arab mamlakatlarida o‘quv yurtlari, ilmiy markazlar va nashriyotlar tomonidan tarjima ishlariga katta e‘tibor qaratildi. Fransuz, ingliz, rus adabiyotidan ko‘plab badiiy asarlar arab tiliga tarjima qilindi.

4. Zamonaviy tarjima siyosati.

Bugungi kunda ko‘plab arab davlatlarida tarjima markazlari faoliyat yuritadi. “Nashr”, “Maktabat al-Asriyya” kabi loyihalar arab o‘quvchisini jahon adabiyotiga yaqinlashtirmoqda.

5. Adabiy jarayonga ta‘siri.

Tarjima arab she‘riyati, nasri va dramaturgiyasiga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Yangi badiiy uslublar paydo bo‘ldi, adabiy oqimlar shakllandi.

XIX-XX Asrlarda G‘arb Adabiyotining Arab Dunyoiga Tarjima Qilinishi XIX asrda Arab dunyosida “Nahda”, ya‘ni ma‘naviy uyg‘onish davri boshlandi. Ushbu davrda G‘arb adabiyotini arab tiliga tarjima qilish jarayoni keskin faollashdi. Buning sabablaridan biri G‘arb ilm-fani va madaniyatini o‘rganish, jamiyatni modernizatsiya qilish hamda Yevropa bilan madaniy va diplomatic aloqalarni mustahkamlash zaruriyatidir. Tarjima markazlari asosan Misrning Qohira shahri, Suriyaning Bayrut shahri va Livan matbuot markazlarida faoliyat yuritdi.

XIX-XX asrlarda G‘arb adabiyoti vakillarning ko‘plab asarlari arab tiliga o‘girildi. Jumladan, ingliz adibi Uilyam Shekspirning “Hamlet”, “Otello” kabi dramalari tarjima qilindi va arab teatrining shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Fransuz adabiyotining Balzak, Ruso va Dumas singari vakillarning romanlari arab yozuvchilariga realistic adabiy tasvirning mohiyatini o‘rgatdi. Rus adabiyoti vakillari

Tolstoy ,Doatoyevskiy va Pushkinning asarlarining tarjima qilinishi esa arab adabiyotida psixologik tahlilga asoslangan roman janrining rivojlanishiga xizmat qildi.

Tarjima jarayoni arab adabiyotida yangi badiiy janrlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi .Xususan ,roman va drama janrlari G‘arb adabiyotidan o‘rnak olgan holda arab adabiyotida mustahkamlash o‘rnashdi. Shuningdek ,G‘arb adabiy tanqidining yondashuvlari arab adabiy mihitiga kirib, estetik tafakkurning kengayishiga sabab bo‘ldi. XX asrlarda G‘arb adabiyotining arab tiliga tarjima qilinishi Arab adabiyotida modern adabiy yo‘nalishlarning shakllanishiga va tanqidiy taffaurning rivojlanishiga hamda G‘arb –Arab madaniy aloqalarining mustahkamlanishiga olib keldi . Bu jarayon arab adabiyoti tarixida eng muhim madaniy harakatlardan biri hisoblanadi.

Bayt ul-Hikma

Arab adabiyotida tarjima siyosatining shakllanishi Abbosiylar davrda Bag‘dod shahrida faoliyat yuritilgan Bayt ul-Hikma nomli ilmiy markaz bo‘lgan . Ushbu markaz bir tomondan ilmiy muassasa va kutubxona va eng yirik tarjima markazi sifatida tarixda muhim o‘rin egalladi.Bayt ul-Hikmaning asosiy maqsadi turli xalqlarning adabiy va ilmiy merosini Arab tiliga tarjima qilishdan iborat bo‘lgan.

Bayt ul–Hikma markazi nafaqat Sharq adabiyoti taraqqiyotida, balki keyinchalik Yevropa Uyg‘onish davri (Renessans)ga qadar bo‘lgan ilmiy jarayonlarda ham muhim rol o‘ynadi. Chunki arab tiliga tarjima qilingan ilmiy meros keyinchalik lotin tiliga o‘girilgan va G‘arb ilm-fani hamda adabiyotining rivojlanishiga asos bo‘lgan. Shunday qilib, Bayt ul–Hikma Sharq va G‘arb madaniy aloqalarining ilk ko‘prigi sifatida tarixga kirdi.

Bayt ul–Hikma faoliyati doirasida antik dunyo merosi — Yunoniston, Hindiston, Eron va Suriyadagi ilmi-falsafiy, adabiy va tibbiy asarlar arabchaga o‘girilgan. Ayniqsa Arastu, Aflotun, Galen, Evklid kabi mutafakkirlarning asarlari tarjima qilingan bo‘lib, bu tarjimalar arab adabiyotining ilmiy negizlarini mustahkamladi va tafakkur doirasini kengaytirdi. Bundan tashqari, Fors epik adabiyoti, hind falsafasi va matematika asarlarining qayta talqin qilinishi arab ilm-fani va adabiy tafakkurining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Demak, Bayt ul–Hikma faqat tarjima markazi emas, balki Sharq adabiy tafakkurini dunyo miqyosiga olib chiqqan madaniy-ma’rifiy institut bo‘lgan. Bu jarayon arab adabiyotida tarjima siyosatining shakllanishiga, uning ilmiy-estetik mukammallashuviga va G‘arb bilan madaniy aloqalarining kengayishiga sabab bo‘lgan.

Abbosiylar davrida, ayniqsa al-Ma’mun (813–833) hukmronligi paytida, tarjima davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bayt ul-Hikma,markazlashgan tarjima instituti

bo‘ldi, tarjimonlar davlat tomonidan moddiy rag‘batlantirildi ,tarjima tasodifiy emas, balki rejalashtirilgan siyosat asosida olib borildi

Tarjima siyosatining asosiy tamoyillari

Ilmiy foydalilik (tibbiyot, matematika, falsafa)

Matn aniqligi (Hunayn ibn Ishaq usuli – avval suryoniy, keyin arabchaga)

Terminologiya yaratish (arab ilmiy tili shakllandi)

Moslashtirish (adaptatsiya) – so‘zma-so‘z emas, ma’noga asoslangan tarjima

Bayt ul-Hikma faoliyatining G‘arbga ta’siri to‘g‘ridan to‘g‘ri va isbotlangan.

Ilmiy uzviylik zanjiri, Yunon Arab Lotin Yevropa XII asrda Toledo tarjima maktabi Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Forobiy asarlari lotinchaga tarjima qilindi.

Xulosa qilib aytganda, arab adabiyotida tarjima siyosati ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, u faqat ilmiy merosni saqlash vositasi emas, balki adabiy va madaniy taraqqiyotning muhim omili sifatida namoyon bo‘lgan. Abbosiylar davrida Bayt ul-Hikma markazida olib borilgan rejalashtirilgan tarjima faoliyati arab ilmiy va adabiy tafakkurining shakllanishida muhim rol o‘ynadi hamda Sharq va G‘arb o‘rtasida ilmiy-madaniy ko‘prik vazifasini bajardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom tarixi Abbosiylar davri 92-98B
2. N Ibrohimov
3. www.in-academy.uz
4. www.scientificprogress.uz

O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SEMANTIK QARAMA-QARSHILIKLAR VA O‘XSHASHLIKLAR

Yusupova Dilnoza Jamoliddinovna

Oriental universiteti

Filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi so‘z birikmalarining tarkibiy-semantik xususiyatlarini solishtirishga qaratilgan. Bu tadqiqot turli til xususiyatlarini, jumladan, sintaktik tuzilmani, semantik munosabatlarni, qo‘shma gap qoliplarini har tomonlama tahlil qilib, so‘zlarning birikishi va ma’no birliklarini hosil qilishi nuqtai nazaridan ikki til o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni yoritib beradi. Tadqiqot ingliz va o‘zbek tillarining lingvistik o‘ziga xosliklari bo‘yicha qimmatli fikrlarni taqdim etib, har bir tildagi so‘z birikmalarini boshqaradigan asosiy mexanizmlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Kalit soʻzlar: semantik qarama-qarshiliklar, iboralar, birikmalar, ingliz tili, oʻzbek tili, til va madaniyat.

Oʻzbek va ingliz tillaridagi semantik qarama-qarshiliklarning kelib chiqishi, avvalo, har ikki tilni shakllantirgan tarixiy-madaniy muhit, dunyoqarash, yashash tarzi, diniy tasavvurlar va ijtimoiy tajribaning farqlanishi bilan bogʻliq. Har bir xalq atrof-muhitni idrok etish jarayonida maʼnolarni oʻz madaniy qadriyatlarini, anʼanalari va tajribasi asosida yaratadi, shu sababli bir xil hodisa yoki tushuncha turli tillarda turlicha semantik mazmunga ega boʻlib shakllanadi.

Ingliz va oʻzbek tillaridagi soʻz birikmalarining tarkibiy-semantik xususiyatlarini qiyosiy oʻrganishda ushbu ikki til oʻrtasidagi farq va oʻxshashliklarni yoritib beruvchi bir qancha asosiy paydo boʻldi. Tahlil davomida ingliz va oʻzbek tillaridagi soʻz birikmalarining strukturaviy qoliplari va semantik xususiyatlariga eʼtibor qaratilib, ularning sintaktik tashkil etilishi va izohlash mexanizmlari haqida tushunchalar ochib berildi. Tarkibiy jihatdan ham ingliz, ham oʻzbek tillari soʻz birikmalarini hosil qilishda umumiy qoliplarni koʻrsatib, sintaktik konstruksiyalarning maʼlum turlari, masalan, ot-feʼl, sifatdosh-ism birikmalariga ustunlik bergan. Ingliz tilida soʻz birikmalarining soʻz birikmalarida qatʼiy belgilangan tartibiga ustunlik berilgan boʻlsa, oʻzbek tilida soʻz birikmalarining ayrim turlarida koʻproq moslashuvchanlik namoyon boʻldi. Ushbu strukturaviy farqlar har bir tilning tipologik xususiyatlarini aks ettiradi va sintaktik tashkilot soʻz birikmalarining shakllanishida qanday hal qiluvchi rol oʻynashini taʼkidlaydi. Semantik jihatdan tahlil ingliz va oʻzbek tillaridagi soʻz birikmalari oʻrtasidagi semantik shaffoflik va obrazlilik darajasida sezilarli farqlar mavjudligini aniqladi. Ingliz tilidagi soʻz birikmalari yuqori shaffoflik va toʻgʻridan-toʻgʻri maʼnolarni namoyon etishga moyil boʻlgan, oʻzbek soʻz birikmalarida esa koʻproq majoziy va idiomatik iboralar namoyon boʻlgan [5, 116-121-b].

Ingliz tilidagi birikmalar asosan aniqlovchi yoki kesim vazifasida qoʻllaniladi, oʻzbek tilida esa gapda sifatlovchi aniqlovchi sifatida namoyon boʻladi. Oddiy darajadagi sifat komponentlaridan takib topgan frazemalarni tahlil qiladigan boʻlsak, misol uchun “big mouth” – ogʻzida gap turmaydigan, gullab qoʻyadigan va maqtanchoq maʼnolarida qoʻllanilsa, oʻzbek tilidagi “ogʻzi katta” – iborasi soxta, kibrli, maqtanishni yaxshi koʻradigan kishilarga nisbatan qoʻllaniladi. [16-b]

“An old chestnut” iborasi ilk bora XIX asrda Angliya va Amerikada mashhur boʻlgan, Uilyam Daymond qalamiga mansub “Broken Sword” asaridagi ikki qahramon oʻrtasidagi suhbatda tilga olingan boʻlib, hozirda eski, koʻp marotaba aytilgan va zerikarli boʻlib qolgan hazil va hikoyalarga nisbatan ishlatiladi. Oʻzbek tilida uning muqobili sifatida “siyqa gap, siyqasi chiqqan” – koʻp qoʻllangan,

ishlatilaverib ko'ngilga urgan, me'daga tekkan degan ma'nolarda keladi. Ingliz va o'zbek tilidagi leksik semantik xususiyatlarni tahlilida, o'zbek tilidagi muqobillarining hammasida leksik va funksional xususiyatlar ishtirok etgan. "Blood is thicker than water" birligida "thicker" so'zi qiyosiy darajada ishlatilgan bo'lib so'zma-so'z "qon suvdan quyuproq" deb tarjima qilinadi. Ingliz millatiga mansub kishilar oilaviy rishtalar boshqa munosabatlardan ustunligini ko'rsatuvchi mazkur birlikning o'zbek tilidagi ekvivalenti sifatida "et bilan tirnoq", "etni tirnoqdan ajratib bo'lmas" birligi o'z nutqimizda ko'p bora uchraydi. Morfologik jihatdan turli so'z turkumlaridan tuzilgan bo'lsada, semantik jihatdan bir ma'noni ifodalaydi. Qondoshlik, jigarchilik, bir ota-onaning farzandlari o'rtasidagi mehr-muhabbat rishtalari o'zbek millatida qanchalik qadrlansa, ingliz madaniyatida ham o'ziga xos o'rni borligini ushbu birlik misolida anglash mumkin.

Shuningdek ingliz tilidagi "skyscraper buildings" so'zi o'zbek tilida "osmono'par binolar" deb tarjima qilinadi. So'z birikmalar bir xil so'z turkumlaridan foydalanilgan bo'lsa ham sememalarda farqlar bor. "Scyscraper" so'zidagi "scrape" so'zi "qirmoq" yani "osmonni qiruvchi binolar" deb keskin, jarohatlayotgandek, agressiv ma'nolarda kelsa, o'zbek tilidagi "osmono'par" so'zida, samimiylik, erkalantirish, muloyimlik aks etadi. "Deadline" so'zi esa o'zbek tilida "belgilangan fursat" so'zi bilan ekvivalent hosil qiladi. Bu yerda ham "dead" yani keskinlik va qo'rquvni esga soladigan "o'lik" so'zi ishlatilgan, o'zbek tilida esa "belgilangan" oddiylik so'zi qo'llanilgan, keskin ham emas yumshoq ham emas.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi sifatli birikmalar va ularning morfologik, semantik va lingvistik xususiyatlarining tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek millatlari bir-biridan farq qilsa-da, sifatlarni ifodalovchi birikmalar ma'nosi bir-biriga yaqin va ba'zi hollarda ichki ma'nolarda tafovutlar bor. Tanlab olingan birikmalar lingvistik va madaniy kontekst asosida o'rganildi, bu esa ularning mazmuni va ishlatilishida yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan manbaalar

1. Khasanovna, A. A., Sharafitdinovna, K. K., & Sharafitdinovna, K. N. (2021). Perfect Knowledge of the State Language-A Guarantee of Personal Development and Prospects for the Specialist. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2(11), 12-16
2. Oxford English Dictionary. Oxford University Press.
3. NGLIZ VA O'ZBEK TILI SO'Z BIRIKMALARI STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARNING QIYOSIY ASPEKTD A O'RGANILISHI Nazarov, Sardor Shamurodovich <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N29>

4. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI NUTQ LEKSIK BIRLIKLARINING SEMANTIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH

Madiyorova

Madinabonu

Azimboy

qizi

<https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N29>

5. LINGUISTIC COMPARATIVE ANALYSIS OF QUALITATIVE COMPONENT PHRASES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Xolmatova Malika Ibadullayevna <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/B8567>

O‘ZBEK, FORS VA INGLIZ TILLARIDA SIFAT DARAJALARINING TAQQOSLANISHI

Xusanova Muslima

Filologiya fakulteti

204-guruh talabasi

Annotatsiya: Til o‘rganuvchilar uchun sifat darajalari muhim grammatik mavzularidan biridir. Sifat darajalari orqali narsalarni ta’riflash, qiyoslash va ortirma darajalarda ifodalash mumkin. O‘zbek, fors va ingliz tillarida sifat darajalari uch asosiy darajada – oddiy, qiyoslash va ortirma darajalarda yasaladi. Ushbu maqolada ushbu uch tilning sifat darajalarini solishtirish orqali ularning grammatik o‘xshashlik va farqlari yoritiladi. O‘zbek va fors tillarida sifat darajalari ko‘proq qo‘shimchalar yordamida yasalgan bo‘lsa, ingliz tilida qisqa va uzun sifatlar uchun alohida shakllar mavjud. Bu maqola til o‘rganuvchilarga uch tilning asosiy sifat darajalarini ko‘rsatish va ularning o‘ziga xos grammatik xususiyatlarini tushuntirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: sifat darajalari, oddiy, qiyosiy, orttirma, qo‘shimchalar, kuchaytiruvchi, shakllar

Abstract. Levels of quality are one of the most important grammar topics for language learners. Through quality levels, things can be described, compared, and expressed in incremental levels. Quality levels in Uzbek, Persian and English are made at three main levels - simple, comparative and incremental. This article highlights the grammatical similarities and differences between these three languages by comparing their quality levels. In Uzbek and Farsi, adjective levels are formed using more adverbs, while in English there are separate forms for short and long adjectives. This article aims to show language learners the basic quality levels of three languages and explain their specific grammatical features.

O‘zbek tilida sifat darajalari uch xil ko‘rinishda ishlatiladi: oddiy, qiyoslash va orttirma daraja. Ushbu darajalar yordamida sifatning darajasi va taqqoslash holatlari aniqlanadi.

Oddiy daraja:

Oddiy daraja sifatning asl holatini ifodalaydi, bu darajada sifat hech qanday qo‘shimcha yoki o‘zgarishga ega emas.

Misollar: yaxshi, katta, kichik, chiroyli, tez.

"Bu kitob yaxshi" gapida "yaxshi" so‘zi oddiy darajada kelgan.

Qiyoslash darajasi:

Qiyoslash darajasi "-roq" yoki "-rak" qo‘shimchalari yordamida yasaladi va sifatning boshqa narsa bilan taqqoslanish holatini ifodalaydi.

a. Misollar: yaxshiroq, kattaroq, kichikroq, chiroyliroq, tezroq.

b. "Bu kitob o‘sha kitobga qaraganda yaxshiroq" gapida "yaxshiroq" so‘zi qiyoslash darajasida qo‘llanilgan.

c. Qiyoslash darajasi "ko‘ra" so‘zi yordamida ham ifodalanadi: "U kamandondan ko‘ra yaxshiroq o‘ynaydi".

Orttirma daraja: Orttirma daraja sifatning eng yuqori darajasini bildiradi va odatda "eng" so‘zi bilan yasaladi. Misollar: eng yaxshi, eng katta, eng kichik, eng chiroyli, eng tez. "Bu kitob eng yaxshi kitob" gapida "eng yaxshi" orttirma darajada keltirilgan. Shuningdek, "juda", "nihoyatda", "o‘ta" kabi kuchaytiruvchi so‘zlar ham sifatning orttirma darajasini ta’kidlash uchun ishlatilishi mumkin. Masalan: "Bu gul juda chiroyli". O‘zbek tilida sifat darajalari qo‘shimchalar yordamida oson yasaladi va shuning uchun o‘quvchilar sifat darajalarini tezda o‘rganib olishlari mumkin. Shu bilan birga, sifatning kuchaytiruvchilar bilan yanada aniqlik kiritish imkoniyati mavjud.

Fors Tilidagi Sifat Darajalari

Fors tilida ham o‘zbek tiliga o‘xshash tarzda sifat darajalari uch xil ko‘rinishda qo‘llaniladi: oddiy, qiyoslash va orttirma darajalar. Fors tilidagi sifat darajalari odatda maxsus qo‘shimchalar yordamida yasaladi.

1. Oddiy daraja:

• Oddiy daraja sifatning neytral, hech qanday o‘zgarmagan shaklini ifodalaydi. Hech qanday qo‘shimchalar qo‘shilmaydi.

• Misollar: خوب (khub - yaxshi), بزرگ (bozorg - katta), کوچک (kuchek - kichik), زیبا (zibâ - chiroyli), سریع (sari’ - tez).

• Masalan, "این کتاب خوب است" ("In ketob khub ast" - Bu kitob yaxshi) gapida "خوب" so‘zi oddiy darajada ishlatilgan.

•

2. Qiyoslash darajasi:

• Fors tilida qiyoslash darajasi sifatga "-تر" (-tar) qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. Bu qo‘shimcha o‘zbek tilidagi "-roq" qo‘shimchasiga mos keladi va sifatning boshqa narsalar bilan taqqoslangan shaklini ifodalaydi.

- Misollar: خوبتر (khubtar - yaxshiroq), بزرگتر (bozorgtar - kattaroq), کوچکتر (kuchektar - kichikroq), زیباتر (zibâtar - chiroyliroq), سریعتر (sari'tar - tezroq).

- Masalan, "این کتاب خوبتر از آن کتاب است" ("In ketob khubtar az ân ketob ast" - Bu kitob u kitobdan yaxshiroq) gapida "خوبتر" (khubtar) so'zi qiyoslash darajasida keltirilgan.

3. Orttirma daraja:

- Orttirma daraja sifatning eng yuqori darajasini ifodalaydi va "ترین- (-tarin) qo'shimchasi orqali yasaladi. Bu qo'shimcha o'zbek tilidagi "eng" so'ziga teng keladi.

- Misollar: خوبترین (khubtarin - eng yaxshi), بزرگترین (bozorgtarin - eng katta), کوچکترین (kuchaktarin - eng kichik), زیباترین (zibâtarin - eng chiroyli), سریعترین (sari'tarin - eng tez).

- Masalan, "این کتاب خوبترین کتاب است" ("In ketob khubtarin ketob ast" - Bu kitob eng yaxshi kitob) gapida "خوبترین" (khubtarin) so'zi orttirma darajada qo'llanilgan.

4. Kuchaytiruvchi so'zlar:

- Fors tilida sifatning yuqori darajasini ta'kidlash uchun "بسیار" (besyar - juda) yoki "خیلی" (kheyli - juda) so'zlari qo'llanadi.

- Misollar: بسیار خوب (besyar khub - juda yaxshi), خیلی بزرگ (kheyli bozorg - juda katta), خیلی سریع (kheyli sari' - juda tez).

- Masalan, "این کتاب بسیار خوب است" ("In ketob besyar khub ast" - Bu kitob juda yaxshi) gapida "بسیار" (besyar) so'zi sifatni kuchaytirish uchun qo'llanilgan.

Fors tilida sifat darajalari o'ziga xos qo'shimchalar yordamida yasaladi va shu sababli fors tili o'rganuvchilar uchun o'zbek tilidagi darajalarga o'xshashlik seziladi. Bu til o'rganuvchilar uchun qo'shimcha yengillik yaratishi mumkin.

Ingliz Tilidagi Sifat Darajalari

Ingliz tilida ham sifat darajalari uch asosiy ko'rinishda ishlatiladi: oddiy, qiyoslash va ortirma darajalar. Ingliz tilida qisqa va uzun sifatlar uchun turli xil qo'shimchalar yoki yordamchi so'zlar ishlatiladi, bu esa bu tilning o'ziga xos xususiyatidir.

1. Oddiy daraja (Positive degree):

Oddiy daraja sifatning oddiy, neytral shaklini bildiradi va hech qanday qo'shimchasiz ishlatiladi.

Misollar: good (yaxshi), big (katta), small (kichik), beautiful (chiroyli), fast (tez).

- Masalan, "This book is good" (Bu kitob yaxshi) gapida "good" so'zi oddiy darajada qo'llanilgan.

2. Qiyoslash darajasi (Comparative degree):

- Qiyoslash darajasi sifatning boshqa narsalar bilan qiyoslanish holatini ifodalaydi. Qisqa sifatlar uchun "-er" qo‘shimchasi qo‘shiladi, uzun sifatlar esa "more" yordamchi so‘zi bilan yasaladi.

- Misollar:

Qisqa sifatlar: "better" (good - yaxshiroq), "bigger" (big - kattaroq), "smaller" (small - kichikroq), "faster" (fast - tezroq).

Uzun sifatlar: "more beautiful" (beautiful - chiroyliroq), "more interesting" (interesting - qiziqroq).

- Masalan, "This book is better than that one" (Bu kitob u kitobdan yaxshiroq) gapida "better" so‘zi qiyoslash darajasida keltirilgan.

3. Orttirma daraja (Superlative degree):

- Orttirma daraja sifatning eng yuqori darajasini bildiradi. Qisqa sifatlarda "-est" qo‘shimchasi, uzun sifatlarda esa "the most" yordamchi so‘zi ishlatiladi.

- Misollar:

Qisqa sifatlar: "the best" (good - eng yaxshi), "the biggest" (big - eng katta), "the smallest" (small - eng kichik), "the fastest" (fast - eng tez).

Uzun sifatlar: "the most beautiful" (beautiful - eng chiroyli), "the most interesting" (interesting - eng qiziqarli).

- Masalan, "This is the best book" (Bu eng yaxshi kitob) gapida "the best" so‘zi ortirma darajasida qo‘llanilgan.

4. Notekis sifatlar (Irregular Adjectives):

- Ingliz tilida ba’zi sifatlar uchun o‘ziga xos qiyoslash va ortirma shakllari mavjud bo‘lib, ular qo‘shimchalar orqali emas, balki butunlay boshqa so‘z shakli bilan yasaladi.

- Misollar:

- good – better – the best

- bad – worse – the worst

- far – farther/further – the farthest/the furthest

- Masalan, "This is the worst book" (Bu eng yomon kitob) gapida "the worst" so‘zi ortirma darajada keltirilgan.

Ingliz tilidagi sifat darajalari qisqa va uzun sifatlar uchun turli shakllar orqali yasaladi. Bu, ayniqsa, yangi o‘rganuvchilar uchun biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin, chunki qaysi sifatlar uchun "-er" yoki "-est" qo‘shimchalari ishlatilishini va qaysilari uchun "more" va "the most" yordamchi so‘zlarini qo‘llashni yodda saqlash lozim.

Sifat Darajalarini Taqqoslash va Tahlil

O‘zbek, fors va ingliz tillarida sifat darajalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ularning tuzilishi o‘xshash bo‘lib, har biri oddiy, qiyoslash va orttirma darajalariga ega. Quyida uch tilning asosiy o‘xshashliklari va farqlari tahlili:

1. O‘xshashliklar:

Har uch tilda sifatning uch xil darajasi mavjud: oddiy, qiyoslash va orttirma.

Qiyoslash va orttirma darajalarida sifatning darajasi oshiriladi yoki pasaytiriladi, bu til o‘rganuvchilarga sifatni taqqoslash va eng yuqori darajani ifodalash imkonini beradi.

- Uchala til ham ortirma darajani ifodalash uchun kuchaytiruvchi so‘zlardan foydalanadi. Masalan, o‘zbek tilida "juda", fors tilida "بسیار" (besyar - juda), ingliz tilida esa "very" (juda) so‘zlari ishlatiladi.

2. Farqlar:

- Qiyoslash va orttirma darajasi: O‘zbek va fors tillarida sifat darajalarini yasalishi ko‘pincha o‘xshash – ular qo‘shimchalar orqali hosil qilinadi. Ingliz tilida esa qisqa sifatlar uchun "-er" va "-est" qo‘shimchalari, uzun sifatlar uchun "more" va "the most" yordamchi so‘zlari qo‘llanadi. Shuning uchun ingliz tilida sifatlar uzunligiga qarab darajani ifodalash usuli o‘zgaradi.

- Notekis sifatlar: Ingliz tilida ba’zi sifatlarning o‘ziga xos shakllari mavjud (masalan, good-better-best), fors va o‘zbek tillarida esa bunday holatlar kam uchraydi.

- Kuchaytiruvchi so‘zlar: O‘zbek va fors tillarida sifatning yuqori darajasini kuchaytirish uchun qo‘shimcha so‘zlar (masalan, "nihoyatda", "خیلی") ishlatilsa, ingliz tilida esa bu ko‘pincha "very" kabi so‘zlar orqali amalga oshiriladi.

Quyidagi jadvalda uch tilning sifat darajalari ko‘rinishi yoritilgan:

| Til | Oddiy daraja | Qiyoslash darajasi | Ottirma darajasi |
|--------|--------------|--------------------|---------------------|
| O‘zbek | yaxshi | yaxshiroq | eng yaxshi |
| Fors | خوب (khub) | خوبتر (khubtar) | خوبترین (khubtarin) |
| Ingliz | good | Better | the best |

Xulosa qilib aytsak O‘zbek, fors va ingliz tillaridagi sifat darajalari bir-biriga o‘xshash bo‘lib, ular til o‘rganuvchilarga sifatlarni ifodalash va taqqoslash imkoniyatini beradi. Har bir tilda o‘ziga xos usulda sifat darajalari yasaladi va ishlatiladi. O‘zbek va fors tillarida qo‘shimcha orqali darajalarni yaratish oson bo‘lsa-da, ingliz tilida qiyoslash va orttirma darajasi uzun yoki qisqa sifatga qarab o‘zgarishi mumkin. Bu maqola til o‘rganuvchilarga uch tilning sifat darajalarini tushunish va ularni amalda to‘g‘ri qo‘llashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2002-2005)
2. M. Abdusamatov “Fors tili”. Toshkent 2007
3. <https://englishguli.blogspot.com>

UMUMIY TILSHUNOSLIK VA UZLUKSIZ TA'LIM MASALALARI

UMUMIY TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Faxriddinova Muslima Xusniddin Qizi

Oriental universiteti

Filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy tilshunoslik fanining o'rganish obyekti va asosiy yo'nalishlari keng yoritiladi. Tilshunoslik – til va uning tuzilmasini, xususiyatlarini o'rganan fan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari fonetika, morfologiya, sintaksis va semantikakabi bo'limlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: umumiy tilshunoslik, til obyekti, lingvistik yo'nalish, til tuzilishi, til funksiyasi

Til – insonlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi asosiy vositadir. Tilshunoslikda esa tilni tizimi tarzda o'rganadigan fan bo'lib, uning kelib chiqishi va rivojlanishi har bir xalqning madaniy va intellectual rivojlanishining muhim qismidir. Umumiy tilshunoslik – tilshunoslikning asosiy va nazariy qismi bo'lib, tilni va uning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Bu fan bilan bog'liq batcha umumiy xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Umumiy tilshunoslik sohasida hozirgi kunda bir qator dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ular tilning nazariy asoslari, funksiyalari, til va jamiyat, shuningdek til va aql faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq o'rganish bilan bog'liq. Zamonaviy lingvistik tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki madaniy, ideologik va sivilizatsion tizim sifatida o'rganadi. Shu nuqtai nazardan til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, lingvokulturologiya va etnolingvistik metodlarining mukammalligi, madaniyatni til orqali aks ettirish mexanizmi va universal konseptlar tizimini shakllantirish bugungi kunning muhim muammolaridan biridir. Shuningdek, tilning kognitiv va neyrolingvistik asoslari, ya'ni inson tafakkuri, nutq jarayoni va miyaning lingvistik faoliyati bilan bog'liq masalalar, til tushunchalarining shakllanishi, til va aql faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik, til o'rganish jarayonining neyrobiologik asoslari ham zamonaviy tilshunoslikda dolzarb hisoblanadi. Globalizatsiya davrida tilning tipologik va universal xususiyatlari, turli tillar orasidagi farqlar, grammatik universallar, til strukturasi umumiy qonuniyatlarini aniqlash, til evolyutsiyasi va o'zgarish jarayonlarini o'rganish muhim ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt, mashina tarjimasini, nutqni tanish tizimlari, kompyuter lingvistikasi, tilni avtomatlashtirilgan qayta ishlash va korpus lingvistikasi kabi texnologik yondashuvlar tilshunoslikning yangi muammolarini keltirib chiqardi. Tilning

jamiyatdagi roli, til siyosati, ko‘p tillilik, milliy tillarning saqlanishi, global til ta’siri va sotsial omillar tilshunoslikning dolzarb muammolarini tashkil qiladi. Shu bilan birga, nutq faoliyati, muloqot jarayonlari, pragmatika, diskurs tahlili, nutq aktlari, kontekst va ma’no tuzilmasi, metafora va konseptual tizimlarni o‘rganish zamonaviy tilshunoslikda e’tiborni talab qiladigan masalalardir. Umumiy qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslikning muammolari multidisipliner tabiatga ega bo‘lib, lingvistik nazariya, madaniyatshunoslik, kognitiv fan, neyroilm va axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu muammolarni tadqiq etish orqali tilning nazariy va amaliy salohiyati, inson tafakkuri va jamiyatdagi roli yanada chuqurroq tushuniladi .

Umumiy tilshunoslikning o‘rganish obyekti – til va uning umumiy jihatlari, ya’ni til shakllari, qonuniyatlar va ishlash prinsiplari bo‘lib, u tilning strukturasi bo‘lib, qonuniyati, funksiyasi va tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi. Bu xil obyektning o‘rganishi tilshunoslik faning asosiy vazifalarini belgilaydi va til qanday tizim ekanligini tushunishga yordam beradi. Umumiy tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlari.

- Fonetika – til fonemalarini, tovushlar tizimini, ularning ishlab chiqarilishi va tarqalishini o‘rganadi. Masalan: harflar, va quloq bilan qabul qilinadigan tovushlar, O‘zbek tilida “kitob” so‘zida – k-i-t-o-b bu harflari tovushlari mavjud. Tovushlar – bu inson tilida hosil qilinadigan eng kichik fonik birliklaridir.

- Morfologiya -so‘z tuzilishi va tuzilmalarini, morfemalar va ularning funksiyalarini o‘rganadi. Masalan: O‘zbek tilida “ Qalam” va “qalampir” so‘zlarida “qal” qismining tovushlari fonemasiga kiradi ya’ni, bu tovushlarning o‘rnini o‘zgartirish bilan ma’no o‘zgaradi: “qal” “qalampir” – achiq o‘simlik. “kal” bu so‘z mavjud emas. Bu fonemalar tilimizda tizimning ajralmas qismi ekanligini ko‘rsatadi.

- Sintaksis – so‘zlar navbatini va birikmalarini, gap tuzilishi va uning qonuniyatlarini o‘rganuvchi bo‘lim. Masalan: Oddiy gap “Men kitob o‘qiyman.” Bu gapda “ Men “ - subject, “kitob” – obyekt, “ o‘qiyman “ predikat (amal). Sintaksis qoidalar bu elementlarning qanday tartibda joylashishini belgilaydi.

- Semantika – so‘zlar va gaplarning mazmuni va ma’nosini, so‘zlarning semantic munosabatlarini o‘rganadi. Masalan: So‘z “yashil” va “oq” _ ranglar mano‘si, “yashil” – o‘simliklar rangiga mos, “oq” – rangi oqar, Ravshan, yorug‘. Ushbu so‘zlarning ma’nosi - ularning semantik tizimida o‘zaro munosabatlari.

Xulosa: Umumiy tilshunoslik fanining asosiy vazifasi – til va uning umumiy qonuniyatlarini aniqlashdir. Bu fan tilni kompleks va tizimli ravishda o‘rganishni ta’minlab, lingvistik jarayonlarining inson fikri va muloqotiga ta’sirini tushunishga yozdam beradi. Zamonaviy dunyoda tilshunoslik bilan shug‘ullanish ni rivijlantirish va xalqaro aloqalarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isriqulov. M.T.” Tilshunoslikka kirish” – Toshkent “ Yangi asr avlodi” 2009.
2. Rasulov.R.” Xozirgi o‘zbek adabiy tili” – Toshkent “O‘qituvchi” 2005.
3. Xudoyberdiyev.H.N.” Umumiy lingvistik” – Toshkent “ O‘zbekiston Milliy Universiteti” 2005.

O‘ZBEK TILIDAGI BA’ZI ETNOGRAFIK LEKSEMALAR XUSUSIDA

Zarina Zoirova Zohid qizi

Oriental universiteti

Filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi etnografik leksemalar tahlil qilinib, ularning xalq hayoti, urf-odat, an’ana va madaniy qadriyatlarni aks ettirishdagi roli ko‘rib chiqiladi. Etnografik leksemalar xalqning turmush tarzi, mehnat faoliyati, ovqatlanish, kiyinish, bayram va marosimlar kabi sohalarda foydalanilgan so‘z va iboralardan iborat bo‘lib, til orqali etnosning madaniy xotirasi va identiteti saqlanishini ta’minlaydi. Maqolada shuningdek, etnografik leksikaning turli kontekstlarda ishlatilishi, semantik xususiyatlari va fonetik o‘ziga xosliklari ham qisqacha tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. o‘zbek tili, etnografik leksemalar, leksikologiya, madaniy meros, xalq an’analari, semantika, etnos identiteti.

Abstract. This article analyzes ethnographic lexemes in the Uzbek language and considers their role in reflecting folk life, customs, traditions and cultural values. Ethnographic lexemes consist of words and phrases used in areas such as people’s lifestyle, work, food, clothing, holidays and ceremonies, and ensure the preservation of the cultural memory and identity of the ethnos through language. The article also briefly analyzes the use of ethnographic lexicon in various contexts, its semantic features and phonetic peculiarities.

Keywords. Uzbek language, ethnographic lexemes, lexicology, cultural heritage, folk traditions, semantics, ethnic identity.

O‘zbek tilidagi etnografik leksemalar xalq madaniyati, urf-odat va turmush tarzini aks ettiruvchi so‘z va iboralarni o‘z ichiga oladi. Bu leksemalar xalqning ovqatlanish odatlari, kiyinish, mehnat faoliyati, bayram va marosimlari, ijtimoiy munosabatlari hamda hayotiy tajribalarini aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat lingvistik birlik sifatida, balki etnosning madaniy xotirasi va identitetini saqlash vositasi hisoblanadi. Etnografik leksemalarning semantik xususiyatlari

xalqning dunyoqarashi, qadriyat tizimi va ma'naviy qadriyatlarini til orqali ifodalash imkonini beradi. Masalan, ovqat tayyorlash yoki bayram marosimlari bilan bog'liq so'zlar o'zbek xalqining turmush tarzi va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi, kiyim-kechak, mehnat vositalari va atamalar esa ijtimoiy tuzilma va mehnat faoliyatining tarixiy izlarini saqlaydi. Shu bilan birga, etnografik leksik birliklarning fonetik va morfologik o'ziga xosliklari ham mavjud bo'lib, ular dialektik yoki mintaqaviy variantlarda saqlanib, tilning boyligi va rang-barangligini ko'rsatadi. Etnografik leksemalar tahlili orqali xalqning ijtimoiy hayoti, urf-odatlar va madaniy qadriyatlarini chuqurroq tushunish, shuningdek, o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti va madaniy evolyutsiyasini o'rganish mumkin. Shu nuqtai nazardan etnografik leksika lingvistik tadqiqotlar uchun beqiyos manba bo'lib, til va madaniyatning uzviy bog'liqligini o'rganishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Umuman olganda, o'zbek tilidagi etnografik leksemalar xalqning madaniy xotirasi va milliy identitetining lingvistik ifodasi sifatida, shuningdek, tarixiy va madaniy jarayonlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ovqat va ichimlik bilan bog'liq:

sumalak – Navro'z bayramida tayyorlanadigan an'anaviy taom

shurpa – osh yoki sho'rva

non – kundalik asosiy taom

qozon – ovqat pishirish idishi

Bayram va marosimlar bilan bog'liq:

Navro'z – bahor bayrami

ko'poy – to'y marosimida ishlatiladigan o'yin yoki tadbir

mehmonlik – mehmonni kutib olish an'anasi

ko'ylak, atirgul – bayram kiyimlari yoki bezaklari

Mehnat va hunarmandchilik bilan bog'liq:

terak – yog'och ishlov berish vositasi

paxta yig'uvchi – qishloq xo'jaligi ishchisi

sumalak tayyorlash idishi – an'anaviy hunarmandchilik vositasi

Ijtimoiy-madaniy so'zlar:

oqsoqol – qishloqning tajribali, hurmatli kishi

malika – qadimiy urf-odatda ayol sardor yoki jamiyatdagi obro'li ayol

bobo, buva – oilaviy an'anada katta avlodni bildiruvchi so'zlar

elchi – siyosiy yoki ijtimoiy vakil

Uy-joy va maishiy hayot bilan bog'liq:

ko'chma uy – yaylov yoki safar davridagi uy

saray – qadimiy aristokrat yoki xoqonlar uyi

choyxona – jamiyatda ijtimoiy uchrashuv joyi

O‘zbek oilasining asosiy o‘ziga xos xususiyatlari mehmondo‘stlik va yoshi kattalarga an’anaviy hurmat-ehtiromli muomala qilishdir. O‘zbeklar odatda bir nechta avlodlardan iborat bo‘lgan katta oilalar tarkibida yashaydi, shuning uchun ular ko‘proq hovlisi bo‘lgan katta uylarni yoqtirishadi. Maishiy hayotida mehmondo‘stlikning bir qismi bo‘lgan choyxo‘rlik marosimi katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunda choy damlash va uni mehmonlarga quyib berish faqat mezbonning mutlaq huquqi bo‘ladi. Tushlik yoki kechki ovqatga takliflarni doimo qabul qilish va o‘z vaqtida kelish qabul qilingan. Mehmonga kelayotganda o‘zi bilan birga mezbonning bolalari uchun suvenirilar yoki shirinliklarni olgan yaxshi. Odatda faqat erkaklar bilan qo‘l berib so‘rashishadi. Ayollar hamda uzoqroq o‘tirgan kishilar bilan o‘ng qo‘lini yuragiga qo‘yib, boshini ohista egib salomlashish lozim. Qo‘l berib so‘rashish paytida an’anaga ko‘ra kishining salomatligi, ishda va uydagi ishlari ahvoli to‘g‘risida so‘raydilar. Qishloq joylarda mehmon kelgan paytda ayollar odatda erkaklarning suhbatiga xalal bermaslik uchun ular bilan bir dasturxonga o‘qtirmaydilar. Ayollarning go‘zalligiga qoyil qolish va ularga jiddiy e‘tibor berish qabul qilinmagan. Turar joy xonasiga kirishda poyafzal yechiladi. Mezbon ko‘rsatadigan o‘ringa o‘tirish kerak. Bunda ushbu joy kirishdan qanchalik uzoqda bo‘lsa, shunchalik hurmatli bo‘ladi.

Beshik to‘yi. Beshik to‘yi – chaqaloqni birinchi marta beshikka solish bilan bog‘liq bo‘lib, nishonlanadigan marosimli bayramdir. Bu eng qakdingi va O‘zbekistonda eng keng tarqalgan marosimlardan biri. Odatda bu to‘y chaqaloq tug‘ilishining 7-, 9-, 11- kuni o‘tkaziladi. Turli viloyatlarda marosim o‘zicha xususiyatlarga ega bo‘ladi va oilaning boyligi darajasiga bog‘liq bo‘ladi: o‘ziga to‘q oilalar odatda bu to‘yni katta ko‘lamda o‘tkazadi, kambag‘al oilalar esa uni kamtarona nishonlaydilar. Beshik va chaqaloq uchun barcha zarur andomlar chaqaloq onasining qarindoshlari tomonidan beriladi. Dasturxonga non, shirinliklar va o‘yinchoqlar o‘rab beriladi. Chaqaloqning ota-onasiga, uning bobo-buvilariga sovg‘alar tayyorlanadi. Boy bezatilgan beshik, dasturxonlar va sovg‘alar transport vositasiga qo‘yilib, mehmonlar bilan birgalikda, karnay-surnay va nog‘ora sadolari ostida chaqaloqning ota-onasi uyiga jo‘natiladi. An’anaga ko‘ra olib kelingan beshikni avval chaqaloqning bobosi o‘ng yelkasiga qo‘yadi, keyin o‘g‘lining o‘g‘ yelkasiga uzatadi, u esa beshikni chaqaloqning onasiga beradi. O‘tmishda mehmonlarning barcha niyatlari toza va yaxshi bo‘lishi uchun ular yuziga oq un surar edilar. Mehmonlar mehmonxonaga yasatilgan dasturxonga taklif etiladi va mehmonlar ovqatlanib, sozandalarni tinglab, bazm qilib o‘tirgan paytda qo‘shni xonada kampirlarning ishtirokida bolani yo‘rgaklash va beshikka solish marosimi o‘tkaziladi. Marosim oxirida mehmonlar bolani ko‘rish uchun oldiga kiradilar, unga sovg‘alarni beradi va beshikning ustiga

parvarda yoki qand sepadilar. Shu bilan marosim tugab, mehmonlar uy-uylariga qaytadilar.

Xatna qilish. Xatna qilish to‘yi – islom tomonidan muqaddas deb e‘zozlangan yana bir qadimiy o‘zbek odatidir (sunnat to‘yi). Bu marosim o‘g‘il bolalar uchun 3, 5, 7, 9 yoshga kirganda, kamdan-kam hollarda 11-12 yoshda o‘tkaziladi. Sunnat to‘yining o‘tkazilishi jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadi. O‘g‘il bolaning tug‘ilgan paytidan boshlab uning ota-onasi asta-sekinlik bilan kerakli narsalarning hammasini sotib olib, sunnat to‘yiga tayyorgarlikni boshlaydilar. Ko‘pincha oddiygina «to‘y» ham ataladigan marosimning o‘tkazilishidan bir necha oy avval unga bevosita tayyorgarlik boshlanadi. Qarindoshlar va qo‘shnilar ko‘rpalarni tikishda, to‘y sovg‘alarini tayyorlashda yordam beradilar. Bularning hammasi ko‘p bolali onalarga topshiriladi. To‘ydan avval mahallada yashovchi oqsoqollar, masjidning imomi va qarindoshlarning huzurida Qur‘on o‘qiladi. Dasturxon yoziladi. Shundan keyin Qur‘ondan suralar o‘qiladi va oqsoqollar o‘g‘il bolaga duo o‘qiydilar. Shundan so‘ng katta «to‘y» boshlanadi. «To‘y» dan avval bolaga qo‘shnilar, oqsoqollar, qarindoshlarning oldida sovg‘alarni, zar tikilgan kiyimlarni kiydirishadi. O‘tmishda toychoqni sovg‘a qilish rasm bo‘lgan edi, bolani endilikda u jangchi bo‘lganligini bildirib, unga bolani o‘tqazar edilar. Hamma o‘g‘il bolani tabriklab, unga pul va shirinliklar sepadi, keyin bularning hammasi ichkarida, ayollarning xonalarida davom etadi. Shu kunning o‘zida ayollarning davrasida «taxurar» - ko‘rpalar, yostiqlarni supaga taxlash marosimi o‘tkaziladi, buni odatda ko‘p bolali ona bajaradi. Marosimni mo‘l-ko‘l dasturxon, jumladan bayram oshi tamomlaydi. An‘anaga ko‘ra oshdan keyin kechqurun hovlida katta gulxan yoqiladi va odamlar gulxan atrofida o‘ynaydilar, turli o‘yinlarni uyushtiradilar. Ertasiga bayram davom etadi.

Fotiha to‘yi. Nikoh ota-onalarning ruxsati va duosi bilan, bir necha bosqich qilib o‘tkaziladi. O‘g‘il voyaga yetganda ota-onasi unga mos keladigan qizni izlay boshlaydilar. Bu jara1yonga yaqin qarindoshlari, qo‘shnilari, oshnalari ham kirishadi. Qizni topgandan keyin yigitning xolalari yoki ammalari qizning uyiga uni ko‘rish, ota-onalari bilan va ehtimoliy kelinning uydagi ahvoli bilan tanishish uchun biror bahona bilan kiradilar. Shundan so‘ng qo‘shnilari va tanishlari tanlangan qizning oilasi haqida surishtiradi. Ijobiy javob olingan holda uyga sovchilar yuboriladi. Sovchilikning asosiy marosimlaridan biri fotiha to‘yidir. Sovchilar fotiha qilinadigan kunni belgilaydilar. Shu kuni qizning uyida atrofda taniqli oqsoqolar, mahalla oqsoqoli, qizlar yig‘iladi. Sovchilar o‘zining kelish maqsadini bayon etganlaridan keyin «non sindirish» marosimi boshlanadi. Shu paytdan boshlab yoshlar bir-biri bilan bog‘langan, fotiha qilingan deb hisoblanadi. Fotiha to‘yi nikoh tuziladigan va to‘y o‘tkaziladigan kunni tayinlash bilan tugaydi. Sovchilardan har biriga ichita ikkita non, shirinliklar

bo'lgan dasturxon beriladi, shuningdek qiz tomonidan yigitga va unning ota-onalariga sovg'alar berib yuboriladi. Sovchilar kuyovning uyiga qaytganidan keyin ularning qo'lidan sovg'alar qo'yilgan patnislarni olib, «sarp ko'rar» marosimini boshlaydilar. Dasturxon odatda ko'p bolali ona tomonidan ochiladi. Barcha yig'ilganlar kelining uyidan keltirilgan pishiriqlar, shirinliklardan bahramand bo'ladilar. Fotiha to'yidan boshlab va to to'yning o'zigacha yoshlarning ota-onalari qalin, sep masalalarini va to'y tantanasi bilan bog'liq tashkiliy masalalarni hal etadilar. To'ydan bir necha kun avval qiznikida «qiz oshi» marosimi o'tkaziladi, unga qiz o'zining yaqinlari va o'rtoqlarini taklif etadi.

Nikoh to'yi. Nikoh marosimi an'anaviy tarzda o'zbeklarning hayotida nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'ladi va ayniqsa tantanali nishonlanadi. Umumiy xususiyatlari bo'la turib, u turli viloyatlarda o'zgacha tusda bayram qilinadi. Nikoh marosimining asosiy payti kelining ota-onasining uyidan kuyovning uyiga o'tishi paytidir. To'y kuni kuyovnikida to'y oshi (palov) tayyorlanadi va kelinnikiga yuboriladi, u yerda u dasturxonga tortiladi. Xuddi shunday osh kuyovning uyida ham o'tkaziladi. To'y kuni masjidning imomi ikki yoshga «Xutbai nikoh» ni o'qiydi, shundan so'ng ular xudo oldida er-xotin deb e'lon qilinadi. Imom yoshlarga er va xotinning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Odatda nikoh o'qilganidan so'ng yoshlar o'zining fuqarolik nikohini qayd etish uchun ZAGS ga boradi. To'y kuni kelinnikida kuyovga sarpo (to'yga sovg'a qilingan kiyimlar va poyafzal) kiydiriladi, shundan so'ng kuyov o'z oshnalari bilan kelining ota-onasi huzuriga salom berish uchun boradi. Kuyovning oshnalari bilan qaytganidan so'ng kelin ham keladi. Kuyovning uyiga yuborishdan avval kelinnikida ota-ona bilan xayrlashish marosimi bo'lib o'tadi. Kelin bilan birga yaqin o'rtoqlari ham boradi. Ular qo'shiqlarni aytadilar («O'lan» va «Yor-yor» qo'shiqlari). Kelinni kuyovning uyida kutib olishdan haqiqiy to'y boshlanadi. To'y tugaganidan keyin kuyov kelinni ikki yosh uchun ajratilgan xonaning eshigigacha kuzatadi. Xonada kelinni «yanga» (odatda kelinga yaqin bo'lgan bir ayol) kutib oladi, kelin boshqa kiyim kiyadi va chimildiq (go'shanga) ortida turib, kuyovni kutib olishga tayyorlanadi. Bir qancha vaqtdan keyin kuyov oshnalari bilan birga xonaga yaqin keladi va yangia bilan birga uni kelin kutib turgan gushanga oldiga boradi. Kelinning oldiga kirish uchun u kelinni yangadan ramziy sotib olishi lozim, ular savdolashadi. Shundan keyin kuyov-kelin tuni bilan birga qoladilar. Ertalab azonda «Kelin salom» marosimi boshlanadi. Marosim boshlanishiga yaqin hovlida kuyovning ota-onasi, barcha yaqin qarindoshlari, kuyovningoshnalari va yaqin qo'shnilari yig'iladi. Ularning hammasi navabti bilan kelinning oldiga kelib, o'zining tilaklari, sovg'alari va duolarini baxshida etadi. Kelin har bir kishiga beligacha egilib salom berishi lozim. Shu tariqa bayram tugab, oilaviy hayot boshlanadi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, A. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi va leksikasi. Toshkent, 2005.
2. Asqarov, T. O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 2010.
3. Mansurov, Sh. Etnolingvistika va til madaniyati. Toshkent, 2012.
4. Ter-Minasova, S. Yazyk i kul’tura: lingvokulturologiya. Moskva, 2000.
5. Maslova, V. Lingvokulturologiya. Moskva, 2001.
6. Ziyov, M. O‘zbek tili va etnografik leksika. Toshkent, 2015.
7. Safarov, Sh. Til va madaniyat: etnolingvistik tadqiqotlar. Toshkent, 2018.
8. Rustamov, A. O‘zbek tili tarixiy leksikasi. Toshkent, 2008.
9. Barkov, P. Etnolingvistika va xalq madaniyati. Moskva, 1999.
10. Kononov, A. Drevnetyurkskie yaziki i kul’tura. Moskva, 1963.

INKLYUZIV BOLALARGA CHET TILLARINI O‘QITISH METODLARI

Ahmadaliyeva Feruza

Oriental universiteti,

Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) yo‘nalishi

AFK102-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasi o‘qituvchisi Sevara Chimpolatova

Anotatsiya. Ushbu maqola inkluziv ta’lim kontekstida bolalarga chet tillarini o‘qitish metodlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada turli imkoniyatlarga ega bolalarni (jumladan, o‘rganish qiyinchiliklari, nutq va ijtimoiy rivojlanishdagi farqlar) chet tili ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli jalb qilishning samarali usullari tahlil qilinadi.

Maqolada metodik yondashuvlar, interaktiv va kommunikativ usullar, multimediyaviy vositalari hamda individual va guruh ishlari orqali o‘quv jarayonini moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, inkluziv muhit yaratish, motivatsiya va o‘quv faoliyatini nazorat qilish kabi pedagogik omillar ham tahlil qilinadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, inkluziv bolalarga chet tillarini o‘qitishda diferensial yondashuv, multisensor metodlar, o‘yin va vizual materiallardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Maqola pedagoglar va ta’lim muassasalari uchun inkluziv ta’limni rivojlantirish hamda chet tili o‘qitish sifatini yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit soʻzlar: Inkluziv taʼlim, chet tillarini oʻqitish, oʻqitish metodlari, maxsus ehtiyojli bolalar, differensial yondashuv, koʻp sezgili metodlar, pedagogik strategiyalar

Abstract. This article is devoted to the study of methods for teaching foreign languages to children in an inclusive education context. The article analyzes effective approaches for involving children with diverse needs (including learning difficulties, speech, and social development differences) in the foreign language learning process.

The study examines methodological approaches, interactive and communicative methods, multimedia tools, as well as individual and group work strategies to adapt the learning process. Additionally, pedagogical factors such as creating an inclusive environment, motivation, and monitoring student performance are discussed.

The results indicate that using differentiated approaches, multisensory methods, and games and visual materials increases the effectiveness of teaching foreign languages to children in inclusive settings. The article provides practical recommendations for teachers and educational institutions to enhance inclusive education and improve the quality of foreign language instruction.

Keywords: Inclusive education, foreign language teaching, teaching methods, children with special needs, differentiated instruction, multisensory approach, educational strategies

Yurtimizda chet tillarini chuqur oʻqitishga keng eʼtibor qaratilib, taʼlim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz taʼlim tizimini yanada takomillashtirish, oliy taʼlim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qatʼiy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash” kabi vazifalar belgilangan. Bunda, boʻlajak oʻqituvchilarda faoliyat motivlari asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, oʻquv jarayonida chet tillarini oʻqitish texnologiyasidan foydalanishga oʻrgatish tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Soʻnggi yillarda nafaqat taʼlim sohasida, balki barcha sohalarda chet tillarining ayniqsa ingliz tilining roli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy dunyoni internetsiz (muloqot, ish) tasavvur etish mumkin emas va bu sohada toʻliq huquqli faoliyat yuritish uchun tilni bilish juda muhimdir. Oʻrta maktabda tillarni oʻrgatishning asosiy va yetakchi maqsadi - bu butun oʻquv jarayonini belgilaydigan kommunikativ maqsad. Hozirda nogiron bolalarni normal rivojlanayotgan oʻquvchilar bilan teng ravishda oʻqitish tajribasi faol shakllantirilmoqda. Ushbu turdagi taʼlim amaliyoti har bir oʻquvchining individualligini qabul qilish gʻoyasiga asoslanadi, shuning uchun jarayon nogiron bolaning ehtiyojlarini qondiradigan tarzda tashkil etilishi kerak. Shu bois mazkur

jarayonning maqsadi jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarni o„quv jarayoniga jalb etish va ularning natijalarini yaxshilash uchun ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini o‘rganishdan iborat. So‘nggi yillarda ta’limning global rivojlanishi inkluziv yondashuvlarni keng joriy etishni talab qilmoqda. Inkluziv ta’lim konsepsiyasi barcha bolalarga, jumladan turli qobiliyat va ehtiyojga ega bo‘lganlarga teng imkoniyat yaratishni maqsad qilgan. Shu nuqtai nazardan, chet tillarini o‘qitish jarayoni ham maxsus ehtiyojli bolalarni hisobga olgan holda tashkil qilinishi muhimdir.

Inkluziv bolalar turli rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lishi mumkin: ba’zilarida o‘rganish qiyinchiliklari, nutq yoki ijtimoiy rivojlanishdagi farqlar mavjud bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ular bilan ishlashda pedagoglar individual yondashuv, o‘quv jarayonini moslashtirish va samarali metodlardan foydalanish zarur.

Maqolaning maqsadi – inkluziv bolalarga chet tillarini o‘qitishda samarali metodlarni aniqlash, ularni zamonaviy ta’lim amaliyotiga tadbiq etish imkoniyatlarini tahlil qilish. Tadqiqotda interaktiv va kommunikativ metodlar, multisensor va o‘yinli yondashuvlar, shuningdek, guruh va individual ishlashning pedagogik jihatlari o‘rganiladi.

Ushbu maqola o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar beradi, inkluziv ta’lim muhitini yaratishda chet tillari o‘qitishning samarali strategiyalarini ta’kidlaydi va bu yo‘nalishda ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’lim - bu nogiron va sog‘lom bolalarni birgalikda o‘qitishga qaratilgan ta’lim tizimidir. Bu jarayon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim maktablariga qo‘shish orqali ularning ijtimoiy hayotga moslashuvini ta’minlashni maqsad qiladi[1]. Shuningdek, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi, bunda barcha bolalar imkoniyatga ega bo‘lishi kerak.

Inkluziv ta’limda chet tillarini o‘qitish jarayonida turli metodlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Bunday metodlar individual xususiyatlarni hisobga olib, bolalarning qiziqishini uyg‘otadi, ularni faol ishtirok etishga undaydi. Quyida asosiy metodlar va ularning amaliy qo‘llanilishiga misollar keltiriladi.

1. Differensial yondashuv (Differentiated Instruction)

Bu metod har bir o‘quvchining qobiliyatini, o‘rganish tezligini va qiziqishini hisobga olgan holda ta’limni moslashtirishga asoslanadi.

Misol:

Guruhdagi bolalarning bir qismi so‘zlarni yozma mashq orqali, boshqasi esa audio materiallarni tinglab o‘rganadi.

Masalan, ingliz tilida ranglar mavzusini o‘rgatishda: ba’zi bolalar flashcard yordamida so‘zlarni eslab qoladi, boshqalar esa rangli predmetlar bilan amaliy mashq qiladi.

2. Multisensor yondashuv (Multisensory Approach)

Multisensor metod bolalarning turli sezgi organlariga murojaat qilgan holda o'qitishni nazarda tutadi. Bu, ayniqsa, o'rganish qiyinchiliklari bo'lgan bolalarda samarali.

Misol: Alfavitni o'rgatishda bolalar harflarni plastilin bilan yasaydi, tovushini aytadi va yozadi.

Ingliz tilida sonlarni o'rgatishda bolalar sonlarni aytadi, raqamlarni qo'l bilan ko'rsatadi va harakat bilan ifodalaydi.

3. O'yin va interaktiv metodlar (Game-Based and Interactive Methods)

O'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar bolalarni motivatsiya qiladi va faol ishtirokni rag'batlantiradi.

Misol:

Ingliz tilida "Memory game" o'yini yordamida so'zlarni eslab qolish. Masalan, ranglar yoki mevalar nomlari bilan kartochkalarni moslashtirish.

Rolli o'yinlarda bolalar do'kon, restoran yoki maktab sahnalarini o'ynab, dialog orqali yangi so'zlarni ishlatadi.

Guruhda ishlash bolalarga bir-biridan o'rganish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Misol:

Ingliz tilida "Find your partner" mashqi: har bir bola so'z kartasini oladi va mos juftini topadi.

Guruh loyihalarida bolalar birgalikda kichik hikoya yaratadi va uni sinf oldida taqdim etadi.

Rasm, video, audio va boshqa vizual materiallar o'quv jarayonini qiziqarli va tushunarli qiladi.

Misol:

Ingliz tilida hayvonlar mavzusini o'rgatishda animatsion videolar ko'rsatish va hayvon tovushlarini tinglatish.

Lug'at mashqlarini bajarishda rasm va piktogrammalardan foydalanish.

Ushbu metodlar inkluziv bolalarning turli qobiliyatlarini hisobga olib, o'quv jarayonini individual va guruh ko'rinishida samarali tashkil etishga yordam beradi. Multisensor, o'yin, interaktiv va differensial metodlardan foydalanish nafaqat tilni o'rganishni osonlashtiradi, balki bolalarning ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, vizual va audio materiallar bilan ishlash matn va so'zlarni tezroq eslab qolishga xizmat qiladi. Chet tillarni o'qitishda inkluziv ta'lim – bu har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga moslashgan, barcha o'quvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan yondashuvdir[3]. Ushbu

konsepsiya, ayniqsa, nogironligi bo'lgan o'quvchilar, o'quv qiyinchiliklariga duch kelayotgan talabalar yoki turli ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdagi bolalar uchun katta ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta'limning chet tillarni o'qitishdagi roli va asosiy jihatlari quyidagilar:

1. Har bir o'quvchi uchun teng imkoniyatlar yaratish Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi barcha o'quvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashdir. Chet tillarini o'rganishda turli qobiliyatga ega o'quvchilarning ehtiyojlari har xil bo'lishi mumkin. Masalan: - Eshitish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun qo'l harakatlari yoki subtitrlardan foydalanish mumkin. - Nutq qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar uchun maxsus dasturlar yoki mashqlar orqali ular bilan ishlash kerak.

2. Differensial yondashuv Har bir o'quvchining o'z o'qish uslubi, qobiliyati va tezligi bor. Inklyuziv ta'limda bu omillarni hisobga olish juda muhim. O'qituvchilar differensial yondashuvdan foydalanib, turli darajadagi o'quvchilarga individual yondashuv qo'llaydilar. Masalan, ayrim o'quvchilarga osonroq mashqlar berilishi mumkin, boshqalarga esa qiyinroq vazifalar topshiriladi, bu orqali har bir o'quvchining rivojlanish jarayoni qo'llab-quvvatlanadi.

3. Texnologiyalar va raqamli vositalarning roli Inklyuziv ta'limda texnologiyalar katta ahamiyatga ega. Nogironligi bor o'quvchilar uchun turli dasturlar, ilovalar va moslashtirilgan texnologik vositalar (masalan, ekran o'qish dasturlari, nutqni matnga aylantiruvchi vositalar) yordamida o'quv jarayonini yengillashtirish mumkin. Bundan tashqari, onlayn ta'lim platformalari chet tillarini o'rganish uchun turli xil format va uslublarda materiallar taklif etadi, bu esa har xil qobiliyatdagi o'quvchilarga mos keladi.

4. Madaniy xilma-xillikni hisobga olish Chet tillarini o'rganish jarayonida inklyuziv ta'lim faqat nogironlik yoki o'quv qiyinchiliklariga ega o'quvchilarni qamrab olmaydi, balki madaniy xilma-xillikni ham hisobga oladi. O'quvchilarning turli madaniy va tilshunoslik asoslariga ega bo'lishi ularning til o'rganish jarayoniga ta'sir qiladi. O'qituvchilar o'quvchilarning madaniy xususiyatlarini hurmat qilib, o'quv materiallarini turli madaniy kontekstlarga moslashtirishi mumkin.

5. Psixologik qo'llab-quvvatlash Inklyuziv ta'lim chet tillarini o'qitishda o'quvchilarga psixologik qo'llab-quvvatlashni ham ta'minlashni nazarda tutadi. O'quvchilar o'zini xavfsiz va qadrlil his qiladigan muhitda o'rganishlari uchun o'qituvchilar inklyuziv yondashuvga tayanadilar. Bu, ayniqsa, chet tilini o'rganish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelayotgan o'quvchilar uchun muhimdir, chunki til o'rganish jarayoni ba'zan stressli bo'lishi mumkin.

6. Moslashtirilgan baholash tizimlari Inklyuziv ta'limda baholash ham differensial yondashuvga asoslanadi. O'quvchilarning yutuqlarini baholashda

standartlashtirilgan testlardan tashqari moslashtirilgan baholash usullari qoʻllaniladi. Bu oʻquvchilarning imkoniyatlariga qarab, turli baholash shakllari (masalan, ogʻzaki imtihonlar, loyiha ishlari, yozma ishlar) orqali amalga oshiriladi.

7. Hamkorlikda oʻrganish va ijtimoiy integratsiya Chet tillarini oʻqitishda inklyuziv taʼlim ijtimoiy integratsiyani ragʻbatlantiradi. Har xil qobiliyat va ehtiyojlarga ega boʻlgan oʻquvchilar birgalikda ishlashadi, bu esa ijtimoiy koʻnikmalarni rivojlantiradi va bir-biridan oʻrganishga imkon beradi. Hamkorlikda oʻrganish usullari, masalan, guruhli faoliyatlar, bu jarayonning bir qismi boʻlib, oʻquvchilar oʻrtasida tenglik va hurmatni kuchaytiradi[4].

Ushbu metodlar inkluziv bolalarning turli qobiliyatlarini hisobga olib, oʻquv jarayonini individual va guruh koʻrinishida samarali tashkil etishga yordam beradi. Multisensor, oʻyin, interaktiv va differensial metodlardan foydalanish nafaqat tilni oʻrganishni osonlashtiradi, balki bolalarning ijtimoiy va kommunikativ koʻnikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, vizual va audio materiallar bilan ishlash matn va soʻzlarni tezroq eslab qolishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xudoyberdiyev, N. (2018). Inkluziv taʼlimning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent: Oʻzbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
2. Rasulova, M. (2019). Maxsus ehtiyojli bolalarga taʼlim berish metodlari. Toshkent: “Fan va taʼlim” nashriyoti.
3. Tursunova, G. (2020). Chet tillarini oʻqitishda interaktiv metodlar. Toshkent: ToshDU nashriyoti.
4. Qodirov, A. (2017). Bolalarni inkluziv oʻqitish va pedagogik texnologiyalar. Toshkent: “Pedagogika” nashriyoti.
5. Karimova, S. (2021). Ingliz tilini oʻrgatishda differensial yondashuv va multisensor metodlar. Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi nashriyoti.
6. Islomova, D. (2019). Inkluziv taʼlimda guruh ishlari va oʻyinli metodlar. Toshkent: “Fan va Maʼrifat” nashriyoti.

YOZUVNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI FUNKSIONAL-MADANIY O'RNI: KO'KTURK YOZUVI MISOLIDA

Maxmudova Oysha Abdullox qizi
Oriental universiteti Filologiya fakulteti 1-kurs talabasi
Ilmiy maslahatchi: M.Dustmurodov – fil.f.f.d., dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozuvning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni masalasi tarixiy-lingvistik nuqtai nazardan yoritilib, Ko'k Turk yozuvining shakllanishi, funksional xususiyatlari va madaniy-sivilizatsion ahamiyati tahlil qilinadi. Turkiy xalqlarning ilk siyosiy va ma'naviy hayotiga oid yozma manbalar misolida yozuvning davlat boshqaruvi, madaniy xotirani saqlash, ijtimoiy birlikni mustahkamlashdagi o'rni ochib beriladi. Ko'k Turk bitiklarining grafematik tuzilishi, lingvistik tabiatiga doir ayrim kuzatuvlar hamda ularning umumiy turkiy yozuv madaniyatidagi o'rni haqida ilmiy mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar. *ko'kturk yozuvi, turkiy bitiklar, yozuv madaniyati, jamiyat taraqqiyoti.*

Abstract. This article examines the role of writing in the development of society from a historical-linguistic perspective, analyzing the formation, functional features, and cultural-civilizational significance of the Blue Turkic script. Using the example of written sources relating to the early political and spiritual life of the Turkic peoples, the role of writing in state administration, preservation of cultural memory, and strengthening social unity is revealed. Some observations are made about the graphematic structure and linguistic nature of Blue Turkic scripts, as well as scientific considerations about their role in the general Turkic writing culture.

Keywords. *Kok-Turkic script, Turkic scripts, writing culture, development of society.*

Turkiy el-uluslar tarixda Uzoq Sharqdagi Bohay (Sariq) dengizidan tortib, mo'jor (vengr) dashtlariga qadar keng mintaqada hukmronlik qilgan va bugungi kunda ham, deyarli ushbu arealda yashamoqda. Turk xoqonliklari (552-744) davri turkiylar davlatchiligi tarixidagi muhim bosqich bo'lib, o'z davrida mintaqada yetakchi kuch sifatida qo'shni sulolalar, qolaversa, keyingi turkiy va g'ayriturkiy sulolar tarixida muhim o'rin egallaydi. Bunda xoqonlikning harbiy ish va mudofaa jihatdan yuqori darajadagi boshqaruv tizimiga ega bo'lganligi yetakchi omillardan bo'lib xizmat qilgan. Xususan, L.Gumilevning ta'kidlashicha, "Turkutlar (Turk xoqonligi) zafarlari va dunyoning yarmiga egalik qilishi tasodifiy hodisa emas edi. Ular yuqori saviyadagi shunday bir qo'shin va idora tizimi yaratdilar, shunga munosib ravishda g'alabalarga ham erishdi, deb aytish mumkin"¹.

¹ Гумилев Л. Н. Қадимги турклар... – Б. 64.

Yuqoridagilarga monand ravishda qadimgi turklar yangi yozuvni ham kashf etdilar. Avvalo aytish lozimki, yozuv insoniyat taraqqiyotining eng asosiy bosqichlaridan biri bo‘lib, jamiyatning siyosiy, madaniy, ma’naviy va iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ibtidoiy jamiyatdan boshlab, ma’lumotni muayyan belgilar orqali qayd etish inson tafakkurining rivojlanishida yangi davrni boshlab bergan. Yozuv paydo bo‘lishi bilan jamiyatda bilimlar avloddan avlodga aniq va izchil tarzda yetib borish imkoniyati yuzaga kelgan, bu esa davlat boshqaruvi, huquqiy munosabatlar, madaniy xotira va tarixiy jarayonlarning tizimliliigi uchun mustahkam asos yaratgan.

Qayd qilish kerakki, qadimgi turkiy til, xususan ko‘k-turk yozuvining o‘rganilishi bo‘yicha jahon turkologiyasida bir qancha izlanishlar olib borilgan. Jumladan, V.Radlov, S.Malov, A.Kononov, R.Axmetyanov, L.Gumilev, A.Sherbak, S.Klyashtorniy, P.Skubeyda, A.Jafero‘g‘lu, J.Klосon, A.Donuk, R.Jiro, P.Golden, G.Dyorfer, K.Shiratori, D.Vasilev, T.Tekin, E.Ayдин, H.Shirin User, K.Sartkojauli, I.Kormushin va bir qancha olimlar bu sohada samarali mehnat qilishgan¹.


Turkiy xalqlar tarixida Ko‘kturk yozuvi (yoki runik turkiy yozuv) alohida ahamiyatga ega. VIII asrga mansub O‘rxun-Yenisey bitiklari nafaqat lingvistik yodgorlik, balki turkiylarning siyosiy tafakkuri, ijtimoiy hayoti, harbiy-siyosiy tizimi, diniy tasavvurlari va ma’naviy qadriyatlarini haqida beqiyos ma’lumot beruvchi manba sifatida e’tirof etiladi. Ko‘kturk yozuvi mavjudligining o‘zi turkiy jamiyatda davlatlilik madaniyatining yuqori saviyada shakllanganini ko‘rsatadi. Bitiklarda Kultegin, Bilga Xoqon va To‘nyuquq kabi shaxslarning nutqlari hamda davlatga oid muhim siyosiy voqealar qayd etilgan bo‘lib, bu davr turkiy jamiyatida yozuvning kommunikativ va ideologik vazifasi kuchli bo‘lganini bildiradi.

Ko‘kturk yozuvining grafematik tuzilishi sodda va aniq fonografik tabiati bilan ajralib turadi. Har bir belgining fonetik qiymati mavjud bo‘lib, tovush va grafema o‘rtasidagi moslik tilning yozma shaklini barqaror va yengil o‘zlashtiriladigan tizimga aylantirgan. Bu esa savodxonlikning muayyan darajada keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Yozuv tizimining rivojlanganligi turkiy jamiyatning siyosiy tuzilishi — xoqonlik darajasidagi markazlashgan boshqaruv, hujjatchilikning mavjudligi, yodgorliklar o‘rnatish an’anasining shakllanganligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Ko‘kturk bitiklari jamiyatning ma’naviy va ideologik hayotida ham katta rol o‘ynagan. Bitiklarda xalqni birlikka chaqirish, vatanparvarlik, sadoqat, jasorat, axloqiy poklik kabi qadriyatlar targ‘ib qilinadi. Yozuv orqali xalq ongiga singdirilgan bu

¹ Радлов В. В. Опыт словаря тюркских наречий. – Том III, 1. – СПб.: Типография императорского АН, 1893. – 1260 с.; Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – М.: АН СССР, 1951. – 452 с.; Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии. – М.: Изд-во АН СССР, 1959. – 111 с.

g'oyalar turkiy etnosning shakllanishi va mustahkamlanishi jarayonida muhim ideologik vazifa o'tagan. Demak, yozuv faqat axborot vositasi emas, balki madaniy identitetni shakllantiruvchi, milliy birlikni mustahkamlovchi sivilizatsion kuchdir.



Ko'kturk yozuvi nafaqat tarixiy davr uchun, balki bugungi kunda ham turkiy xalqlarning madaniy o'zligini anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. U til tarixi, qadimgi dunyoqarash, sotsiolingvistik jarayonlar va tamaddun madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Yozuvning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini turkiy bitiklar misolida ko'radigan bo'lsak, u davlatni boshqarish, tarixiy xotirani saqlash, jamiyatning ideologik yo'nalishini belgilash va madaniy-ma'naviy merosni mustahkamlash kabi ko'plab vazifalarni bajarganini anglash mumkin.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Ko'kturk yozuvi turkiy tamaddun taraqqiyotining eng muhim bosqichlaridan birini ifodalaydi. Bu yozuv tizimi ulkan imperiyaning siyosiy xotirasi, xalqning o'zligini anglash jarayoni va madaniy merosi uchun tayanch bo'lgan. Yozuvning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini aynan shunday tarixiy tajribalar orqali yaqqol ko'rinadi va u bugungi kunda ham tilshunoslik, tarix, etnologiya va madaniyatshunoslik uchun bebaho manba bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Жолдасбеков М., Сартқожаұлы Қ. Орхон ескерткіштерінің толық Атласы. – Астана: Күлтегін, 2005. – 360 б.

2. Cüveynî, Tarih-i Cihan Güşâ, I, çev. Mürsel Öztürk. – Ankara: Kültür Bakanlığı Yay. 1999. – 41 s.

3. Kafesoğlu İ. Türk Millî Kültürü. – İstanbul: Ötüken Neşriyat, 2014. – 268 s.

4. Кляшторный С.Г. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. – СПб.: Наука, 2006. – 591 с.

5. <https://uza.uz/uz/posts/prezident-shavkat-mirziyeevning-zbek-tiliga-davlat-tili-ma-o-21-10-2019>

SHOR TURKLARI MILLIY “QIZIL KITOB”DAGI ETNOS: SHOR TURKCHASI (TILD)GA NAZAR

Mubina Abdurahimova Abdumavlonova
Oriental universiteti Filologiya fakulteti 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: M.Dustmurodov – fil.f.f.d., dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shor turklari etnosi va ularning milliy “Qizil Kitob”da qayd etilgan holati tahlil qilinadi. Maqolada Shor turkchasining lingvistik xususiyatlari, leksik va fonetik tuzilishi, shuningdek, uning milliy identitet va madaniy merosni saqlashdagi roli ko‘rib chiqiladi. Shor turkchasining mavjudligi va rivojlanishi, tilning etnografik, ijtimoiy va madaniy kontekstdagi ahamiyati, shuningdek, tilni saqlash va rivojlantirish muammolari ilmiy asosda yoritiladi. Shu tariqa maqola Shor turkchasining lingvistik va etnografik jihatlarini o‘rganish orqali uning madaniy meros va milliy identitetdagi o‘rnini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar. *shor turklari, shor turkchasi, etnos, qizil kitob, lingvistik meros, madaniy identitet, tilni saqlash.*

Turkiylar deyilganda asosan shimoliy va markaziy Yevroosiyoda yashovchi jahondagi eng qadimgi va yirik etnoslardan biri tushuniladi. Bugungi kunda turkiy xalqlarga mansub o‘ttizdan ortiq millat va elatlar mavjuddir. Ularning ayrimlari (o‘zbek, turk, qozoq, qirg‘iz, turkman, ozarbayjon) o‘z mustaqil suveren davlatiga egadir, ayrimlari boshqa davlatlar tarkibida (asosan, RF) avtonom birlik sifatida yashamoqda. Shulardan biri, turkiy xalqlar tamaddunida o‘ziga xos bir o‘rniga ega bo‘lgan elat asosan RF Kemerova viloyati Kuznetsik tumanida istiqomat qiluvchi tadar kiji (o‘zlarini shunday ataydi) – shorlardir. Ushbu xalq tarixning turli to‘siqlariga qaramasdan etnik qiyofa, madaniyat va til nuqtayi nazaridan qardosh turkiylar bilan mushtarakligini saqlab qola olgandir va bu mushtaraklikni asrlar davomida boyitgan.

Shorlar turkiyzabon xalq. G‘arbiy Sibirning sharqiy qismida, RFning Kemerova viloyati janubida, shuningdek, Krasnoyarsk va Oltoy tog‘larida, Xakas Respublikasi va Oltoy Respublikasining ba’zi viloyatlarida yashaydi. Jami 13 mingga yaqin odam. Aholini ro‘yhatga olish bo‘yicha 2002-yilda Rossiyada 3000 shorlar yashaydi. 2010-yilgi ro‘yhatga olish bo‘yicha esa 12888 kishini tashkil qildi. Bundan tashqari ular Xakas va Oltoy Respublikasida ham yashaydilar. Asosiy yashash hududi bu Tosh daryosi orollarida hamda uning Kandom va Mrass irmoqlaridadir. Ular ikki etnografik guruhga bo‘linadi: janubiy yoki tog‘li (XX asr boshlarida janubiy shorlar istiqomat qilgan maydon Tog‘li Shoriya deb atalgan) va shimoliy yoki o‘rmon-dasht (Albinlar). Shorlar qadimgi mahalliy somodiy va uyg‘ur qabilalarining avlodi hisoblanadi, aynan turkiyzabon qabilalarning qo‘shilishidan paydo bo‘lib, asosan VI-X asr boshlarida zamonaviy Kemerova viloyatiga safarlar qilingan uyg‘ur va yenisey-qirg‘iz

xalqlarining kelishi, keyinchalik XVIII arsgacha “Kuznetsk tatarlari” nomi ostida yashovchi mahalliy turkiyzabon xalqlardandir.

Tili. Shorlarning tili Oltoy va Xakaslar tiliga juda yaqin, madaniyati esa Oltoylar va Cho‘limlarga. Shorlarning ko‘pchiligi rus tilida gaplashadilar. 60% dan ko‘p shorlar rus tilini ona tili deb biladi. Yaqin vaqtgacha shor tilida ikki tilli dialektlar – Merkcha – (Xakas (uyg‘ur-qirg‘iz) guruhi Sharq-Turkiy tillari) va Kandomcha (Shimoliy Oltoy guruhi G‘arbiy Turk tillari) alohida ajralib chiqdi. Ularning har biri o‘z navbatida bir qator dialektlarga bo‘lingan. NFI KENTda shor tilini o‘rganish bo‘yicha ilmiy maktab mavjud. Bu til Xakas va Oltoy Respublikasi bilan chegarada, asosan Tom daryosi va uning irmoqlari bo‘ylab Oltoy, Kuznetsk shimoliy etaklarida, Rossiya (Toshtoqol tumani, meski, Mejdurejensk)ning Kemerova viloyatida keng tarqalgan. Shor tilida gapiruvchilar soni 6 ming kishidan ortiq (2002 yil aholini ro‘yhatga olish bo‘yicha). Shimoliy Sharqiy turkiy guruhi Xakas quyi guruhlariga kiradi.

Tilning jamoat vazifalari: oilaviy aloqa va mahalliy aholining ixcham yashaydigan joylarida an’anaviy iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan ko‘p millatli ishlab chiqarish guruhlaridagi aloqa tili. Shuningdek, shor tili bugungi kunda shorlarning zich yashash joylaridagi bir qator shor maktablarida maxsus fan sifatida o‘rganilmoqda, qolversa, shor tili va adabiyoti o‘qituvchilari tayyorlanmoqda. Shor tilida asl asarlar nashr etilgan, Rossiya Yozuvchilar uyushmasining Shor bo‘limi mavjud bo‘lib, Shor sahifasi vaqti-vaqti bilan mahalliy matbuotda bosilib turadi.

Tilni bilish darajasi: Shor folkloriga oid katta materiallar to‘plangandir (N.P.Direnkovaning arxivi), ko‘plab fonologik va grammatik quyi tizimlar tavsiflangan, ammo zamonaviy akademik grammatika yo‘q, Shor-Ruscha akademik lug‘at yaratilmagan. 2002 yildagi Rossiya aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra, Shorlar soni 13 975 kishini tashkil etdi, shundan 6210 nafari Shor tilida gaplashishini ko‘rsatdi (www.perepis2002.ru).

Fonetikasi. Shor tilida 16 unli va 25 undosh fonemlar mavjud. Unlilar qisqa va uzoq turlarga bo‘linadi. Urg‘u kuchli. Jarangli va jarangsizlar uyg‘unligi bor. Bo‘g‘inda jarangli va jarangsiz tovushlar ochiq va yopiq holda uchraydi. Rus tilidan olinga so‘zlarda barcha turdagi bo‘ginlar bo‘lishi mumkin.

Morfologiyasi. Quyidagi grammatik so‘zlar toifalari mavjud: Ot (yordamchi so‘z turkumlari, sifat, son, joy nomlari kabi) fe’l (harakat nomlari), nutqning xonaki shakli (modal; so‘zlar, qo‘shimcha). Nutqning alohida shakllari chegarasi shartlidir. Boshqa turkiy tillarda bo‘lgani kabi jins, sinf, animatsiya turlari, raqamlar tasnifi mavjud. Ko‘pliklar (affikslar (-lar-ler, -nar-ner, -tar-ter)) asosan otlarga qo‘shiladi, shuningdek, fe’lga ham. Yetti kelishik mavjud.

Grafikasi. 1927 yildan buyon shor yozuvi rus alifbosiga asoslangan, keyin 1929-1938-yillarda lotin grafiklari asosida yaratilgan. 1938-yilda kirill alifbosiga asoslangan yangi alifbo yaratildi. 1885-yilda missionerlar tomonidan nashr etilgan shor alifbosi hozirgacha ma'lum. Oltoy missionerlari tomonidan yaratilgan, madaniy inqilob yillarida Shor tilida adabiy shakl va maktab ta'limining jadal rivojlanishi, og'zaki davr (1942-1988), Shor yozuvining jonlanishi, 20-asrning 80-yillari oxiridan boshlab zamonaviy Shor imlo me'yorlari E.F. Chispiyakov tomonidan ishlab chiqilishiga turtki bo'ldi.

| | | | | | | |
|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| А а | Б б | В в | Г г | Ғ ғ | Д д | Е е |
| Ё ё | Ж ж | З з | И и | Й й | К к | Қ қ |
| Л л | М м | Н н | Ң ң | О о | Ӗ ӧ | П п |
| Р р | С с | Т т | У у | Ӱ ӱ | Ф ф | Х х |
| Ц ц | Ч ч | Ш ш | Щ щ | Ъ ъ | Ы ы | Ь ь |
| Э э | Ю ю | Я я | | | | |

Shor alifbosi

Shor adabiyoti XX asrda shakllangan bo'lib, unda birinchi marta shor tilidagi, shorlar mualliflari tomonidan yozilgan kitoblar chop etilgan. Shor adabiyotining yuksalishida shorlarning birinchi avlodi, shor ziyolisi I.M.Shtigasheva (1861-1905) hisoblanadi. Shor yozuvchilari F.S. Chispiyakova, S.S.Torbokova, SS.Tottish ham shor tilida ham rus tilida asarlar yozishgan. 1941-yilda I.Y.Arbachakova "Kapitanning qizi" nomli A.S.Pushkinning asarini shor tiliga tarjima qilib, nashr etadi. Uzoq tanaffusdan keyin 1960-1970-yillarda Shor yozuvchilarining faoliyati rivojlanadi. Ammo o'sha vaqtda millatchilikka e'tibor kuchaytirilib, "Kuzbasso adabiyoti" haqida gapirilar edi. XX arsning 1980 -yillar boshlariga kelib shor adabiyoti yana yuksala bordi. Bu bilan shorlarning faol etnik o'zini anglashi ortdi. Hozirgi zamon shorlarning birinchi shoirlaridan N.E.Bulgechegeshev (Koya bulchen) bo'lib, u nafaqaga chiqqunga qadar harbiy uchuvchi bo'lib ishlagan. Keyin Ukrainadan shoriyaga qaytgan. 1992-1993-yillarda u o'zining 3 sara she'rlar to'plamini taqdiqm etgan (uning 2 tasi shor tilida). 1995-yilda shor tilida yozilgan jamlanma "Ulger" nashr etildi, undan hozirgi va avvalgi shor adabiyotining sara asarlari joy oldi.

Shorlar xalq san'ati asosan qaxramonona poyemalardan (Oliptig', Nibaqtar – botirlar haqida afsona), ertak, hikoyalar, topishmoqlar, hikmatlar, ovchilik san'ati va

“Kay” (tomoq qo‘shiq) musiqasi kabilardan iborat. Shorlarda qaxramonlik she’rlari, qo‘shiqlari, musiqasi va she’riy ijodi anchagina sermahsul. Ular tol yoki sarv daraxtidan yasalgan “Kamus” musiqa asbobi yordamida ijro etiladi. Shorlar xalq san’ati janri asosan mazmun mohiyatiga ko‘ra ovchilik hayoti va qiyinchiliklarni aks ettiradi hamda ayniqsa rivoj topgan, keng tarqalgan janrlar ichida – qaxramonlik eposlari ajralib turadi.

Shor turklarining xalq og‘zaki ijodidan namunalari

“XON BERGAN”

| № | shorcha | o‘zbekcha |
|----|------------------------------|-------------------------------|
| 1 | Ичези чоқ, абазы чоғул, | Онаси йўқ, отаси йўқдир, |
| 2 | Черген аттыг Қан-Перген, | Жийрон отлиқ Хон-Берган, |
| 3 | Қан-Пергенниң печези | Хон-Берганнинг опаси - |
| 4 | Қан-Арғо абакқайы, | Хон-Арғо чиройлидир, |
| 5 | Малы малдаң аштыр, | Молининг саноғи йўқ, |
| 6 | Чоны чондаң аштыр. | Элининг саноғи йўқ. |
| 7 | Көстең күн чықты, | Туман узра кун чикди, |
| 8 | Сағына келе таң атты, | Соғина келган тонг отди, |
| 9 | Печезин сурапчадыр: | Опасин сўраб ётир: |
| 10 | “Тайғаа аңнап шығайын!” теп, | “Тайгага овлаб чиқайин!” деб, |

Adabiyotlar:

1. Шорский сборник. Историко-культурное и природное наследие Горной Шории. Вып. 1. Кемерово, [1994](#).
2. Деятельность Андрея Ильича Чудоякова и духовное возрождение шорского народа. Новокузнецк, [1998](#).
3. Шорский национальный природный парк: природа, люди перспективы. Кемерово, [2003](#).
4. Шорцы // Сибирь. Атлас Азиатской России. — М.: Топ-книга, Феория, Дизайн. Информация. Картография, [2007](#). — [664](#) с. — ISBN [5-287-00413-3](#).
5. Шорцы // Народы России. Атлас культур и религий. — М.: Дизайн. Информация. Картография, [2010](#). — [320](#) с. — ISBN [978-5-287-00718-8](#)
6. Шорцы // Этноатлас Красноярского края / Совет администрации Красноярского края. Управление общественных связей ; гл. ред. Р. Г. Рафиков ; редкол.: В. П. Кривоногов, Р. Д. Цокаев. — 2-е изд., перераб. и доп. — Красноярск: Платина (PLATINA), [2008](#). — [224](#) с. — ISBN [978-5-98624-092-3](#).
Архивная копия от 29 ноября [2014](#) на Wayback Machine

ARAB TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Bobojonova Hidoyat

Oriental universiteti filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili)

yo‘nalishi AF507 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrası o‘qituvchisi M.Boborajabov

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchilar uchun zamonaviy raqamli texnologiyalarning samaradorligi tahlil qilinadi. Duolingo va Memrise kabi gamifikatsiyalangan mobil ilovalar, Virtual Reality (VR) muhitlari hamda ChatGPT, Grok, ArabicGPT kabi sun‘iy intellekt vositalarining o‘quv jarayoniga ta’siri real misollar va ilmiy tadqiqotlar asosida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, texnologiyalar talabalarning motivatsiyasini oshiradi, talaffuz va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, lekin an‘anaviy darslarni to‘liq almashtira olmaydi.

Kalit so‘zlar: arab tili, xorijiy til o‘qitish, gamifikatsiya, Duolingo, Memrise, Virtual Reality, sun‘iy intellekt, ChatGPT.

Abstract. This article analyses the effectiveness of modern digital technologies in teaching Arabic as a foreign language. It examines the impact of gamified mobile applications such as Duolingo and Memrise, Virtual Reality (VR) environments, and artificial intelligence tools including ChatGPT, Grok, and ArabicGPT on the learning process, supported by real-world examples and scholarly research. The findings reveal that these technologies significantly increase learners’ motivation and considerably improve pronunciation and listening comprehension skills. However, they cannot fully replace traditional classroom instruction.

Keywords: Arabic language, teaching Arabic as a foreign language, gamification, Duolingo, Memrise, Virtual Reality, artificial intelligence, ChatGPT.

So‘nggi o‘n yillikda til o‘rganish texnologiyalari global miqyosda keskin o‘zgarishga uchradi. 2015-yilgacha arab tilini chet tili sifatida o‘qitish jarayoni asosan an‘anaviy auditoriya darslari, qog‘oz lug‘atlar va audio materiallarga tayanar edi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ayniqsa mobil ilovalar, sun‘iy intellekt va immersiv (VR/AR) platformalar arab tili ta’limini yangi bosqichga olib chiqdi. Duolingo ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil holatiga kelib arab tilini o‘rganayotgan foydalanuvchilar soni 12 milliondan oshdi (Duolingo Report, 2024), bu esa texnologik vositalarning til o‘rgatish jarayonidagi o‘rnining keskin ortganini ko‘rsatadi.

Gamifikatsiyalangan mobil ilovalarning ta’limiy samaradorligi. Gamifikatsiyaga asoslangan mobil ilovalar – Duolingo, Memrise va shunga o‘xshash platformalar – o‘rganish jarayonini motivatsiyalovchi elementlar orqali kuchaytirishga qaratilgan.

Duolingo 2019-yildan boshlab arab tili kursini yo'lga qo'ydi; kurs asosan fusha (standart arab tili) asosida shakllangan va har bir dars odatda 3–7 daqiqa davom etadi. Qisqa va muntazam mashg'ulotlar o'quvchilarning berilish darajasini oshirishga yordam beradi. Eksperimental tadqiqotlar natijasida Duolingo orqali taxminan 34 soat mashq qilgan talabaning universitet semestridagi materialning 60-70 foizini egallashi aniqlandi (Vesselinov & Grego, 2023). Bu mobil ilovalarning boshlang'ich va o'rta darajadagi grammatik-sintaktik birliklarni avtomatlashtirishdagi samaradorligini ko'rsatadi [2,30].

Memrise kabi platformalar autentik audio-videolarga urg'u beradi: mahalliy so'zlashuvchilar tomonidan yozib olingan videolar talabalarga Misr, Mag'rib, Sham yoki Khaliji lahjalarini eshitish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday autentik materiallar talaffuz va eshitib tushunishni rivojlantirishda an'anaviy darsliklarga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq bo'ladi. Shu bilan birga, mobil ilovalarning asosiy cheklovlari ham mavjud: yozma ishlar (insho, rasmiy xat) va chuqur grammatik tahlil aksariyat hollarda yuzaki bo'lib qoladi; i'rob, murakkab morfologik tizimlar va ilmiy uslubiy yozishish qobiliyatini shakllantirish uchun yetarli vositalar kam.

Virtual Reality (VR) va immersiv o'quv muhiti. 2023–2025-yillarda VR texnologiyalari arab tili ta'limida muhim rol o'ynay boshladi. Mondly VR kabi platformalarda talabalar virtual bozor, taksi yoki restoran muhitida muloqot qilish orqali real hayot vaziyatlarini mashq qiladilar. ImmerseMe kabi platformalar ba'zi mamlakatlarda keng miqyosda masalan, ba'zi ta'lim muassasalarida joriy etildi. Immersiv muhitlar o'quvchilarning affektiv filtrini pasaytiradi, ya'ni ular qo'rqmay, ko'proq gapira boshlaydi; bu esa og'zaki nutqni tez rivojlantirishga yordam beradi [2,41]. Legault va hamkasblari (2024) o'tkazgan tadqiqotda 10 haftalik VR kursini o'tagan guruh og'zaki nutqda oddiy guruhga nisbatan 38 foiz yuqori natija ko'rsatgan.

Biroq VR texnologiyasining ham cheklovlari bor: qurilmalar narxi (masalan, Oculus Quest 3 atrofida 500\$) ko'plab maktab va universitetlar uchun moliyaviy yuk bo'lishi mumkin; shuningdek, ba'zi platformalarda barcha mahalliy lahjalar yetarli darajada qamrab olinmagan; ayrim o'quvchilarda VR natijasida bosh aylanishi yoki ko'z charchoqligi kuzatilishi mumkin [1,20].

Sun'iy intellekt va shaxsiy o'qituvchi imkoniyati. 2023-yildan boshlab yirik til modellari (LLM) va maxsus tilga yo'naltirilgan modellar arab tili o'qitish amaliyotida yangi imkoniyatlarni ochdi. ChatGPT, Claude va boshqa modellar talabalarga 24/7 rejimida tabiiy va kontekstga mos javoblar bera oladi, xatolarni tahlil qiladi, individual mashqlar yaratadi va darajaga mos kontent taqdim etadi. Talaffuzni tahlil qiluvchi vositalar masalan, Elsa Speak yoki Speechling har bir fonemaning artikulyatsiya

xususiyatlarini ko'rsatib, ayn, ha, qof va ghayn kabi tovushlarni o'rganishda amaliy yordam beradi.

Amaliy eksperimentlar LLMlarning samaradorligini tasdiqlaydi: Qatar universitetida 2024-yilda o'tkazilgan tadqiqot Shuni ko'rsatdiki, ChatGPT bilan parallel o'rganish olib borgan guruh B1 darajasiga o'rtacha 110 soatda yetgan, an'anaviy guruh esa shu darajaga erishish uchun taxminan 180 soat sarflagan (Al-Maadadi, 2024). Demak, sun'iy intellekt yordamida o'rganish jarayoni 35–40 foizgacha tezlashishi mumkin [4,18].

Sun'iy intellektning muammolari ham mavjud: LLMlar Qur'on yoki klassik adabiyot kontekstlarida nozik ma'nolarni noto'g'ri talqin qilishi, ilmiy-uslubiy matnlar yaratishda sun'iylik hisini berishi va lahjalar farqlarini doimo to'g'ri ajrata olmasligi mumkin. Shu sababli LLMlarni pedagogik nazorat va metodik ko'mak bilan uyg'unlashtirish muhim.

Texnologiyalar til ta'limida katta imkoniyatlar yaratdi, ammo ayrim dolzarb muammolar hal qilinishi lozim. Ilk navbatda, aksariyat ilovalar fusha va mahalliy lahjalar o'rtasidagi tafovutni yetarlicha hisobga olmaydi; natijada talabalar real muloqot jarayonida qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Ikkinchidan, yozma nutq va ilmiy uslubni o'rgatish bo'yicha bo'shliq mavjud — ayniqsa yuqori akademik daraja va ilmiy yozuv talab qilingan hollarda. Uchinchi muammo — texnik va moliyaviy resurslar: VR va ayrim ilg'or SI platformalari hamma ta'lim muassasasi uchun iqtisodiy jihatdan imkoniyatli emas. To'rtinchidan, o'qituvchilarning texnologiyalarni pedagogik maqsadda samarali qo'llash kompetensiyasi ham ko'pincha yetarli emas.

Ilmiy adabiyot va amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, texnologiyalarni an'anaviy dars va o'qituvchining yo'l-yo'riqlari bilan uyg'unlashtirish eng samarali natijani beradi. Tavsiya etilgan aralash model quyidagicha ko'rinishda samarali hisoblanadi:

Duolingo yoki Memrise kabi gamifikatsiyalangan ilovalar har kuni 15-20 daqiqa: so'z boyligi va kundalik grammatik konstruksiyalarni mustahkamlash uchun;

VR immersiv sessiyalar yil davomida 1-2 marotaba: real kontekstlarda og'zaki nutqni mashq qilish uchun;

Haftalik o'qituvchi bilan darslar haftada 2–3 marta: murakkab grammatik tizim, yozma ishlar va lingvomadaniy jihatlarni chuqur tushuntirish uchun;

Sun'iy intellekt bilan erkin suhbat – har kuni 10-5 daqiqa: nutq tezligini oshirish va erkinlikni rivojlantirish uchun.

Agar ushbu model doimiy ravishda amalga oshirilsa, boshlang'ich ravishda muntazam va sifatli mashg'ulot bilan talabaning darajasi progressiyasi tezlashadi: taxminan 12–18 oy ichida B2 darajasi va 24–30 oy ichida C1 darajasiga erishish realist

hisoblanadi. Albatta, yakuniy natija boshlang'ich daraja, individual motivatsiya, mashg'ulot intensivligi va o'qituvchining malakasiga bog'liq [4,17].

Raqamli texnologiyalar arab tilini xorijiy til sifatida o'rgatishda sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Gamifikatsiya o'quvchini muntazamlikka undaydi, VR real hayot sharoitlarida og'zaki muloqotni rivojlantiradi, sun'iy intellekt esa o'qitishni shaxsiylashtirish va xatolarni tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, texnologiyalar murakkab grammatik tizim, ilmiy yozish va lingvomadaniy kontekstlarni to'liq o'rgata olmaydi. Eng samarali yondashuv inson o'qituvchisi metodik tajribasi bilan texnologiyalar kuchini uyg'unlashtirgan aralash modeldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vesselinov, R., & Grego, J. (2023). *The Duolingo Effectiveness Study*. Duolingo Research Division.
2. Legault, J., Smith, A., Chen, Y., & Rahman, M. (2024). Immersive VR in language learning: Empirical findings from controlled classroom experiments. *Journal of Educational Technology*, 18(2), 55–78.
3. Al-Maadadi, S. (2024). *AI Tutors in Arabic Language Instruction: A Comparative Study of LLM-Assisted and Traditional Learning*. Doha: Qatar University Press.
4. Duolingo. (2024). *Duolingo Annual Report 2024*. Duolingo Inc.
5. Mondly. (2024). *Mondly VR Arabic Course Review*. Mondly Language Research Unit.

ARAB TILINING JAHON ILM-FAN VA MADANIYATIGA TA'SIRI: TARIXIY-ILMIY TAHLIL

Abdumalikova Robiya
Oriental universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili)
yo'nalishi, AF507 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasida o'qituvchisi M. Boborajabov

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilining jahon ilm-fanining shakllanishi va rivojlanishiga qo'shgan hissasi, uning diniy, madaniy va ilmiy-ma'rifiy sohalaridagi o'rni ilmiy asosda tadqiq etiladi. Arab tilining tarixiy shakllanish bosqichlari, yozuv tizimining evolyutsiyasi, IX–XII asrlarda yuz bergan “Islom ilmiy uyg'onishi” davridagi markaziy mavqeyi, Bayt ul-Hikma faoliyati, tarjimalar harakati va buyuk allomalarning ilmiy merosi yoritiladi. Shuningdek, arab tilining bugungi davrdagi xalqaro diplomatiya, ta'lim, iqtisodiyot va turizm sohalaridagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari arab tilining global ilmiy va madaniy jarayonlardagi o'ziga xos

mavqeyi hanuz saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Arab tili, ilmiy uyg'onish, Bayt ul-Hikma, tarjimalar harakati, arab yozuvi, ilmiy meros, sivilizatsiya, xalqaro diplomatiya, ilmiy terminologiya.

Abstract. This article scientifically examines the contribution of the Arabic language to the formation and development of world science, as well as its role in religious, cultural, and scientific-educational spheres. The historical stages of the formation of the Arabic language, the evolution of its writing system, its central position during the "Islamic scientific renaissance" of the 9th–12th centuries, the activities of the Bayt al-Hikma (House of Wisdom), the translation movement, and the scientific legacy of great scholars are illuminated. In addition, the current role of the Arabic language in international diplomacy, education, economy, and tourism is analysed. The research findings show that the unique position of the Arabic language in global scientific and cultural processes continues to be preserved to this day.

Keywords: Arabic language, scientific renaissance, Bayt al-Hikma, translation movement, Arabic script, scientific heritage, civilization, international diplomacy, scientific terminology.

Arab tili o'zining qadimiy tarixi, leksik boyligi, grammatik qurilishi va rivojlanish bosqichlari bilan jahon tillari orasida alohida o'rin egallaydi. U uzoq asrlardan buyon o'zining asosiy fonetik, morfologik hamda sintaktik xususiyatlarini saqlab kelayotgan kam sonli tillardan biridir. Bugungi kunda ham arab tili dunyo sivilizatsiyasida o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, ilm-fan, madaniyat, din va diplomatiya sohalarida muhim mavqega ega.

Islom dinining asosiy manbalari Qur'oni karim, hadislar va ilk islomiy adabiyotlarning arab tilida yozilgani musulmonlar uchun ushbu tilning beqiyos ahamiyatini belgilaydi. Dunyo aholisining qariyb 25 foizini tashkil qiluvchi musulmonlar diniy ilmlarni asl manbalardan aynan arab tilida o'rganadilar. Aholi sonining oshib borishi Arab tiliga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda.

Arab yozuvining shakllanishi va rivoji. Arab yozuvi janubiy semit yozuvlari asosida shakllangan deb hisoblanadi. Manbalarga ko'ra, miloddan avvalgi II–I asrlarda keng qo'llangan *nabatiy yozuvi* arab yozuvining bevosita manbayi bo'lgan. Eng qadimgi arab yozuv namunalari milodiy IV–V asrlarga tegishli bo'lib, ular Shimoliy Arabiston va hozirgi Suriya hududidan topilgan. Dastlabki arab yozuvlarida nuqta va harakatlar bo'lmaganligi sababli so'zlarni farqlash qiyin bo'lgan.

Islom dinining yoyilishi va Qur'on matnini to'g'ri saqlash zaruriyati arab yozuvining mukammallashishiga olib keldi. Harakatlar, nuqtalar va qoidali imlo tizimi joriy etildi. Arab yozuvi vaqt o'tishi bilan turli xatlar shaklida rivojlandi: *kufiy, nasx, sulus, divoniy, riqo', nastaliq* va boshqalar. Ulardan nasx xati hozirgi zamon matbuoti

va kitob nashrida asosiy yozuv sifatida qoʻllanadi.

Arab tili va ilm-fan taraqqiyoti (IX–XII asrlar). IX–XII asrlar “Islom ilmiy uygʻonishi” yoki “Arab ilmiy renessansi” davri sifatida eʼtirof etiladi. Bu davrda Bagʻdod, Damashq, Qohira, Andalusiya, Buxoro, Samarqand kabi markazlar jahon ilm-fanining asosiy oʻchoqlariga aylangan. Arab tili esa umumilmiy muloqotning yagona tili sifatida shakllangan.

Bayt al-Hikma – ilm-fan markazi. Abbosiylar davrida Bagʻdodda tashkil etilgan Bayt al-Hikma (VIII–X asrlar) oʻz davrining eng yirik ilmiy markazi boʻlib, quyidagi faoliyat turlari bilan mashhur edi:

yunon, hind, suryoniy, fors va lotin tillaridan ilmiy asarlarni arab tiliga tarjima qilish;

matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib borish;

yangi ilmiy maktablarni shakllantirish.

Bayt al-Hikma tufayli arab tili mukammal ilmiy terminologiyaga ega boʻlgan xalqaro ilm tili darajasiga koʻtarilgan.

Tarjimalar harakati. VIII–X asrlarda oʻnlab mashhur olim va tarjimonlar – Hunayn ibn Isʼhoq, Tabit ibn Qurra, Qusto ibn Luqo va boshqalar antik davr asarlarini arab tiliga tarjima qildilar [1,120]. Bu jarayon “Tarjimalar harakati” nomi bilan tarixda katta iz qoldirgan. Tarjima qilingan asarlar qatoriga Aristotel, Evklid, Ptolemey, Gippokrat, Galen hamda hind matematiklari va astronomlari asarlari kiradi.

Arab olimlarining ilmiy merosi. Arab va musulmon olimlarining ilm-fanga qoʻshgan hissasi beqiyosdir:

Al-Xorazmiy – algebra fani asoschisi, “algoritm” termini uning nomidan kelib chiqqan.

Al-Fargʻoniy – astronomiyaga oid asarlari Yevropada 12-asrdan boshlab universitetlarda asosiy qoʻllanma boʻlgan.

Ibn Sino – “Al-Qonun fit-tibb” asari Yevropa tibbiyotining 600 yillik asosiy dasturi boʻlib xizmat qilgan.

Ar-Roziy, Al-Kindiy, Ibn Rushd, Al-Gʻazzoliy – falsafa, kimyo, tibbiyot, mantiq va tabiiy fanlar rivojiga katta hissa qoʻshgan.

Arab tilining Yevropa faniga taʼsiri. XI–XIII asrlarda Andalusiya, Sitsiliya va boshqa mintaqalarda arabcha ilmiy asarlar lotin tiliga tarjima qilindi. Natijada algebra, trigonometriya, algoritmlar, astronomiya va tibbiyot Yevropa ilmiy makoniga kirib bordi [2,250]. Arab olimlarining asarlari oʻrta asr Yevropa universitetlarining asosiy oʻquv manbalariga aylangan.

Arab tilining bugungi kundagi ahamiyati. Bugungi kunda arab tili:

BMTning 6 rasmiy tilidan biri;
400 milliondan ortiq insonning ona tili;
25 dan ziyod davlatning rasmiy tili;
global siyosat, diplomatiya, iqtisodiyot, energetika va media makonida asosiy til hisoblanadi.

Arab tilida nashr etilayotgan ilmiy maqolalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Qohira, Doha, Abu-Dabi, Ar-Riyod kabi shaharlarda xalqaro universitetlar faoliyat yuritmoqda.

Arab dunyosida turizmning o'рни. Arab mamlakatlari diniy, madaniy va zamonaviy turizmning eng yirik markazlaridan hisoblanadi:

Saudiya Arabistoni – Haj va Umra ziyoratlari; yiliga 20 milliondan ortiq ziyoratchi.

Misr – piramidalar, qadimiy yodgorliklar, Nil kruizlari.

Iordaniya – Petra, O'lik dengiz va qadimiy shaharlari.

BAA – Dubai, Abu-Dabi, zamonaviy turizm markazlari.

Qatar, Oman, Marokash – tabiiy manzaralar, arxeologik yodgorliklar, muzeylar [3,315].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqish aytish mumkinki, turizm va sayyohlik arab davlatlari iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biridir.

Arab tilining tarixiy taraqqiyoti nafaqat Yaqin Sharq madaniyati, balki butun jahon tamaddunining shakllanish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Arab tili orqali tarqalgan ilmiy meros, tarjimalar harakati, mantiq, falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohalarida yaratilgan asarlar o'rta asrlar intellektual muhitini butunlay o'zgartirdi. Arab tilida yaratilgan ilmiy an'analarning davomiyligi shundaki, ko'plab zamonaviy ilmiy terminlar ham tarixan arabcha ildizlardan kelib chiqqan yoki ushbu til vositasida jahon ilmiy lug'atiga kirib borgan [1,85].

Shuningdek, arab madaniyati va tili Sharq uyg'onishining shakllanishida ham muhim omil bo'ldi. Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan qator allomalar — Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy va Ibn Sino kabi buyuk zotlar asarlarining aksariyati arab tilida yozilgani bu tilning xalqaro ilmiy maydondagi mavqeini yanada mustahkamlagan. Ushbu olimlarning ilmiy faoliyati turli fan sohalarida qo'llaniladigan metodologiya, tahlil usullari va ilmiy terminologiyaning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Arab tili nafaqat din va ilm-fan tili, balki ulkan adabiy meros tili hamdir. Jahiliya davridan boshlab shakllangan arab she'riyati, Qur'oni karimning badiiy-uslubiy qiymati, Abbosiylar davridagi adabiyotning gullab-yashnashi, Mutanabbiy, Abu

Nuvos, Ma'ariy, Jahiz, Ibn Qutayba kabi adabiyot namoyandalarining asarlari arab tilining badiiy imkoniyatlarini, uning semantik va stilistik boyligini yaqqol namoyish etadi [1,265]. Arab adabiyoti Sharq adabiy an'alarining, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotining shakllanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sir ayniqsa aruz tizimi, janrlar, qofiya va badiiy san'atlar tizimida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Zamonaviy davrda arab tili global muloqot vositasi sifatida o'z ahamiyatini tobora kuchaytirib bormoqda. XXI asrda axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, geosiyosat, energetika, xalqaro iqtisodiyot sohalarida arab tilining qo'llanish doirasi kengaymoqda. Katta energiya resurslariga ega bo'lgan arab davlatlarining iqtisodiy salohiyati, xalqaro tashkilotlar va investitsiya loyihalaridagi faol ishtiroki arab tiliga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Arab tilida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, xalqaro konferensiyalar, ilmiy jurnallar sonining ortishi ushbu tilning zamonaviy ilmiy muloqotdagi ustuvor mavqeyini tasdiqlaydi.

Shuningdek, arab davlatlarining madaniy diplomatiyasi, xalqaro media maydonidagi o'rnini (Al-Jazira, Al-Arabiya kabi yirik axborot tarmoqlari), ta'lim sohasidagi o'zgarishlar ham arab tilini o'rganish zaruriyatini kuchaytirayotgan omillardan biridir. Bugungi kunda dunyoning nufuzli universitetlari — Oksford, Harvard, Kembrij, Sorbonna, Tokio universitetlari va boshqa ko'plab oliy ta'lim muassasalari arab tili va arabshunoslik bo'yicha alohida kafedralar tashkil etgan. Bu esa arab tilining global ilmiy va madaniy jarayonlarda tutgan o'rnini yanada mustahkamlamoqda.

Yuqoridagi omillarni hisobga olganda, arab tilining tarixiy taraqqiyotini, ilmiy merosini va zamonaviy davrdagi o'rnini o'rganish nafaqat filologiya sohasida, balki tarix, falsafa, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar yo'nalishida olib borilayotgan tadqiqotlar uchun ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shuningdek, arab tilining o'tmishdan bugungi kungacha davom etayotgan ilmiy-madaniy ta'sirini chuqur tahlil qilish Sharq va G'arb tamaddunlari o'rtasidagi uzviy aloqalarni ochib berishga xizmat qiladi.

Arab tili diniy, ilmiy, madaniy va siyosiy maydonlarda tarixiy va zamonaviy jihatdan yuksak ahamiyatga ega bo'lgan jahon tillaridan biridir. Arab xalqlari yaratgan boy ilmiy meros, yozuv tizimi, madaniy-sivilizasion taraqqiyot hamda bugungi global jarayonlardagi o'rnini ushbu tilning ilmiy va amaliy qiymatini yanada oshirmoqda. Ushbu masalaning dolzarbligi uni kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim yo'nalish sifatida belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharpley R. *Travel and Tourism*. London: Routledge, 2006. – 240 b.
2. Sharpley R. *Tourist Experience*. London: Routledge, 2015. – 304 b.

3. Dam J. *Arab Eastern Mediterranean Travel*. Dubai: Emirates Publishing House, 2023. – 376 b.
4. Allan, M., & Dowling, R. *Geotourism in the Middle East*. New York: Springer, 2023. – 278 b.
5. Tabrik Sabry. *Thing Arab culture*. – 2011. – P. 1-28.
6. Albert Haurani. *Arab sivilizatsion culture*. – London; New York: Thames & Hudson, 2002. – P. 47-78.

TILLAR PAYDO BO‘LISHI NAZARIYALARI: TARIXIY VA ZAMONAVIY QARASHLAR

Voxidova Zaynabbonu Abduraxmon qizi
Oriental universiteti,
filologiya “Arab tili Filologiyasi fakulteti” 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Tillar-kafedراس dotsenti (PhD)
Ma’ruffjon Dustmurodov

Annotatsiya. Til-insoniyatning emg murakkab va noyob ijtimoiy vositalaridan biri bo‘lib, uning kelib chiqishi insoniyat tarixidagi eng ko‘p muhokama qilingan mavzulardan biridir. Maqolada qadimiy mifologiya qarashlardan tortib, zamonaviy ilmiy va evolutsion yondashuvlarga cha bo‘lgan turli nazariyalar tahlil qilinadi hamda ularning o‘ziga xos jihatlarni yoritadi.

Kalit so‘zlar: Til, tilning paydo bo‘lishi, tarixiy nazariyalar, zamonaviy nazariyalar, lingvistika, antropologiya, evolutsiya, ijtimoiy kommunikatsiya.

Kirish. Til-insoniyatning eng muhim va o‘ziga xos ijtimoiy vositalaridan biri hisobkanadi. Uning paydo bo‘lishi masakasi esa azaldan turli fan sohalarida qizg‘in muhokama qilinib kelmoqda. Til qamday shakllangan, uning ilk ko‘rimishlari qanday bo‘lgan, inson ongi rivoji bilan uning bog‘liqligi qanday bo‘lgan kechgan-bu kabi savollar ko‘p asrlar davomida tadqiqotchilarni o‘ylantirib kelmoqda.

Asosiy qism. Tilshunoslik tarixini o‘rganish til haqidagi bilim darajamizni boyitibgina qolmay, kata tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Tilshunoslik fani g‘arbda ham, sharqda ham kata tarixiy bosqichlarni bosib o‘tdi. Bu xususan, ayniqsa, qadimgi hind, yunon, xitoy, arab tilshunosliklarni tarixini o‘rganish qimmatli ma’lumotlar beradi. Masalan, qadimgi hind tilshunosligi bundan 2500 yil aval tashkil topgan edi. Tilshunoslikka oid masalalarni Veda diniga (buddizmdan avvalgi din) tegishli bo‘lgan yozma yodgorliklarda ham uchratish mumkin. Bu yodgorliklarni birida fonetikaga, ikkinchisida grammatikaga, uchinchisida etimologiyaga va h.k. oid ma’lumotkar keltirilgan. Qadimgi Hindistonda Panini mashhur tilshunoslardan biri

bo'lgan. U birinchi bo'lib hind tili me'yoriy grammatikasini yozishda o'zida oldin o'tgan 10 ga yaqin tilshunoslarning ishlaridan foydalangan.

Panini grammatikasida 4000 dan ortiq qoidalar (sutrlar) beriladi. Ammo bu qoidalar o'ta qiyin matematik formulalarga o'xshash tilda yozilganli, ularni hatto sanskritning bilimdomlari ham qiynalib o'qiganlar.

Tilshunoslik tarixida qadimgi Yunoniston olimlarining ham alohida o'rni bor. Yunoniston dastlab tilshunoslik muammolari faylasuflar tomonidan o'rganila boshlagan. Qadimgi yunon faylasuflarini dastlab tilning paydo bo'lishi masalasi qiziqtirgan. Ammo bu masala bobida ularning fikrlari mushtarak emas edi. Shu bois yunon faylasuflari ikki qarama-qarshi guruhga bo'linib ketishadi: materialistik g'oyadagi faylasuflar va idealistic g'oyadagi faylasuflar. **Birinchi guruh** faylasuflari (Demokrit, Aristotel) fikrlariga ko'ra, tabiatdagi, voqealidagi narsa va predmetlarning nomlari ular bilan bog'liq emas. Ularga shartli ravishda nom qo'yiladi. Shuningchun tilning kelib chiqishi muammosini ham ilohiy kuch bilan bog'lab bo'lmaydi, degan g'oyani olg'a surdiradilar. **Ikkinchi guruh** faylasuflari (Platon, Geraklit) narsa bilan uning nomi o'rtasida azaliy bog'liqlik borligini aytadilar. (Masalan, asal, achchiq). Suqrotida ham ana shunday fikr mavjud bo'lgan. Qadimgi yunon faylasuflari grammatikaga oid masalalarni ham o'rganadilar. Buni Platonning <<Kratil>> deb nomlanuvchi dialogic asarida ko'ramiz. Muallif so'zlarni mantiq qonun-qoidalari asosida turkumlarga bo'ladi va ot, fe'l turkumlarini ajratadi. U fe'l deganda harakat ifodasini anglatuvchi so'zlarni, ot deganda esa shu harakatning ijrochisini tushunadi. Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan lisoniy asarlarni ham eslab o'tish joiz. Qadimgi Xitoy bo'lib, bunda dastlab <<Erya>> ning leksikografik ish bo'lsa-da, unda orfografok, ensiklopedik va mafkuraviy bilimlarning me'yori ham belgilab berilgan. Bu asarning sharhiga bag'ishlangan ba'zi ishlar ham yoziladi. Bunday ishlardan biri <<Guanya>> asaridir. <<Guanya>>ni keng ma'noda <<Erya>>ning lo'g'ti deyish mumkin. Qadimgi Xitoyda keyinchalik, <Mahalliy shevalar>> deb ataluvchi <<Fabyab>> asari vujudga keladi. Biroq u <<Erya>> singari mashhur bo'lolmadi.

Arab tilshunosligining vujudga kelishi ilohiy <<Qur'on>> kitobining keyinchalik esa Basra va Bag'dod shaharlariga bo'lgan. Arab tilshunosligining shakllanishida Hazrati Alining hizmati ham katta bo'ladi. U Abul Osvad ismli olimga Qur'onning matnini, oyatlarini to'g'ri va tushunib o'qish uchun tilshunoslik bilimi zarur bo'layotganini aytadi va unga ot, fe'l hamda yordamchi so'zlarni e'tiborga olgan holda Grammatik qo'llanma yozish vazifasini yuklaydi. Keyinchalik Xalil al-Faraxidi tomonidan dastlabki arabcha lug'at yaratiladi va u <<Oyna kitob>> deb nomlanadi.

Xalil aj-Faraxidi mashhur arab tilshunosi Sibaveyxning ustoz edi. Sibaveyx tilshunoslikda o'zining <<Al kitob>> deb ataluvchi asari bilan mashhurdir. Bu asar shu darajada mukammal yozilgan ediki, so'nggi yillarda ham unga biror yangilik kiritish amri mahol bo'ldi.

Arablar fonetik bilimlarga katta ahamiyat berdilar va birinchilardan bo'lib tovush bilan harfni farqlab o'rgandilar. Ular uch undoshli o'zak haqida keng ma'lumot berish bilan birga, affikslar hamda ichki fleksiya to'g'risida aniq izohlar keltirdilar. Arablarning Ovro'ba tilshunosligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy qarashlar: Fonetik va Morfologik –tovush tizimi, talaffuz, intonatsiya. Morfologiya-so'z tuzilishi, so'z yasash. Sintatik-gap tuzilishi,so'z birikmalari. Sematik- ma'no va lug'aviy tizim. Pragmatik-tilning kontekstga mos ishlatilishi. Zamonaviy tilshunoslik qarashlari. Tilni faqat grammatika emas, balki jamiyatdagi vosita sifatida ko'rish. **Kognitiv yondashuv**-tilni inson tafakkuri va idrok bilan bog'lash. **Sotsiolingvistik yondashuv**-til va jamiyat, dialektlar, tillararo o'zaro ta'sir. **Psixolingvistik**-tilni o'rganish va uni bolalar rivojlanishi bilan bog'lish. **Korpus lingvistika va raqami tilshunoslik**-til ma'lumotlarini kompyuter orqali tahlil qilish. **Xulosa va Natija:**Tarixiy manbalarda qadimgi yunon, arab va xitoy tilshunoslari tilning tabiati va ishlatilishini o'rganishga katta e'tibor berganlar. Zamonaviy tilshunoslik esa tilni faqat grammatika yoki tovush tizimi sifatida emas, balki inson tafakkuri, jamiyat va muloqot bilan chambarchas bog'liq tizim sifatida ko'rinadi. Shunindек, kognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va korpus yondashuvlar tilshunosni yanada kengaytirib, uning ilmiy asoslarini mustahkamladi. Shu tarzda, tilshunoslik nafaqat tilning tuzilishini o'rganadi, balki uni jamiyati, tarix va texnologiya bilan bog'laydi. Bu esa tilni chuqur tushunish, til siyosatini shakllantirish va zamonaviy texnologiyalari, xususan sun'iy intellekt va tarjimada qo'llash imkonini beradi. Natijada, tilshunoslikning tarixiy ildizlari va zamonaviy qarashlari birlashib, tilni insoniyat madaniyati va ilm- fanining ajralmas qismi sifatida yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Turniyozov.N. Tilshunoslikka kirish Samarqand-2005.
- 2.Irisqulov.M.T. Tilshunoslikka kirish-Toshkent “Yangi asr avlodi”2009.
- 3.Qodirov.A.Tilshunoslik nazariyasi-Toshkent 2010.
- 4.Aleksandrov.P. Korpus lingvistika va zamonaviy tilshunoslik. Moskva: Nauka, 2012.

TIL TARAQQIYOTINING O‘ZIGA XOSLIGI

Umarova Muslima Dilshodovna

Oriental universiteti

1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Tillar-1 kafedrasi katta o‘qituvchisi Tadjiyeva U.

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga bag‘ishlangan. Til nafaqat shaxsiy muloqot vositasi, balki jamiyatning madaniy me‘rosi, tarixiy xotirasi va milliy o‘zligini ifodalovchi muxim omildir. Maqolada xorijiy va o‘zbek olimlari fikrlari, amaliyotdan misollar keltirib, tilning ijtimoiy va madaniy muxitda rivojlanishini tahlil qiladi. Shuningdek, zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar va texnologik taraqqiyot tilga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: til, jamiyat taraqqiyoti, madaniyat, til va jamiyat munosabati, ijtimoiy munosabatlar.

Til – bu insonlar o‘rtasida muloqot qilish, fikr almashish va hissiyotlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Jamiyat esa bir necha insonlar ma’lum bir maqsad yo‘lida birlashishiga aytiladi. Bu bir tizim bo‘lib, bunda madaniyat, mehnat, ta’lim, urf – odatlar va muloqot shakllanadi. Insonlar bir jamiyatga aylanganda, ular o‘zaro fikr almashish uchun til katta o‘rin tutgan. Tilni xalq yaratadi va u bilan hamnafas rivojlanib boradi. Xalqning tarixi va madaniyati birinchi navbatda tilga qoldiriladi. Shuning uchun har qanday o‘zgarish tilda aks etadi. Mana shuning uchun ham til va jamiyat o‘zaro bog‘liq deb hisoblanadi.

Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon ikki tomonlama ta’sir asosida kechadi. Jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlar tilning lug‘aviy boyligi grammatik strukturasi va kommunikativ vazifalarida o‘z aksini topadi. O‘zbek tilshunos olimi A. G‘ulomov tilning ijtimoiy tabiatini tahlil qilar ekan, til jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol ishtirok etib, ijtimoiy taraqqiyotning ko‘zgusi bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi.¹ Bu fikr tilning jamiyatdan tashqarida mavjud bo‘la olmasligini yana bir bor ko‘rsatadi.

Jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan urbanizatsiya, demografik o‘zgarishlar, texnologiyalar taraqqiyoti va ijtimoiy muloqot shakllarining kengayishi tilning ham shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Mashhur amerikalik sotsiolog William Labov tadqiqotlarida til o‘zgarishi ijtimoiy guruhlar faoliyati, yosh, jins, kasb, va hududiy omillar bilan bog‘liq ekanini ilmiy isbotlagan. O‘zbek jamiyatida ham ana shu jarayonni ko‘rish mumkin: yirik shaharlar, internet muhitidagi so‘zlar va zamonaviy talablar asta – sekin adabiy tilga o‘tmoqda.

¹ O‘lmas Sharipov Ibrohim Yo‘ldoshev Tilshunoslik asoslari – 2006 22-27 bet

Madaniy taraqqiyot ham til rivojining asosiy omillaridan biridir. Til – milliy madaniyat, tarixiy xotira va o‘zlikni anglash vositasi. O‘zbek olimi N. Mahmudov “Til va jamiyat” mavzusidagi ishlarida tilning milliy ong, madaniy va ma’naviyat bilan uzviy bog‘liqligini alohida ta’kidlagan.¹ Til orqali insonlar o‘zlarini madaniyati, qadriyatlari va tarixiy me’roslarini avloddan avlodga uzatishgan. Joshua Fishman ham til milliy idintitetning eng kuchli elementi ekanligini ilmiy asoslagan. Bu ikki olim fikri bir – birini to‘ldirib, til va jamiyatning bir butun tizim ekanini ko‘rsatadi.

Jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va xalqaro jarayonlar ham til taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Globalizatsiya, chet tillari bilan ta’sirlashuv, migratsiya va media vositalari tilga yangi terminlar, atamalar va nutq shakllarini olib kirishi mumkin. O‘zbek tilshunosi Sh. Rahmatullayev o‘z leksigologiya bo‘yicha ishlarida jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq yangi so‘zlarning til lug‘at tarkibiga kirib borishini va bu jarayon tabiiy til rivojining belgisi ekanligini ta’kidlagan.² Janet Holmes esa migratsiya, texnologiya va ommaviy madaniyat ti o‘zgarishini tezlashtirishini ilmiy isbotlagan.

Til taraqqiyotini “til ekologiyasi” nuqtai nazaridan ham ko‘rish mumkin. Einar Haugenning “language ecology” konsepsiyasiga ko‘ra, til jamiyatning ijtimoiy muhiti bilan yashaydi va rivojlanadi; tilning yashashi jamiyatning barqarorligi bilan bog‘liq. Shu fikrni o‘zbek tatqiqotchilari ham qollab-quvvatlagan. Masalan, A. Madvaliyev tilning ijtimoiy muhitga moslashishi haqida yozib, til jamiyatdagi ehtiyojlar o‘zgarishi bilan birga boyib borishini ta’kidlaydi.³

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, til taraqqiyoti va jamiyat taraqqiyoti ajralmas tizim hisoblanadi. Til jamiyat bilan birga boyiydi, rivojlanadi va takomillashib boraveradi. Bunga esa jamiyatdagi ijtimoiy muhit tilni yangilashda va zamonga moslashishida katta ro‘l o‘ynaydi. Til va jamiyat bir – birini to‘ldiradi chunki til jamiyat taraqqiyotini aks ettirsa, jamiyat esa o‘sha tilni rivojlantiradi. Shuning uchun til va jamiyat munosabatlarini chuqur o‘rganish nafaqat lingvistika uchun, balki ijtimoiy fanlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘lmas sharipov Ibrohim Yo‘ldoshev Tilshunoslik asoslari -2006, 22-27bet.
2. Madvaliyev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili 2016.
3. N.Mahmudovning O‘zbek tilining izohli lug‘ati haqida maqolasidan 1995.
4. Rahmatullayev Sh. Tilshunoslikka kirish Toshkent 2009.
5. Wikipedia.uz - til va jamiyat, sotsiolingvistika 2025.

¹ N. Mahmudovning O‘zbek tilining izohli lug‘ati haqida maqolasidan 1995

² Sh. Rahmatullayev Tilshunoslikka kirish Toshkent 2009

³ A. Madvaliyev Hozirgi o‘zbek adabiyoti 2016

TIL TARAQQIYOTI VA JAMIYAT TARAQQIYOTINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Zokirova Maryam

Oriental universiteti 1-kurs talabasi

Email: maryamzokirova7110@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada til taraqqiyoti va jamiyat rivojlanishi o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik lingvistik va sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tilning ijtimoiy institut sifatidagi o‘rni, uning kognitiv, kommunikativ va madaniy funksiyalari hamda jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlari til tizimida qanday aks etishi ilmiy asoslar bilan yoritilgan. Shuningdek, jamiyat taraqqiyoti tilning leksik, semantik va stilistik qatlamlarini boyitishi, yangi terminologik birliklar shakllanishiga turtki berishi va til me‘yorlarini takomillashtirishi ta’kidlanadi. Tilning jamiyat ongini shakllantirishdagi roli, tarixiy xotirani uzluksiz uzatish mexanizmi hamda zamonaviy raqamli kommunikatsiya sharoitidagi transformatsiyalari alohida ilmiy tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: til taraqqiyoti, jamiyat rivojlanishi, lingvistika, sotsiokultura, terminologiya, kognitiv jarayon, tarixiy xotira.

Abstract. This article examines the dialectical relationship between language development and societal progress from linguistic and sociological perspectives. It highlights the role of language as a fundamental social institution, its cognitive, communicative, and cultural functions, and the ways in which political, economic, and cultural changes in society shape the linguistic system. The study emphasizes that social development enriches the lexical, semantic, and stylistic layers of language, stimulates the formation of new terminology, and enhances linguistic norms. The article also explores the role of language in shaping collective consciousness, preserving historical memory, and undergoing transformation within the context of modern digital communication.

Keywords: language development, social progress, linguistics, sociocultural processes, terminology, cognitive mechanisms, historical memory.

Til – jamiyatning fundamental ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, u inson tafakkurining strukturasi, dunyoqarashi va kognitiv jarayonlarini aks ettiruvchi murakkab semiotik tizim sifatida qaraladi. Til millatning ma’naviy-ruhiy poydevorini shakllantiradi, madaniy merosni avloddan avlodga uzatadi va ijtimoiy tajribani kodlashning eng samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham har qanday jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalo, uning til tizimining shakllanganlik darajasi, funksional imkoniyatlari va ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda rivojlanish dinamikasi bilan uzviy bog‘liqdir. Til taraqqiyoti jamiyatning madaniy, ilmiy,

texnologik va ijtimoiy o‘sish jarayonlarining o‘ziga xos indikatoridir. Jamiyatning iqtisodiy va intellektual rivojlanishi tilning leksik, semantik va stilistik qatlamlarining boyishiga, yangi terminologik birliklarning shakllanishiga, grammatik strukturalarning takomillashuviga sabab bo‘ladi. Xususan, ilmiy-texnika taraqqiyoti tilning ilmiy terminologiya bazasini kengaytirsa, ijtimoiy munosabatlardagi o‘zgarishlar yangi konseptlar, metaforalar va nutq modellari paydo bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Shu tariqa til ijtimoiy taraqqiyotning nafaqat aks-sadosi, balki uni ifodalovchi faol kommunikativ tizim sifatida maydonga chiqadi.

Jamiyat taraqqiyoti esa o‘z navbatida tilning funksional ko‘lamini, ijtimoiy mavqeini va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi. Ta’lim tizimining rivoji tilning adabiy me’yorlarini mustahkamlasa, ilmiy-tadqiqot faoliyatining jadal o‘sishi tilning ilmiy diskursini shakllantiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi esa tilning global maydonda faol qo‘llanilishiga, yangi kommunikativ formatlarga moslashuviga va raqamli lingvokulturaning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Siyosiy mustaqillik esa milliy tilning institutsional maqomini mustahkamlab, uni davlat boshqaruvi, ta’lim, madaniyat va ommaviy kommunikatsiya sohalarida keng qo‘llash imkonini yaratadi. Til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik dialektik xususiyatga ega bo‘lib, bu jarayonda til jamiyatning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishini aks ettiruvchi ko‘rsatkich sifatida xizmat qilsa, jamiyat esa tilning transformatsion jarayonlariga yo‘nalish beradi. Tilning o‘zgarishi jamiyatning ehtiyojlari, qadriyatlari, madaniy kodlari va ijtimoiy ong darajasidagi o‘zgarishlarni ifodalasa, jamiyatning taraqqiyoti tilning struktural, funksional va semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Demak, til va jamiyat o‘zaro ta’sirda bo‘lgan, bir-birini to‘ldiruvchi va birgalikda rivojlanadigan ijtimoiy tizimlardir.

Til taraqqiyoti – jamiyat rivojlanishining ko‘zgusi sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan lingvistik-ijtimoiy hodisadir. Chunki til jamiyatdagi barcha siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy jarayonlarning bevosita aksini o‘zida mujassamlashtiradi. Jamiyatning har bir bosqichda o‘zgarib borishi, o‘z navbatida, tilning yangilanishi va takomillashuvini taqozo etadi. Bu o‘zaro bog‘liqlik dialektik xarakterga ega bo‘lib, unda til jamiyatning taraqqiyot darajasini ifodalasa, jamiyat tilning rivojlanish yo‘nalishlariga turtki beradi. Avvalo, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar tilning yangilanishini tezlashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Jamiyatda sodir bo‘layotgan siyosiy islohotlar, iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal sur‘atlar bilan kirib kelishi va madaniy aloqalarning kengayishi tilda yangi tushunchalar, terminlar va iboralar paydo bo‘lishiga olib keladi. Masalan, zamonaviy texnologik taraqqiyot “sun’iy intellekt”, “raqamli iqtisodiyot”, “onlayn xizmat”, “kiberxavfsizlik” kabi terminlarning faol qo‘llanishiga sabab bo‘ldi.

Shu bilan birga, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'zgarishlar natijasida "gender tenglik", "inklyuzivlik", "ijtimoiy ong", "psixologik farovonlik" kabi yangi konseptlar til tizimida mustahkam o'rin egalladi. Bu o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatda qanday ehtiyojlar va yangi real voqelik shakllansa, til ham shu ehtiyojlarga mos ravishda yangilanadi, boyiydi va takomillashadi.

Ikkinchidan, jamiyatning madaniy va ma'naviy darajasining ko'tarilishi til boyishining eng muhim manbalaridan hisoblanadi. Rivojlangan adabiyot, san'at, teatr, kinematografiya va ilm-fan tilning leksik-semantik boyligini kengaytirishga, uning uslubiy qatlamlarini chuqurlashtirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday jamiyatlarda tilning adabiy normasi mustahkamlanadi, nutq madaniyati yuksaladi, ilmiy-texnik terminologiya tizimi takomillashadi, badiiy ifoda vositalari rang-baranglashadi. Shu bilan birga, madaniy taraqqiyot tilning estetik imkoniyatlarini oshirib, uning badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy uslublarining yanada boyib borishiga asos yaratadi. Natijada til jamiyatning ma'naviy yuksalishini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkich sifatida maydonga chiqadi. Umuman olganda, til taraqqiyoti jamiyatning intellektual va madaniy salohiyatini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy-lingvistik jarayon bo'lib, jamiyatning har bir bosqichdagi o'zgarishlari tilda o'z ifodasini topadi. Jamiyat rivojlangan sari til ham yangi mazmunlar bilan boyiydi, yangi vazifalarni bajarishga moslashadi va o'zining kommunikativ hamda kognitiv imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyotining nafaqat ko'zgusi, balki uning ajralmas tarkibiy qismidir.

Til va jamiyatning o'zaro ta'sir mexanizmlari murakkab lingvistik va sotsiologik jarayonlarni qamrab oladi. Ushbu ikki tizimning o'zaro munosabati doimiy rivojlanish, o'zgarish va yangilanishdan iborat bo'lib, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi hamda madaniy jarayonlari tilga bevosita ta'sir ko'rsatadi, til esa jamiyat ongini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Bu munosabatlar tizimlilik tamoyiliga asoslangan bo'lib, har bir o'zgarish ikki yo'nalishda ham aks etadi.

Avvalo, jamiyatdagi ehtiyojlar tilning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy hayotning rivojlanishi natijasida paydo bo'ladigan yangi kasblar, ilmiy yo'nalishlar, texnologiyalar va faoliyat turlari til tizimida yangi so'zlar, terminlar va tushunchalarning shakllanishini taqozo etadi. Masalan, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti "startup", "big data", "sun'iy intellekt", "biometrik identifikatsiya" kabi terminlarning tilga kirib kelishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasidagi o'zgarishlar "gender tenglik", "inklyuzivlik", "ijtimoiy moslashuv" kabi yangi konseptlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Demak, jamiyatda qanday ehtiyoj, qanday yangi hodisa yuzaga kelsa, u tilda o'z aksini topadi.

Bundan tashqari, til jamiyat ongini shakllantiruvchi asosiy omillardan **biridir**. Til orqali shakllanadigan tushunchalar, qadriyatlar, ramzlar va ma'naviy ko'rsatkichlar jamiyatning ijtimoiy ongiga, qarashlariga va dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Insonlar til orqali atrof-muhitni anglaydi, tushunchalarni qabul qiladi va ularni ijtimoiy jarayonlarda qo'llaydi. Shu ma'noda til nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatning intellektual va ma'naviy asosini shakllantiruvchi kognitiv mexanizmdir.

Rasmiy muassasalar – ta'lim tizimi, ilmiy markazlar, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va nashriyotlar tilning adabiy me'yorlarini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Adabiy tilning normalari, imlo qoidalari, so'zlashuv madaniyati va uslubiy mezonlar jamiyatning rasmiy institutlari tomonidan tartibga solinadi. Bu jarayon tilning barqarorligini ta'minlab, uni alohida ijtimoiy qatlamlarda notekis o'zgarishlardan himoya qiladi.

Shuningdek, til jamiyatning tarixiy xotirasini saqlovchi muhim tizim sifatida namoyon bo'ladi. Har bir xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, dunyoqarashi va asrlar davomida shakllangan an'analari til orqali avloddan avlodga uzatiladi. Til millatning kollektiv xotirasi bo'lib, unda tarixiy voqealar, qadimiy tushunchalar, milliy mentalitet va ma'naviy qadriyatlar mujassam bo'ladi. Shuning uchun tilning yo'qolishi – xalqning tarixiy xotirasining yemirilishiga olib kelishi mumkin. Umuman olganda, til va jamiyatning o'zaro ta'sir mexanizmlari ikki tomonlama jarayon bo'lib, jamiyat tilda o'z ifodasini topadi, til esa jamiyatning ongini, qadriyatlarini va tarixiy merosini shakllantiradi. Ushbu o'zaro munosabat jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan asosiy sotsiokulturni omil sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Til taraqqiyoti va jamiyat taraqqiyoti o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan ikki fundamental jarayon sifatida qaraladi. Jamiyatda ro'y beradigan iqtisodiy islohotlar, siyosiy yangilanishlar, ilmiy-texnik taraqqiyot, madaniy-ma'naviy o'zgarishlar tilning lug'aviy boyligiga, grammatik tizimiga, semantik strukturasi va uslubiy imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Til tizimidagi har bir yangilanish esa, o'z navbatida, jamiyatning ijtimoiy ongini shakllantirish, yangi tushunchalarni qabul qilish, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish va madaniy qadriyatlarni rivojlantirish jarayonida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishi, avvalo, tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirish, uning ilmiy va texnik terminologiyasini boyitish, adabiy me'yorlarini takomillashtirish, ommaviy axborot vositalarida, ta'lim tizimida va ilmiy muhitda to'g'ri qo'llanishini ta'minlash kabi vazifalarning izchil amalga oshirilishini talab etadi. Tilning rivojlanishiga qaratilgan har bir tashabbus jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, ma'naviy-madaniy muhitni boyitish hamda milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, til taraqqiyoti jamiyatning madaniy yuksalish darajasini ko'rsatuvchi yetakchi omil

bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti esa tilning istiqbolini, uning global axborot makonidagi o‘rnini va kommunikativ imkoniyatlarini belgilaydi. Til va jamiyat o‘rtasidagi ushbu dialektik bog‘liqlik har ikki tizimning uzluksiz rivojlanishini ta‘minlovchi asosiy intellektual va sotsiokultur omil ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhrorov, A. (2019). ISSUE OF STUDYING THE" CULTURE OF SPEECH" AS A SEPARATE SCIENCE. NEWS OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN, 1(4).

2. Akbarovich, A. A. REFLECTION OF NATIONAL VALUES IN ARTICLES. Pedagogika, 171.

3. Ahrorov, A. (2022). O ‘zbek xalq maqollarida “nutq odobi” ma’nosining ifodalanish darajasi. Uzbekistan: Language and Culture, 4(4).

4. Jurayev, J. (2022). Ахроров Алишер Акбарович. МАҚОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 11(11).

5. Berdialiyev, A., & Ermatov, I. (2021). Hozirgi o ‘zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). T.:“TURONIQBOL” nashriyoti, 204.

6. Doniyorovich, O. R. A. (2022). TOG ‘AY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION, 1(4), 38-42.

“BOBURNOMA”DA “VAJHI TASMIYA” MASALASI

Nig‘monjonov Rahmatulloh

Oriental universiteti Arab filologiyasi (ingliz) yo ‘nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: M.Dustmurodov – fil.f.f.d., dotsent

Bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur bilan har qancha faxrlansak arziydi. O‘zbek xalqining dovrug‘ini dunyoga taratgan buyuk ajdodlarmizdan biri o‘laroq, ul zot bizni o‘tmish tariximizni qadrlashga, kelajakka buyuk ishonch bilan qarashga o‘rgatadi.

**O‘zbekiston Respublikasining
Birinchi Prezidenti Islom Karimov**

Annotatsiya. Maqolada tilshunosligimizning bugungi alohida fan sifatidagi sohasi bo‘lgan etimologiyaning “Boburnoma” tarixiy-memuar asarida berilishi va

uning asarda “Vajhi tasmiya” termini ostida berilishi haqida ilmiy-tahliliy fikrlar ilgari suriladi.

Tayanch soʻzlar. “Boburnoma”, vajhi tasmiya, etimologiya, leksika.

Аннотация. В статье представлены научно-аналитические взгляды на изложение этимологии, сегодня являющейся отдельной отраслью лингвистики, в историко-мемуарном произведении «Бобурнома» и её изложение в произведении под термином «Ваджи тасмия».

Ключевые слова: «Бобурнома», ваджи тасмия, этимология, лексика.

Zahiriddin Muhammad Bobur atoqli davlat arbobi, sarkarda, shu bilan birga, iste'dodli shoir, adib, zakovatli olim va tarjimondir. O'zbek klassik adabiyotining XV asr oxiri, XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli nomoyondalardan Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qarama-qarshilikli, murakkab va qisqa hayotida anchagina asarlar yaratgan bo'lsa-da, ularning hammasi bizgacha yetib kelgan emas.

Boburdan qolgan ijodiy merosining eng muhim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston, Eron xalqlar tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik namunasi bo'lgan “Boburnoma” asaridir. Ushbu asar nafaqat yuqoridagi sohalarni balki, tilshunoslikka doir ilmiy qarashlarni ham o'zida mujassamlashtirgan.

Bobur asarlarining tili bugungi kun uchun ham tushunarli. Bobur til boyliklaridan, jonli tilning xususiyatlaridan mohirlik bilan foydalangan. Shuningdek, o'zbek badiiy prozasining ilk takomili davridayoq so'zlarni o'z o'rnida qo'llay bilgan. Bobur asarlarining ma'lum va mashhur bo'lishining sababi ham shunda, ya'ni u, avvalo, yetuk til bilimdoni bo'lgan.

“Boburnoma”da muallifning tilga munosabati, tilshunoslikka oid qarashlari o'z aksini topgan. Bu jihatdan asarga XV-XVI asrlar o'zbek adabiy tilining leksik va lingvistik xususiyatlari mujassamlashgan manba sifatida qarash mumkin. Bu o'rinda, avvalo, “Boburnoma”ning o'zbek tili tarixini o'rganish, lug'aviy sath qonuniyatlarini ochish, o'zbek adabiy tili leksikasining taraqqiyotini tahlil qilishda manba sifatidagi ahamiyatini qayd etish zarur. Asar tilining o'ziga xosligi, voqelikning imkon qadar aniq, ayni paytda lo'nda, ta'sirchan ifoda etishda muallifning yozma nutq mahorati alohida diqqatga molik.

So'zlarning etimologiyasi muallifning e'tiboridan chetda qolmagan va u bu yo'lda o'ziga xos yo'l tutgan. Bobur *Darmiyon, Olachaxon, Kark, Asad* kabi antroponimlar, *Qarshi, Kashmir, Lamg'onot, Hotiypul, Balda'i Mahfuza, Ko'hi Safid, Hodarvesh, Seyoron, Ko'hi Jud, Savolakparbat, Shohi Kobul* kabi toponimlar, *Laqlaqa, Muqatta', Chinnixona* kabi masjid nomlari, *Kakka, Nilagov, Murg'aki*

Qarshi (Qilquyruq) singari zoonimlar va boshqa soʻzlar etimologiyasini keltirgan. [1, b 174]

Bobur hozirgi etimologiya tushunchasi uchun **vajhi tasmiya** atamasidan foydalangan: *“Oʻti togʻining va pushtasining va julgʻasining birdek boʻlur. Aksar butaqa oʻti boʻlur, otgʻa bisyor sazovor oʻttur. Andijon viloyatida bu oʻtni boʻtqa oʻti derlar, vajhi tasmiyasi maʼlum emas erdi, bu viloyatlarda maʼlum boʻldi. Bu oʻt buta-butacha chiqar uchun butaqa derlar emish”*. [2, b 140]

Bobur topoleksemaning semantik jihatdan kengayish hodisasini ham qayd etgan: arablarning oʻzlaridan boshqa xalqlarni *ajam* deyishlari kabi hindlar Hindistondan boshqa joylarni xuroson deyishar ekan: *“Hindistoniy gʻayri Hindistonni “xuroson” der. Nechukkim arab gʻayri arabni “ajam” der”*. [2, b 129]

Shahar nomlari bilan bir qatorda ularning mohiyat eʼtiborini yorituvchi tasviriy ifodalarni ham qayd etgan: *“(Samarqand) Hech yogʻiy qahr va gʻalaba bila munga dast topmagʻon uchun baldayi mahfuza derlar”* [2, b 43]

“Boburnoma”da Fargʻona bilan bogʻliq quyidagi etimologik qaydlar mavjud:

Kandibodom: *“... muning tavobidin Kandibodomdur. Bodomi yaxshi boʻlur. bu jihatdin bu ismgʻa mavsumdir”*. [2, b 7]

Hodarvesh: *“... derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yoʻlgʻa yoʻliqib, bir-birini topolmay, “Ho, darvesh”, “Ho, darvesh” deya tamom halok boʻlurlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar”*. [2, b 4]

Poʻstini pesh barra – *“... vale safolik bogʻchalari tamom suv yaqosida voqeʻ boʻlgʻon uchun “Poʻstini pesh barra” debturlar*. [2, b 5]

Takasekretku – *“... bu jihatdin ul mavzeʻ bu ismgʻa mavsumdirkim, togʻ damanasi jihatidin bu daryo andoq tor oqarkim, rivoyat qilurlarkim, ul yerdin taka sekrigandur”*. [2, b 8]

Sangi oyina – *“Isfaraning bir sharʻisida janub sori pushtalarning orasida bir parcha tosh tushubdur, “Sangi oyina” derlar, uzunligʻi taxminan oʻn qari boʻlgʻay ..., oyinadek har nima munʻakis boʻlur”*. [2, b 7]

Samarqand qaydlari:

Masjidi Muqattaʻ – *“... bir masjid solibdurki, masjidi Muqatta derlar. Bu jihatdin muqatta derlarkim, qitʻa-qitʻa yigʻochlarni tarom qilib, islimiy va xitoyi naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yoʻsinlikdur”*. [2, b 45]

Masjidi Laqlaqa – *“Samarqand qalʻasining ichida yana bir qadimiy imorattur, masjidi Laqlaqa derlar. Ul gunbazning oʻrtasida yerga tepsalar tamom gunbazdin laq-laq un kelur, gʻarib amerdur, hech kim muning sirrini bilmas”*. [2, b 45]

Qarshi – *“... moʻgʻulcha ottur, goʻrxonani moʻgʻul tili bila “Qarshi” derlar. Gʻolibo, bu ot Chingizxon tasallutidin soʻng boʻlgʻondur”*. [2, b 47]

Kobul qaydlari: “... *ul tog‘ning qullasida Shohi Kobul imorat qilgani uchun bu tog‘ni Shohi Kobul derlar*”. [2, b 116]

Ko‘hi Safid: “... *bu tog‘din qor hargiz o‘ksumas. Bu jihattin g‘olibo Ko‘hi Safid derlar*”. [2, b 121]

Lamg‘onot: “*Hazrati Nuh payg‘ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadur. Ba‘zi tarixta Mehtar Lomni Lamak Lamkon debturlar. Ul elni heyli mulohaza qilibturkim, ba‘zi mahal “kof” o‘rnig‘a “g‘ayn” talaffuz qilurlar, bu jihattin g‘olibo bu viloyatni Lamg‘on debturlar*”. [2, b 121]

Hindiston qaydlari:

“*Bu tog‘ni hind eli Savolak parbat derlar. Hind tili bila “savo” – rub’ (ya‘ni chorak), “lak” – yuz ming, “parbat” – tog‘, ya‘ni rub’ va yuz ming tog‘kim, yuz yigirma besh ming tog‘ bo‘lg‘ay*”. [2, b 270]

Muallif nazaridan kishilar laqabining etimologiyasi ham chetda qolmagan: “*Sulton Mahmudxondin kichik Sulton Ahmadxon edikim, Olachaxonga mashhurdir. Olachaxonning vajhi tasmiyasi muni derlarkim, qalmoq va mo‘g‘ul tili bila o‘lturguchini “olachi”derlar. Qalmoqni necha bosib qalin kishisin qirg‘on uchun olacha de-de kasrati iste‘mol bila Olacha bo‘lubtur*”. [2, b 14]

“*Jonibek ... g‘arib axloq va atvorlik kishi ekandur. (U) Samarqand hokimi ekan fursatlar o‘zbekdin elchi kelur, o‘zbek ulusida bu elchi zo‘rg‘a mashhur ekandur. O‘zbek zo‘r kishini bo‘ka der emish. Jonibek derkim: Bo‘kamusen? Bo‘ka bo‘lsang, kel, kurashaling*”. [2, b 21]

“Boburnoma”da so‘z talaffuzi asosida shakllangan toponimlar ham mavjud. Jumladan, Boburning *Kashmir* toponimini izohlashi o‘ta diqqatga loyiq. *Kashmir* nomi *kash* etnonimi asosida paydo bo‘lgani ma‘lum. Bobur ham bu so‘zni etimologik jihatdan tahlil qilishga harakat qiladi: “... *Hindiston eliding muncha tahqiq xabar ayta olmadi. Ushmuncha deydurlarkim, bu tog‘ elini Kas derlar. Hindiston eli “shin”ni “sin” talaffuz qilur. Chun bu tog‘da mo‘tabar shahar Kashmirdur... bu jihattin bo‘la olurkim, Kasmir demish bo‘lg‘aylar*”. [2, b 141] Demak, *kas* aslida *kash* bo‘lib chiqadi va *Kashmir* shu tog‘dagi qabila nomi bilan bog‘liq.

Shuningdek, muallif *Lag‘mon* viloyatining etimologiyasi bilan ham qiziqqan. U bu nomning kelib chiqishini Nuh payg‘ambarning otasi Mehtar Lom nomi bilan bog‘laydi: “*B‘azi tarixta Mehtar Lomni Lamak (Lamkon) ham debturlar*” va Alishang aholisi “kof” o‘rniga “g‘ayn” talaffuz qilishini asos sifatida keltiradi: “*Ul elni xeyli mulohaza qilibturkim, ba‘zi mahal “kof” o‘rnig‘a “g‘ayn” talaffuz qilurlar, bu jihattin g‘olibo bu viloyatni Lamg‘on debturlar*”. [2, b 244]

Asarda leksik birliklarning turli nutqiy ko‘rinishlarini etimologik nuqtayi nazardan tahlili ham mavjud: “*Nabototkim, Hinduston maxususidir, biri anbadur*.”

Aksar Hinduston eli “be”ni beharakat talaffuz qilurlar, yomon mutalaffiz bo‘lur uchun ba’zi “nag‘zak” debturlar...”. [2, b 178]

Bobur *Hast* antroponimi *Asad* so‘zining hindcha talaffuz asosida shakllanganini yozadi: “*Suxon suyining navohisidag‘i el va ulusning hokimining oti Malik hast edi, asli oti Asaddur. Hindustoniylar mundoq harakatlarni gohi sokin o‘qurlar (ba‘zi qisqa unlilarni talaffuz qilmaydilar), nechukkim, “xabar”ni “xabr” derlar, “asad”ni “asd” debturlar, bora-bora “hast” bo‘lubtur*”. [2, b 148]

Adib muayyan tasvirda shu so‘zning etimologiyasiga to‘xtalar ekan, u bunda so‘zning kelib chiqishiga semantik tahlil nuqtayi nazari bilan ham yondashadi. *Darmiyon* antroponimi etimologiyasini keltirishda mazkur laqab bilan sifatlangan shaxsning hal qiluvchi damda (g‘anim qasd qilganda yoki Sulton Husayn otsiz qolganda) oraga tushganini (“joniga oro kirgani”ni) ta’kidlagan: “*Yana Shayx Abdusa‘idxon Darmiyon edi. Bilmon, bu urushta mirzog‘a ot kelturubmudur yo mirzog‘a qasd qilg‘on g‘animni daf‘ qilibmudur, ul jihattin bu laqab bila mulaqqab bo‘lubtur*”. [2, b 158]

Bobur fors-tojik tiliga xos bo‘lgan *pos* so‘zini izohlar ekan, sutkaning sakkizdan bir qismini, ya’ni uch soatni bildirishini, *posbon* so‘zi esa posdan xabar beruvchilar ekanligini izohlaydi. Darhaqiqat, *-bon (-von)* qo‘shimchasi asos so‘zidan anglashilgan predmet yoki obektga ega shaxs nomini yasaydi. Bu qo‘shimcha asl turkiy so‘zlar tarkibida kamdan kam uchraydi: “*Hind eli kecha-kunduzni bir giri deb turlar, yana kechani to‘rt va kunduzni to‘rt qismat qilibturlar. Har qaysisi bir paxr deb turlarkim, forsida pos bo‘lgay. Ul viloyatlarda pos va posbon eshitilur edi. Bu xususiyat bila ma‘lum emas edi*”.

Bobur Navoiy an’anasini davom ettirib, o‘zbek tilining barcha imkoniyatlarini ishga solgan va uning yanada sayqal topishi hamda badiiy, publitsistik, rasmiy va ilmiy uslubning shakllanishida katta iz qoldirgan. Bobur tilshunoslikda yangi nazariya yaratgan yetuk tilshunos olim bo‘lgan. Bu uning tovushlar tahlili, grammatik vositalar, lahja va adabiy til munosabati, uslubiyat va so‘z ma’nolari haqidagi fikrlarida o‘z ifodasini topgan.

“Boburnoma”da aks etgan yuqoridagi kabi jihatlarni kuzatar ekanmiz, muallifning o‘zbek adabiy tili taraqqiyotidagi o‘rnini belgilash imkoniyati tug‘iladi. Bu esa mumtoz madaniy merosimiz qadr-qimmatini anglashda, jamoat arboblari va ijodkorlarining til taraqqiyotidagi xizmatlarini bilishda, hozirda o‘zbek tilshunosligida yangicha yo‘nalish deb qaralayotgan ba’zi sohalarning ayrim muammolari ajdodlarimiz tomonidan o‘rtaga tashlanganligini anglashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur ensiklopediyasi.-Toshkent.: Sharq, 2014
2. Z.M.Bobur, Boburnoma-Toshkent.: Yulduzcha, 1990
3. B.Xasanov. Alisher Navoiyning “Sabhat abxur” lug‘ati.-Toshkent.: “Fan”, 1981

| | |
|---|----|
| YALPI MAJLIS | 3 |
| Hojiakbarova Fazilatxon. O‘ZBEK ARABSHUNOSLIGI: KECHA VA BUGUN..... | 3 |
| Ravshanova Risolat. ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDA RANG-TUS LEKSEMALARINING LINGVOMADANIY TADQIQI..... | 5 |
|البحث العلمي في توجيه نصب الفعل المضارع بين علماء النحو. صاحبة ميرطاهيروف | 13 |
|الممنوع من الصرف بين النظرية والتطبيق: دراسة نحوية. صاحبة عابدوا بنت شاقول | 16 |
| Muhsinaxon AHMAD XO‘JAYEVA. TIL O‘RGANISHDA FONETIKANING O‘RNI..... | 19 |
| Erkinova Muxlisa. ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDA QARINDOSHLIK BILDIRUVCHI SO‘ZLAR SEMANTIKASI..... | 22 |
| Мухлисaxon МАМАТИСАЕВА. СОЦИАЛЬНАЯ КРИТИКА В РОМАНАХ НАГИБА МАХФУЗА..... | 27 |
| Sobirova Farida. ARAB TILIDA SO‘Z YASALISHI (ISHTIQOQ)NING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... | 31 |
| Karimova Shoxzodabonu. ARAB TILIDA IKKI KELISHIKLI SO‘ZLAR VA ULARNING TURLARI..... | 34 |
| Abdug‘afforova Sojida. ARAB TILINI O‘RGANISHDA MASOFAVIY TA‘LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR..... | 37 |
| O‘ZBEK ARABSHUNOSLIGI: KECHA VA BUGUN | 41 |
| Bahodirova Maxsuma. HOZIRGI ZAMON ARABSHUNOSLIGI.. | 41 |
| Hasanjonova Nozima. ARAB DAVLATLARIDA TIL VA MADANIYAT..... | 45 |
| Muhammadxonova Muniraxon. ZAMONAVIY DUNYODA ARAB TILINING AHAMIYATI..... | 51 |
| Usmonova Dilafruz. O‘ZBEK ARABSHUNOSLIGI DARG‘ALARI | 54 |
| ARAB TILI GRAMMATIKASINING NAZARIY MASALALARI | 60 |
| Xosiyat Ochilova. “INNA VA UNING SHERIKLARI” (إِنَّ وَأَخْوَاتُهَا) NING FUNKSIONAL-SEMANTIK TAHLILI..... | 60 |
| Dilfuza Arifdjanova. ARAB TILIDA SINIQ KO‘PLIKNING MORFOLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI..... | 65 |
| Isroilxodjayeva Marhabo. ARAB TILIDA SINONIMIYA HODISASI: ZAMONAVIY TAHLIL VA AMALIY QO‘LLANILISHI..... | 68 |
| Muxtorova Nasiba. ISMNING ROF, NASB, JAR O‘RINLARINING O‘ZIGA XOSLIGI..... | 72 |

| | |
|--|------------|
| Xusanova Muyassar. ARAB TILIDA KOLLOKATSIYA HODISASINING SEMANTIK-STRUKTUR TAHLILI..... | 78 |
| Djurayeva Muslima. ISHTIQOQ NAZARIYASI VA UNING ARAB TILIDAGI SEMANTIK TA’SIRI..... | 82 |
| Kamoliddinova Omina. FE’LGA O’XSHASH HARFLARNING SEMANTIK TAHLILI..... | 85 |
| Abitov Sherzod. ARAB TILIDA GAP TURLARI..... | 88 |
| Turabayeva Nigora. ARAB TILIDA SON VA SANALMISH..... | 95 |
| Ma’murova Muslima. ARAB TILIDA G’OYRU MUNSARIF SO‘ZLAR: GRAMMATIK XUSUSIYATLAR VA ULARNING QO‘LLANILISHI..... | 99 |
| Qosimova Muborak. ARAB TILIDA GRAMMATIK MOSLASHUV | 102 |
| Najimova Shahodat. ZAMONAVIY ARAB MATBUOTIDA QISQARTMALAR QO‘LLANILISHI..... | 108 |
| Xasanova Dilsora. FE’LNING MAJHUL SHAKLI VA UNING STILISTIK VAZIFASI..... | 111 |
| Odilxo‘jayev Muhammadali. ARAB TILI GRAMMATIKASINING NAZARIY MASALALARI..... | 114 |
| Nabijonova Iroda. ARAB TILI GRAMMATIKASIDA “ISMLARNING E’ROBI”..... | 117 |
| Solixbekova Nozima. ARAB GRAMMATIKASIDA TAMYIZ VA UNING TURLARI..... | 124 |
| Muhammadxonova Munira. ARAB TILIDA METAFORA HODISASI..... | 128 |
| Djurayeva Muslima. ARAB TILIDA QALBIY FE’LLARNING (الأفعال القلبية) NAZARIY ASOSLARI..... | 132 |
| Norboyeva Aziza. ATF HARFLARINING SINTAKSIS TAHLILI.... | 139 |
| Abduhamidova Gulnoza. ARAB TILIDA IZOFA BIRIKMASINING MOHIYATI, TUZILISHI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.... | 142 |
| Botirova Dildora. ARAB TILIDA “BADAL” VA UNING ARAB MANBALARIDA IFODALANISHI..... | 145 |
| Murshida Lutfullayeva. ARAB TILI GRAMMATIKASI TARIXIDA SIBAVAYHNING O‘RNI..... | 151 |
| Ahmadjonova Fotima. JAR HARFLARINING MA’NOVIY VA GRAMMATIK VAZIFALARI..... | 154 |
| To‘xtamurodbekova Robiya. ARAB TILIDA ISM VA FE’L TURLARI YUZASIDAN KLASSIK TILSHUNOSLAR QARASHLARI..... | 157 |
| Muxiddinova Odinaxon. ARAB TILINING SHAKLLANISHI VA UNDAGI YANGI KIRIB KELGAN SO‘ZLARNING O‘RNI..... | 161 |
| Mirxaydarova Mubina. ARAB GAZETALARIDA SIYOSIY TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISHI..... | 166 |

| | |
|--|------------|
| ARAB ADABIYOTINING DOLZARB MASALALARI..... | 172 |
| Abdurasulova Iqbola. MAHMUD DARVISH SHE'RIYATI VA UNDA RAMZLAR TILSIMI..... | 172 |
| Mansurova Rayxona. SAYOHATNOMALAR SULTONI: IBN BATTUTA HAYOTI..... | 176 |
| Komiljonova Diyora. ILK ISLOM SHE'RIYATI..... | 179 |
| Isamuhamedova Nargiza. ABBOSIYLAR DAVRIDAGI ADABIY YUKSALISH: ADABIYOT VA FALSAFA UYG'UNLASHUVI..... | 182 |
| Mirfozilov Otabek. ANDALUSIYA ADABIYOTINING SHARQ ADABIYOTIGA TA'SIRI..... | 187 |
| Xamidullayeva Munisa. ARAB XALQ MAQOLLARIDA DO'STLIK KONSEPTINING IFODALANISHI..... | 191 |
| Xolmatova Guli. ARAB XALQ MAQOLLARI VA HIKMATLARINING BADIY TAHLILI..... | 194 |
| TARJIMA VA QIYOSIY TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI..... | 199 |
| Sobirova Hadicha. ARAB VA O'ZBEK TILIDAGI O'XSHATISHLAR LINGVOMADANIY VOSITA SIFATIDA..... | 199 |
| Asatullayeva Muslima. ARAB, FORS VA INGLIZ TILLARIDAGI KO'RSATISH OLMOSHLARINING QIYOSIY TAHLILI..... | 202 |
| Yusufxo'jayeva Saodat. ARAB ADABIYOTIDA TARJIMA SIYOSATI VA G'ARB ADABIYOTINING TA'SIRI..... | 206 |
| Yusupova Dilnoza. O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SEMANTIK QARAMA-QARSHILIKLAR VA O'XSHASHLIKLAR..... | 210 |
| Xusanova Muslima. O'ZBEK, FORS VA INGLIZ TILLARIDA SIFAT DARAJALARINING TAQQOSLANISHI..... | 213 |
| UMUMIY TILSHUNOSLIK VA UZLUKSIZ TA'LIM MASALALARI..... | 217 |
| Faxriddinova Muslima. UMUMIY TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR..... | 218 |
| Zarina Zoirova. O'ZBEK TILIDAGI BA'ZI ETNOGRAFIK LEKSEMALAR XUSUSIDA..... | 221 |
| Ahmadaliyeva Feruza INKLYUZIV BOLALARGA CHET TILLARINI O'QITISH METODLARI..... | 226 |
| Maxmudova Oysha. YOZUVNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI FUNKSIONAL-MADANIY O'RNI: KO'KTURK YOZUVI MISOLIDA..... | 232 |
| Mubina Abdurahimova. SHOR TURKLARI MILLIY "QIZIL KITOB"DAGI ETNOS: SHOR TURKCHASI (TIL)GA NAZAR.... | 235 |

| | |
|--|------------|
| Bobojonova Hidoyat. ARAB TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI | 239 |
| Abdumalikova Robiya. ARAB TILINING JAHON ILM-FAN VA MADANIYATIGA TA‘SIRI: TARIXIY-ILMIY TAHLIL..... | 242 |
| Voxidova Zaynabbonu. TILLAR PAYDO BO‘LISHI NAZARIYALARI: TARIXIY VA ZAMONAVIY QARASHLAR..... | 247 |
| Umarova Muslima. TIL TARAQQIYOTINING O‘ZIGA XOSLIGI | 250 |
| Zokirova Maryam. TIL TARAQQIYOTI VA JAMIYAT TARAQQIYOTINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI | 252 |
| Nig‘monjonov Rahmatulloh. “BOBURNOMA”DA “VAJHI TASMIYA” MASALASI..... | 256 |